




29.000
M-13

R.A. MAVLONOVA, N.H. RAHMONQULOVA

BOSHLANG'ICH TA'LIMNING INTEGRATSIYALASHGAN PEDAGOGIKASI



34.200

M 13

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

R. A. MAVLONOVA, N.H. RAHMONQULOVA

BOSHLANG'ICH TA'LIMNING INTEGRATSIYALASHGAN PEDAGOGIKASI

O'quv qo'llanma

5/13-5

N 2515.174

APR 26 25

REGIONAL PEDAGOGIK
INSTITUT RESPUBLIKASI
100753
2010 02 1

74.200
M 13

O'quv qo'llanmada boshlang'ich ta'limni integratsiyalashtirishning vujudga kelishi, uning ilmiy va ijtimoiy jihatlari, integratsiyalashtirish ta'lim mundarijasi va yo'nalishlarining asosiy negizi, mohiyati ta'riflanadi. Ta'lim tizimida o'quv predmeti sifatida integratsiya kursining guruhlanishi fanning bir bo'lagini integratsiyalashtirishda ko'rsatiladi. Mazkur qo'llanma «Boshlang'ich ta'limni integratsiyalashtirish» kursi bo'yicha 1—2-kurs magistrantlari uchun mo'ljallangan.

Taqrizchilar: **A. ZIKIRYAYEV** — biologiya fanlari doktori, professor; **B. TO'XLIYEV** — filologiya fanlari doktori, professor; **N. HAMIDOVA** — pedagogika fanlari nomzodi.

SO‘ZBOSHI

Ta'limning interaktiv kursi ko'rgazmali ta'lim tizimi bo'lib, integrativ bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish asosida ko'rgazmali mahoratni vujudga keltirish sirlarini o'rganadi. Ko'rgazmali ta'lim tizimi turli xildagi turlar, shakllar, usullar, obyektlar asosida qurilgan.

Integratsion kursning maqsad va vazifalari maktab tabiiy-ilmiy ta'lim tizimida tavsiflanadi. Bilimning integratsiyalashgan (ko'rgazmali) tarmog'ida integratsiyalashning usul va vositalari: ta'lim rejasi-dagi o'qitish joyida vaqtning hajmiga qarab, shu kursni to'la o'zlashtirish vaqti o'quvchilarning o'zlashtirish darajasi — ko'p maqsadli va rang-barangligi hamda ko'p funksiyaga egaligi bilan tavsiflanadi.

Integratsiyalovchi ta'lim kursining yo'nalishlari:

- ko'p predmetlilik — bunda (ikki yoki undan ortiq) fundamental fadlarni qiyoslash;

- chegara fanlar asosida — yangi fanlarni vujudga keltirish, bu-ning asosida yangi tabiiy hamda ilmiy fanlar vujudga keladi;

- asosiy (o'zak) fanlar — zamonaviy bilimlarning hamma tarmoqlariga singib ketuvchi fanlar va umumiy ilmiy tushunchalar, qoidalar va nazariyalardir;

- kompleks obyektlarni o'rganish, bu — «koinot», «odam», «muhit» degan tushunchalarni birlashtirish;

- mahalliy (tabiiy-ilmiy bilimlar) va global (muhim) muam-molat — ilmiy, ekologik, polietnik, sanoat va mamlakatning ma-daniy rivojlanishi bilan millatning bugungi kundagi tutgan o'zni chambarchas bog'liq;

- faoliyat asosida — o'quv-tarbiya faoliyatining har xil ko'rinislari, ya'ni kitoblar, kuzatishlar, tajribalar, bilim, mahorat va ko'nikmalar;

- tabiat va jamiyatning rivojlanish qonunlariga bo'lgan shaxsiy munosabatni shakllantirish: ko'rgazmalar asosida integratsiya, di-daktik tizimda (o'qituvchi va o'quvchining faoliyati);

- ko'rgazmali yondashishga olib keluvchi metodlar va usullar — evristik suhbatlar (savol-javob uslubi), rejali boyitadigan suhbatlar, ekskursiyalar, ijodiy ishlar, mustaqil ishlar,antomimika, sahna ko'-rinishlari, namunali qiroat bilan o'qish, insho yozish, diktant, bayon yozish, matematik masalalarni yechish;

- tabiat va inson yagona tizimi va o'zaro aloqada faoliyat ko'rsatish hamda insonning yer kurasida yashab qolishi uchun ilmiy asoslangan foydalanishni tashkil qilishi zarurligi;

- ilmiy o'rganishni insonparvarlashtirish jarayoni ijtimoiy gumanitar, tabiiy-amaliy va texnik fanlar metodlarining o'zaro ta'siri, ilmiy faoliyatning gumanitar-shaxsiy metodlari sohalarida ifodalandi;

- ta'limni rivojlantirishning eng umumiy samarali yo'li zamonaviy fanni turlicha uslubiy yondashuvlarini qulay o'zlashtirish;

- «tabiat—inson» tizimidagi tabiiy-ilmiy va gumanitar fanlarni integratsiyalashuvi sifatidagi gumanizatsiyalashuvi;

- tabiatda mavjud obyektiv aloqalarni o'zlashtirish orqali o'quvchilar shaxsini shakllantirish;

- boshlang'ich sinflarda integratsion bilim malakalarini va ko'nikma hosil qilish;

- har bir o'quv predmetini o'qiyotgan paytda o'quvchilarga to'g'ri keladigan psixik qo'zg'alish hosil qilishi, bu materialni o'zlashtirilishiga katta yordam beradi, uni tez yodda saqlashga, emotsional anglashga, fikrlash qobiliyatining o'sishi, nutq va tasavvurning rivojlanishiga olib keladi.

Integratsiya negizida o'quvchilarda fikrlash qobiliyatining har xil turlarini shakllantirish, bu esa bilim (anglash) jarayoni bilan chambarchas bog'liqdir:

- tabiatda mavjud bo'lgan obyektlar orqali o'quvchilarning shaxsiyatini shakllantirish;

- «tabiat — inson» tizimida aniq bilimlarga ega bo'lishi uchun fikrlash qobiliyatini shakllantirish;

- materiallarni anglab yetish va didaktik adaptatsiyani shakllantirish uchun o'rganuvchi materialni bilimning har xil tarmoqlaridan olish;

- o'quvchilarda tizimlashgan fikrlash qobiliyatini shakllantirish uchun o'rganuvchi materialni bilimning har xil tarmoqlaridan olish uchun dunyoning zamonaviy ilmiy kontekstidan foydalanish;

- tabiatning obyektlari va ko'rinishlarini, jarayonlarini, qonunlarini, jamiyatning rivojlanish qonunlarini iqtisodiyot gumanitik va demokratik bilimlarini shakllantirish;

- bilim, ko'nikma, malaka tizimini ishlab chiqish;

- maktab ta'lim kurslaridagi integratsiyani ma'nosi, keng miqdordagi fikrlar va dalillar majmuasi, bir-biriga yaqin fanlarning birlashuvi;

- maktab o'quvchilarida har xil turdagi fikrlash qobiliyatini shakllantirish, buning uchun ruhiy mashqlardan foydalanish, mavzuni tez o'zlashtirilishiga yordam beradi, uni eslab qolish va emotsional anglash qobiliyatini shakllantiradi.

INTEGRATSIYA KURSI VA VAZIFASI

Integratsiya kursi — o'quv fanlaridan biri bo'lib, fanlararo bilimlar (integrativ bilimlar)ni chuqurlashtirish va oshirish, ularni shakllantirish uchun o'rganiladi. U har xil turlar, usullar, uslublar, fanlararo integratsiya obyektlari asosida tuzilgan.

Integratsiya kurslarining sinflarga bo'linishini turli asoslarda tahlil qilish mumkin:

- maqsad va muammolar asosida;
- maktab tabiiy-ilmiy tizimidagi vazifalari asosida;
- qo'shiluvchi fan tarmoqlari asosida;
- integratsiya usullari va yo'llari asosida;
- o'quv rejasidagi o'rni asosida;
- kursni o'rganishga sarflangan vaqt asosida;
- o'quvchilar uchun qiyinlik darajasi asosida va h.k.

Shuni e'tiborga olamizki, bu kurslarning mualliflari, odatda, o'z oldilariga bir necha maqsad va muammolarni yechish masalasini qo'yishadi, shu sababli kurslar ko'p maqsadli, turli vazifali bo'ladi.

Ko'p miqdordagi dasturlar va ularni tatbiq etishga urinishlarni ko'rib chiqib, biz bu kurslar qurilishining asosiy yo'nalishlarini ajratishimiz va ularni mohiyatiga qarab, sinflarga bo'lishimiz mumkin.

1. INTEGRATIV TA'LIMNING SINFLARGA BO'LINISHI

Ularni yana universal yoki bir necha asosiy tizim kurslarini almashtiruvchi umumiy, deb ham atash mumkin. Masalan, o'qish, tabiat, rasm darslarini bitta umumiy darsga birlashtirish.

Odatda, bunday kurslarning mualliflari tabiiy fanlar materiallarini birlashtirib, ularni bir ma'lum tizimga keltirishadi va o'z kurslarini integrativ yoki kompleks (umumiy), deb ataydilar. Ko'rinib turibdiki, boshlang'ich ta'lim tizimidagi tabiiy fanlar

materiallarini berishda to'g'ri ketma-ketlikka faqat darslar tuzilishini saqlab qolibgina erishish mumkin. Ba'zi e'tiborli olimlar ta'kidlaydilar, bu an'anaviy maktablarda ham tabiiy fanlarni ketma-ket o'rganish yo'li bilan ham hal qilinmoqda. Bir qator olimlar boshlang'ich ta'limga ham darslarga ajratib o'qitish an'analarini tarqalgan, deb hisoblashadi.

Tabiiy fanlarni o'qitishning tizim bo'yicha davom ettirishni bekor qilish va soddalashtirish uchun ko'pgina mualliflar gumanitar sinflar uchun umumlashtirilgan kurslar (darslar) taklif qilishadi. Bularga umumiy tushunchalar beruvchi, bolalarda tabiiy fanlarni o'rganishga qiziqish uyg'otish vazifasini bajaruvchi, tabiat haqida qiziqarli ko'rinishda hikoya qiluvchi boshlang'ich tabiiy fanlar kurslari (masalan, boshlang'ich sinflardagi «Tabiatshunoslik») kiradi.

Chegaradosh fanlar asosida tuzilgan kurslar

Keng integratsiya jarayoni oldingi ilmiy yo'nalishlarni bog'lovchi yangi tabiiy fanlar va ilmiy yo'nalishlar hosil bo'lishiga olib keldi.

Boshlang'ich sinflarda ekologik ta'limni kuzatib, o'qish, tabiatshunoslik, mehnat (tabiiy materiallar bilan ishlash), rasm fanlariga ekologik mavzular kiritilgani ko'rinadi. Bir-biriga yaqin chegaradosh fanlarning qatoriga molekular biologiya, biofizika, geofizika, biokimyo, astrofizika, astrokimyo kiradi. Bu fanlar asosida maktab integrativ tabiiy fanlari tuziladi.

Asosiy fanlar asosida tuzilgan kurslar

Zamonaviy bilimlarning har bir bo'limini qamrab oluvchi asosiy fanlar asosida tuziladi. Ular qatoriga pedagogika, pedagogik texnologiya, pedagogik psixologiya, inson yoshi psixologiyasi, fan rivojlanishi jarayonini o'rganuvchi pedagogik psixologiya, fanning insonning boshqa hayot jarayonlariga bog'liqligini o'rganuvchi — kibernetika-boshqarish, aloqa va informatsiyani qayta ishlash — informatsiyaning tuzilishi va xususiyatlarini, uning shaxs shakllanishidagi o'rnini o'rganuvchi informatika.

Inson hayotining turli jarayonlarida ilmiy yo'nalish bo'lgan tizimlarning aloqalarini o'rganuvchi sinergetikaning qo'llanilishi. Bu sinfdagi integrativ kurslarning mazmuni shu fanlar ma'nosi va strukturasi asosida tuziladi.

Umumiy ilmiy tushunchalar, qonuniyatlar, nazariyalar asosidagi kurslar

Bu asosda integrativ kurslar yaratish haqidagi fikrlar yaxshi natijalar berdi. Mualliflar orasida yuqori darajadagi umumiylikni bildiruvchi tushunchalar: «materiya», «harakat», «modda», «maydon», «energiya» va boshqalar ko'p ishlatiladi. Qonunlar orasida sermahsuli tabiatni saqlash qonuni, odamlarning mehnat faoliyati tufayli rivojlanishi, tabiatga tuyg'u bilan qarash bo'ldi.

Nazariyalar orasida integrativ kurs yaratish uchun asos bo'lib asosiy tabiiy-ilmiy nazariyalar xizmat qiladi. Shunisi e'tiborga loyiqlik, bu asosda integrativ kurslar yaratishga urinishlar ko'p bo'lgan bo'lsa ham, ular qovushmaganligi va ma'lum ketma-ketlikka, didaktik maqsadga ega emasligi bilan ajralib turadi.

Fan evolutsiyasi bilan bog'liq muammolarni, tabiatni ilmiy nuqtayi nazardan o'rganish uslublarini, olamning ilmiy ko'rinishini o'rganish asosidagi kurslar

Yuqoridagi barcha mavzular integrativ mazmunga ega va tatbiq etishga katta imkoniyatlari bor, afsuski, bunday kurslar maktab faoliyatida qo'llaniluvchi material va o'qitish uslubining murakkabligi tufayli hali keng tarqalgani yo'q.

Kompleks obyektlar asosida

Integrativ kurs yaratishga asos bo'lgan kompleks obyektlarga Yer, biosfera, odam va uning yashash muhiti misol bo'la oladi. Bu kurslarning bir xil mavzularida bir obyekt turli fan nuqtayi nazaridan ko'riladi.

Shu xildagi integratsiya o'tgan asrning yigirmanchi yillarida maorif tizimida qo'llanilgan. Keyinchalik u bekor qilingan, lekin bizning davrimizda, aytish mumkinki qaytadan tug'ildi. Bizning nazari-mizda, ma'lum hajmda u tabiiy fanlar ta'limiga yaxshi ta'sir ko'rsatadi.

Turli muammolar asosida

Integrativ kurslarni turli lokal (mahalliy) va global (umum-jahon) muammolar asosida tatbiq etishga urinishlar ko'p uch-raydi. Bunda tabiiy ilmiy bilimlarning muammolar asosida

birlashtirilishi qo'llaniladi. Bu sinfdagi integrativ kurslar (asosan, ekologiya bilan bog'liq kurslar) maktablar ish faoliyatida keng tarqalgan.

Muammolar bo'yicha tuzilgan integrativ kurslar rivojlanishiga global ta'limning rivojlanishi ham turtki bo'ldi. Bu yo'nalishning tarafdorlari zamonaviy shaxsning rivojlanishiga bugungi kunda mamlakatlarning va millatlarning ekonomika, fan, siyosat, ma'naviyatining uzviy bog'liqligidan kelib chiquvchi globallik omili kuchli ta'sir ko'rsatadi, degan tasdiqlashni asos qilib olishgan.

Faoliyat asosida

Tabiiy fanlar asosini o'rganishda o'quvchilar kitob bilan ishlash, kuzatishlar olib borish, tajribalar o'tkazish, olingan bilimlarni bir tizimga solish-turli o'quv-ta'lim ish faoliyati bilan to'qnashadi. O'quvchilarni faoliyatning bir turi bilan tanishtiruvchi bir butun kurs yaratish maqsadga muvofiqdek ko'rinadi. U o'qitish jarayonining har bir vaqtida foydali bo'lishi mumkin va kichik hajmda ham tabiiy fanlarni o'qitishda, o'quvchilarning ortiqcha kuch sarf qilishlari muammosini hal qilishda, mustaqil bilim olish ko'nikmalarini rivojlantirishda yordam beradi.

Bu sinfdagi integrativ kurslarni yaratish va ularni o'quv jarayoniga tatbiq qilish bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etadi. Tabiiy fanlarni o'zlashtirishni tekshirishlar natijalari shuni ko'rsatadiki, o'zbek o'quvchilari chet ellik tengdoshlarga nisbatan ko'p ma'lumot o'zlashtirishsa ham, uni tatbiq qilishda sezilarli darajada orqada qolishadi.

Ko'pchilik bunga sabab, asosiy ko'nikmalarning moslashtirilmaganida deb biladi. Balki, uzoq vaqt davomida an'anaviy maktabda integrativ darslarga e'tibor berilmaganidadir?

Bu yerda bugungi kungacha yaratilgan integrativ kurslarning asosiy sinflari sanab o'tildi. Lekin o'quv fanlarini integratsiyasi jarayonida qator kamchiliklar ham bo'lishi mumkin.

*Birinchi*dan. Aytib o'tilgan tabiiy integrativ kurslarni tuzish yo'llari ko'pincha bir-birini takrorlaydi va birga qo'llaniladi, bu bilan yangi asoslar yaratilib, ularni tartibga keltirish, ilmiy asos yaratish qiyinlashadi.

*Ikkinchi*dan. Integrativ kurslar fanlararo aloqaning o'rnini bosa olmaydi. Bizning fikrimizcha, ular bu aloqaning tashkil etuvchilaridan biri.

Uchinchidan. Tabiiy ilmiy ta'limning qulay tuzilishi shundayki, integrativ kurslar o'quv rejasining o'zgaruvchan qismiga kirib, uning regional tashkil etuvchisi hisoblanadi.

To'rtinchidan. To'liq o'quv-metodik qo'llanmalarining yo'qligi integrativ kurslarning o'quv jarayoniga tatbiq etilishida qiyinchiliklar tug'diradi. Ularning mualliflari dastur tuzib, umumiy metodik ko'rsatmalar tuzishgandan so'ng to'xtab qolishadi.

Beshinchidan. Integrativ kurslar uchun o'qituvchilarni rejali va maqsadga muvofiq tayyorlash tizimi hali takomillashgani yo'q.

2. FANNI O'QITISHDA INTEGRATSIYA ASOSIDAGI TA'LIM FALSAFASI

So'nggi o'n yilliklar ichida ta'lim falsafasi shunday ilmiy yo'nalishga aylandiki, u insonning ta'lim olish jarayonida yaxlit intellektual rivojlanishi borasidagi savolga javob taklif etmoqda. Ta'lim olayotgan yosh insonning rivojlanish sharoitidagi qarama-qarshilikni amaliyotdagi pedagoglar aniqlashgan.

Fan o'qitishdagi integratsiya bo'yicha ularning taklifi tashqi birkish xarakteriga ega, aslida esa fanlarni integratsiyalashni chuqur metodologiya asosida o'tkazish zarur.

Yangi rivojlanayotgan fan mazmunida turli falsafiy oqimlarda paydo bo'lgan g'oya va metodlar birlashuvi ehtimoli bor. Ta'lim falsafasi tomonidan nafaqat tabiiy moslashuv, balki kontinental moslashuv ham o'zlashtirilmoqda.

Olimlardan T. Kun va V.S. Stopin bu boradagi ishlari natijasida falsafa tabiat va madaniyat haqidagi fanlarni birlashtirdi. Shunday qilib, fizika modellariga zamonaviy inson ongi murojaat etuvchi ilg'or fanga aylandi. XX asr o'rtalarida ilg'or fanlar orasida kibernetika yuqori o'rin egalladi. Kibernetikada o'zlashtirilgan prinsiplar o'z qo'llanishini anorganik olamdagi hodisalarni tushuntirishda biologiya, texnikada topdi.

Noklassik fizikadagi N. Borning qo'shimchalilik prinsipi avval olimlar tomonidan umumiy tabiat qonuniyatlarini ifodalovchi falsafiy prinsip, deb aniqlangan edi. Bu esa kelgusida boshqa fanlar rivojlanishiga asos soldi. Qonuniyatlar majmuasi shakllanish vaqtiga kelib, fan ko'p qirrali bo'la boshlaydi, inson tasviri ko'proq gavydalanadi. Integratsiya jarayonini kuchaytirishga, insoniyat tajribasini tartiblashtiruvchi madaniyat toifalarini izlashga zaruriyat tug'iladi. Zamonaviy falsafa taqdim etgan integratsiyaning poy-

devor tarkibiy elementlariga dunyoqarash mukammalligi kiradi. Ular ma'noni anglash, tushunish va insonning dunyoni ko'rish usulini belgilaydi.

Yosh insonning ijtimoiylashuviga maorif tizimi yordamida ushbu madaniyat turiga kiritish unda dunyoqarash mukammal-liklarini o'zlashtirishga sharoit yaratilganda erishish mumkin. In-dividni madaniyatga kiritish, shaxsni shakllantirish uchun dunyo manzarasini to'liq o'zlashtirishni taqozo etadi. Mukammal-lıklar asosidagi matritsalar turli aniq faoliyat, bilim, ideal, shaklga asos bo'ladi.

Dunyoqarash mukammal-lıklar tizimi dunyoni umumiy ta'rif-lovchi toifalarni o'z ichiga oladi. Ular tabiat, ijtimoiy obyektlarga, jonli va jonsiz tabiatga, inson va uning jamiyatdagi hayotiga, ma'naviyatiga, ongiga kiradi. Universal toifalar universal qo'llanish imkoniga ega. Bu toifalar: kenglik, vaqt, harakat, miqdor, sifat, sabab, tasodif, shaxs, inson, jamiyat, men, boshqalar, ong, go'zallik, ishonch, adolat, erkinlik va h.k.

Bo'limlarga bo'lingan ta'lim mazmunidagi mukammal-lıklar uning barcha qonuniyatlarini qamrab olishi lozim. Mukammal-lıklarning integratsion ahamiyati madaniyatning barcha yo'nalishlarida namoyon bo'ladi. Ularning o'zlashtirilishi istalgan fanni o'rganishda o'zini ko'rsatadi. Ular yordamida madaniyat, ijtimoiy tajriba insondan insonga, bir avloddan ikkinchisiga o'tadi. Ma-daniyat mukammalligi ushbu modelda inson ongining tuzilishi elementi shaklida aks etadi.

Madaniyat mukammalligi mazmuni individ tomonidan uning ta'lim olish jarayonida, shaxsiy shakllanishida, tarbiyasida va jamiyatdagi hayotida o'zlashtirilishi lozim. Ular uning ichki in-tellektual salohiyati va tashqi olamdagi xatti-harakatining quri-lish materiali bo'lib xizmat qiladi. Ong dunyosi va amaliy dunyo bog'liqligi falsafaning rivojlanish darajasiga qarab, unda metaforik fikrlashida aks etadi.

Madaniyat mukammalligini falsafiy o'zlashtirish bosh shak-lidagi yo'li turli ijtimoiy-madaniy yo'lanishlarda namoyon bo'ladi. Ta'lim falsafasi dunyoni ma'naviy o'zlashtiradi. Adabiyot, madaniyat faoliyat yo'nalishlari kabi ma'naviy ishlab chiqarish va mukammal-lıklarini aniqlab berishdek murakkab jarayonlar amalga oshirildi. Farq shundaki, ta'lim falsafasida bu hodisa pro-fessional darajada, metodologik jihozlangan tartibda ro'y beradi. Kundalik fikrlash, ma'naviy anglash falsafiy madaniyat mu-

kamalliklarining birlamchi shaklida paydo qiladi. Tahliliy ishlar mobaynida universal toifalar mazmuni murakkablashadi. Bu asosida yetarli murakkab va o'ziga xos falsafiy g'oya komplekslari rivojlanadi.

Falsafa maydonida bo'la turib, toifalar anglash dunyosi obyektiga aylanadi. Madaniyat mukammalligi falsafiy tahlil doirasida fikriy tajribalar o'tkazish mumkin bo'lgan o'ziga xos ideal obyektiga aylanadi.

Tabiat, jamiyat, inson o'zining real dunyosi ma'naviy tahlili uchun ideal obyektlar bilan ishlash zaruriyati shunga olib keladiki, bu obyekt fikrlash metodlariga bog'liq bo'ladi. Mukammallik anglash jarayonida moddiy ta'sirlanishga uchraydi. Natijada paydo bo'lgan toifa turi faqatgina ta'siri universal toifalarni aniqlashga olib kelgan haqiqatnigina aks etmay, balki fikrlashning ideal yo'nalishini ko'rsatadi.

Hozirgi vaqtda pedagogik amaliyotda fanlararo bog'lanish asosida ta'lim jarayoni integratsiya yo'llarida izlanishlar davom etmoqda. Olib borilayotgan ishning foydaliligini tan olgan holda uning xarakterini belgilab o'tamiz. Bunday tarbiyaviy ish katta samaraga ega. Mazmun va ta'lim maqsadi integratsiyasi bo'yicha masala faqat ta'lim falsafasi asosida yechish mumkin. Metodologik apparat asosidagi ta'lim falsafasi boshida fanning ideal shakllari, universal toifalari turishi kerak.

Integratsiya rusum ham, navbatdagi kompaniya ham emas. U shunday an'analar aksiki, ular bugun inson faoliyatining barcha sohalarini ta'riflab beradi. Bu faoliyat kengliklari o'zgardi, davrning dolzarb muammolari tug'ildi. Ular tabiat va inson yagona tizim va bog'liqlikda mavjudligini yodga solib, inson yashashi uchun ilmiy asoslangan foydalanishning tashkilini talab qiladilar.

Zamonaviy tabiatshunoslik va texnikaning insonparvarligini, odamzod faoliyatining barcha turlarini o'z ichiga olgan bu fanlar metodologiyasidagi o'zgarishlar bilan bog'lash kerak.

Fanni anglash jarayonida ijtimoiy insonparvarlik, tabiiy-ilmiy, texnik bilim metodologiyalari o'zaro bog'lanishda ko'rinadi. Aynan integratsiya asosida tabiiy fanlar bioolam ko'rsatmalaridagi, inson faoliyatini o'rganishdagi, davrning dolzarb muammolarini yechishda ko'rinadi.

Xullas, bu tafovut munosabatlar o'zgarishida va barcha maktab talablarining umummadaniy bilimlarida namoyon bo'ladi. Integratsiya tabiiy-ilmiy ta'lim mazmuni insonparvarlashuvining

asosiy mexanizmi bo'lib chiqadi. Hozirgi kunda tabiiy-ilmiiy ta'lim ahamiyatini baholab xulosalash mumkinki, u tabiiy-ilmiiy haqqoniylik va insonparvar ideallar birga bo'lishiga da'vat etadi. Integratsion yondashuv qo'llanishi tabiatshunoslik va tevarak-atrof bilan tanishuv kursida ko'rsatilgan.

Ilg'or g'oya, prinsip va vazifalar

Bu kursning konsepsiyasi ishlanmasida bizning zamonda tabiat-inson tizimida o'quvchilar tushunchasi asoslangan bo'lishi kerak. Ma'naviy ekologik tushuncha bo'lmog'i lozim, faqatgina tabiatga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish inson kelajagi xavfsizligini ta'minlashini tushuntirmoq lozim. Bunday yondashuvning ilg'or g'oyalariga birdamlik, maqsadga yo'naltirilganlik, inson va tabiat uzviyligi, inson-tabiat tizimining samoviy belgilanganligini anglash kiradi.

Prinsiplar — bu *birinchidan*, gumanitarlash, u tabiiy-ilmiiy va gumanitar bilimlarni «tabiat — inson» tizimida integrallash, *ikkinchidan*, tabiatdagi mavjud aloqalarni o'quvchilar anglashi orqali shaxsning shakllanishi, *uchinchidan*, tabiat haqidagi aniq bilimlarga tegishli o'quvchilar fikrlash yo'nalishi usuli shakllanish ustuvorligi, *to'rtinchidan*, kelgusi didaktik moslashuv ilmiy izlanishga mos kelgan turli sohalardan materialni tanlashdir.

Vazifalarga quyidagilar kiradi: o'quvchilarda tizimli fikrlashning oriyentir asosini shakllantirish tabiat birlamchiligi haqidagi qonunlar, hodisalarga oid bilimlarni shakllantirish, tabiatshunoslik qonuniyatlari, kuzatish qobiliyatlarini shakllantirish, bilimlar tizimini ishlab chiqish, aqliy mustaqillik muammolarini bilish va ularning yechish yo'llarini topish qobiliyatini rivojlantirish. Vazifalarga, shuningdek, tabiatni estetik qabul qilish, insonparvar ma'naviy ideallarga ekologik fikrlash va tabiatni asrash munosabatini asos qilish kiradi.

Didaktik aspektidagi bunday yondashuvning asosiy farqlari quyidagilar: chiziqli kurslar fan o'rganishdagi mantiq tushunchalardan voz kechish; deduksiyani vaqtdan oldin ishlatish, tushunchalar shakllanishining klassik tizimidan integratsion umumlashtirishning umumiy tushunchalarni ishlatish darajasiga o'tish; tarixiy yondashuv bilimlarini minimallashtirish tabiat obyektlarini o'rganishda aniq dalillarni o'zlashtirishga emas, u bilan bog'liqligini anglash.

Kuzatish va xulosalar

Pedagogik izlanishlar shuni ko'rsatadiki, integratsion asosda fanlarni o'rgangan o'quvchilar predmetli o'rgatishning chiziqli kurslarini qisqa muddatda o'zlashtirishmoqda. Tez o'qitish maqsad qilib olinmaganiga qaramasdan, undagi tabiat, mehnat, rasm, o'qish sohasidagi elementlar bu fanlarni tez o'rganishda umidli asos bo'lib xizmat qilyapti.

Pozitiv natijalar deb, dunyo haqidagi ilmiy tasavvurlarning zamonaviy darajasiga to'g'ri baho berish; o'quvchi oldida olamning ko'p o'lehovli dunyo manzarasining dinamikada, turli bog'lanishlarda yaratish, aylantirish; ko'rish gorizontlarini kengaytirish, o'zi uchun dunyoni qaytadan kashf etish, o'quvchi bilan muloqotdagi yangi metodik shakllarni izlash; turli mutaxassislar faoliyatlari muammolarini hal etishda birlashtirish, o'quv faoliyatida toliqishning oldini olish, yangi sifatli pedagogik natija olish, ta'limning yangi falsafasi bo'lishi, pedagogik jarayonining integrativ borlig'ini aks etishga aytiladi.

Integratsiyaga qarshi, fikrlar muammo tug'ilishi xavfini yaratishi mumkin. Ayrim olimlar integratsiyani mexanik birikishga xavf tug'diradi, deb hisoblashmoqda. Ta'lim muassasalari rahbarlari ko'pincha integratsion kursning maqsad va vazifalarini aniqlashda kerakli o'quv dasturini tanlashda, o'qituvchilar malakasini oshirishda qiyinchiliklarga duch kelishmoqda. Shunday qilib, integratsiya ta'lim rivojlanishga zamin yaratgan holda har bir maktabda dolzarb muammo ham bo'lib kelmoqda. Bu integrativ yondashuv mohiyatini tushunmaslikdan kelib chiqyapti. Ta'lim tizim tashkilotchilari zimmasiga bu masalani to'g'ri yechishda katta mas'uliyat tushayotir. Ta'lim mazmunining insoniylashtirishda asosiy mexanizm deb, integratsiyani anglash qadriyatni, ya'ni zamonaviy maktabning rivojlanishida ilg'or an'analar ahamiyatini aniqlashga imkon beradi.

3. TA'LIM JARAYONINI INTEGRATSIYALASHNING NAZARIY ASOSLARI

Didaktik olimlarning tekshiruvlarida uslubning amaliy faoliyat bilan bo'lgani genetik tabiati ajratib ko'rsatiladi. N.N. Skatkin, I.Y. Lerner, Y.K. Aleksyuk, Y.K. Babanskiyning kuzatishlarida ta'lim uslublariga taalluqli ikkilamchi tur belgilarining ta'rifi beriladi. Ular uslub — ifoda, mazmun va ta'lim usuli ekanligini isbotlab berishgan.

Gegel falsafadagi uslubni mazmun harakatining shakli sifatida ko'rsatadi. Ta'lim jarayonida turli xil mantiqiy tizimlar orqali o'qituvchi va u bilan birgalikda o'quvchilar o'z bilim, qobiliyat va ko'nikmalarini deduksiya, induksiya, sintez, umumlashtirish, aniqlashtirish, taqqoslash shaklida ifodalashadi.

Barcha mantiqiy jarayonlar uslubning mazmun bilan uzviy bog'langan ichki tomonini tashkil qiladi. Boshlang'ich sinflarda o'quv jarayoni foydalanilayotgan usul, uslub va shakllarining turli tumanligi bilan ajralib turadi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan yangi o'quv rejaları va dasturlariga o'tish davrida jamiyat va atrof-muhit o'rtasidagi aloqalarni uyg'unlashtirish, atrof-muhitga jiddiy munosabatni o'rnatish va shakllanish masalalari muhim ahamiyat kasb etadi.

Atrof-muhitga jiddiy munosabatlar poydevori boshlang'ich sinflarda o'rgatiladi. Shuning uchun iqtisodiy ta'limning natijasi maktab ta'limning birinchi bosqichiga bog'liq. Yangi psixologik-pedagogik tadqiqotlar kichik yoshdagi maktab o'quvchilarining bilish faoliyatlari cheklanganligi haqida ilgarigi tushunchalarni ko'rib chiqishga imkon beradi. Bu boshlang'ich iqtisodiy ta'limning barcha tarkibiy qismlarini o'zgartirish va yangilashga asos yaratadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlariga javob beradigan va dars talablariga mos keladigan maqsadni aniqlash bunday yangilanishning asosiy masalasidir.

XIX—XX asrlar oralig'ida pedagogikada kichik maktab o'quvchilarining tabiiy muhit bilan tanishtirishning integratsiyalashgan kursini yaratish fikri paydo bo'lgan. Bu fikr A.Y. Gerd, D.N. Kaygorodov, A.P. Pavlov nomlari bilan bog'liq bo'lib, ular boshlang'ich maktabga atrof-dagi jonli va jonsiz dunyo haqidagi bo'linmagan kursni kirgizishni talab qilishdi.

Integratsiyalashgan ta'lim-tarbiya, fanlararo aloqalarning ayrim jihatlari mashhur pedagoglarning (Y. Komenskiy, D. Lokk, I. Gerbart, M. Pestalossi, K. Ushinskiy va boshq.), didaktiklarning (I.D. Zverev, M.A. Danilov, V.N. Maksimova, S.P. Baranova, M.N. Skatkin va boshq.), psixolog olimlarning (E.N. Kabanova-Meller, N.F. Talizina, Y.A. Samarina, G.I. Vergeles), medist olimlarning (M.R. Lvov, V.G. Goreskiy, N.N. Svetlovskaya, Y.M. Kolagin, G.N. Pristupova) ishlarida ko'rib chiqilgan.

Bir qator ishlar boshlang'ich ta'limdagi fanlararo va fanlar ichidagi aloqalarga bag'ishlangan. Bu muammolar o'quv fanlarini integratsiyalashga o'tishning yaqin rivojlanish zonasidir.

(T. G. Raizayeva, G. N. Akvileva, D. I. Troytap, G. V. Baltukova, N. Y. Velenkin, N. M. Drujnina, T. S. Nazarova, I. K. Blinova, R. G. Matushova.)

Boshlang'ich maktab fanlarining integratsion aloqalari kam ishlab chiqilgan bo'lib, qarama-qarshi ifodalangan. Bu aloqalarning mohiyati haqida olimlar orasida qarama-qarshiliklar ko'p.

Integratsiya atama va uslubiy nuqtayi nazardan hodisa sifatida nima ekanligini ko'rib chiqaylik.

Integratsiya lotincha *integratio* — tiklash, to'ldirish, *integer* — butun so'zidan kelib chiqqan. Bu borada ikki tushunchaga egamiz:

1. Tizim, organizmning alohida tabaqalashtirilgan qism va vazifalarning bog'liqlik holatini bildiruvchi tushuncha va shu holatga olib boruvchi jarayon.

2. Tabaqalashtirish jarayonlari bilan birga amalga oshirilayotgan fanlarni yaqinlashtirish jarayoni.

Differensiatsiya fransuzcha *diffe'rentiofion*, lotincha *differentia* — farq, har xillik, ya'ni butunni bo'laklarga bo'lish, ajratish. Ta'lim mazmunini integratsiyalash — dunyo an'anasi (g'oya, fikr, intilish). Integrativ yondashish turli darajadagi tizimli aloqalarning obyektiv yaxlitligini aks ettiradi (tabiat—jamiyat—inson). Integratsiya ilgari bo'lingan qismlarni bir butunga birlashtirish bilan bog'liq. U tizim elementlarining yaxlitlik va uyushqoqlik darajasini oshirishga olib keladi.

Integratsiyalash mobaynida bir-biriga bog'liqlik hajmi oshadi va tartibga tushadi, shu tizim qismlarning ishlashi va o'rganish obyektining yaxlitligi tartibga solinadi. Bu umumiy qoidalarni qanday qilib maktab ta'limida qo'llash mumkin? Zamonaviy didaktik va metodikada ta'kidlanishicha, o'quvchilarni o'qitish, rivojlanishi va tarbiyasining muvaffaqiyatlari ularda dunyo birligi haqida tushunchaning shakllanganligi, o'z faoliyatlarini umumiy tabiat qonunlari asosida yo'lga solish zaruriyatini tushunishlari, tabiatshunoslik kursida fanlararo va fanlar ichidagi aloqalarni yecha olishlari bilan bog'liq. Ta'limdagi integratsiya o'quv fanlari mazmunini konstruksiyalashga tizimli yondashish orqali ko'rib chiqiladi.

Integratsiyaning turli darajalari ajratiladi: boshlang'ich, tabiat haqidagi elementlar bilimlarni birlashtirish; *oral* — fanlar bo'limlarini bo'lish integratsiyasi; *yakuniy* — tabiatshunoslikni o'rganish bilan bog'liq bo'lgan ta'limning oxirgi bosqichi integratsiyasi. Shu bilan birga, tabiiy-ilmii ta'limini to'liqroq va kengroq integratsiyalash imkoniyati ham inkor etilmaydi.

Maktab ta'limini integratsiyalash jarayonining psixologik asosi sifatida olim Y.A. Samarinning assotsiativ tafakkur to'g'risidaga fikrlari olinishi mumkin. Bu fikrlarning mazmuni shundaki, har qanday bilim bu o'xshatish, bilimlar tizimi esa o'xshatishlar tizimidir. Y.A. Samarini o'xshatishlarning quyidagi turlarini ajratadi:

- lokal (mahalliy, ma'lum bir joy, narsa bilan chegaralangan);
- biror tizimga tegishli bo'lgan;
- tizim ichidagi;
- tizimlar orasidagi;
- aqliy faoliyat darajalarini o'xshatishlarining mos keladigan darajasiga birlashtirish xususiyatiga qarab tasniflaydi.

Tabiat yoki predmet haqidagi eng oddiy bilimlarni hosil qiluvchi bog'liqlikning eng soddasi ma'lum bir joy yoki tushuncha bilan chegaralangan lokal tasavvurdir. Bu bog'liqlik boshqa bilimlardan nisbatan ajralgan, shuning uchun eng oddiy aqliy faoliyatni ta'minlaydi. Bu kichik maktab yoshiga xos. Biron bir tizimga tegishli bo'lgan tasavvurlar eng sodda tizimli tasavvurlardir. Ular biron bir mavzu, predmet yoki hodisani o'rganishi asosida hosil bo'ladi. Biron bir predmetni bilish yangi dalil va tushunchalarning tanlanishi ularni bir bilimlar bilan taqqoslanishi orqali amalga oshiriladi. Bilimlarning eng oddiy umumlashtirilishi sodir bo'ladi, lekin olingan bilim hamma unga yaqin bo'lgan bilimlar bilan bog'lansa ayni muddao bo'lar edi.

Bunda o'quvchilarning tahlil qilish va umumlashtirish faoliyatlari vujudga keladi. Tizim ichidagi tasavvurlar o'quvchilarning butun bir fanlar tizimining bilishini ta'minlaydi (fizikaviy, kimyoviy, biologik, bilimlar tizimi), o'rganilayotgan fan doirasida bilimlardan keng foydalanish kuzatiladi. Tizim ichidagi tasavvurlar, vaqt, muhit, son bog'lanishlarni aks ettiradi. Predmetlararo tasavvurlar aqliy faoliyatning eng yuqori pog'onasi hisoblanadi. Ular bilimlarning turli tizimlarini birlashtiradi, hodisa yoki jarayonning xilmaxilligini bilishiga imkoniyat beradi. Shu bilimlar asosida umumiy tushunchalar kelib chiqadi. Tizimlararo tasavvurlarning shakllanishi, ularni bilimlardan foydalanishga, ularni bir-biriga bo'ysundirishga, bilimlar chegarasidagi bo'shliqlikni aniqlashga imkon beradi.

Bayon qilingan psixologik dalillar boshlang'ich, to'liqsiz o'rta va o'rta maktab ta'limini integratsiyalashning asosiy xususiyatlarini aniqlash mumkin. S.P. Baranov, L.R. Bolotin, V.A. Slaste-

ning «Pedagogika» kitobida darslarda qo'llaniladigan fanlarni bog'lanish ko'rsatiladi, lekin integratsiyalashgan ta'lim muammolari aks etmagan.

«Boshlang'ich ta'lim» jurnallarida maktab ta'limini integratsiyalash muammosiga katta ahamiyat beriladi. L. N. Baxareva o'zining «Boshlang'ich maktab o'quv mashg'ulotlarini o'lkashunoslik asosida integratsiyalash» maqolasida «Integratsiya — differentsiya jarayonlari bilan birgalikda amalga oshirayotgan fanlarni yaqinlashtirish va bog'lash jarayoni bo'lib, yangi, butun, yaxlit bilimlar yaratishga yordam beruvchi, fanlararo aloqalarni amalga oshiruvchi yuqori ko'rinishdir», deb ta'kidlaydi.

O'quv predmetlari orasida integratsiya predmetlar tizimini inkor etmaydi va integratsiya tizimini takomillashtirish, kamchiliklarini bartaraf etish yo'li bo'lib, predmetlar orasidagi aloqalar va bog'liqliklarni chuqurlashtirishga qaratilgan bunday yondashuv — differentsiya va integratsiya orasidagi munosabatlarni tushunishga tayanadi.

Pedagogikaning maqsadi bir xil maqsad vazifalarga ega bo'lgan turli fanlarning element va qismlarini bir butunga birlashtirishga yo'naltirilgan integratsiyani amalga oshirishda o'qituvchilarga yordam berishdir. Ko'p yillik kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich sinf o'qituvchilari, keyinchalik esa bitiruvchilar u yoki bu fanlarni o'rganib, shu bilim, ko'nikmalarni boshqa fanlarni o'rganishda qo'llashga qiynalib, ularga mustaqil fikrlash, olingan bilimlarga o'xshash yoki yangi vaziyatlarga ko'chira bilish ko'nikmalari yetishmaypti.

Bularning hammasi boshlang'ich sinflardagi turli fanlar bo'yicha mashg'ulotlarning o'zaro kelishmovchiligi tufayli sodir bo'lmoqda. Bu holatda integratsiya bir predmet bo'yicha bilimlarni ikkinchisiga ko'chirish va faoliyatning almashinishi emas, balki zamonaviy fanlar integratsiyasi yo'nalishlarini aks ettiruvchi yangi didaktik ekvivalent (mos bo'lgan, o'xshash, keng keladigan narsa)larni yaratish jarayonidir. Psixolog E.N. Kabanova-Millerning fikricha, «O'qituvchiga hali uchramagan vazifa asosida bilim ko'nikma va qobiliyatlarni mustaqil ko'chirilishi aqliy rivojlanishning muhim ko'rsatkichidir». U o'zining «Boshlang'ich sinflarda ta'limni integratsiyalash tajribasi» ishida maktab ta'limini integratsiyalashning muhimligiga e'tiborini qaratib, L.P. Elkanin integratsiya darsini samarali qilish yostasi, predmetlar aloqalarini yangi pog'onalarga ko'tarish shakli, deb hisoblaydi.

2010.02.1

Integratsiya — o'qituvchilarning turli fanlar bo'yicha kuza-tishlari va xulosalarini tasdiqlab yoki chuqurlashtirib beruvchi yangi dalillarni topib berish manbayidir. Ular faoliyatning turli shakllarini almashib turishi orqali o'quvchilar charchashi va asa-biylashishini oldini oladi.

4. INTEGRATSIYANING HOZIRGI ZAMON MUAMMOLARI

Boshlang'ich maktab ta'lim-tarbiyasini integratsiyalash muammosi nazariya uchun ham, amaliyot uchun ham muhim va dolzarbdir. Boshlang'ich ta'limni integratsiyalash masalasiga keyingi paytda bir qancha yondashishlar bo'ldi: darsni ikki fan o'qituvchisi olib borishi yoki ikki fanni bir darsga birlashtirib, uni bir o'qituvchi tomonidan o'tilishidan to integratsiyalangan kurslar tashkil etish, boshlang'ich ta'lim mazmunini tubdan o'z-gartirishgacha. Bunga maktab ham, didaktika va metodika ham tayyor emas.

Hozirgi kunda asosini tabiatshunoslik bo'yicha bilimlar tash-kil etuvchi integratsiyalangan kurs yaratish muammosi dolzarb bo'lib turibdi. Bular boshqa turdagi bilimlarni jipslashtiruvchi asosiy vazifani o'z zimmasiga oladi. Bunday yondashish ancha-dan beri ma'lum va chet el maktablari tajribasida hal etilgan. Bunda so'z faqat sinflarda emas, balki umumiy ta'limning o'rta va tugallovchi bo'g'inlarida ham bir qator fanlarning mazmunini integratsiyalash ustida bormoqda. Bu integratsiyalangan fanga tabiat va jamiyatning birligini tushunish uchun zarur bo'lgan bir qator ijtimoiy-iqtisodiy, axloqiy-estetik g'oya va tushunchalarni kiritish ko'zda tutilgan.

Keyingi paytda maktab ta'limini integratsiyalash to'g'risida ko'p so'z yuritilmoqda. Olimlar va amaliyotchi o'qituvchilar bolalarda qanday qilib dunyo to'g'risida yaxlit tushuncha hosil qi-lish va turli fanlar bo'yicha bilimlarni yaqinlashtirish uchun bir butun dasturni tuzish to'g'risida bosh qotirishyapti. Bir-biriga yaqin bo'lgan fanlarni birlashtiruvchi kurslar tashkil etish ha-rakatlari bo'lmoqda. Masalan, matematika va konstruksiyalash, tasviriy san'at va badiiy mehnat. Bu kurslarning samaradorligi to'g'risida xorijlik pedagoglarning ko'p yillik ishlari natijalari bo'yicha baholash mumkin. Zero, integratsiyalangan kurslar chet el maktablari uchun odatiy holga aylangan.

Chet el tajribasi bilan tanishish shuni ko'rsatdiki, tabiat va jamiyat haqidagi bilimlarni rivojlantirish uchun asos bo'luvchi integratsiyalangan fanlar ko'pgina mamlakatlarning o'quv dasturlariga kiritilgan. Bu ekologik yo'nalishiga ega bo'lgan integratsiyalangan fanlar jahon hamjamiyatida o'quvchilarda atrof-muhitga javobgarlikni shakllantirishning asosiy vositasi ekanligi to'g'risida xabar beradi.

Hozirgi kunda integratsiyaning bir necha usullari qo'llaniladi. Birinchisi, bir nechta fanlarni bir fanga birlashtirish. Shu masaladagi 1988-yilda chop etilgan xalqaro pedagogik tajriba yakunlariga bag'ishlangan tadqiqot foydali manba ko'pgina xorijiy mamlakatlar boshlang'ich maktablarining o'ziga xos xususiyati integratsiyalangan kurslar bo'yicha ta'lim bo'lib qoldi. Kursning maqsadi bolani dunyo bilan suhbatga tortish, inson tabiat, jamiyat, fan, san'at bilan suhbatlashishga faqat odamlar suhbatlashadigan til bilangina emas, hayvonlar, o'simliklar tili bilan, rassomlar, musiqachilar, olimlar foydalanadigan til bilan tanishtirishdir.

Kichik maktab o'quvchisiga fikr doirasi keng bo'lgan muloqot san'atining boshlang'ich savodini egallashda yordam berish muhimdir. Bu savod o'zida odamlar bilan muloqotdan tortib (tengdoshlar, katta yoshdagilar, kichik yoshdagilar) o'z-o'zi bilan muloqotdan to' atrof-muhitdagi hodisalar bilan muloqotni qamrab oldi.

Kursning maqsadidan yana biri — o'zi ishlayotgan olam haqida narsa va hodisalar orasidagi bog'liqlik, o'zaro yordam, moddiy va madaniyatning turli-tumanligi xususida keng va eng asosiysi, insonning ichki (ma'naviy) va ijtimoiy dunyosi, olamda hukm suruvchi qonunlar (tabiiy, ilmiy, tarixiy, axloqiy) haqida tushuncha berish. Asosiy urg'u faqat ma'lum bilimlarni egallashga emas, balki tasvirli fikrlashni rivojlantirishga beriladi. Olamning umumiy ko'rinishi tovushlar, tasvirlar, ranglar orqali tanishtiriladi, bola esa ham dunyoni, ham o'zini o'rganuvchi, tekshiruvchi o'rniga qo'yadi. Bunda kurs ta'limiy kichik maktab o'quvchilarining parallel ravishda asosiy fanlarni o'rganishlari hamda o'rta maktab ta'limida qulay sharoitlar yaratishga xizmat qiladi.

Kursning tuzilishi qanday? Kursning integrativligi uning tuzilishiga xos xususiyatlarni belgilab beradi. Yil uchun umumiy bo'lgan bir mavzu, har chorakning asosiy mavzusida o'z rivojini topadi. Shunday qilib, kurs asosiga qo'yilgan g'oyalar (fikrlar)ning gorizontal harakati amalga oshiriladi. Xuddi shu yo'l bilan vertikal harakat ham amalga oshiriladi (sinf dan sinfga), bunda bir mavzu bolaning o'sishiga qarab, murakkablashib boradi.

Integrativlik insonning olam bilan o'zaro aloqalarida aks etuvchi mavzularga kiritilgan: bola idrokida noma'lum bo'lgan uzoq olam bilan (kosmos, yulduzlar, yer kurasi, katta bo'shliqlar va vaqt qadri). Yaqin olam (mikroolam, uy oldidagi hayvonlar va o'simlik dunyosi, ona-Vatan tabiati va boshqa mamlakatlar tabiati). Insonlar olami bilan (turli mamlakatlar va madaniyatlar, sivilizatsiya markazlari, insonning inson va jamiyat bilan munosabatlari, insonning ichki dunyosi); madaniy dunyosi bilan (xalq ijodi, rassom va olimlar ijodi, ma'naviy qadriyatlarni saqlovchi odamlarning ishlari).

Shu olamlar ichra sayohatning mavjudlik qonuniyatlari, til-larning o'ziga xos xususiyatlarini ochish — kurs tizimining asosiy mantiqidir. Kurs oddiylikdan murakkablikka, bilishdan ilmga, tartibsizlikdan uyg'unlikka, chaqqonlikdan mohirlikka va ijodga bo'lgan harakatni taklif qiladi. Bola dunyo yaralishining «g'isht-chalari» bilan tanishadi, olamning boshlanishga, insonning yerda paydo bo'lishiga murojaat qiladi. So'zlar, sonlar siri, yashil barg, qadimiy afsonalar jumboqlarini ochish yuzasidan fikrlaydi, o'quvchi makon va zamon bo'ylab sayohatga otlanadi. Shunday qilib, bola har kuni ochishi kerak bo'lgan olamning go'zalligi va turli-tumanligini his qiladi.

Murakkab dunyoqarashlar ilmiy, badiiy g'oyalar bola tushunishi uchun qulay, tasvirli mavzularda o'z aksini topgan, ular yil mundarijasini tuzishga imkon beradi. Bir tartibga solingan tizim shu kursning o'ziga xos xususiyatidir. Bunday o'yinlarga yondashish 6—10 yoshdan boshlanadi. Bu hol ularni turli o'yin orqali murakkab bilim orttirish, badiiy, axloqiy masalalarni hal qilishga yordam beradi.

Yil va chorak mundarijasiga turli ertak qahramonlari («Zumrad va Qimmat», «To'g'ri va egri», «Bo'ri bilan tulki», «Tulki bilan turna», «Kichik shahzoda», «Karlson», «Dyumovochka» va boshq.)ni kiritilishi ham shu maqsadga xizmat qiladi. Ular mavzudan mavzuga yetaklab, yangi narsalarni bilib olishga yordam beradi.

Kursda shaxsga moslangan yo'nalishga ega faqatgina sinf yoki guruhga emas, har bir bolaga ahamiyat beriladigan qilib ishni tashkil etish nazarda tutiladi. Bunda uning shaxsiy fazilatlarini, qobiliyatlari alohida ko'rsatiladi, qiziqishlari hisobga olinadi. Shu maqsadda «O'z yulduzingni yoq», «Guldastada sening guling», «Sen sevgan kitob» kabi o'yinlardan foydalanish mumkin. O'yin davomida diqqat-e'tibor birgina bolaga qaratiladi (masalan, tug'ilgan

luni munosabati bilan osmonda yangi yoritilgan yulduz uning nomi bilan ataladi yoki katta guldasta bayram egasiga yoqadigan guli bilan bo'lydi). Sevimli kitob esa sinf kutubxonasini to'ldirish bilan birga egasining imzosiga ega bo'ladi.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning qiziqish va qobiliyatlariga moslashish ularning badiiy faolligini rivojlantirishni taqozo qiladi. Bilim olish, badiiy-hayotiy masalalarni hal qilish o'ziga xoslikni, uddaburonlikni, epchillikni rag'batlantirish narsada tuiyapti. Shu munosabat bilan bolalarning she'r va hikoyalarni yozish, yangi raqs o'ylab topish, shirin taom pishirish, biron esboby yaratish, o'simliklardan shakllar yaratish kabi mustaqil ijodiyatning turli yo'llari bilan rag'batlantirib borish taqozo etiladi.

Emotsional tomonlarni rivojlantirishga katta ahamiyat beriladi. Mashg'ulotlar bolalarda ko'rish va eshitish, materiallar sifatini (fakturasini) ushlab ko'rib, ajrata bilish qobiliyati, sezish tuyg'ularini (hid va ta'mni ajrata olish) rivojlantirishga yordam beradi. «Ovchilar», «Hayvonlar», «Izquvarlar»ni o'ynash bolalarga faqat umumiy bilimlarga ega bo'lish, masalalarni mantiqan hal eta bilishgina emas, insonga berilgan barcha his-tuyg'ular ham muhim ekanligini ko'rsatib beradi. Ularni rivojlantirish o'ta nozik tuyg'ularning shakllanish yo'lidir. Bunga yorqin tasvirlarga, san'at asarlari, tabiat bilan zavqlanishga murojaat qilish orqali erishish mumkin.

Bolalarda salbiy, xunuk, yomon narsalarga ham emotsional munosabatni rivojlantirish lozim. Bunga ertaklar o'qish, turli sahna ko'rinishlari qo'yish yordam beradi. Bolaning his-tuyg'ulari uning jamoniy rivojlanishi bilan bog'liq harakat qilishga, o'z holatini badan harakatlari, imo-ishoralarni, raqs orqali ko'rsatib berishga imkon beruvchi mashqlarni kiritish lozim.

Kursni tashkil qilish va ish shakllari haftasiga ikki soatga mo'ljallangan. Hafta oxirida ikki soatlik dars o'qish maqsadga muvofiq. Bunda bolalar, bir tomondan, asosiy darslardan ancha dam olishadi, ikkinchi tomondan, keyingi hafta darslariga tayyorlanishadi. Bunday ikki soatlik darsni «Ijod soati», «Xayol (orzu) darsi» deb nomlash mumkin.

Dars o'tishdagi asosiy shart — sinfda zarur, mos muhitni yaratish: polga gilam solish, partalar o'rniga qulay bo'lgan stol va stullar o'rnini almashtirish. Mashg'ulot jarayonida bolalar o'z yashash muhitlarini yaratishadi. Yil va chorak mavzusida «Devordagi suratlar», «Hayvonot va o'simliklar dunyosi» paydo bo'ladi.

Bularni o'quvchilarning o'zlari o'ylab topishadi. Buning uchun turli badiiy va texnik vositalar, ma'lumot beruvchi nashrlar, ensiklopediyalar, xaritalardan foydalanish mumkin.

Ko'pincha vaqtni sinfdan va maktabdan tashqarida o'tkazish ko'zda tutiladi. Muzei va kutubxonalarda, xiyobon yoki ko'chalarda o'tiladigan darslar odatiy bo'lib qoladi.

Integratsiyalangan kurs ustidagi ishlar davom etadi. Tanlangan yo'l juda qiyin va mutlaqo shubhasiz emas. Murakkab muammolarni hal qilish lozim.

Bolgariyalik olimlar tabiiy-ilmiy bilimlarni o'z ichiga olgan, 10—12 yoshli bolalarga mo'ljallangan integratsiyalangan kurs yaratishdi. Shunday qilib, o'qish, yozish va og'zaki nutq «til san'ati»ga, tarix, geografiya, fuqaroshunoslik, jamiyatshunoslik, fizika, kimyo, biologiya, astronomiya, tabiatshunoslik va shu kabilarga birlashtirildi.

Integratsiyaning bunday usulidan to'liqsiz va to'liq o'rta maktablarda qo'llaniladi. AQSHdagi o'rta maktablarning yuqori sinflarida fizika, kimyo, geografiya, geologiya, kristallografiya, tuproqshunoslik va shu kabilarni o'z ichiga oluvchi «Yerni o'rganish» fani kiritilgan. Chexiya, Slovakiyada ham shunday umumlashtiruvchi integratsiyalangan «Fuqoro tarbiyasi» deb nomlangan kurs yuqori sinflarda kiritilgan.

Shunday qilib, bir qator mamlakatlar tajribalari ko'rsatishicha, integratsiyalangan kurslar qulay shakl bo'lib qoldi. Maktabda o'qitiladigan fanlarni bir butun tizimli ravishda o'qitish imkoniyati tug'ilganga o'xshaydi. Lekin shunday savol tug'iladi: bu kursni qanday o'qituvchi o'qitishi mumkin? Bunday kurslar yaratilishining o'zi yuqori malakali jamoani talab qiladi. Zero, uni o'qitish uchun yuqori malakagina emas, balki keng bilimdonlik kerak. Bunday o'qituvchini kim tayyorlab beradi?

Kim shunday murakkab ko'p predmetli o'quv kursini olib boruvchi o'qituvchini moddiy va ma'naviy jihatdan qiziqтира oladi? Bu savollar hal qilinmas ekan, integratsiyaning bu usuli ko'zda tutilgan natijalarni bermaydi.

Boshlang'ich maktabda integratsiyaning amalga oshiruvchi bo'g'in vazifasini o'qituvchining o'zi bajaradi. U bolalarning arifmetikaga, yozishga, tabiiy ko'pgina boshlang'ich tushunchalari va yana ko'pgina narsalarga o'rgatadi, o'z kuch va imkoniyatlari darajasida bu ishni amalga oshiradi. Boshlang'ich sinflarda bir o'qituvchining dars berishini integratsiyaning bir usuli, deb hisoblasak ham bo'ladi.

Integratsiyani amalga oshirishning usullari yaxshi yoki yomon bo'lishi mumkin. Muammoning mohiyati shundaki, usullarning ko'pcha yuz o'girib, ikkinchisida barcha darajada o'qituvchilarning (psixologik va fiziologik) yosh xususiyatlarini hisobga oladigan integratsion choralar tuzishni kiritishidir. Masalaning bunday qo'libiti integratsiyaning turli ta'lim pog'onalarida turli xususiyatlarga ega bo'lganidir. Boshlang'ich maktabda integratsiyani bir-biriga nisbatan sanoq fanlarni birlashtirish asosida ko'rish maqsadga muvofiq.

Ta'limning keyingi pog'onalaridan u asosiy fanlarning chegaralarini birlashtirishga harakat qiladi. Boshlang'ich ta'lim-tarbiya integratsiyalashda ijobiy va salbiy omillar mavjudligini hisobga olish kerak. Bu omillar integratsiyaning usullarini belgilab beradi.

Y. M. Kolegin va O. L. Aleksinko integratsiyaning salbiy omillari quyidagicha ko'rsatib berishadi:

• o'quv predmetlarining chegaralangan soni — olinayotgan katta hajmdagi bilimlarning mazmuni olamning haqiqiy ko'rinishini, qismlarining o'zaro bog'liqligini aks ettirish bilan to'ldirish mumkin;

• juda muhim bo'lgan o'qish, yozish va sanoq ko'nikmalarini shakllantirish zarurati.

Bu narsalar xuddi fanlarga bo'linib, o'qitishni talab qiladiganiga o'xshaydi. Lekin o'qish va matematikaga o'qitishning an'anaviy tajribasi ham keng integratsion imkoniyatlar haqida dalolat beradi. Bunda o'qish fan sifatida o'z ichiga faqat badiiy matnlarni emas, tarix, tabiatshunoslik bo'yicha materiallarni oladi. Matematika arifmetika, algebraik va geometrik materiallarini o'z ichiga oladi. Bunday integratsiya muhim ko'nikmalar hosil qilishga xalq bormaslik, aksincha, ularni shakllantirishga kafolat beradi.

Robert Karlosning aytishicha, boshlang'ich maktab faqat o'qish, yozish va sanashni o'rgatibgina qolmasdan, bundan ham muhimroq va kattaroq masalani amalga oshirishi kerak. Chunki har bir bola shakllantirish davrida uning intellektual faolligini rag'batlantirish, tabiiy qobiliyati singari uning keyingi muvaffiqiyatlari uchun juda muhimdir.

Integratsiyalangan kurslarni shu yoshdagi bolalarga tushunarli va qiziq bo'lishi uchun bayon qilishning qiyinligi. Bu omilni bartaraf etishning yo'llari amaliyotda tekshirilgan eng ma'qul uslublarni ishlab chiqishda hamda o'qituvchilar tayyorlashning maxsus tizimidadir.

5. BOSHLANG'ICH MAKTABNI INTEGRATSIYA QILISH

Hozirgi kunda boshlang'ich maktab ta'limini integratsiya qilish haqida ko'p gapirilayapti. Bu tushunarli — kichik maktab o'quvchisi atrofidagi olamni bir butunligicha qabul qiladi. Uning uchun tabiatshunoslik, rus tili, musiqa va boshqa o'quv fanlari nomi emas, balki atrofidagi olam obyektlarining tovushlar, ranglar, hajmlarning turli-tumanligi qiziqarlidir. Bolalarning tabiat va kundalik hayotdagi barcha narsalarning bog'liqligini ko'rishga o'rgatish kerakligini o'qituvchi sezadi, biladi. Shunday ekan ta'lim integratsiyasi hozirgi zamon talabiga javob beradimi? Bu masala qanday yechilishi kerak, uning mohiyati nimada?

Ta'limni integratsiyalash fikri xalq ta'limida tabaqalashtirish va individuallashtirish bilan birga muhokama qilina boshlandi. Agar kichik maktab ta'limini tabaqalashtirish asosida kitob, darslik va boshqa adabiyotlar bilan mustaqil ishlashga tayyorgarlik darajasi hamda kichik maktab yoshida qiziqishlarni faol shakllantirishni taqozo etsa, integratsiyaning asosi qilib, turli fanlarni o'rganish obyektlari bo'lgan ba'zi umumiy tushunchalarni chuqurlashtirish, aniqlashtirish va kengaytirish mumkin.

Ta'limni integratsiyalashning asosiy maqsadi — boshlang'ich maktabdayoq tabiat va jamiyat haqida yaxshi tasavvur asoslarini qo'yishi va ularning rivojlanishi qonunlariga o'z munosabatini shakllantirishdir. Mana shuning uchun kichik maktab o'quvchisi predmet yoki voqealik hodisalarning bir necha tomondan ko'rish muhimdir: mantiqiy va emotsional tomondan, badiiy asarda va ilmiy ommabop maqolada, biolog, so'z ustasi, rassom, musiqachi nuqtayi nazardan va boshqalar.

Asosiy fanlarni o'zlashtirish va olamdagi bor narsalar qonuniyatlarini tushunishda predmetlar ichidagi va predmetlararo aloqalarini o'rnatish ta'limni integratsiyalashga yondashuvning metodik asosidir. Bunga turli darslar tushunchalariga ko'p marta qaytish, ularni chuqurlashtirish va boyitish, shu yoshga tushunarli bo'lgan muhim belgilarni aniqlash orqali erishish mumkin. Shunday qilib, yaxshi shakllangan tuzilish va o'tkazish tartibiga ega bo'lgan, tarkibiga shu o'quv predmetiga tegishli bo'lgan tushunchalar guruhi kiritilgan har qanday dars integratsiyaga asos qilib olinishi mumkin.

Lekin integratsiyalangan darsga boshqa fanlar, boshqa o'quv predmetlari bilan bog'liq tushunchalar tahlil qilinishining natijalari kiritiladi. Masalan, «qish», «sovuq», «bo'ron», kabi tushun-

chalar o'qish, rus tili, tabiatshunoslik musiqa, tasviriy san'at darslarida ko'rib chiqiladi. Tushunchalarning tahlil qilinishi boshqa o'quv darslarida o'zlashtirilgan bilimlarga murojaat qilinadigan darslar integratsiyalangan hisoblanadi. Dars ijodiy, erkin bo'lishi bilan birga, yaxlit, mantiqan ketma-ket, o'ziga xos o'tish metodikasiga ega bo'ladi.

Umumiy ta'limning poydevorini qo'yadigan boshlang'ich maktabdagi ko'p tushunchalar tabiatshunoslik, rus tili, musiqa, tasviriy san'at va boshqalar uchun umumiydir. Hozirgi kunda bir qator o'quv predmetlari uchun umumiy bo'lgan tushunchalar orasidagi aloqalarni o'rnatish psixologik va metodik asos bo'lgan integratsiyalangan darslar tizimini ishlab chiqish va sinovdan o'tkazish lozim. Shu bilan birga predmetlararo aloqalar dars tarkibi darajasida o'rgatilishi va zarur o'qitish vositalari bilan ta'minlanishi kerak.

Tekshirish davomida o'quv predmetlarini integratsiyalash jarayonida faol aqliy faoliyatga yordam beruvchi omillar — integratsiyalash uchun fanlarning ma'qul birlashishi, o'qituvchi va o'quvchi harakatlarining mos kelishi, bolalarning yosh imkoniyatlarini hisobga olgan holda mazmun, metod, usullarni tanlashdan iborat.

6. INTEGRATSIYALANGAN DARSLARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILLARI

Ayvalo, qaysi darslar integratsiyalash uchun mos kelishini aniqlab olish kerak. Bunday darslarning negizi — turli fanlar asosiy mavzulari mazmunining yaqinligi va mantiqiy aloqalari.

Integratsiyalangan darslar. Boshdan integratsiyalangan kurs bu — sinfdan tashqari o'qish. Bu yerda yaxlit jarayon kechadi:

- a) kitob o'qish asbobi sifatida o'qish darslarida olgan o'qish ko'nikmalarini takomillashtirish;
- b) matn ustida ishlash;
- d) suhbatdoshlar doirasini tanlash kabi kitoblarni tanlash.

Matematika ham integratsiyalangan kurs — arifmetik materialni o'zlashtirishga imkon beruvchi arifmetika, algebra va geometriya elementlari, shu bilan birga algebra va geometriya, mehnat ta'limi asoslarini o'rgatishga tayyorgarlik. Boshidan integratsiyalangan kurs — tabiatshunoslik (tabiatshunoslik asoslari, geografiya). Boshidan integratsiyalangan yuqoridagi kurslardan tashqari quyidagi fanlarning birikishi mumkin: o'qish-rus tili,

o'qish-tabiatchunoslik, o'qish-tasviriy san'at, o'qish-musiqa, tabiatchunoslik-matematika, tabiatchunoslik-mehnat ta'limi, matematika-mehnat ta'limi, matematika-jismoniy tarbiya.

Didaktik tizimda predmetlararo asosda integratsiyalash o'qituvchi (ta'lim berish) va o'quvchi (ta'lim olish) harakatlarining mos kelishini ko'zda tutadi. Har ikki faoliyat ham umumiy tuzilishga ega: maqsadlar, sabablar, mazmun, vositalar, natijalar, nazorat. Biroq, o'qituvchi va o'quvchi faoliyatlarining mazmunida farq bor.

1. Maqsadli bosqichda o'qituvchi umumiy maqsadni qo'yadi. O'quvchilar o'qituvchi boshchiligida predmetlararo bog'liqliklarni tushunib yetishlari, turli predmetlardan kerakli bilimlarni tanlab olishlari, bunda ular o'z e'tiborlarini faqat umumiy bilimlarni o'zlashtirishga emas, balki ko'chirish, tahlil qilish, shaxsning belgilari, qobiliyat va qiziqishlarini rivojlantirishga qaratishlari kerak.

2. Isbotlash bosqichida o'qituvchi o'quvchilarning dunyoqarashini o'stiruvchi bilimlarga, turli predmetlar tushunchalarini umumlashtirishga rag'batlantiradi. O'quvchilar o'z irodalari, dunyoqarashni kengaytiruvchi bilimlarga qiziqishga yo'naltiriladi.

3. Faoliyatning mazmun bosqichida o'qituvchi yangi o'quv materialini kiritadi, shu bilan birga integratsion dalillar, tushunchalar, muammolar majmuyi darajasidagi boshqa predmetlardan olingan tayanch bilimlarni jalb qiladi. O'quvchilar umumpredmetli tushuncha, muammolarni umumiy bilimlar darajasida o'zlashtiradi.

4. Vositalar tanlash bosqichida o'qituvchi turli predmetlar bilimlarini umumlashtirishga yordam beruvchi ko'rgazmali vositalarni — darsliklar, jadvallar, sxemalar savolnomalar, amaliy vazifalar. O'quvchilar ko'chirish, umumlashtirish, birlashtirish xarakterlarini integratsion masalalarni hal qilishda ko'rgazmali vositalar yordamida bajaradilar.

5. Keyingi bosqich — natija. O'qituvchi ta'lim berish, rivojlantirish, tarbiyalash maqsadida integratsiyani amalga oshirish uchun pedagogik bilimlarni qo'llaydi. O'qituvchi bilimlar tizimida umumlashtirishini amalga qo'llaydi.

6. Nazorat qilish bosqichida o'qituvchi bir-biri bilan bog'langan predmetlarga o'quvchilarning tayyorligini baholaydi, nazorat qiladi, o'zlashtirish sifatida baholaydi. O'quvchilar o'z bilimlarini baholashni, turli predmetlar bo'yicha o'z-o'zini ham, ularni birlashtirish ko'nikmalarini nazorat qilishadi.

Tekshiruvlar ko'rsatishicha, integral yondashuvni amalga oshirishga yordam beruvchi usul va vositalarga:

1. Eivistik suhbatlar;
2. Umumiy suhbatlar;
3. Diskursiyalar;
4. Ona tili, tabiatshunoslik darslarida kuzatishlar, badiiy asarlar materiallari asosida nutq o'zlashtirish uchun yozilgan ijodiy ishlar;
5. Ta'limning ko'rgazmali metodlari;
6. Mustaqil ishlar;
7. O'qish, matematika darslarida og'zaki rasm chizish;
8. Ima-ishorali ko'rinishlar (pantomimalar);
9. Tabiatshunoslik darslarida tabiat tasvirlarini ifodali o'qish;
10. Ona tili darslarida tabiatshunoslikka oid diktantlar, matnlar yozish (shu sinfga tegishli orfogrammalarni takrorlagan holda);
11. O'lkashunoslik asosida matematik masalalarni hal qilish, yechish va boshqalar kiradi.

Ta'limni tabaqalashtirish rad etilmaydigan, uni to'ldiradigan integratsiya tizimini kiritish yaxlit dunyoqarashga, o'zidagi bor bilimlarni mustaqil tartibga solish va turli muammolarni hal qilishga non'anaviy yondashish qobiliyatiga ega bo'lgan bilimdon yoshlarni tarbiyalashga an'anaviy predmetlarga bo'lib o'qitishga nisbatan ko'proq yordam beradi.

Ta'limni integratsiya qilish mohiyati nimadan iborat? Ta'limga bog'liq «integratsiya» tushunchasi ikki ma'noga ega:

1. O'quvchida atrofidagi olam to'g'risida yaxshi tasavvur hosil qilish (bu yerda integratsiya — ta'lim maqsadi sifatida ko'riladi).

2. Predmetli bilimlarni yaqinlashtirish uchun umumiy platformani topish (bu yerda, integratsiya — ta'lim vositasi).

Integratsiya ta'lim maqsadi sifatida olam tizimining alohida qismlari bog'liqligini ko'rsatuvchi bilimlarni berishi emas, bolani barcha elementlari bir-biriga bog'liq yaxlit olamni tasavvur qilishga birinchi qadamlarida o'rgatishi kerak. Bu maqsadni boshlang'ich maktab amalga oshirishi lozim.

Integratsiya — predmetli bilimlar chegarasida yangi tasavvurlarni qabul qilish vositasi. Birinchi navbatda tabaqalashtirilgan bilimlar orasida bilmagan joylarni to'ldirish, ular orasidagi aloqalarni o'rnatish lozim.

U ta'lim oluvchining bilimini oshirishga, ta'limdagi tor ixtisoslashtirishni yangilashga yo'naltirilgan. Shu bilan birga integratsiya ta'limining klassik o'quv predmetlari o'rnini egallash kerak

emas, u faqat olinayotgan bilimlarni yaxlit bir tizimga birlashtirishi kerak, xolos. Muammoning qiyin tomoni integratsiyaning ta'lim boshidan oxirigacha dinamik rivojlantirishdadir. Agar boshida «hamma narsa to'g'risida ozgina bilish» lozim bo'lgan bo'lsa, keyinchalik tarqoq bilim va ko'nikmalarni birlashtirish kerak bo'ladi va oxiriga kelib «ozgina narsa to'g'risida hammasini bilish» kerak bo'ladi, ya'ni bu yangi integratsiya darajasidagi ixtisoslashtirishdir.

7. PEDAGOGIKA TIZIMINI MUVOFIQLASHTIRISH

Umumiy pedagogika tizimga mansub bo'lgan doimiy umumiy innovatsiya, uning o'quv-tarbiya jarayonini muvofiqlashtirish — ko'p sonli imkoniyatlardan eng qulayini to'plab olish jarayoni. Shunday murakkab, empatik, ko'p qirrali, iyerarxik pedagogika tizimida ishlash mumkin. Muqobillar, shuningdek, oqim va o'quv-ta'lim faoliyatini tashkil etishning maqsadli yo'llari mavjud. Lekin ulardan bittasigina aniq vaziyat uchun mos kelishi mumkin. Uni qidirib topish muvofiqlashtirishning asosiy vazifasidir.

Bu vazifa mumkin bo'lgan muqobillarni taqqoslash va boshqa mavjud imkoniyatlarni baholash yo'li bilan hal etiladi. Muvofiqlashtirish deganda pedagogika tizimi qaysi maqsadlar uchun tashkil etilgan bo'lsa, o'sha maqsadlarga mos munosiblik darajasini aniqlash mumkin. Bir sharoit uchun erishilgan muvofiqlik hech qachon boshqa sharoitlarga mos kelmaydi. Shuning uchun muvofiqlashtirish tushunchasi aniqlikni talab qiladi.

Muvofiqlashtirish umumiy bo'lishi mumkin emas, u faqatgina belgilab olingan masofaga nisbatan yuzaga kelishi lozim. Shu bilan birga pedagogika tizimini qaysi maqsadda muvofiqlashtirish, qay bir ko'rsatmalar qo'yilgan maqsad bilan muvofiqligi mos bo'lishiga erishish kerakligini aniq tasavvur etish zarur.

Muvofiqlashtirishning nazariy va amaliy yo'nalishlarini ajrata bilish zarur. Muvofiqlashtirish tushunchasining sinonimi nazariy asosda muqobillarni hisoblash, chamalab ko'rish, taqqoslash va solishtirishdir. Muvofiqlashtirish amaliy yo'nalishda yangilik kiritish, qayta tashkil etish, qayta qurish, qo'yilgan masalalar yechilishini eng qulay holga keltirishdir.

Muvofiqlashtirish masalalarini yechish asosiy o'lchov mezonlarini tanlashdan boshlanadi. Muvofiqlashtirish mezon — bu rivojlanish mumkin muqobillariga baho berish va ulardan eng yaxshisini tanlab olishni amalga oshirish uchun mos bo'lgan belgidir.

Mezon — o'lchov biri ko'rsatkichdan iborat mantiqni talab etishiga qaramay, pedagogikada u har doim kompleks bo'lib chiqadi, chunki pedagogika tizimida o'tib boruvchi jarayonlar sa-
lah va ehtiyojlarni ajratishning iloji bo'lmaydi.

Uchin ko'rsatib o'tilganidek, kerakli natijalarga o'qituvchi va o'quvchilarni haddan tashqari ish bilan band etish yo'llari orqali erishish mumkin. Qo'shimcha yuk ish qobiliyati pasayishiga, qaytarilashuviga olib keladi. Muvofiqlashtirishning o'lchov me-
zonlari kerak. Faqat shundagina o'zi uchun mumkin bo'lgan che-
garada ish olib boruvchi o'qituvchi va o'quvchilar ortiqcha yuk-
ni o'quv-ta'lim jarayonini qulay, deb hisoblash mumkin.

Islatib o'tish kerakki, ilgari qoidalar bo'yicha, ularni hali hech
kim bekor qilgani yo'q, birinchi sinfda bola uy vazifalarini bajarish
uchun 1 soat, ikkinchi sinfda 1,5 soat, uchinchi-to'rtinchi sinflarda
2 soat, beshinchi-oltinchi sinflarda 2,5 soat, yettinchi sinfda 3 soat,
sakkizinchi-to'qqizinchi sinflarda 4 soat sarflashi kerak. Shunday
qilib, o'quv-tarbiya jarayonini muvofiqlashtirishning asosiy mezon-
lik bo'yicha sifatida ikki ko'rsatkich bir-biri bilan bog'liq holda qo'llaniladi.

1. Ta'lim-tarbiya va o'quvchilarning rivojlantirishida o'sha sha-
roitlarda iloji boricha yuqori natijalarga erishish.

2. Har bir yoshdagi o'quvchilar va o'qituvchilar sinfi uy ishlarini
bajarishlari uchun sarflanadigan vaqtlarini o'rnatilgan normativ-
larga rioya qilish.

Muvofiqlashtirishning metodik asosi bo'lib, pedagogik ja-
rayoning hamma komponentlarini, o'zaro qonuniy aloqalarini
birgalikda murakkab dinamik tizimlarni boshqarish, umumiy na-
zariyaga tayanib o'rganishni talab qiluvchi tizimli yondashish hisob-
lanadi. Falsafiy kategoriyalar bo'yicha muvofiqlashtirish «chegara»,
o'lchovga asoslanadi. U pedagogika tizimini u yoki bu tashkil
etuvchilarini giperbolizatsiyalashtirish, faoliyat sur'atini, o'qitish
murakkabligini ko'tarib yoki pasaytirib yuborishga qarshi chi-
qadi, aynan ularni ko'rishga muvofiq chegara tanlashni talab etadi.


Pedagogika tizimini muvofiqlashtirishning asosiy metodologik
talablari quyidagilardan iborat:

- muvofiqlashtirishni boshqarish tartibi butun tizimni birdek
qamrab olishi;
- qulay muqobilni tanlab olishda o'quv-tarbiya jarayoni qonu-
niyatlarining hamma tizimiga tayanish;
- tizim tashkil etuvchilarning hammasini muvofiqlashtirish
imkoniyatlarini muntazam qayd etib borish.

Muvofiqlashtirishga yanada yuqoriroq masalalar va ularni yechishda takomillashgan texnologiyani qo'llab boruvchi doimiy harakatlanuvchi innovatsion jarayon sifatida qaraladi. Shunga e'tibor berish kerakki, bir tomondan muvofiqlashtirish pedagogik jarayonning mavjud sharoitga moslashuvini nazarda tutsa, boshqa tomondan o'zi yangi sharoit yaratib, unga pedagogik jarayon moslashishini talab qiladi. Bu yerda hech qanday qarama-qarshilik yo'q, chunki bu ikki jarayon bir-biri bilan bog'liq holda davom etadi. Agar biz bugun sharoitga moslashsak, bu bizga bog'liq bo'lmagan vaziyat bilan bog'liqdir. Lekin pedagog har doim ularni muvaffaqiyatli borishi uchun muvofiqlashtirishga intiladi.

Amalda muvofiqlashtirish sinf va umuman, maktab o'quvchilari erishgan bilimlarni, shuningdek, tarbiyasining rivojlanganlik darajasini belgilangan ko'rsatkichlar bilan baholashdan boshlanadi. Odatda, uni aniq, to'g'ri baholash darajasi pastroq bo'ladi. Biroz vaqtdan keyin natijalar o'sishining mumkinlik darajasi loyihalashtiriladi. So'ngra ko'zlangan o'zgarishni ta'minlashga qaratilgan o'quv-tarbiya choralari tizimi qo'llaniladi. Bu ishlar yakunida erishilgan natijalar va jarayonlar qulay mumkin bo'lganlari bilan solishtiriladi, o'quvchi va o'qituvchi uy vazifasi hamda sinfdan tashqari ish olib borishga ketkazgan kuchlari normativdagisi bilan solishtirilib, muvofiqlashtirish darajasi haqida xulosa chiqariladi.

Muvofiqlashtirish o'quv-tarbiya jarayoni qonuniyatlari va asoslaridan tabiiy kelib chiquvchi uslublar tizimi orqali amalga oshiriladi.



Maktab, pedagog va o'quvchilar faoliyatining quyidagi darajalari ma'lum: *yetarli emas, jiddiy (og'ir, mushkul,) yomon ahvol, tushunarli.*

Oxirgisini ta'minlash uchun o'quv-tarbiya jarayonini muvofiq-lashtirishning quyidagi uslublari qo'llaniladi:

1. Umumiy talaba sifatida kompleks yondashish, rejalashtirish, amaliy faoliyat choralari ni tatbiq etish.

2. Pedagogika tizimi xususiyatlarini hisobga olgan holda.

3. Predmetlararo yo'nalishlarni bir-biriga muvofiq-lashtirishda asosiylarini aniqlash yordamida o'quv-ta'lim jarayoni mazmunining qulay variantini tanlash, ratsional mazmun tuzilishini qurish.

4. Qo'yilgan masalalarni o'z vaqtida muvaffaqiyatli bajarish imkonini beruvchi o'quv-tarbiya jarayoni, uslub va shakllarini tanlash.

5. Yaxshi tayyorlangan, bo'sh o'zlashtirilgan va boshqa hamma ta'lim oluvchilarga differensial va individual yondashishni amalga oshirish.

6. O'quv-tarbiya faoliyatida boshqarish va o'zini boshqarishning ratsional birga olib borilishi, uning borishini tezkor to'g'rilash va tuzatish.

7. O'quv-tarbiya jarayoni natijalari va ularga o'rnatilgan qulay ko'rsatkichlar bo'yicha erishish uchun vaqt va mahsulot uchun sarflangan harakatlar nisbati tahlil qilinadi.

Agar o'quv-tarbiya jarayonini qulaylashtirish bo'yicha asosiy pedagogik harakatlarni qisqacha yakun qilib olsak, unda quyidagilarga ega bo'lamiz:

- masalalarni aniqlash va umumlashtirish;
- generalizatsiya;
- predmetlar va yo'nalishlararo muvofiqlik;
- ularni solishtirib, baholash asosida muqobillarini tanlab olish;
- gumanizatsiya (insonparvarlashtirish);
- muhim sharoitlar yaratish;
- boshqarish va o'zini o'zi boshqarishni birgalikda olib borish;
- jarayonni o'z vaqtida tuzatib, tartibga solib turish;
- uning natijalarini belgilangan ko'rsatkichlar bo'yicha baholash;
- yanada murakkab muammolarga o'tish;
- innovatsion jarayonning muntazamligi va asta-sekinligi.

Qadimgilik atamasiga ega yangilik yoki aniqrog'i, eskilik qatlami va yangilik qatlamidan iborat yangilik — birlashib, ilgari gi bilishni to'ldiradi va ravshanlantiradi.

Har qanday vositaning yangiligi shaxsiy kabi vaqt tushunchasida nisbiy turadi. Biror o'qituvchi uchun yangi bo'lgan narsa ikkinchi o'qituvchi uchun yangi bo'lmaydi. Yangilik har doim aniq tarixiy ifodaga ega bo'ladi. Aniq vaqtda yaratilib, aniq tarixiy bosqichda masalalarni yechib, yangilik qisqa vaqt ichida ko'pchilik mulki, odatiy ko'pchilik umumiy tajribasi bo'lib qolishi yoki eskirib keyingi vaqt yangilish, rivojlanishga to'siq bo'lib qolishi mumkin. Masalan, Y. A. Komenskiyning sinf bo'lib dars o'tish ta'lim tizimi.

Xususiy yangilik — nisbatan yangilik turlaridan biri. Xususiy yangilik mahsulot elementlaridan biri kundalik zamonaviylashtirilishi tartibida yangidan ish boshlashni anglatadi. Jism qandaydir bir jihatdan yangilanadi. Xususiy yangiliklar to'planib borishi uning to'la o'zgarishga mutlaq yangilik va radikal yangilik kiritishsiz olib kelishi mumkin.

Shartli yangilik ilgari bo'lgan elementlarning g'ayri oddiy birlashuvi natijasida hosil bo'ladi. Bu o'z-o'zidan yangilik emas, lekin bu qo'llanishida murakkab va ilg'or, qayta tuzilishiga olib keladi. Bundan tashqari, subyektiv yangilik ko'rsatiladi, bunda ushbu subyekt uchun obyekt yangi bo'ladi, predmet va hodisalar bir odam uchun umuman yangi bo'lishi, ushbu jamiyat uchun yangi ko'rsatkich va boshqa jamiyat uchun yangi bo'lmashligi mumkin.

Yangilikning muhim tomoni, u ushbu obyektning ilgarigisidan nimasi bilan farq qilishini ko'rsatib beradi. Masalan, taklif etilayotgan o'qitish metodikasi ilgarigi ma'lumotlariga ko'ra, quyidagi qismlarga ajratiladi. Ma'lum bo'lganini boshqa ko'rinishda ko'rish (keltirish), ya'ni amalda yangilik emas.

1. Shartni ilgari ma'lum bo'lgani sezilmas o'zgarishlar bilan qaytarish.

2. Ilgari ma'lum bo'lganga aniqlik kiritish.

3. Ilgari ma'lum bo'lganini muhim elementlar bilan to'ldirish.

4. Sifatli yangi obyekt yaratish.

Yangilik — bu ayni vosita, innovatsiya esa jarayon, u ma'lum bosqichlar bo'yicha rivojlanadi. Innovatikada bu yangiliklar kiritishning hayot sikli tushunchasida aksini topadi.

Birinchi blok (to'plam) — pedagogikada yangilik yaratish bloki bu yerda pedagogikada yangi pedagogik yangiliklarni klassifikatsiyalash, yangilik yaratishga shartlari, yangilik mezoni yangilikning uning o'zlashtirish va foydalanishga tayyorlash o'lchovi, odatlar va novatorlik pedagogik bosqichlari yangilik ijodkorlari kabi kategoriyalar ko'rib chiqiladi. Shu bilan birga pe-

dagogikada yangilik kategoriya chegarasi nazariyasini ishlab chiqish katta ahamiyatga ega. Bu tushunchalarni pedagogik neologiya o'rganadi.

Ikkinchi blok — yangilikni baholash o'zlashtirish va tushunish bloki: yangilikni o'zlashtirish jarayoni turlari va baholash, pedagogik hamkorlik, pedagogikada konservator va novatorlar, innovatsion muhit pedagogik birlashmaning yangilikni baholash va qabul qilishga tayyorlash. Bu tushunchalarni pedagogik aksiologiya o'rganadi.

Uchinchi blok — yangilikdan foydalanish va qo'llash bloki. Ushbu blokda tatbiq etish, yangilikni qo'llash va foydalanish turlari va qonuniyatlari o'rganiladi. Bu tushunchalar bloki pedagogik praksianalogiya deb nomlanuvchini tatbiq etishni o'rgatish bilan bog'liq. Pedagogik innovatsiyalar qayta takrorlanish sikli, qonuni, mazmuni yangi sharoitda yangilikning qayta tiklanishidan iborat. Pedagogika va ta'lim tizimi uchun bu o'ziga xos xususiyat, shu sababli yangilik nazariyasi va amaliyoti ko'pgina qarama-qarshiliklar keltirib chiqaradi, chunki pedagoglar birlashmasi ilgari bo'lgani kabi yondashib, bu yangilikni takrorlashi eski emas. Yoki eskisining yangidan qayta tiklanishi ekani sezilmaydi.

Ta'lim sohasida pedagogik adabiyotlarda innovatsion jarayonlar ikki turi ko'rsatiladi:

1-tur. Innovatsiya ko'p jihatdan tabiiy o'z-o'zidan sodir bo'ladi. Yuzaga keltiruvchi talablarga aniq bog'lanmay yoki innovatsion jarayonini amalga oshirish yo'l va vositalarini butun sharoitlar tizimini to'la tushunmagan holda sodir bo'ladi. Bu turdagi innovatsiya har doim ham ilmiy asoslash to'laligi bilan bog'liq bo'lishi, vaziyat tartiblari ta'siri bilan imperik asosda sodir bo'ladi. Bu turdagi innovatsion jarayonga o'qituvchi innovator, tarbiyachi ota-onalar faoliyatini kiritish mumkin.

2-tur. Yangiliklar kiritish ikkinchi turi ta'lim tizimida ongli ravishda maqsadni ko'zlab, fanlararo faoliyatda ilmiy tarqala oladigan mahsulot bo'lgan innovatsiya.

Innovatsion jarayonlar pedagogikada jadallashishi faqatgina ijtimoiy buyurtma va nazorat tekshirishlar hamda novatorlik tajribasida ularni amalga oshira oladigan vositalar mavjudligi bilan bog'liq bo'lmay, pedagogik uyushmasi ongi doirasidagi muhim o'zgarishlarga ham bog'liqdir.

Tizimda yangilikni kiritishga pedagoglarning psixologik tayyorligi juda muhim shartdir. Ayniqsa, shuni hozirgi maktab-

larimiz innovatsion jarayonning boshlang'ich radikal bosqichi davridan o'tayotgan, butun jamiyat hayotidagi qayta qurish bilan yuzaga kelgan, u bizning pedagogikamiz merosini qaytarish davrida tushunish muhimdir.

Aniq yangiliklarni kiritish va o'rganish bilan bog'liq ishlab chiqish zarurligini tushunib, ilmiy qiziqishlar innovatsion jarayonlar borishiga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilishga qaratildi. Shu tariqa, innovatsiya pedagogik jarayon komponentlari, umuman pedagogik uyushma faoliyati va umumiy tuzilishga ta'sir etuvchi katta tizim samaraga egadir.

Har qanday oddiy yangiliklardan farqli pedagogik innovatsiya bolalar tarbiyasi shaxsiy va ijodiy jarayonini taklif etadi. Ular butun ta'lim sohasi va turli vazifalarni bajaruvchi ekspert konsultant, loyihalashtiruvchi yangilik kiritish maktabi pedagogi ishlarini bajaruvchi o'qituvchini tayyorlashni o'z ichiga qamrab oladi.

8. UMUMIY O'RTA TA'LIMNING DAVLAT TA'LIM STANDARTI TAHLILI

Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti o'quvchilar umumta'lim tayyorgarligiga, saviyasiga qo'yiladigan majburiy minimal darajani belgilab beradi.

Davlat ta'lim standarti ta'lim mazmuni, shakllari vositalari, usullari, uning sifatini baholash tartibini belgilaydi. Ta'lim mazmunining o'zagi hisoblangan standart vositasida mamlakat hududida faoliyat ko'rsatayotgan turli muassasalarda ta'limning barqaror darajasini ta'minlash sharti amalga oshiriladi. Davlat ta'lim standarti o'z mohiyatiga ko'ra, o'quv dasturlari, darsliklar, qo'llanmalar, nizomlar va boshqa me'yoriy hujjatlarni yaratish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Davlat ta'lim standartini bajarish O'zbekiston Respublikasi hududida faoliyat ko'rsatayotgan mulkchilik shakli va idoraviy bo'ysundirishdan qat'iy nazar, barcha ta'lim muassasalari uchun majburiydir.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun tayanch *o'quv rejasi* davlat ta'lim standartining tarkibiy qismi bo'lib, u ta'lim sohalarini me'yorlashga hamda maktabning moliyaviy ta'minotini belgilashga asos bo'lgan davlat hujjatidir. Tayanch o'quv rejasi o'quv predmeti bo'yicha beriladigan ta'lim mazmunini o'quvchiga yetkazish uchun ajratilgan o'quv soatlarining minimum hajmidagi miqdorini ifodalaydi.

1—4-sinflar

T/r	Ta'lim sohalari	O'quv fanlar	Sinflar				Haftalik umumiy soatlar	Jami soatlar
			I	II	III	IV		
			Davlat ixtiyoridagi soatlar					
1	Filologiya	O'zbek tili		2	2	2	6	204
2		Ona tili va o'qish	8	8	10	10	36	1216
3	Matematika	Matematika	5	5	5	5	20	675
4	Tabiat	Tabiat	1	1	1	1	4	135
5	Inson va jamiyat	Odobnoma	1	1	1	1	4	135
6		Musiqa madaniyati	1	1	1	1	4	135
7		Tasviriy san'at	1	1	1	1	4	135
8		Mehnat	1	1	1	1	4	135
9		Jismoniy tarbiya	2	2	2	2	8	270
		Haftalik umumiy soatlar soni (davlat ixtiyoridagi soatlar)	20	22	24	24	90	3040
		Maktab ixtiyoridagi soatlar	2	2	2	2	8	270
		Haftalik eng ko'p darslar soni	22	24	20	26	98	3310

Fanlar orasidagi integratsiya, ya'ni fanlar orasidagi o'zaro bog'liqlik

Fanlar bir-biri bilan o'zaro bog'liqdir. Masalan, biz bu jarayonni 1—4-sinflarning o'quv rejasi orqali tahlil qilamiz.

Filologiya sohasi ikkiga bo'linadi:

1. O'zbek tili.
2. Ona tili va o'qish.

Bu ikki fan orasidagi integratsiya jarayoni shundan iboratki, har ikki fanning maqsadi o'quvchilarda yozma va og'zaki nutq malakalariga ega bo'lishga qaratilgan.

Keyingi misolni inson va jamiyat sohasida ko'rib chiqsak bo'ladi. Inson va jamiyat sohasi beshga bo'linadi:

1. Odobnoma.
2. Musiqa madaniyati.
3. Tasviriy san'at.

4. Mehnat.

5. Jismoniy tarbiya.

Bu fanlar bir-biri bilan o'zaro bog'liq va bu fanlarning maqsadi axloqiy, estetik tarbiya berishdir.

Nutq o'stirish — harflarni to'g'ri talaffuz etish va yozish, so'zlarni to'g'ri o'qish va yozish; gap ohangiga rioya qilgan holda ravon tasvirli o'qish; gapdagi tinish belgilarini talaffuzda aks etishi va yozilishi; fikr bayon qilish uchun zarur bo'lgan ayrim grammatik vositalarni o'z o'rnida qo'llay olish, xalq og'zaki ijodi hamda bolalar adabiyoti namunalaridan olingan parchalarni o'qib tushuna olish kabi talablarni o'z ichiga oladi. Deyarli har bir darsning maqsadi nutq o'stirishga qaratilgandir. Asosan, ona tili va o'qish, sinfdan tashqari o'qish darslarida o'quvchilar nutq o'stirish, bilim, ko'nikma va malakalariga ega bo'lishsa, rus tili, matematika, tabiat, odobnoma, musiqa madaniyati, tasviriy san'at, mehnat, jismoniy tarbiya darslarida uni mustahkamlab, to'ldirib borishadi.

Masalan, 4-sinf ona tili darsligini olaylik. Unda nutq o'stirishga oid mashqlar berilgan. 22-mashqni ko'rib chiqsak. Bunda so'zlarni o'qing, talaffuzga e'tibor bering va so'zlarni ko'chirib yozilishini bilib oling degan shart berilgan: «Bayroq, a'lochi, qal'a, e'lon, rasm, qat'iy, o'ladi, Ma'mura, ko'z, vatan, olxo'ri, a'zo, sariq, jahon, san'at, nordon, arqon, poda, qit'a, beda».

O'qish darsida esa nutq o'stirish jarayonini hikoyalalar, ertaklar, she'rlar, matnlar orqali ko'rishimiz mumkin. 3-sinf o'qish darsligida:

Uyg'un

Saodat soqchilari

Shonli g'olib armiya,
G'ururimiz, faxrimiz.
Tilga olsak nomini,
Ochiladi bahrimiz.
U bor hayot kundan kun,
Yasharadi odatda,
Vatanimiz mangu hur,
Xalqimiz saodatda.
Agar iflos qo'lini,
Yurtimizga cho'zsa yov,
Armiyamiz zarbidan
Yanchiladi beayov.

Baxtimizga bor bo'ling,
Vatan mehribonlari,
Saodat soqchilari,
Tinchlikning posbonlari.

She'rni to'xtamlariga rioya qilib, ifodali o'qishga tayyorlaning.

4-sinf *matematika* darsligini ko'rib chiqsak, bunda matematik atamalar orqali, o'lchov birliklari, masalalar, amalni og'zaki bajarish orqali nutq o'stirish jarayoni ro'y beradi.

«Ikki xonali va uch xonali songa ko'paytirish» mavzusidagi 930-mashqda 36 ni 47 ga qanday ko'paytirilganiga tushuntirish berilgan.

Tushuntirish: 36 ni 47 ga ko'paytirish kerak. Ko'paytiramiz. 36 ni 7 ga birinchi to'liqsiz ko'paytma 252 ni hosil qilamiz.

Ko'paytiramiz: 36 ni 40 ga, ikkinchi to'liqsiz ko'paytma 1440 ni hosil qilamiz.

To'liqsiz ko'paytmalarni qo'shsak, ko'paytma 1692 hosil bo'ladi.

Tabiatshunoslik darsida, ya'ni 4-sinfning tabiatshunoslik darsligida bir qancha O'zbekistonning geografik o'rni, o'rmonlari, hayvonot olami, yerosti qazilma boyliklari haqida matnlar berilgan bo'lib, bolalar bu matnlarni o'qib, gapirib berish davomida nutq o'stirish jarayoni ro'y beradi.

Jonajon o'lkamiz O'zbekiston

O'zbekiston 447,1 ming km² yer maydonini egallaydi. U g'arbdan sharqqa tomon 1400 km.ga, shimoldan janubga tomon 925 km.ga cho'zilgan. O'zbekistonning eng yaqin qo'shnilari janubi-g'arbda Turkmaniston, janubi-sharqda Tojikiston, shimoli sharqda Qirg'iziston. Bu respublikalarning tabiati, yer yuzasining shakli, ob-havo sharoiti, o'simliklari va hayvonlari jihatidan bir-biriga o'xshash. O'zbekistonning shimolida juda katta yer maydonini egallaydigan Qozog'iston joylashgan. Bu respublikalar Markaziy Osiyo degan umumiy nom bilan atalib kelinmoqda. O'zbekiston janubdan Afg'oniston bilan chegaradosh. Chegaralar xaritada shartli belgilar bilan ifodalanadi.

Shu kabi *odobnoma* darsida ham bir qancha odob-axloqqa oid matnlar, she'rlar, hikoyalar, hikmatli so'zlar berilgan bo'lib, ularni ham o'quvchi o'qish, gapirish jarayonida nutq o'stiradi, ularning barchasi integratsiyadir. 4-sinf «*Odobnoma*» darsligidagi «Umr o'tib borar misoli ertak» she'rida shunday satrlar bor:

Umr o'tib borar misoli ertak,
Ertaning ketidan kelib qolar shom,
Faqat g'aflat ichra yotmagin yurak,
Qaytib kelmas sira bu yoshlik ayyom,
Payt kelar, va'daning qimmatini qolmas,
Muhlat bermas u dam to'lgan paymona.
O'tgan bir oningni qaytara olmas,
Na ko'z yosh, na afsus va na bahona...

(*Abdulla Oripov*)

Axloqiy tarbiya — ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, muayyan jamiyatda yashovchi kishilar amal qilishi zarur bo'lgan ma'lum xatti-harakat qoidalari yig'indisi. Axloq-odob tarbiyasi milliy-ma'naviy, umuminsoniy qadriyatlar asosida amalga oshiriladi.

Axloqiy tarbiyaning vazifasidan biri — ongli intizom bo'lishidir. Abdulla Avloniy «Intizom deb qiladurg'on ibodatlarimizni, ishlarimizni har birini o'z vaqtida tartibi ila qilmoqni aytilur. Agar yer yuzida intizom bo'lmasa edi, insonlar bir daqiqqa yasholmas edilar», deb ta'kidlaydi. Demak, asosan, odobnoma darslarida axloqiy tarbiya berib, bilim, ko'nikma, malaka hosil qilinsa, boshqa fanlarda uni mustahkamlab to'ldirib boriladi.

Masalan, 3-sinfning «Odobnoma» darsida 4-darsning mavzusi «Qarilik — donolik» (1 soatli) berilgan. Bu darsda o'qituvchi «Qobusnoma» kitobini ko'rsatib, undan qariyalar haqida, «Qarilik va yigitlik sifati zikrida» bobi o'qib beriladi va muhokama etiladi. Xalq maqollaridan misollar keltirib, axloqiy tarbiya beriladi.

O'qish darsligining deyarli ko'p mavzulari axloqiy tarbiyaga qaratilgan. 4-sinfning o'qish darsligida «Salomlashish odobi» degan mavzu bor. Bunda: Salom — salomatlik ma'nosini ifodalaydi. Agar sendan necha mavrida salomlashish kerak, deb so'rasha, yetti holatda, deb javob bergin. Avvalo, yoru do'stlarni, katta-kichiklarni, aka-ukangni ko'rganda salom berishing lozim...

Ikkinchi, jamoat joylariga borganingda salom berishing kerak.

Uchinchi, biron xonadonga borsang, u yerga salom berib kirgin.

To'rtinchi, bir yerda jam bo'lib o'tirgan kishilar davriga kirsang salomlashgin. Kishilar huzuridan turayotganingda ham salomlashishni unutma, uni hayrlashish salomi deyiladi.

Oltinchi, maqbaraga, qabristonga borsang, salom ber.

Yettinchi, o'z xonadoningga salom berishni kanda qilma.

Ona tili darsligida ham ko'p mashqlar axloqiy tarbiyaga qaratilgan. 4-sinf ona tili darsligini olsak, «Olmosh so'z turkumidir» mavzusida 269-mashqda: olmoshlarni topib, o'zi bog'langan so'z bilan birga ko'chiring. O'qituvchi bu she'rni o'qib berar ekan, axloqiy tomonlarini ochib berishi kerak.

Axloqiy tarbiya «**Tabiatshunoslik**» darsida ham olib boriladi. 4-sinf darsligida «Tog' o'rmonlari va o'tloqlari» mavzusida: Tog'larda dam olish vaqtida va turistik poxodlarda tabiatni juda avaylab, ehtiyot qilish zarur, daraxtlarga zarar yetkazish, shox-novdalarni sindirish, gullarni yulib dastalash, qushlar bilan hayvonlarni bezovta qilish mutlaqo yaramaydi. Bularni diqqat bilan kuzatib borish, fotosuratini olish lozim. Ana shunda shu tog'larda dam olganingiz to'g'risida uzoq yillarga xotira qoldirish imkoniga ega bo'lasiz.

O'rmonda gulxan yoqish mumkin emas. Chunki, gulxanlardan ko'pincha o'rmonga yong'in chiqib, odam uchun qimmatli bo'lgan o'simliklarga emas, balki hayvonlar ham nobud bo'ladi, degan satrlar berilgan.

Mehnat darsida ham bolalarga ovqatlanish odobi, mehmon kutish odobi, kiyinish odobi, dasturxon tuzatish odobi kabi axloqiy tarbiya me'yorlari o'rgatib boriladi.

Ekologik tarbiya — bu insonni tabiatga dastlabki qadam qo'yan kunidan boshlab, butun hayoti davomida tabiatdan ongli ravishda foydalanishga, psixologik, axloq-odob yuzasidan xalqimizning tabiatga hurmat va e'tibor bilan qaraydigan urf-odatlarini, udumlarini tarbiyalash, tabiiy boyliklarni ko'paytirish, bog'-rog'lar, gulzorlar tashkil qilish orqali uning qalbida yaxshi xislatlar uyg'otishdan iboratdir. Ekologik tarbiya ham integratsiyaga yaqqol misol bo'la oladi.

Ekologik tarbiya tabiat fanida, asosan, olg'a surilsa, ya'ni bilim, ko'nikma, malaka hosil qilsa, o'qish, ona tili, matematika, odobnoma, musiqa darslarida uni mustahkamlab, to'ldirib boriladi. Masalan, tabiat darsida ekologik tarbiya bir necha matnlar orqali 4-sinf darsligida «Suv va havoni muhofaza qilish» mavzusida bayon etilgan.

Suv va havo bo'lmasa, butun jonzot yashay olmasligini hamma biladi. Har qanday tirik organizm tarkibida suv bo'ladi.

Bolalarga ekologik tarbiya o'qish darsida ham o'rgatiladi. 4-sinf o'qish darsligida «Buzilmagan uya» mavzusi bor. Unda: bir bola bog'da ishlayotgan bobosiga ovqat ola keta turib, yo'lda o'rtoqlarini uchratadi. O'rtoqlari qush ovlagani ketayotganini aytib, uni ham bunga tortishadi. Lekin bola kechikayotgani va bobosining qorni ochqab qolishi mumkinligi tufayli o'rtoqlari bilan ketmaydi. Bobosiga ovqat yetkazib, daraxt payvand qilishda yor-

damlashadi. Bobo bilan birga uyga keta turib, yo'lda yana o'rtoqlarini uchratadi. Ular qush uyasini buzaman deb, daraxt butog'iga o'ralib, chumchuq bolalarini yeyishga payt poylab turgan ilondan qo'rqib, daraxtdan yiqilib qochib ketishayotgan edi. Bola bobosi bilan yerda yotgan chumchuqlarga yordam berib, ilonni o'ldirishadi. Bolalar esa bo'lgan voqeadan afsuslangan holda uyga qaytadilar.

Endi ekologik tarbiyani «Ona tili» darsida ko'rib chiqsak. 4-sinf ona tili darsligida «Turg'un bobom» she'ri berilgan. Bu she'rda ekologik tarbiya olg'a surilgan.

Turg'un bobom

Keng bepoyon vodiylarni,
Ko'rkam yoz bezar,
Tun qo'ynida Turg'un bobom,
Dalani kezar.
Qo'lidagi katta ketmon,
Yarqirab kunda,
Egatlarga shildiratib,
Suv quyur tunda.
O'zi juda ishga chaqqon,
Taniqli suvchi,
Uni sevar har dehqon,
Har bir o'quvchi.
Zilol suvlar paxtazorda,
Shildirab oqar,
Gullayotgan ko'm-ko'k g'o'za,
Bobomga boqar.

«Matematika» fanini ham ekologik tarbiyaga misol qilib olsak bo'ladi. 4-sinf darsligining «Hajmlarni o'lchash» mavzusida 883-masala bor.

O'quvchilar bo'yi 40 metr, eni bo'yidan 10 metr qisqa maydonda bog' barpo etishdi. Bog' maydonining yuzini toping. Bog' atrofini qanday uzunlikdagi devor bilan o'rash mumkin?

Shu kabi *odobnoma* darsida ham ekologik tarbiya yuzasidan matnlar, mashg'ulotlar berilgan. 3-sinfda «Ona tabiat — go'zallik manbai» nomli uch soatlik bo'lim berilgan bo'lib, bular:

«Gullar rangni qaydan olar», «Qanotli me'morlar», «Tabiatni asrash odobi» nomli mavzularidir. O'qituvchi bu mavzularni o'tayotganda, tabiat haqida, ekologik tarbiya haqida ma'lumot beradi.

Estetik tarbiya — bu o'quvchilarni voqelikdagi, san'atdagi, tabiatdagi, kishilarning ijtimoiy va mehnat munosabatlaridagi, turmushdagi go'zallikni idrok qilish hamda tushunishga o'rgatish, ularning badiiy didini o'stirish, ularda go'zallikka muhabbat uyg'otish va hayotga go'zallik olib kirish qobiliyatlarini tarbiyalashdir.

Estetik tarbiya o'quvchilarda estetik bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish hamda estetik his-tuyg'u, qiziqish, ehtiyoj, baho berish kabi xislatlarni tarbiyalash masalasini o'z ichiga oladi. Estetik tarbiya bo'yicha asosiy fan musiqa bo'lib, rasm, ya'ni tasviriy san'at bo'lib, jismoniy tarbiya, mehnat, o'qish, ona tili uni to'ldirib, mustahkamlab boradi. Masalan, *tasviriy san'at* darsida did, ya'ni estetik did bilan rasm chizadi va estetik mulohaza bilan yondashadi.

Mehnat darsida ham bola estetik tarbiya orqali yondashadi. Masalan, qizlar kashtani estetik did bilan tikishadi, dasturxon tuzatayotganda yoki kiyim tikayotganda yanada orasta bo'lishadi.

Estetik tarbiyaga misol qilib, jismoniy tarbiya darsini olsak, asosiy mashqlardan biri: tik turgan holda yurish va bayroqchalar bilan mashq qilish darsning maqsadi bo'lsa, bu holatni estetik mulohaza bilan, oyoq uchida asta-sekin ko'tarilib, bayroqchalarni yon tomonlarga va keyin yuqoriga ko'tarib, estetik qiziqish bilan bajarishadi.

Yuqoridagi misollardan shunday xulosa chiqarish mumkinki, demak fanlararo integratsiya, ya'ni fanlararo uzviylik bog'liqlik mavjud. Chunki, biron fanning maqsadi, ya'ni bolalarda nutq o'stirish, axloqiy tarbiya, ekologik tarbiya, estetik tarbiya barcha fanlarda o'z aksini topgan.

9. UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA INTEGRATSIYANING MAVJUDLIGI

Umumta'lim maktablarida barcha fanlarning o'qitilishi bugungi kun o'smirlarining ijobiy munosabatlarini shakllantirishda yordam beradi.

O'smir yoshdagi o'quvchilarning shaxsi va ularning kamoloti muammosi taraqqiy etayotgan va o'z taraqqiyotida yuksak cho'qqiga intilayotgan jamiyat uchun dolzarb masaladir. Har bir o'quv fanining o'rganilishi, ta'lim samarasi yuksak bo'lishi, bolalar erkin fikrlashni o'rganishi — naqadar dolzarb ekanligi hech kimda shubha uyg'otmaydi. Erkin fikrlay oladigan kishigina jamiyatda o'z mavqeyini to'la idrok qila oladi.

Bilimdonlikning muhim qismi bo'lgan insoniy demokratik munosabatlar tizimidagi teranlik shaxs taqdiri va salohiyatini belgilovchi muhim omildir. Pedagogika va ijtimoiy psixologiya har bir o'smir shaxsning hayotning barcha jabhalarida o'zini erkin sezish va fikrlarini to'la-to'kis bayon etishiga o'rgatuvchi usul sifatida xizmat qiladi.

Bugungi kunda o'smirlarning shaxslararo va ular o'rtasidagi o'zaro munosabatlari ma'lum bir darajada ularni shaxsidagi psixologik holatlarni o'zgartirish va ijobiy munosabatlarni shakllantirishda yordam beradi.

Maktab ta'limining san'at yo'nalishi mazmuni bolalarning ta'lim-tarbiya olishiga, odamiylik sifatleri qunt bilan singdirib borilsa, ular yetuk va barkamol, sog'lom, mustaqil fikrlovchi shaxs bo'lib yetishadi.

Har bir yosh davrning psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda tarbiyaviy ta'sir o'tkazish bolada o'z vaqtida o'zini anglashni vujudga keltiradi. Bolada o'zini anglash tuyg'usi qancha erta uyg'onsa, shaxsiy nuqtayi nazar, o'z huquqini his etish, o'zining aqliy va jismoniy imkoniyatlarini baholash shunchalik tez paydo bo'ladi.

Hozirgi vaqtda hamma fanlar, shu jumladan, politexnik sikl har tomonlama talqin qilinar ekan, shu fanlarni chuqur o'rganish va uni ijtimoiy hayotni yaxshilashda foydalanish — bugungi kunning dolzarb va kechiktirib bo'lmaydigan masalalaridan biridir.

O'zbekistondagi shu sohadagi qarashlar, psixologik olimlarning olib borayotgan va rejalashtirilgan ilmiy-amaliy yo'nalishdagi barcha tadqiqotlarning qimmatli ahamiyati juda kattadir. Shu bilan birga barcha yosh avlod ta'lim-tarbiyasining buguni va erangi kun talablari uchun zarurdir.

Sharq mutafakkirlarida ilg'or g'oyalar — yosh avlodni aqliy va jismoniy jihatdan yetuk, ma'rifatli, bilim va hunarlarni egallagan, odob-axloq qoidalarini o'ziga mujassamlagan go'zal didli hamda zavqli qilib yetishtirishdir. Bu avloddan avlodga og'zaki ijod va yozma adabiyotlar vositasida ommalashadi.

Yosh avlodni hayotga tayyorlashda ko'p asrlar davomida qo'llanilgan usul-vositalari, tadbir va shakllar, o'ziga xos urf-odat va an'analar, tarbiya haqidagi g'oyalar va hayotiy tajriba xalq pedagogikasida mujassamlangandir.

Ma'lumki, har bir xalq boshqa xalqlar bilan bog'liq holda yaratilgan. Shu sababli ham ularning ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayoti, urf-odatlarini, an'analarida o'xshashlik mavjud. Bu o'xshashlik ularning mehnat va nafosat aqliy va axloqiy tarbiya usullarida yorqin ko'rinadi. Ular har xil ish turlarida kasb egalari bo'la olishadi. Bular quyidagi kasblardir: mexanizator, ta'mirlovchi-payvandchi, chorvador, dehqon. O'quvchilarni hozirgi zamon kasb-hunarga o'rgatish, mehnatkash inson psixologiyasini rivojlantiradi. Umumta'lim maktabining vazifasi mana shulardan iborat. Ijtimoiy hayotimizdagi inqilobiy o'zgarishlar, mustaqillik, huquqiy davlat tizimiga intilish — insonparvar psixologiya qonuniyatlari va ilmiy materiallarni o'rganish monitoringidan turmushda foydalanishga quyidagicha baho beradi:

- talabalarni individuallik qiyofasida shakllantirish;
- ta'lim-tarbiyani, odamiylik sifatlarini qunt bilan singdira borish;
- tarbiyaviy jarayonning natijasi;
- keng bilim saviyasiga ega bo'lish, turli bilimlardan xabardor bo'lishi;
- yosh pedagogik-psixologiya, ijtimoiy psixologiya va pedagogika, yosh fiziologiyasi hamda maktab gigiyenasidan chuqur bilimlarga ega bo'lishi;
- o'zi dars beradigan fan bo'yicha mustahkam bilimga ega bo'lib, o'z kasbi, sohasida jahon fanida erishilgan yutuq va kamchiliklardan xabardor bo'lishi;
- ta'lim va tarbiya metodikasini egallashi;
- o'z ishiga ijodiy yondashishi;
- pedagogik texnikani (mantiq, nutq, ta'limining ifodali vositalari) va pedagogik taktikaga ega bo'lish;
- o'qituvchi o'z bilimi va pedagogik mahoratini doimiy ravishda oshirib borishi barobarida har bir o'qituvchi psixologik jihatdan ana shu talablar monitoringiga eng yuqori darajada mos keladigan bo'lishiga intilishi lozim.

Zamonaviy o'qituvchi o'quvchilar o'rtasida o'zaro munosabatlarni yo'lga qo'ya olish, bolalar jamoasida ijtimoiy-psixologik mexanizmlardan foydalanishni bilishi zarur. Jamiyat tomonidan qo'yilgan talablar bilan bir qatorda o'qituvchi o'z faoliyatida tevarak atrofidagi kishilar, maktab ma'muriyati, hamkasblari, o'quvchilar va ularning ota-onalari undan nimalarni kutishni ham esdan chiqarmasligi lozim.

O'qituvchilarning pedagogik mahorati va innovatsion tayyorgarligi

O'quvchilarni tarbiyalash dasturini ishlab chiqish va uni amalga oshirish qobiliyati yetarli darajada bo'lishi lozim.

Psixologik xususiyatlarning turlari haqida

Hozirga qadar yosh psixologiyasi sohalari — chaqaloqlik, ilk bolalik, maktabgacha davr, kichik maktab, o'spirinlik, yoshlik, yetuklik, keksalik davri bo'yicha bebaho ilmiy-amaliy ma'lumotlar to'plangan. Endi asosiy vazifa ana shu ma'lumotlarni ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida qo'llashdan iborat.

Odamga chaqaloqligidan keksalik davrigacha uning ichki imkoniyati, mayli, iqtidori, aql-zakovati, qiziqish, irodasi, his-tuyg'usi, diqqati va bilim jarayonlarining xususiyatiga ko'ra, individual munosabatda bo'lishi, bunga pedagogik-psixologik ta'limning talablariga integratsion moslashuv xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ish olib borish maqsadga muvofiqdir.

10. PSIXOLOGIYA VA TA'LIM SAMARASI

Davr hamma zamonlarda ham ta'limning yuqori darajada bo'lishini taqozo qilgan. Barcha rivojlangan mamlakatlarda xalq ta'limi tizimining muvaffaqiyati ushbu sohada psixologik xizmatni har tomonlama to'g'ri va samarali tarzda tatbiq etish bilan bevosita bog'liq ekanligi e'tiborni tortmoqda.

Tegishli adabiyotlar tahlili va kuzatishlarimiz natijasi shundan dalolat bermoqdaki; maktabga psixologik xizmat tizimining ilmiy va amaliy vazifalari turli mamlakatlarda turlicha joriy etilmoqda. Bizning umumta'lim maktablarimizda psixologik xizmat tizimi o'ziga xos usulda joriy etilgan va dastlabki eksperimental tadqiqotlar olib borilyapti.

Maktabda ta'lim olayotgan har bir bola iqtidorini, individual imkoniyatlarini va boshqa qator shaxsiy sifatlarini batafsil o'rganmay, tahlil qilmay turib mazkur o'quvchi kelajagini pedagogik jihatdan to'g'ri baholab bo'lmaydi. O'quvchilarning faolligini ta'minlashda bugungi kunda psixologik xizmat tizimi tomonidan bartaraf qilinishi lozim bo'lgan qator muammolar mavjud.

Bolalarni ruhiy intellektual tayyorgarligi asosida maktabga qabul qilish shunday masalalardan biridir. Keyingi paytda olti, yetti yoshga kirgan barcha bolalarni yoppasiga maktabga qabul qilish an'anaga aylangan. Psixologlar esa hech qachon ishni bunday tartibda hal etishga yo'l qo'ymagan bo'lar edilar. Sababi, har bir bola ham aqliy, ham jismoniy jihatdan o'ziga xos individual imkoniyatlarga ega: ba'zi bolalar olti, yetti, hatto sakkiz yoshga to'lsalar-da, ta'limni boshqa tengdoshlari qatori o'zlashtirishga tayyor bo'lmaganlar. Biz esa ularni maktab rejasiga, ba'zan esa ota-onasining xohishiga qarab, maktabga qabul qilaveramiz. Mashg'ulotlarga esa bolalarni majburan olib boramiz. Natijada bola ruhiy jihatdan turli kasalliklarga yo'liqishi mumkin. Bu esa bolaning aqliy va intellektual jihatdan tabiiy rivojlanishi ildiziga ataylab bolta urish demakdir. Bunday holatlarga zudlik bilan barham berish, ya'ni har bir maktab ta'limiga ilk bor qadam qo'ygan bolani maxsus va mukammal ishlab chiqilgan psixologik testdan o'tkazish va uning natijalari asosidagina maktabga qabul qilish haqida mas'uliyat bilan o'ylashimizga to'g'ri keladi.

Boshlang'ich ta'limda kuni uzaytirilgan guruhlarini to'g'ri tashkil etish muammosi ham g'oyat muhimdir. Ko'pgina maktablarda, aksariyat 1—2-sinf o'quvchilari darsdan so'ng 4 yoki 5 soatlab maktabda, kuni uzaytirilgan guruhlarda qolib o'qishlari kerak. Bu holda biz 6—7 yoshli bolani 7—8 soatlab maktabda ushlab turamiz. Xo'sh, bola buni xohlaydimi? Albatta, yo'q! Chunki, hatto biz kattalar ham muntazam bir joyda 7—8 soatlab qolib, o'qish yoki ishlash imkoniyatiga ega emasmiz. Axir, bolaning imkoniyatlari hali ko'proq o'yinga va uxlashga moslangan. 7—8 soatlab o'qish bir joyda bo'lish jarayonida bola zerikadi, ruhiy jihatdan toliqadi, nihoyat, maktabdan beziydi, hatto unda yuksak darajada rivoj topish mumkin bo'lgan o'quv qiziqishlari so'nishi mumkin. Eng achinarlisi, bunday hollarda u uyga borib, hatto ovqatni ham yemay uxlab qoladi. Shunday ekan, kuni uzaytirilgan guruhlar tizimini shakl va mazmunan psixologik talablar asosida qayta ishlash vaqti keldi.

Maktabda baholash ham psixologik mezonlar asosida amalga oshirilishi kerak. Psixologik-pedagogik adabiyotlardan ma'lumki boshlang'ich sinf o'quvchisi uchun eng birinchi maqsad — bu, yaxshi baho olish va shu baho orqali o'z «men»ligini ilk bor his etish, ota-onasi va kattalar hurmatiga sazovar bo'lishdir. Shuning uchun o'quvchilar yaxshi baho olishga intiladilar. Lekin ko'p hollarda baholash mezonining buzilishi o'quvchi ruhiyatiga, ayni paytda, shaxs sifatidagi taraqqiyotiga salbiy ta'sir etmay qolmaydi.

Shuning uchun boshlang'ich sinf o'quvchilarida baholashning psixologik mezonlari chuqurroq o'ylab ko'rilishi kerak. Bola shaxsini to'g'ri tushunish va uning harakatlarini tahlil qila olish zarur. «Har bir shaxs qaytarilmas temperamentdir», degan edi fiziolog olim I.P. Pavlov. Qolaversa, har bir shaxsning o'zigagina xos imkoniyatlari mavjudligi va unga hamisha jiddiy e'tibor berish zarurligi haqida O'rta Osiyoning buyuk mutafakkirlari Abu Nosir Forobiy, Abu Ali ibn Sino va Abu Rayhon Beruniy ham o'z zamonlarida alohida qayd etib o'tganlar. Chunonchi, o'qituvchi bola shaxsini tarbiyalash uchun, dastavval uning «Betakror olamiga» kira olish va shunga mos keluvchi tarbiyaviy tadbirlar rejasini tuzmog'i va qo'llamog'i lozim.

Taniqli ruhshunos olim L.S. Vigotskiy taraqqiyotidan ilgirilib ketgan ta'limgina samarali bo'lishini qayta-qayta ta'kidlagan edi. Bugun bola kattalar yordamida amalga oshirilayotgan ishni ertaga o'zi bajarishi kerak. Bunga bolani har tomonlama rivojlantiradigan, uni fikrlashga o'rgatadigan, qobiliyatini asta-sekin o'sib borishiga imkoniyat yaratadigan, tafakkurning yangidan-yangi qirralarini ochadigan pedagogik usullar va maxsus psixologik xizmat tizimi mavjud bo'lgan taqdiridagina erishish mumkin.

Yuqoridagi muammolarni hal qilish jarayonida maktab psixologlari quyidagi vazifalarni amalga oshirishlari lozim:

1. Har bir o'quvchida namoyon bo'lishi mumkin bo'lgan stress (hissiy zo'riqish) holatlariga o'tishini aniqlash (PSIXODIAGNOSTIK ISHLAR);

2. O'quv faoliyatini tashkil etish, nazorat qilish va boshqarish jarayonida o'quv faolligi va samaradorligiga salbiy ta'sir etish mumkin bo'lgan holatlarini oldindan ko'ra bilish va ularni bartaraf etish uchun muntazam ravishda tegishli tadbirlar o'tkazish (PSIXOPROFILAKTIK ISHLAR);

3. O'quvchilarning fanlarni o'zlashtirmaydigan, o'zlashtira olmaslik sabablarini aniqlash va shu asosida ular bilan alohida mustaqil ishlar olib borish, ulardagi imkoniyatlarni keng miqyosda o'rganish va rivojlantirish orqali o'quvchi shaxsidagi faollikni oshirish yo'llarini izlash (RIVOJLANTIRUVCHI VA PSIXOKORREKSION ISHLAR);

4. Har bir o'quvchining o'zigagina xos iqtidori, qiziqishlari, maqsadlari o'qish imkoniyatlari haqida shu o'quvchining o'ziga, sinf rahbariga va ota-onasiga o'z vaqtida tegishli ma'lumotlar bera olish (PSIXOLOGIK MASLAHAT ISHLARI);

5. Psixologik xizmat nizomiga amal qilgan holda har bir o'quvchi uchun «Shaxs psixologik varaqasi»ni to'ldirish. Har bir sinfdagi o'quvchilar guruhi, rasmiy va norasmiy kichik guruhlar, sardorlar va ayrim «ajralib qolgan» o'quvchilar bilan individual-psixologik ishlar olib borish rejalarini tuzish. O'quvchilarni maktabga qabul qilishda faol ishtirok etish va ularni kasbga yo'llash bilan bog'liq tadbirlar ko'lamini belgilash (UMUMIY FAOLIYAT TADBIRLARI).

Qisqasi, har bir o'quvchi uchun psixologik muhofaza imkoniyatlarini yaratish va shu asosda o'quv faoliyati samaradorligini ta'minlash zarur bo'ladi. Maktab o'quvchilariga xos psixologik qonuniyatlarga to'liq rioya qilish ta'limni tashkil etishda katta ahamiyatga ega. Shuningdek, bolalarga bilimlari va huquqlari doirasida boshlang'ich ta'lim tizimida olib borilayotgan darslarni psixologik jihatdan tahlil qilish va tegishli tavsiyalarni ishlab chiqish ta'limdagi yutuqlar omili bo'ladi. Bu jarayonda ayniqsa, aqliy va nutqiy taraqqiyotida nuqsoni bo'lgan ayrim o'quvchilar faoliyatiga alohida e'tiborni qaratish kerak bo'ladi. O'ylaymizki, maktab psixologlari tomonidan yuqorida qayd etilgan muammolarning bartaraf etilishi va vazifalarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi O'zbekistonda boshlang'ich ta'lim tizimi istiqbollarini yanada yuksakroq saviyaga ko'tarishga xizmat qiladi.

11. INTEGRATSIYA — TA'LIM JARAYONINI QULAYLASHTIRISHNING MUHIM PRINSIPI

Davlat ta'lim standartlari qabul qilingach, ta'lim mazmuni qisman yangilandi. Davlat ta'lim standarti talablari asosida yangi o'quv dasturlari va darsliklar ishlab chiqildi. Lekin kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, o'quv rejasida o'quv predmetlarning soni ortib ketgan. Chunonchi 1992-yilga qadar o'quv rejasida fanlarning soni 18 tani tashkil etgan bo'lsa, 1992-yildan 1997-yilgacha bo'lgan davr ichida ularning miqdori 21 tani, «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» qabul qilingach, 24 taga yetkazildi. Bugungi kunda esa o'quv rejasida 27 ta o'quv fani mavjud. Shu o'rinda haqli bir savol tug'iladi. O'quv fanlari miqdorini ko'paytirish orqali o'quvchining bilim darajasini oshirishga erishilayaptimi? Yo'q, albatta! Chunki:

- 1) o'quv fanlari ko'paygan sari o'quvchilarga taqdim etiladigan bilimlar maydalashib bormoqda;
- 2) o'quv darsliklarda takror materiallarning miqdori ortmoqda;

3) o'quvchining ijtimoiy tajribasiga kirmay qolayotgan bilim va tushunchalar ko'paymoqda;

4) DTSlari bilan o'quv dasturlari orasida nomuvofiqlik vujudga kelmoqda. Chunonchi hukumat tomonidan qabul qilingan boshlang'ich ta'lim Davlat ta'lim standartida 4 ta ta'lim sohasi, ya'ni «Ona tili», «Matematika», «Tabiat», «Inson va jamiyat» ta'lim sohalari berilgan holda bugungi kunda o'quv rejasida 10 ta o'quv predmeti mavjud. Bu sohada jahon tajribasiga nazar tashlaydigan bo'lsak, Singapur ta'lim tizimida boshlang'ich sinflar uchun bor-yug'i 4 ta o'quv predmeti mavjud ekan. Ular «Ona tili», «Matematika», «Estetika» hamda «Jismoniy tarbiya».

Ma'lumki, ta'lim jarayonida muayyan o'quv fani — «Ona tili», «Tarix», «Adabiyot» kabilarga oid bilimlar bilan bir qatorda xalqning ijtimoiy tajribasi, til boyligi, ma'naviy, madaniy qadriyatlari, axloqiy me'yorlari bilim va tushunchalar shaklida o'rgatilishi lozim. Amaldagi ta'lim jarayonini tahlil qilish natijalari shuni ko'rsatadiki, u yoki bu o'quv fani mazmunida o'quvchining ijtimoiy tajribasiga kirmay qolgan bilim va tushunchalar mavjud. Buning asosiy sababi o'quv fanining mazmunini o'ta murakkab yoki haddan tashqari sodda ekanligidadir. Agar o'quv materialini o'ta murakkab bo'lsa, o'quvchi uni to'liq o'zlashtirishga qiynaladi. Agar sodda va takror holda ifodalangan bo'lsa, bunday o'quv materialini o'zlashtirishga ehtiyoj sezmaydi, undan bezadi.

Bugungi kunga kelib, jahondagi mamlakatlarning 70 foizi ta'lim tizimida integrativ xarakterdagi o'quv dasturlari va darsliklardan foydalanib kelmoqda. Har bir mamlakat ayni shu davlatning ta'lim tizimiga qo'yilgan buyurtmaning tabiatidan kelib chiqqan holda integratsiyaning turli darajalarini ishlab chiqqan va joriy qilib kelmoqda. Chunonchi, Buyuk Britaniya ta'lim tizimida, asosan, integrativ fanlar joriy qilingan bo'lsa, Koreya va Shveysariyada integratsiyalashgan fanlar yoki alohida o'quv predmetlari, Avstraliyada integratsiyalashtirilgan fanlar, Yaponiya, Shimoliy Irlandiya, Uels, Gong-Kong va Germaniyada ham alohida fanlar, Vengriyada madaniyat yo'nalishidagi o'quv predmetlari, inson va tabiat, integrativ fanlar, Niderlandiyada alohida o'quv predmetlari, Irlandiyada fan va texnika kabi bloklarda barcha o'quv fanlari mujassamlashtirilgan holda o'qitiladi. Bizda bu sohada dastlabki qadamlar qo'yilmoqda. Jumladan, boshlang'ich ta'lim Davlat ta'lim standartlarida «Ona tili», «O'qish», «Matematika», «Tabiat» hamda «Inson va jamiyat» ta'lim sohalari belgilab berilgan.

«Inson va jamiyat» ta'lim sohasi o'zida bir qator o'quv predmetlariga oid tushunchalarini mujassamlashtirgan. Chunonchi, axloq, nafasat tarbiyasi, iqtisodiy bilimlarga oid tushunchalar, jamiyiy tarbiya, badiiy ta'lim, huquqiy bilimlar va h.k. Ta'lim jarayonini integrativ dasturlar va darsliklar asosida tashkil etish orqali o'quv-bilish jarayoni natijasida samaradorlikka erishish nazarda tutilar ekan, bunda integratsiyaning turli darajalaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Masalan:

1. Mavzularni ketma-ket taqdim etish asosidagi integratsiya, bunda o'quv materiallarini bayon qilishda konsentrizm prinsipiga amal qilinadi, ya'ni oldingi o'quv materiali keyingisini to'ldiradi. Lekin hech qachon bir-birini takrorlamaydi. Bunday integrativ natijasida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalari hamda ijodiy faoliyatlari muntazam ravishda rivojlanib, boyib boradi.

2. O'quv dasturlarida o'zaro uyg'unlashgan nuqtalarni vujudga keltirishga asoslangan integratsiya, bunda ham takror tarzda beriladigan taftalologiya asosidagi o'quv materiallarining oldini olish uchun dasturlarda mavzulararo uyg'unlikni ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Masalan, 1-sinfda qish fasli haqida «Atrofimizdagi olam», «O'qish», «Ona tili» darsliklarida turli xildagi, ammo mohiyati va ma'lumot berish darajasi bir xil bo'lgan matnlar o'rniga faqat «O'qish» kitobining o'zida qishning barcha xususiyatlarini ochib bera oladigan badiiy matn va rasmlarni berish maqsadga muvofiqdir. Buning afzalligi shundaki, o'quvchining vaqti va kuchi tejiladi, darsliklarning hajmi ixchamlashadi va tannarxi arzonlashadi.

3. Modullashgan integratsiya, bunday integratsiya doirasida turdosh o'quv fanlariga oid bilim va tushunchalar bir tizimga solingan holda, uzviy tarzda o'quvchilarga taqdim etiladi. Chunonchi, aniq fanlar blokida «Matematika», «Algebra», «Geometriya» va «Chizmachilik»ka oid bilim va tushunchalar muayyan bir tizimga solinadi va ayni bir mavzu mazkur tizim doirasida o'quvchiga bir marta, ammo uzviy tarzda taqdim etiladi.

4. Integrativ dasturlar, ushbu turdagi dasturlar bir necha o'quv predmeti yoki o'quv fanlariga oid mavzularni uyg'unlashgan holda taqdim etishni nazarda tutadi. Bugungi kunga kelib, o'quv rejasida o'quv predmetlarining soni maksimum ko'payib ketganligini hisobga oladigan bo'lsak, bunday turdagi dasturlar yaratishga kuchli ehtiyoj sezilmoqda. Dastur va darsliklarni o'rganish, tahlil qilish natijalari shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich sinflardagi yo'l harakati

qoidalari, odobnoma, konstitutsiya saboqlari, salomatlik darsliklariga oid tushunchalarni yagona holda «Ona tili», «O‘qish» dasturlariga uyg‘unlashtirish lozim. Bunday tadbirni amalga oshirish ayni bir vaqtning o‘zida ham pedagogik, ham iqtisodiy nuqtayi nazaridan samaralidir.

5. Mavzulararo integratsiya, bunda ayni bir kurs doirasida beriladigan o‘quv materiallari boshqa bir kurs doirasidagi mohiyatan yaqin bo‘lgan o‘quv materiallari bilan uyg‘unlashtiriladi. Masalan, matematik muloqot madaniyatini shakllantirishga oid mashqlarni «Ona tili» darsliklarida iqtisodiy bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan masalalar, mashqlar va matnlarni «Matematika» va «Ona tili», «O‘qish» darsliklarida berish mumkin.

Ta’limda integratsiyani amalga oshirish ham iqtisodiy jihatdan, ham pedagogik, gigiyenik va fiziologik jihatdan muhim ahamiyatga ega. Masalan, «Atrofimizdagi olam» hamda «Odobnoma» kabi o‘quv predmetlarini «O‘qish» va «Ona tili» mazmuni bilan uyg‘unlashtirish natijasida faqatgina I-sinfda 63 soat iqtisod qilinadi. Shuningdek, o‘quvchini vaqti va kuchi tejaladi, ortiqcha zo‘riqishning oldi olinadi. O‘quv-bilish jarayonining samaradorlik darajasi ortadi.

Dasturda o‘quv fani mazmunining maksimum darajasi hamda sinfma-sinf belgilab berilgan DTS asosida o‘quvchining bilim hamda tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan minimum talablar o‘z ifodasini topmog‘i lozim. Shu nuqtayi nazardan qaraganda 5—9-sinf o‘quv dasturlari ham jiddiy islohotga muhtoj.

Amalga oshirilishi ko‘zda tutilayotgan integratsiya darajasi ayni bir o‘quv fani mazmunida chuqur, har tomonlama aloqadan boshlanib, o‘quv fanlararo bog‘lanish, uyg‘unlashtirish darajasida ta’minlanishi kerak.

1. Ona tili va o‘qish o‘quv fanlari mazmunida umumiy komponentlar, nutq o‘stirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni, axloq va nafosat, muloqot madaniyati me’yorlarini, tabiat, jamiyatga oid tushunchalarni matnlar, she’rlar maqollar, mashqlar, hikoyalar orqali yetkazish nazarida tutilganda «Odobnoma», «Atrofimizdagi olam», «Iqtisodiy bilim asoslari», «Konstitutsiya saboqlari» kabi darslik va o‘quv qo‘llanmalarga ehtiyoj qolmaydi.

2. 5—9-sinflarda ham «Ona tili», «Adabiyot», «Tarix», «Davlat va huquq asoslari» kabi o‘quv fanlari mazmuniga Vatan tuyg‘usi, milliy istiqloq g‘oyasi va ma’naviyat asoslari, Konstitutsiya saboq-

lari, hadis ilmi saboqlari kabilarni uyg'unlashtirish, qulaylashtirish nuqtayi nazardan samaralidir. 5—9-sinflarda o'quv fanlarini integratsiyalash natijasida o'quv rejasiga quyidagi ijtimoiy-gumanitar fanlarni kiritish mumkin: «Ona tili», «Adabiyot», «Tarix», «Davlat huquq asoslari», aniq fanlar «Matematika», «Informatika». Tabiiy fanlar — «Fizika», «Kimyo», «Biologiya», «Geografiya» va h.k. Bunda birinchi navbatda o'quv materiallarini mazmun jihatdan boy va ko'p ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Hunday maqsadga erishish uchun ta'lim mazmunida o'quv fanlarini integratsiyalashning ilmiy va pedagogik asoslarini ishlab chiqish; ta'lim jarayonini liberallashtirish talablaridan kelib chiqqan holda o'quv rejasini takomillashtirish; integral mazmunda o'quv dasturlari va dasturlarining yangi avlodini yaratish; ta'lim mazmuni integratsiyasini ishlab chiqish va qabul qilish maqsadga muvofiqdir.

Integratsiyaning u yoki bu darajasini ta'lim jarayonida qo'llash natijasida o'quvchining vaqti va kuchi tejaladi, uning bilish imkoniyatlari kengayadi. Ota-onalarning hamda davlatning o'qish jarayoniga sarflaydigan mablag'ini iqtisod qilish imkoniyati vujudga keladi; mavzulararo integratsiya asosida o'quv-bilish jarayoni natijalarini istiqbolli qilish mexanizmlari yaratiladi; integratsiyalashtirilgan ta'lim jarayonini boshqaradigan o'qituvchilarini tayyorlash va malakasini oshirishni yo'lga qo'yish uchun huquqiy metodik imkoniyatlar yaratiladi; integral dasturlar asosida o'quv-biluv jarayonining iqtisodiy jihatdan samaradorlik darajasi aniqlanadi; o'quv-biluv jarayonini integral dasturlar asosida tashkil etish sohasidagi xalqaro tajribalardan keng foydalanish uchun qulay imkoniyatlar tug'iladi.

12. BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK BILIMLARINI INTEGRATSIYALASH JARAYONI

Avvalo, o'qituvchilarning amaliyot texnologiya tayyorligi qanchalik chuqur va ko'p qirrali bo'lsa, shu vaqtning o'zida psixologik-pedagogik integratsiya vektorini to'g'ri tanlash lozim. O'ylaymizki uchta har xil, lekin bir-biri bilan bog'liq bo'lgan komponentlarni metodologik, texnologik va shaxsiy integratsiya psixologik-pedagogik bilimlarni o'rganish uchun ancha oson, tez va produktiv bo'ladi.

Birinchisi nazariy bilimlarga ega bo'lish va metodologik refleksiya tajribasini oshirish orqali faollashadi. Ikkinchidan, metodik va texnologik darajadagi psixologik-pedagogik bilimlarni o'z ichiga oladi. Uchinchidan, vazifaga pedagogning shaxsiy rivojlanishi, o'zligini shakllantirish kiradi. Yuqoridagi komponentlar o'z ishlarida quyidagi talablarga javob berishi kerak:

- bilim olish bo'lajak o'qituvchining kerakli xususiyatlarini va ish turlarini shakllantirishga qarab olinishi kerak;
- psixologik-pedagogik fanlar strukturasi jarayoniga ko'ra, bilimga ega bo'lish sharoitlarini yaratib berishi kerak;
- bo'lajak o'qituvchining imkoniyat, xususiyat, shakl va metodlarning birligini, qulay tanlov sharoitlarini yaratib berishi kerak, shuningdek, o'quvchilarni egallagan tushunchalarini o'quv jarayonida uzluksiz foydalanishi va rivojlanish sharoitlarini yaratib berish kerak. Natijada «Bolalik» pedagogika asosidagi ish bo'yicha psixologiya integratsiya kursi ishlab chiqilgan. Bularning ichida quyidagi ma'noli qatorlar yotadi: ish bo'yicha bolalikning turli davrlardagi tarbiya va bilim olinishining texnologiyasi, bolalikning turli davrlarda shaxsni shakllantirishi va rivojlanishining psixologik-pedagogik tashxisi, shaxsiy o'zlashtirish texnologiyalari.

Agar psixologik-pedagogik bilimlar integratsiyasini o'z-o'zidan yaralgan, izolatsiyalangan holat emas, balki psixologik-pedagogik sikl fanlarini didaktik sintezi sifatida qaralsa, bu holatda savol tug'ilyapti, bu xususiyatni, holatni o'lchash mumkinmi? Bo'lajak o'qituvchining shakllanishiga salbiy yoki ijobiy ta'sirini bilishga texnologiya samaradorligini qay darajada aniqlash mumkin? Bu holatda vujudga kelgan bilimga baho berish aniqlash tizimi mukammal, deb hisoblamaydilar va bu pedagogik monitoringga murojaat etishga majbur qiladi. Psixologik monitoring psixologik-pedagogik integratsiyasini har tomonlama kuza-tishga imkon beradi.

Pedagogik monitoring yordamida psixologik-pedagogik integratsiya jarayonini baholash uchun, umumiy pedagogik baholash tizimlaridan (uzoq davom etuvchi metodi, bilimlar metodi, tekshirishning turli xillari va h.k.) shuningdek, tekshirilayotgan jarayon holatining metod va shakllari (informatsiyani kodlashtirish va dekodlashtirish, ishni testlar va tekshiruv ishlari, terminologik kesishuvlar, intellektual kartalar bilan ishlash, anketalash va h.k.)dan foydalaniladi.

Asosiy ishlab chiqarilgan bilim monitoringi prinsiplari. Ular ichida:

1. *Uzluksizlik prinsipi*. Bu monitoring butun dinamik rivojlanuvchi tizim sifatiga qarash degani. Bu tizim nafaqat sonli xarakter balki sifatli karakterdagi struktur-funksional o'zgarishlarni o'z ichiga oladi. Monitoring bir sifatdan ikkinchisiga o'tish vaziyatlarini, bilim va jarayon an'alarini korreksiya qilish va to'g'rilash yoki bo'shashtirish holatlarini belgilashi lozim.

2. *Ilmiy prinsip*. Bu kuzatishning asoslangan xarakteristikasiga tayangan holda kuzatish degani. Bu holatga maishiy turmush tomonidan yondashish man etiladi.

3. *Tarbiya yo'nalishining prinsiplari*. Pedagogik monitoring butun maqsad hisoblanmaydi, balki bilim jarayonlarini chuqur o'rganishga va pedagogik boshqaruvni ishonchli uskunasi sifatida qo'llaniladi. Shaxsning har qanday darajadagi kamsitadigan texnologiyalarini pedagogik monitoring metodlarida, prinsiplarida qo'llash man etiladi.

4. *Tashxis-ma'lumot yo'nalishi prinsiplari*. Kuzatuv jarayonida olingan axborot bilim jarayonini oldindan ishlab chiqarilgan ko'rsatkich va kriteriyalariga to'g'ri kelishi kerak.

5. *Pragnostik (ma'lumot beruvchi monitoring prinsiplari)*. Pedagogik monitoringni ma'nosi pedagogik jarayoni noma'lum bir vaqtda yoki ma'lum vaqtda, belgilangan darajada holatini ko'rishi uchun emas, balki an'alar haqida bir to'xtamga kelishish uchun, bilim olish jarayoni u yoki bu tomonini rivojlanishini ko'rishi uchun, xohlamaydigan holatlarini transformatsiyasi, blokirovkasi yoki to'xtashi, pedagogik bilimni ijobiy tomonlarini qo'llab-quvvatlashni oldindan ko'ra olish qobiliyatlarini oshirish uchun foydalaniladi.

Shartli prinsiplar qatoridan o'chirmasdan turib, biz psixologik-pedagogik integratsiya spetsefik prinsiplarini ishlab chiqardik. Ularning ma'nosi tekshiruvni tashkil qilishdangina emas, balki protsessual-texnologik jarayonlarini ishlashini ko'rib chiqamiz.

1. Natija olish va regularlik prinsiplari. Regulativ vazifasini bajarishi uchun qulay realizatsiya tizimi. «Regulatsiya-soregulatsiyasini regulatsiyasi» ishlab chiqilgan. Bu bo'lajak o'qituvchining shakllanishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Kuzatuvning baza komponenti quyidagicha bo'ladi:

- har xil o'z rivojlanishining perspektivasini aniqlashni bilish;
- variantli holatlarda qulay qarorni tanlashni bilish;

- o'z-o'zini korreksiya qilishi uchun har xil metodlardan foydalanishni bilish;

- bilim olish holatini kuchaytirish uchun xotira, qabul qilish, iroda, nutq, fikrlash qirralarini ishlata bilish.

- istak, odat, qiziqishga bog'liq holda natijani oldindan bilish.

2. Bilim berishi metodlarini ilg'orlashtirish va o'quv materiallarini, chizmalarini qayta ishlash uchun didaktik kelishuv prinsipi belgilangan. Bu prinsip integratsiya bilimlarini bosqichma-bosqich shakllanishi metodlarini qulay va to'g'ri yo'nalgan birligi, ilmni rivojlanishini perspektivlarini hisobga olgan holda o'quv prinsiplarining dinamikasi va dialektikasini to'g'ri yo'naltirishga, pedagogik birlikka amal qilishni o'z ichiga oladi. Demak, bu prinsipni uskunaviyligi, bilim kengashlarini tizimliliigi va diskreminatligini boshqarish yo'li bilan integrativ xarakterni xususiy etadi.

3. Tizimga integragal yondashuv prinsiplari jarayoni nafaqat qator elementar yig'indisini, tomonlar xususiyati sifatida, balki sifatli yangiliklar birligi sifatida qarashini o'z ichiga oladi. Spetsifik informatsiyani qayta ishlab chiqarish o'z ichiga fikrlash, taqqoslash, nisbiylik, effektiv prinsiplarini oladi. Shuning uchun pedagogning fikrlashi ijodiy izlanishlar ko'rinishida bo'lishi kerak. O'rganilayotgan obyektни obyektiv ko'rinishini beruvchi diagnostik muolajalarini izlash kerak.

4. Butunlik prinsipi o'rganilayotgan bilimning, kamida uch yo'naltirilgan vektorlik jarayonlarini o'z ichiga oluvchi jarayonni nazarda tutadi. Vektorlilik, ya'ni kuzatishga belgilangan holatni, yo'nalayotganligini ajratib olishidir. Monitoring vaqtida vektorlik jarayoni bir qancha ko'rinishga ega bo'ladi, ular ichida:

- o'quvchilarni individual imkoniyat darajasini shakllanishiga qarab, bilim berish va o'qitish maqsadlari;

- informativ bloklarni metodik uzatish;

- bilim jarayonining oxirgi natijalari;

- o'qituvchining yetuk pedagogik tayyorligini integrativ qirralari.

Psixologik-pedagogik jarayon monitoringini aniq obyektini tanlashda, biz monitoringni pedagogik va boshqaruv komponenti informatsion tizimlarni elementi, degan xulosaga kelimiz. Bundan chiqqan holda pedagogik monitoring jarayonli bo'shliqni o'z vaqtida aniqlab shakllangan bilim bilan o'z vaqtida berilgan jarayonni korrektirovka yo'li bilan to'ldirish imkoniyatini beradi.

Psixologik-pedagogik integratsion jarayon samaradorligi va tizimli, integrallashgan bilimni shakllanishi uchun quyidagi kuza-tishlarda berilgan yo'nalishlar bo'yicha tashkillashtirish kerak:

- talabalarning bilimlarni o'zlashtirishga psixologik tayyorligini o'rganish;

- bilim olishga tayyorgarlik darajasini aniqlash;
- dalillar, holatlar, qonunlar haqidagi bilim doirasini aniqlash;
- pedagogik jarayon, o'qituvchilik mehnatiga motivatsion va emotsional munosabatini aniqlash. Talabaning kasb tanlashida bu indikator juda katta ahamiyatga ega. Bu indikator orqali bo'lajak o'qituvchini o'qitish va bilim berish jarayoniga munosabatini aniqlash mumkin. Psixologik-pedagogik o'qitishning integratsion protsessini texnologik ta'minlanuvini tahlili, o'qituvchini bilim berish metodlarini, usullari va shakllarini to'liq aks ettirishga yordam beradi.

Pedagogni professional komponentlik xarakteristikasi. Bu yo'nalishdagi axborot yetuk bilimdonlik darajasini aniqlashda yordam beradi, psixologik-pedagogik bilimlarni integratsiya jarayonini tashkillashtirishda o'qituvchini ilmiy yondashishiga integratsiya bilimlarini mukammal bilishiga yordam beradi, professional refleksiyaga va korrektiv harakatlarga qobiliyatligi o'z vaqtida yordam beradi.

O'qituvchining etallon modeliga mo'ljal olish. Bu model quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

1. Kerakli motivatsion sferani, pedagogik ideal va professional pozitsiyani o'z ichiga oluvchi pedagogik yo'nalishlar.

2. Professional kompetentlik o'zini shaxsiy o'qitish tajribasidan olingan bilimdonlik, odatlar, ko'nikmalar, pedagogika teoriyasi va tarixi, pedagogik jarayonlarning texnologiyalarini o'z ichiga oladi.

3. Shaxsiy sifatlar o'z ichiga: individual-psixologik sifatlarni oladi (o'ziga baho berish, odatlar darajasi, to'g'ri yo'nalganligi).

Shuningdek, interaktiv sifatlar (muloqotda bo'lishi, emotsional ekspressiya), pedagogik takt, ijtimoiy persepsiya, muloqotga haqqoniy qiziqish;

- status-pozitsion sifatlar (ifoda, dissiplina, egiluvchan xususiyatlar, o'quvchining pozitsiyasini qabul qilishga tayyorlik, ta'sir etish yo'llarini o'zgartirishga tayyor bo'lish);

- professional-ilmiy sifatlar (yuqori professionalizm, o'qitish jarayonini baholashda haqqoniy va obyektiv bo'lish);

- didaktiv sifatlar (emotsional yordam beruvchanlik, mehr-oqibat, emotsional ko'rinishlarni o'z vaqtida boshqara olish).

4. Psixologik sifatlar — temperament, jins va yosh sifatlari harakatchanlik va nerv tizimi mustahkamligi, emotsional mustahkamlik, fantaziya va xayolni yuqori darajaliligi, intellektual rivojlanishni qabul qilish, fikrlash bo'yicha darajasi va h.k.)

Bu sifatlarda quyidagi ko'rsatkichlar kuzatiladi:

- bilimlarni mustahkamlash;
- tajriba va bilimdonlik masalalarini yechishda bilimlarning faolligi;
- pedagogik vaziyatlarda bilimlarni qo'llash;
- bilimlarning miqdori;
- pedagogik vaziyatlarda bilimlarni mustahkamligi va qo'llanilishi;
- professional motivatsiya strukturasi;
- intellektual rivojlanish dinamikasi;
- o'qish jarayonidan qoniqish, bilim olishni shaxsiy ma'nosi.

Hamma narsa o'rganilayotgan kasb xususiyatlarini, o'qiyotganlarning xohish va imkoniyatlarini hisobga olgan holda ko'rilishi kerak.

Integratsion yondashuv asosida M.M. Semagoning psixologik diagnostika konsepsiyasi

Psixologik diagnostika jarayonida ko'pchilik mutaxassislar, o'tgan asrning 90-yillari oxirida rivojlanish paydo bo'lganligini, oxirgi vaqtlarda bolaning psixologik kvalifikatsion holatining murakkabligini, o'sib borishini belgilayapti. Bu holat barcha darajadagi o'qitish dasturlarini murakkabligi bilan yana ham chuqurlashmoqda. Shuningdek, mamlakatdagi ijtimoiy madaniy holatni birdaniga o'zgarib ketishi bilan birga (shu qatorda rivojlanish va muloqotning vertual shakllari, aholini zamonaviy o'qitish yo'llari bilan ta'minlanishi. Bunday aniq holatlar, yangi yo'llarni izlash kerakligini keltirib chiqarmoqda.

Bu psixolog tashxisining yakuniy natijasi tizimli, ko'p darajali bo'lish kerakligini ta'kidlagan. Bu tashxis bilan nafaqat faol fenomenal holatini tasniflashda, balki uni keyingi bilim olish va rivojlanish tahlilini aniqlab berishi kerak. Shu qatorda effektiv korreksion ish dasturini ham ishlab chiqarishi kerak. Masalaning bunday konseptual ko'rinishi integrativ yondashuv, deb hisoblanadi va shu bilan birga bu bo'lim integrativ psixologik diagnostika sifatida ko'rib chiqiladi.

Integrativ psixologik tashxisning yana bir asosiy ko‘rinishlaridan biri bo‘lib, psixoxarakterning ba‘zi ko‘rinishini shakllantirish darajasi tahlili hisoblanadi. Bunday ko‘rinishlarga birinchi o‘rinda bolaning oraliq-vaqt tasavvurini shakllanish darajasi kiradi. Bu ko‘rinish nafaqat bolani bilim olish negizlari, balki effekt rivojlanish negizlariga ham yetadi. Oraliq-vaqt tasavvuri o‘z navbatida bolaning harakat aktivligini rivojlanishi bilan chambarchas bog‘liqdir. Psixoharakat antogenezining yana bir ko‘rinishi bo‘lib, effekt regulatsiyani bazali tizimining shakllanishi hisoblanadi.

13. «PEDAGOGIKA» VA «UMUMIY PSIXOLOGIYA» FANLARINI INTEGRALLASH

«Pedagogika» — lotincha so‘z bo‘lib, *peda*—bola, *logika* esa yetaklash, ya‘ni bola yetaklash ma‘nosini bildiradi. Umumiy qilib aytganda, tarbiya haqidagi fandır. Tarbiya ijtimoiy hayotning zaruriy hodisasi hisoblanadi. Bundan ko‘rinib turibdiki, «Pedagogika» fani o‘sib kelayotgan yosh avlodni yetuk inson qilib tarbiyalash uchun ta‘lim-tarbiyaning mazmuni, umumiy qonuniyatlar va amalga oshirish yo‘llarini o‘rgatuvchi fandır. Pedagogikaning tarbiya sohasidagi obykti o‘sib kelayotgan yosh avlod bo‘lganligi uchun pedagogika insonni o‘rganuvchi fanlar bilan ham bog‘lanadi. Bular — umumiy anatomiya va odam fiziologiyasi, ayniqsa, bolalarning anatomiyasi va fiziologiyasi pedagoglarning yosh anatomiyasi va fiziologiyasi pedagogikaga yaqin bo‘lgan fanlar.

Pedagogika umumiy psixologiya, bolalar psixologiyasi, pedagogik va ijtimoiy psixologiya bilan chambarchas bog‘langandır. Shuningdek, pedagogika umumiy va maktab gigiyenasi, psixogigiyena sohasidagi ilmiy ma‘lumotlarga tayanadi. Pedagogika ijtimoiy fanlarga ham yaqindir. U falsafa, ekonomika, sotsiologiya, etika, estetika kabi fanlarning ma‘lumotlaridan keng foydalaniladi. Demak, pedagogika va umumiy psixologiya boshqa fanlarga qaraganda, ko‘proq bir-biri bilan bog‘langan. Misol uchun, «Pedagogika» darsligidagi III bob «Bola shaxsining rivojlanishi, tarbiyasi va kamoloti» mavzusida quyidagilar bayon qilingan. O‘sib va rivojlanib kelayotgan inson tarbiya obykti hisoblanadi. Insonning hayoti davomida rivojlanish jarayoni davom etadi. Inson turli o‘zgarishlarni, jismoniy va ruhiy, miqdor va sifat o‘zgarishlarni o‘z hayoti davomida kechirib boradi. Odamzodda bo‘ladigan jismo-

niy o'zgarishlarga uning bo'yining o'sishi, vaznning og'irlashib borishi, suyak va mushak tizimlarini, ichki organlari shu bilan birga asab tizimlarining o'zgarishi kiradi.

Irsiyat — bu genetik dasturda berilgan sifatlar va xususiyatlarning ota-onalardan bolalarga o'tishi.

Muhit deganda, kishiga ta'sir etadigan tashqi voqealarning yig'indisini tushunamiz. Bunga tabiiy muhit (geografik), ijtimoiy muhit, oila muhiti va boshqalar kiradi. Ular bolalarning rivojlantirishiga alohida ta'sir etadi.

Tarbiya — biron maqsadga qaratilgan jarayon, u doimo muayyan dasturga ega bo'ladi va buning uchun maxsus vakolatga ega bo'lgan kishilar tomonidan amalga oshiriladi. Hammamizga yaxshi ma'lumki, bolaning layoqatini rivojlantirish, qobiliyatli bolaga aylantirish va hayotga mos qilib o'stirish uchun ko'p mehnat qilish kerak. Maxsus muassasalarida tarbiyachining rahbarligida amalga oshiriladigan tarbiya jarayoni yetakchi hisoblanadi. Chunki tarbiya bu — muhit ta'siri bera olmagan fazilatlarini o'zlashtirib, bilim va ma'lumot egallashiga zamindir. Tarbiya tufayli tug'ma kamchiliklarni ham o'zgartirish mumkin. Masalan, ko'rlar, gunglar ham o'qitilib, sog'lom bolalar qatoriga tayyorlanadi. O'qituvchi-tarbiyachilar o'quvchilarning barcha yosh davrlari jismoniy va ruhiy taraqqiyotidagi o'zgarishlari, ularning o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida yetarli ma'lumotga ega bo'lishlari lozim. Bu ma'lumotlar o'qituvchining ba'zi masalalarini ijobiy hal qilish uchun, o'quvchilarga pedagogik ta'sir o'tkazish rejasini tuzilishi uchun zarurdir. Endi «Umumiy psixologiya» darsligi bilan solishtirib ko'ramiz.

«Psixo» — jon, ruh, «logos» — fan, ya'ni psixologiya ruh haqidagi fandır. U kishining ichki ruhiy dunyosini o'rganadi. Psixologiya fani taraqqiyotiga eramizdan avval yashagan Aristotel asos solgan. Hayot sezgidan boshlanadi. Biz tashqi voqealarni, hodisalarni, sezgilar orqali qabul qilamiz, faqat sezib qolmay, ularni butun holida idrok etamiz. Narsa va hodisalar haqida fikr yuritamiz, gapiramiz, bu esa tafakkur va nutq jarayonlariga bog'liq. Ko'rgan, bilganlarimizni eslaymiz, bu xotira.

Insonda sezgi, diqqat, idrok, xotira, tasavvur, tafakkur, xayol, nutq, his-tuyg'u va iroda kabi ruhiy jarayonlar kiradi. Ana shu jarayonlarning faollashishi yoki susayishi ruhiy holatlar deyiladi. Ularga quvnoqlik, xursand bo'lish, g'azablanish, uyalish, naf-ratlanish, parishonlik va qo'rqib ketish kiradi. Insonning ruhiy

xususiyatlariga xarakter, qobiliyat va temperament kiradi. Psixologiya fani yuqorida sanalgan ruhiy jarayonlar, ruhiy holatlar va ruhiy xususiyatlarni o'rgatadi. U quyidagi tarmoqlarni o'z ichiga oladi:

1. Umumiy psixologiya.
2. Bolalar psixologiyasi (bu kichik yoshdagi, maktab, o'rtada katta maktab o'quvchilari bilan shug'ullanadi).
3. Ta'lim psixologiyasi asarlari.
4. Pedagogika psixologiyasi.
5. Tibbiyot psixologiyasi.
6. Kosmos psixologiyasi.
7. Sud psixologiyasi.
8. Savdo psixologiyasi.
9. Harbiy psixologiya.
10. Maxsus psixologiya.
11. Sport psixologiyasi.

Yuqorida aytib o'tiladiganlarning barchasi hozirgi zamon psixologiyasining bir qancha fanlar bilan chambarchas bog'liqligidan dalolat beradi. U falsafa, tabiiy, ijtimoiy fanlari o'rtasida joylashgan va katta, oraliq mavqeyiga ega. «Umumiy psixologiya» dasturidagi «Shaxs», ya'ni «Psixologiyada shaxs tushunchasi» mavzusini ko'rib chiqamiz. Umumiy maqsadni ko'zlash ya'ni ehtiyojlar, qiziqishlar, qobiliyatlar, asosiy ehtiyojlar asosida vujudga keladigan maqsadlar, intilishlar motivlar har bir kishi shaxsini xarakterlab beradi. Ana shu ko'zlangan maqsad insonni faol bo'lishga, atrofdagi muhitga muayyan munosabatini bildirishga undaydi.

Shaxsning ko'zlangan maqsadi ehtiyojlar, ya'ni odam biron bir narsaga zaruriyat sezish ta'sirida tarkib topadi. Ehtiyojlar kishi organizmining ovqat, kiyim-kechak, uy-joy, harakat qilishi, dam olish va boshqalarga bo'lgan talabini bajarishi zarur. Shu talablar bilan bog'liq biologik va ijtimoiy ehtiyojlar bo'ladi. Ehtiyojlar hishayajon bilan mahkam bog'langandir.

Qiziqishlar va mayllar

Qiziqish deganda, kishining nimagadir e'tibor berishiga, qandaydir predmet va hodisalarni bilishga intilishi tushuniladi. Qandaydir faoliyatga intilishi mayl deyiladi. Qiziqish va mayllar kishining emotsional hayoti bilan mahkam bog'liqdir.

Qiziqishlarning mazmuni insonning biron yo'lni tutganligi, u hayotda o'z oldiga qo'ygan maqsadini bildiradi. Qiziqishlar chuqurligi kishining umumiy rivojlanishi va mayli bilan bog'liqdir. Qiziqishlar bevosita va bilvosita ham bo'ladi. Bevosita qiziqish o'zidan o'zi biron narsa va hodisalarni bilishga qiziqadi. Bilvosita qiziqish esa ma'lum bir narsaga qiziqqanda, shunga bog'liq bo'lgan ikkinchi bir narsaga qiziqishlar tufayli majburiy bir holda yuzaga keladi.

Ehtiyojlarni rivojlantirish, tanlash va tarbiyalash, ularni hozirgi jamiyat kishisiga xos bo'lgan ma'naviy yuksaklik darajasiga olib chiqish shaxsni shakllantirishning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Shu o'rinda shaxs psixologiyasi uni tarbiyalash pedagogikasi, axloqiy tarbiya metodikasi bilan o'rin almashadi. Ularning vazifasi — shaxsni har tomonlama rivojlantirishi, ma'naviy ongini shakllantirish, ongli intizomni, vatanparvarlik va baynalminallikni tarbiyalash vositalari va yo'llarini aniqlashdan iborat. Bu kelajak vazifalarni ro'yobga chiqarishi shaxsning takomillashuvini ta'minlaydi.

«Pedagogika» darsligidagi «Bolalarning yosh davrlari xususiyatlari tavsifi» mavzusida quyidagilar bayon qilingan. Bolani uch yoshdan yetti yoshgacha bo'lgan davrini maktabgacha davr, deb ataymiz. Bu davrda paydo bo'lgan taassurotlar izi umrbod saqlanib qoladi. Bunda bolaning aqliy va jismoniy jihatdan tez o'sishi, olamni bilish, atrof-muhitga o'z munosabatini bildirish istagi kuchayib borayotgan davridir. Shuning uchun ota-onalar va tarbiyachilar bolalarni to'g'ri o'sishlari, aqliy, axloqiy, estetik jihatdan tarbiyalashga jiddiy e'tibor berishlari lozim.

3—4 yoshlarda bolalar, odatda, nutqning rivojlanishida katta muvaffaqiyatlarga erishadi. Bu davrda bolaning so'z boyligini asta-sekinlik bilan oshirib borish, ayni vaqtda uning sezgi va tasavvurlarini kengaytirish tarbiyachilarning diqqat markazida bo'ladi. To'rt yoshli bolada eng oddiy axloq me'yorlari va xarakter xususiyatlari: yaxshilik, itoat qilish, vazminlik, rostgo'ylik va hokazolalar ongli ravishda shakllanishi mumkin. Xususiy mulkchilik psixologiyasidagi ko'rinishda: «bu mening o'yinchog'im», «bermayman», «tegma», «ber», «men sen bilan o'ynamayman» va hokazolarning oldini olish kerak. 5—6 yoshli bolaga asosiy axloqiy tushunchalar: yaxshi va yomonni tushuntirish mumkin. Tushuntirish mashq qilish bilan birga olib borish hamda uni rag'batlantirish va jazolash bilan mustahkamlanishi kerak.

Tarbiyachilar tomonidan taqlid qilish uchun namunalar yaratilgan va foydali axloq me'yorlarini egallash sabablari ta'minlangan bo'lishi lozim. Bu yoshdagi bolalarni tarbiyalashdagi qiyinchiliklar — o'jarliklar va kattalar irodasiga besabab qarshiliklar ko'rsatishi bilan bog'langan. O'jarliklarining sababi ko'pincha bolalarning atrofidagi katta kishilar xatti-harakati, gapi bilan ishining bir emasligi, serjahlligi, farzandlariga kerakligicha e'tibor bermaslik yoki umuman e'tiborsizlik bilan bog'langan bo'ladi. Bu yoshdagi qaysar bola diqqatini boshqa narsaga qaratish, chalg'itish, o'jarlik ko'rinishlarini ataylab e'tiborsizlik kabi usullari bilan yo'qotiladi. So'z va qarash bilan tanbeh berishdan muvaffaqiyatli foydalaniladi.

Maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalar bilan olib boriladigan maxsus mashg'ulotlar asosiy psixik vazifalar: diqqat, kuzatuvchanlik, xotira, tafakkur, nutq kabilarni rivojlantirish mumkin.

Bolaning maktabda o'qishga tayyorgarligi ana shu usul bilan ta'minlanadi. Maktabgacha yoshdagi bola ko'proq o'ziga e'tibor berishingizni xohlaydi. Buni bolalarda sinab ko'rilganda, haqiqatan ham bunday bolalar o'zlarini hammadan ustun qo'yar ekan. Tanbeh bersangiz, siz bilan anchagacha gaplashmay, arazlab yurishadi. Xuddi shu mavzuni, ya'ni «Psixologiya» darsligidagi «Maktabgacha yoshdagi bolalar o'sishining umumiy shart-sharoitlari» mavzusida ko'rib chiqamiz. 3 yoshli bolalarga to'g'ri tarbiya berish, ta'sir o'tkazish, ularning harakatlarini maqsadga muvofiq yo'naltirish orqali ularda mustaqil holda ovqatlanish, kiyinish, yuvinish, o'z o'rnini yig'ishtirish ko'nikmalarini tarkib toptirishiga, ayrim topshiriq va vazifalarini puxta bajarish malakasini shakllantirishga erishish mumkin.

Maktabgacha yosh davrda namoyon bo'ladigan tarbiya jarayonidagi ayrim qiyinchiliklarning tashqi va ichki alomatlari (belgilari) ham psixologik tadqiqotlarda va ilmiy-psixologik adabiyotlarda ko'p marta ta'kidlangan bo'lib, birinchi navbatda o'jarlik, qaysarlik, injiqlik, go'yo kattalarning bolalar nazarida obro'sizlanishi va qadsizlanishi kabi illatlar bilan bog'liqdir. Bir qancha ilmiy-psixologik manbalarda aytilishicha, bu yoshdagi bolalarning his-tuyg'ulari va irodasida muhim o'zgarishlar sodir bo'ladi va bularning hammasi boladagi xudbinlik, o'ziga bino qo'yish, urishish, qaysarlik, rashk kabilarda aks etadi. O'jarlik, qaysarlik, kattalarga itoatsizlikning paydo bo'lishi — bolaning kattalarga qaramlikdan qutulishiga urinish va kichik maktabgacha

yosh davridan maktabgacha davriga o'tish mazkur yosh davridagi o'zgarishlar yaqinlashuvi «men o'zim»ni anglashi mahsulida namoyon bo'ladi.

Yosh davridagi bolalarning kattalar bilan munosabatga kirishuvining eng muhim xususiyatlaridan biri — ularning xohish-istaklarini boshqarish imkoniyati mavjuddir. Ularning kattalarni ezgu niyatiga bo'ysundirish, ota-onalar va tarbiyachilar mayliga ko'niktirish mumkinligidir. Ularning boshqa yosh davrlaridagi bolalardan farqi — ularga nisbatan xotirjam, barqarorroq his-tuyg'ular mavjudligi, ularning samarali holatlardan uzoqroqlik nizolarga kam berilishidir. Bunday bolalarda jazavali holat yuz berishi mumkin, lekin u vaqtinchalik bo'lib, yaqqol harakat bilan emas, balki tasavvur tasvirlari dinamikasi bilan bog'liq holda sodir bo'ladi. Shunday qilib, «Pedagogika» darsligining «Bolalarning yosh davrlari xususiyatlari tavsifi» hamda «Psixologiya» darsligining «Maktabgacha yoshdagi bolalar o'sishining umumiy shart-sharoitlari» mavzularida o'xshashliklarni yoritib berdi.

Demak, maktabgacha davrdagi bolalar tafakkurini, nutqi rivojlanishi ongining o'sishini, har xil o'yinlarni namunali bajarishini psixologik yo'l bilan aniqlasak, ularning tarbiyasini, intizomini tartib bilan aniqlaymiz. Shundagina kelajagimiz ravnaqi bo'lgan bolalarimiz barkamol avlod bo'lib yetishadilar.

Integratsion ta'lim: sog'lom jamiyat sari

2001-yilning noyabr oyida Andijon viloyatining Xo'jaobod tumanida bir savob ishga qo'l urildi. Tuman hokimligining tashabbusi bilan xalq ta'limi bo'limi qoshida nogiron bolalar markazi tashkil etildi. Xo'sh, bu markazni tashkil etishdan ko'zlangan maqsad nima edi?

Ma'lumki, 1948-yilda qabul qilingan «Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi»da insonning jamiki huquqlari belgilangan. Ularning qobiliyati va jismoniy holatidan qat'i nazar, ta'lim olish huquqiga ega ekanligi mazkur hujjatda alohida ta'kidlab o'tilgan. Xo'jaoboddagi nogiron bolalar markazi ham xuddi shu maqsadlardan kelib chiqqan holda tashkil etildi. Tuman hududida 300 dan ziyod turli yoshdagi nogiron bolalar bor. Ularni sog'lom jamiyat sari yo'naltirish, bilim va kasb-hunar egallashlariga ko'maklashish, dili o'ksik qalblarning sog'lom insonlar qatoridan

joy olishlariga yordam berish maqsadida tashkil etilgan mazkur markazning bir yillik faoliyatiga nazar tashlar ekanmiz, ana shunday maskanlar nihoyatda zarur, degan xulosaga keldik.

Bu yerda ayni paytda 10 dan ortiq turli to'garaklar faoliyat ko'rsatmoqda. Ota-onasi yoki biron yaqin kishisi yordamida markazga kelgan nogiron bolalar shifokor nazoratida haftada bir yoki ikki kun davomida hunar o'rganishmoqda. Duradgorlik, tikuvchilik, kashtachilik hunarlaridan tashqari, bolalar kompyuter bilan ham shug'ullanishadi.

— Markaz faoliyatidan nafaqat nogiron bolalar, ayniqsa, ularning ota-onalari juda mamnun bo'lishmoqda, — deydi tuman xalq ta'limi bo'limi mudiri Tohirjon Tojiddinov. — Nogiron bolalar markazi tuman xalq ta'limi bo'limi tashxis markazining doimiy nazoratida. Mutaxassislarimizning sa'y-harakati bilan nogiron bolalarning sog'lom jamiyat sari intilishi, kasb-hunar egallashga bo'lgan qiziqishi kuchaymoqda. Eng asosiy maqsadimiz, nogiron bolalarning sog'lom tengdoshlari bilan integratsiyalashuvini amalga oshirishdan iborat.

Integratsion, inklyuziv ta'lim joriy etilgan mamlakatlar tajribasidan ma'lumki, mazkur tizimda har ikki tomon — alohida yordamga muhtoj bolalar ham, sog'lom bolalar ham o'zaro manfaatdor bo'lishadi. Nuqsonli bolalar umumta'lim maktablarida o'qir ekan, o'zlarini kamsitilgan holda his qilishmaydi, aksincha, shu jamoani to'laqonli a'zosi ekanliklarini anglashadi. Oqibatda o'z-o'zini hurmat qilishlari, yashashga bo'lgan umidlari, ishonchlari ortadi. Sog'lom bolalar esa jamiyat turli tushunchalar, turli dunyoqarashdagi insonlardan iborat ekanligiga ko'nikishadi, muhtoj do'stlariga yordam bera olayotganliklaridan mamnunlik tuyg'usini his etishadi. Ayni paytda Andijon viloyatida 6000 dan ziyod nogiron va rivojlanishda nuqsonli bo'lgan bolalar aniqlangan. Ular uchun viloyatda 14 ta maxsus ta'lim muassasasi tashkil etilgan. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun 18 ta bolalar bog'chalari mavjud. Mazkur muassasalarda 3420 nafar bolalar ta'lim-tarbiya olmoqda. Shuningdek, 600 dan ziyodroq nogiron bolalar uy sharoitida yakka tartibda parvarish qilinib, maktabga tayyorlanmoqda. Nogironlar ta'limi bo'yicha mamlakatimizda katta tajriba maktabi yaratilgan. Viloyatda ham mazkur ta'lim jonkuyarlari ko'pchilikni tashkil etadi.

Ma'lumki, integratsion ta'lim mamlakatimizda hali u qadar takomillashgani yo'q. Bir qator rivojlangan xorijiy davlatlarda integratsion ta'lim yaxlit tizimga aylanib ulgurgan. O'zbekiston

Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunida belgilanganidek, nuqsonli bolalar faqatgina ota-onalari yoki biror yaqinlarining roziligi bilangina maxsus ta'limga o'tkaziladi. Shu tufayli hamda dunyo tajribasida aks etgan yaxshi niyat bois, viloyatda 2 ming nafar nuqsonli bola umumta'lim maktablarida sog'lom tengdoshlari bilan birga ta'lim olishmoqda.

Viloyatda integratsion ta'lim sohasini o'rganish jarayonida bu borada bir qator muammolar ham borligini kuzatdik. Integratsion ta'limning tub mazmuni va maqsadini to'laqonli ro'yobga chiqarish oson kechmaydi, albatta. Sohada ba'zi tashkiliy ishlarni amalga oshirish kerak. Bulardan biri — pedagog xodimlarni alohida metodika bilan qurollantirish zaruriyati. Deylik, sog'lom bolalar bilan bir sinfda, bir partada yonma-yon o'tirgan nogiron bola do'stlaridan muntazam yordam olib turadi. Lekin o'qituvchi bolaning intellektual darajasi yoki jismoniy nuqsonidan kelib chiqqan holda bilim berishga alohida tayyorgarlik ko'rishi shart bo'ladi. Shu bois respublikamizdagi barcha pedagogik yo'nalishdagi oliy o'quv yurtlarida maxsus kurslar o'quv dasturiga kiritilishi lozim.

14. BOSHLANG'ICH MAKTABDA INTEGRATSIYALASHGAN TA'LIMDAN FOYDALANISHNING METODIK XUSUSIYATLARI

1. Maktab umumta'lim kurslari integrativligining mohiyati.
2. Integratsiya — o'quvchilarni o'qitish va tarbiyalashga yangi yondashuv.
3. Boshlang'ich sinflarda integratsiyalangan ta'limni amalga oshirish metodikasi.

O'quv predmetida bir-biri va chegaradosh fanlar, yirik g'oyalari, omillar, xulosalarni cheklab birlashtirish muhim. Masalan, tarix kursining integrativligi uning arxeologiya, etnografiya, san'atshunoslikka tegishli dalil va nazariy xulosalarni o'z ichiga oladi.

Umumiy o'rta ta'lim mazmunini shakllantirish barcha maktab predmetlarini o'qitishni insoniylashtirish, ijtimoiy-iqtisodiy jihatlarini kuchaytirishini ta'minlashga qaratilgan. Jamiyatshunoslik, tarix, o'qish sinfdan tashqari o'qish, musiqa, tasviriy san'at jamiyatimizning chuqur insonparvarlik tabiatini yorqin aks ettirishga qaratilgan. O'quvchilarni insonparvarlik ruhida tarbiyalashda tabiiy-matematik fanlar sikli muhim rol o'ynaydi.

Umumiy ta'lim mazmuni o'quvchilarni har tomonlama ruhiy rivojlanishga, ularda turli xil tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan. Har bir o'quv predmetini o'rganish bolaning mavzuni anglash jarayonini, uni eslab qolishni, ta'sirchanlikni faollashtiruvchi, tafakkurni, nutq va tasavvurni rivojlantiruvchi ruhiy diqqatni yaratishga imkon beradi. Ayniqsa, bilish jarayonida bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan tafakkurning turlarini rivojlantirish juda muhimdir.

Tajribaga asoslangan tafakkur umumlashtirish va xulosalar o'chun tirik mushohada, dastlabki ma'lumotlarni yig'ish vazifasini bajaradi. U bolalarni real voqealarni, hodisalarni o'qishga, ularni qayd qilish va yig'ishga o'rgatadi. Abstrakt tafakkur ajratib olingan voqea, hodisalarlarda ularning mohiyatini ko'ra bilishga, aniqlashga imkon beradi.

O'quv predmeti mazmunini tuzishda pedagog amaliyoti shu fanning asosiy kategoriya, tushunchalarining rivojlanish mantiqini hisobga oladi. Shu bilan birga, o'qituvchi va psixologlar o'quvchilar tomonidan mavzuni o'zlashtirishning yosh xususiyatlarini hisobga olishadi. San'at sohasidagi umumiy o'rta ta'lim mazmuni o'z ichiga g'oyaviy tomoni va to'kis badiiy shakli birligini hosil qiluvchi asarlarni o'z ichiga oladi. Badiiy jihatdan bo'sh, g'oyaviy jihatdan haqiqatga to'g'ri kelmaydigan asarlar bolalarning ruhiyatiga ta'sir qila olmaydi, tasavvur va tafakkurni rivojlantirmaydi, go'zallik va badbasharalik to'g'risida tasavvurni shakllantira olmaydi. Bolalar bilan ishlashda san'at asarlarining chin badiiyligini hisobga olish, shakl va mazmunning birligi, ma'naviyat va haqiqatlik tamoyillarini amalga oshirishda muhimdir.

Bola shaxsini har tomonlama madaniy rivojlantirish, insoniyat yaratgan barcha madaniy boyliklarni bilish bilan «O'z so'zini boyitsanggina madaniyatli bo'lasan» fikriga asoslangan. Ayniqsa, tasavvurni uyg'otuvchi, ruhiy kechinmalarni faollashtiruvchi, shu bilan birga fikrlarni uyg'otuvchi asarlar juda tarbiyaviydir. Bunday umumlashtirish bolani bilish va ruhiy rivojlanishning yangi pog'onasiga ko'taradi. Shu asosda shakl mantiqiy tafakkur, turli voqea-hodisalar o'rtasida aloqalar va bog'likliklarni ko'ra bilish, ularni o'rgana olish ko'nikmalari mustahkamlanadi hamda rivojlanadi. O'quvchi qarama-qarshiliklarni topa bilish, ularning rivojlanish yo'nalishlarini to'g'ri tushunish va ularni o'z vaqtida yechish yo'llarini topishni o'rganadi. Dialektik tafakkur jamiyat hodisalarini uning barcha aloqa va vositalarida ko'rish qobiliyati bilan uzviy bog'liq.

Umumiy o'рта ta'lim kelajakda bolalarga xohlagan fanni egallash imkonini beruvchi bilimlar asosini yaratadi. O'quv predmeti fanlarning mustahkam asosiga ega, zamonaviy ilmiy ma'lumotlarni tushunishga yetaklaydi, fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga olib keladi.

Bundan tashqari har bir umumta'lim predmet o'quvchilarga xalq xo'jaligi ehtiyojlarini hisobga oluvchi o'quv materialining politexnik tabiatini yoritib berishga yo'naltirilgan. Barcha o'quv predmetlarining politexnik mazmuni, hayot bilan bog'liqligi o'quvchilarni ishlab chiqarishda qatnashishiga asosiy eng oddiy ish qurollari bilan ishlashga yo'naltiradi. Bu bilan umumiy rivojlanishning chuqur asoslari, kasb tanlash asoslari o'rgatiladi.

Fan qarama-qarshiliklarda rivojlanadi. Ular bilan muloqot qilganda, o'quvchilar badiiy ma'lumotlar oqimini mustaqil hal qilish va ularga to'g'ri baho berishga o'rganishadi.

Umumiy o'рта ta'lim uchun davrni yaxshi yoritib beruvchi ma'naviy tarixiy ahamiyatga ega asarlarni tanlash kerak. Bunday asarlar bolani davrning ma'naviy hayotiga olib kiradi. Turli nuqtayi nazarlarda va turli tasvirlar orqali ular hayotiy voqea va hodisalarni, o'tgan zamonlarda bo'lib o'tgan janglarning to'liq tasvirini ko'rsatadi. Shuning uchun umumiy o'рта ta'limda o'zaro aloqalar va o'zaro to'ldirishlar katta ahamiyatga ega. Bolalarning yosh xususiyatlari murakkab tasvirli xulosalar chiqarishga to'sqinlik qilmaydi.

Mehnat ta'limi mazmuni va mundarijasini ajratish ham o'z xususiyatiga ega. Mehnatni fan bilan maktabda o'rganiladigan o'quv predmetlari bilan uzviy bog'lash mumkin hamda mehnatning o'quv-ijodiy xususiyati ilmiy bilimlardan foydalanish jarayoni orqali amalga oshiriladi. Ijtimoiy foydali mehnat jarayonida o'quvchilar oldiga olingan bilimlarni amalda qo'llash vazifasi yuklanadi.

Nihoyat, bolalar mehnatining mazmuni va tashkil etishni aniq mahalliy ishlab chiqarish, xalq xo'jaligi ehtiyojlariga tayangan holda zamonaviy kasblar talablari asosida tuzish kerak. Bunday mehnat o'quvchilarni umumiy mehnat va aniq kasbiy ko'nikmalar bilan tanishtiradi, mehnatni fan asosida tashkil qilishni, bir mutaxassislikdan ikkinchisiga o'tishni ta'minlaydi. Mexanizator, chilangar, dehqon, chorvador kasblari o'quvchilarni zamonaviy kasblarga yo'naltiradi, bolalarning umumiy rivojlani-shiga, ishchi psixologiyasini shakllantirishga yordam beradi. Umumiy o'рта ta'lim mazmunining umumiy va o'ziga xos prinsiplari shulardan iborat. Integratsiya — o'quvchilarni o'qitish va tarbiyalashga yangicha yondashuvni belgilab beradi.

O'quv jarayonida integratsiyalangan ta'limdan foydalanishga katta ahamiyat berilyapti. Integratsiyalangan darslarning tuzilishi o'rganishning barcha bosqichlarida o'rganilayotgan mavzularning aniqqligini va izchilligini, puxta o'rganilganligini va o'zaro mantiqiy aloqalarini talab qiladi. Bunga dasturdagi o'quv materialining ixcham va yig'iq ekanligi, undan tashqari o'quv materialini o'rganishning tashkil etishning ba'zi zamonaviy usullarini kiritish orqali erishish mumkin. Masalan, 1-va 2-sinf-dagi «Atrof-olam bilan tanishish» kursining barcha mavzulari bir-biri bilan chambarchas bog'liq. 3- va 4-sinf-dagi «Tabiatshunoslik» darslari «Atrof-olam bilan tanishish» kursini davom ettiradi. Uning dasturiga tabiat va insonlar mehnatidagi mavsumiy o'zgarishlarni kuzatish kiritilgan. O'quvchilar tomonidan atrof-olamni o'rganish, o'qish, nutq o'stirish, matematika, mehnat ta'limi darslarida davom etadi. Shunday ekan, «Atrof-olam bilan tanishish» kursi predmetlararo aloqalar o'qituvchiga barcha o'qitilayotgan darslarda atrof-olam haqidagi tushunchalarni shakllantirish bo'yicha ish olib borishga imkon beradi.

Boshlang'ich maktabdagi har bir predmet bu integratsiyalangan kurs, mazmun jihatdan ular tabiiy-matematik sikl fanlari bilan uzviy bog'liq, bu kichik maktab o'quvchilari uchun tushunarli bo'lgan atrof-muhit haqidagi bilimlarni o'zlashtirishni ta'minlaydi. Bu yoshdagi bolalarda tabiatni o'rganishga bo'lgan liqat emotsional joziba emas, bilim olish motivlari bilan bog'liq. O'quvchilarning bu xususiyatini hisobga olib, qiziqishlarini quvvatlash uchun bilim olishga bo'lgan ehtiyojlarini yangi mazmun bilan to'ldirib turish kerak. Bu o'quvchilarga hayotdagi o'zaro aloqalarni ochib berishga hamda tabiatdagi turli-tumanliksiz inson yashay olmasligini tushunib yetishga yordam beradi.

Predmetlararo aloqalarni amalga oshirish — integratsiya turaridan biri. Toshkentdagi 41-maktab o'qituvchisi bolalar nutqini o'stirish uchun tabiatshunoslik, o'qish, husnixat va matematikadan foydalanadi. Tabiat bilan tanishtiruvchi darslarda bu maqsadning tanlanishini quyidagicha tushuntirish mumkin. Bu holatda nutq o'stirish erkin sharoitda, hozir o'qilayotgan obyektlarga bo'lgan jonli qiziqish asosida o'tadi. Tabiatshunoslik, o'qish, husnixat va matematika nutq o'stirish uchun katta imkoniyatlar yaratadi.

I.G. Pestalossi ta'kidlaganidek, «... aql notinch sezgili idrok qillishdan aniq tushunchalarga ko'tariladigan manbadir». Bu tushunchalarni anglash esa nutq san'ati bilan birga yuradi. Erkin tabiat mavzulari bolada mantiq bilan birga ta'sirchanlikni ham rivojlantiradi.

Har bir darsda nutq o‘stirish masalalari hal qilinadi, bunda o‘rganilayotgan materialning o‘ziga xosligi va nutq o‘stirish masalasini tanlashning maqsadga muvofiqligi hisobga olinadi. O‘quvchilar bunday darslarni juda yaxshi ko‘rishadi. Ular ko‘p yangi, kerakli tushunchalar beradi, tasavvurlarini tartibga soladi, o‘quvchilar boshqa darslarda olgan bilimlaridan foydalanishlari zarur bo‘lgan holatlarni yaratadi. Bunday holatda bolalar o‘rganilayotgan materialni yaxshiroq o‘zlashtiradi, bilimlar tizim holiga keladi va o‘quvchilar uchun juda zarur bo‘lib qoladi. Shu bilan bog‘liq integratsiyalangan dars ishlanmasi taklif qilinadi, u o‘quvchilar uchun tushunarli va olingan bilimlarni yangi o‘quv sharoitida ishlata bilish ko‘nikmasini shakllantirishda yordam beradi.

Ona tili, o‘qish tartibini o‘rganish bo‘yicha fanlararo integratsiya mundarijasi

Ona tili — maktab fani bo‘lib, uning boshqa fanlar bilan didaktik maqsadlarga qarab har xil holatlarda ko‘rilishi mumkin. Ona tili hamma maktab tartiblari bilan bog‘langanligini ko‘rsatib bermoqda, «chunki til hamma fanlar» bo‘yicha ifoda vositasi bo‘lib, u haqiqatni hamma tarafdin tasvirlab ko‘rsatadi, tilni bilmasa fikrlash faoliyati bo‘lmaydi. Bu aloqaning mavjudligi aniq. Bu aloqa «Ona tili — boshqa fanlar» zanjirida o‘rnatiladi, nafaqat ona tili uchun, hattoki, boshqa fanlar uchun ham. Chunki til o‘rganish quroli bo‘lib u o‘quvchilarga har qanday fanni o‘zlashtirishda hal qiluvchi sharoitdir. Ona tili maktab ma‘lumoti fani bo‘lib keng nuqtayni nazarga ega.

Fanlararo olimlarning «Bitta fan boshqa fandagi savollarni aniqlovchi asbobday» degan gaplarida ko‘rsatiladi. Ona tili uchun bunday fanlardan biri matematika fani bo‘lishi mumkin. Ona tili va matematika fani aloqasi yopiq va jiddiy qayd qilingan. Buni amalga oshirish muhim vazifa. Matematika va ona tili fanlari integratsiyasi juda qiyin jarayon va u amaliyotda amalga oshirilmaydi. Amalga oshsa ham, bu kamdan-kam uchraydigan hodisa. Matematikani ona tili fani bilan bog‘laydigan mavzular: «Son», «Chama son», «Sanoq son».

Yana bir variant — ona tili va boshqa fanlararo metodik reja-dagi aloqa boshqa maktablarga hozirda tashkiliy o‘qitish usuli nazarda tutiladi. Ona tili darslaridagi yozma ishlar va og‘zaki nutq uchun ba‘zi misollar keltirishda, savollarga javob berish, insho

yoʻzish va boshqalar. Ayniqsa, ona tilining oʻqish, tabiat, rasm, musiqa fanlari integratsiyasi koʻp uchraydi. Bunday darslar oʻquvchilarning soʻzga, tovushga va rang dunyosiga kirib borishiga, yozma hamda ogʻzaki nutq savodli tuzilishiga yordam beradi, nutqning rivojlanishiga va boyishiga, tabiatning goʻzalligini tushunib borishga yordam beradi.

Ona tili va tabiat darslarining integratsiyasi

Oʻqituvchi oʻsimliklarni, hayvonlar tana aʼzolarini toʻgʻri aytishni oʻrganadi va kuzatuvchilar haqida gapirib berishni soʻraydi. Bunday ish natijasida bolalar oʻrgangan yangi soʻzlar ularning anglashida tabiat hodisalari bilan tushunib borishadi va aniq tushunchaga ega boʻlishadi. Shularning hammasi bolalarni tabiat haqida hikoyalar, sheʼrlarni mustaqil oʻqishga tayyorlab beradi. Bolalar katta qiziqish bilan oʻqishadi va bundan oldin oʻqituvchi bilan birga suhbatni, koʻrgan narsasini mustahkam tushunib boradi.

Koʻrgazma uchun amaliyotdan misol keltirishimiz mumkin. Uchinchi sinfdan ona tili gaplar haqida bilimlarni takrorlash bilan boshlanadi. Oʻqituvchining maqsadi gaplarning takrorlashi boʻlib, oʻquvchilarga ona tabiatning goʻzalligini qadrlash haqida maʼlumot berish. Bu darsda «Tabiat juda goʻzal! Atrofimizda jonsiz narsani oʻzi yoʻq, atrof nafas olayotgandek, tirik, yashayotganini tushuntiradi. U boʻronga qarab toʻlqinlanadi, qorda muzlaydi, kechalari xayol suradi, quyoshdan, shamollardan, momaqaldiroqlardan dam oladi». Keyin daraxt haqida, u tabiatni oʻzgacha sevgani haqida, uning tasvirida tabiat naqadar goʻzalligi haqida, uning qalbidagi goʻzal ona tabiati haqida maʼlumot beriladi. Oʻz vatani tabiatini qattiq sevgan insongina «Oltin kuz», «Bahor» rasmlarini yarata oladi.

Ona tili darslarida tabiatni sevish, uni asrash kerakligi haqida bolalar bilan suhbat oʻtkaziladi. Soʻng oʻquvchilar mavzuni mustahkamlash uchun «Bahor», «Oltin kuz» rasmlari boʻyicha, jurnallardagi suratlar, tabriknomalardan foydalanib, insho yozishadi.

«Gap» mavzusini takrorlashda, majnuntol daraxti haqida suhbat oʻtkaziladi. Bu daraxtning barglari, ularning tuzilishi xususida suhbat uyushtiradilar (partada bittadan majnuntol bargi boʻlishi kerak), bu daraxtning goʻzalligiga, ajoyib rangiga eʼtibor qilinadi. Soʻng tasmaga yozib olingan shamolda shivirlagan barglar tovushi eshittiriladi. Bundan keyin oʻquvchilar majnuntol haqida soʻroq, undov, darak gaplar tuzishadi. Eng yaxshi gaplar doskaga va

daftarlarga yozib olinadi. Ulardan bir jumlani bolalar tahlil qilishadi. Dars qiziqarli o'tadi. Majnuntol go'zalligi inson tabiatni qanday asrash haqida suhbat o'tkazish — bu darsning yakuni bo'ladi.

Og'zaki nutq o'zlashtiruvchi jarayonida, xoh o'qish, xoh ona tili darsi bo'lsa-da, ravon nutq o'rgatiladi, mavzuni o'tayotganda, bolalarda mehr-muhabbat tuyg'ularini uyg'otishda insholar yordam beradi. Bunday insholarni haftasiga bir marotaba (10—15 daqiqa) o'tkazish mumkin. Insho bolalarda tabiatga mehrni tarbiyalaydi, material o'zlashtirilishida maxsus xususiyatlar haqida to'xtalamiz.

Shunday qilib, ona tili darslarida o'quvchilar ona tili nutqining barcha jihatlarini o'zlashtirishadi. Musiqa darslarida o'rgani-luvchi materiallar, bu — ashula. U musiqiy asar bo'lib, unda musiqa va nutq hamohangligi kuzatiladi. Ona tili darslarida ham, musiqa darslarida ham bolaning tovushlarni to'g'ri talaffuz qi-lishi, nutq yoki kuylash jarayonida gavdasi va boshini to'g'ri tutishi, to'g'ri nafas olishi, ularga zamonaviy axloqiy talablarni anglashga yordam beradi. O'z hikoyalariga havola kiritib, yorqin badiiy ifodalar yaratishadi (me'yorida). Suratlar yopishtirishadi. Bunday faoliyatdan maqsad — tabiat haqida aniq badiiy hissiy manzara yaratishdir.

Shuningdek, bolalarga guruhli tarzda surat bo'yicha kichik hi-koya tuzishni taklif qilish mumkin. Bunday hikoyada darak gap, so'roq va undov gaplar ishtirok etishi tabiiy. Bunday darslar katta samara beradi. Shu ko'rinisdagi darslarda foydalanuvchi va in-tegral yondashuvni amalga oshiruvchi metodlar sifatida quyida-gilarni sanab o'tish mumkin:

- evristik suhbatlar;
- ekskursiyalar;
- nutqni o'stirish uchun ijodiy ishlar, ular tabiatshunoslik xarakterida yoziladi va o'zbek tilida qancha ahamiyat berilsa, ta-biatshunoslikda ham nutqqa shunday e'tibor qaratiladi;
- og'zaki tasvirlash, manzara tasvirlarini ifodali o'qish;
- diktant va tabiatshunoslik mazmunida bayon yozish.

O'quvchilar integratsiyadan ko'pincha butun dars bosqich-larida emas, balki uning biron bosqichida foydalanishadi. Ya'ni, darsning muayyan qismigina integratsiyalashadi. Shu usul bilan tabiatshunoslik xususiyatiga ega axborotlar lug'at boyligi bilan ishlashda keng qo'llanishiga imkon yaratiladi. U yoki bu so'zni tilshunos nuqtayi nazari bilan ham, tabiatshunos nuqtayi na-

zaridan ham talqin qilish mumkin. O'qituvchilar tomonidan uch o'quv predmeti integrallashtiriladi. Biz ko'rib chiqayotgan holdagi ona tili va tabiatshunoslikka tasviriy san'at qo'shiladi. Pedagogik amaliyot vaqtida o'tkazilgan integral darsning bir qismi bilan tanishtiramiz.

«Nastarin» suratda bahor

Dars quyidagi ketma-ketlikda tuzilgan:

1. «Qarshingizda «Nastarin» surati, deb o'qituvchi bolalarga murojaat qiladi, bahor iforini his qildingizmi? Suratga diqqat bilan qarang. Rassom tomonidan tanlangan ranglar uyg'unligini kuza-ting. U nastarinni tabiiydek tasvirlay olganmi? Go'yo hozir uni xonaga olib kelgandek-a? Bu ajoyib, xushbo'y nastarin qanday rangda? Qaranglarchi, rassom uning barglari, novdalarini batafsil tasvirlay olganmi? Rassomning saxiy tabiatdan zavqlanishi va tabiatga bo'lgan ulkan muhabbatini his qildingmi? Tabiatda, aniqrog'i, nastarinda go'zallik, hayot ko'rinmoqda!».

2. Keyin esa doskaga yozilgan tayanch so'zlar (saxovat, mo'l, xushbo'y, iskamoq, nastarin ifori, nilufar, moviy, pushti) yordamida bolalar «Nastarin» rasmi bo'yicha o'z hikoya yoki o'yinini kichik bayon holda yozishadi.

3. Bolalarni nastarin paydo bo'lishi haqidagi afsona bilan tanishtirish: bahor quyosh va kamalak nurini aralashtirib, yerga ota boshlabdi. Nur tushgan joylarda turfa rangdagi gullar ochilibdi: oq, qizil, pushti, ko'k. Bahoroy janubdan shimolga saxiylik bilan nur sochib yuribdi. U shimolga yetganda, faqatgina siyoh-rang nurlar qolibdi. Ana shulardan nastarin nihollari o'sib chiqibdi. 400 yil avval uni Venaga keltirishgan. Shu yerdan u butun Yevropaga tarqaladi. Shundan so'ng bolalarga shu matn bo'yicha ona tilida mashq bajarish taklif qilinadi.

Ona tili va musiqa fanlari integratsiyasining xususiyatlari haqida

Bir qarashda, bu ikki predmet umumiyliги shubhali, birlashtirish imkoniyati mumkin emasday tuyuladi. Shuning uchun o'zlashtirilayotgan mavzuda bu fanlarni nima birlashtirib turganini ko'rsatishga urinish bilan birga va ovozga ega bo'lishiga erishishimiz lozim. «Binobarin, nutq va xirgoyi o'rtasidagi aloqa il-

dizi asarlar qa'riga borib tutashadi. Ko'pchilik olimlar fikricha, o'sha paytlarda nutq va kuylash uyg'un bo'lgan, ularning musiqiy asoslari farqlanmagan».

Umumiy pedagogikadan ma'lumki, barcha pedagoglarning umumiy va asosiy vazifasi bolaning qobiliyati va tafakkurini rivojlantirish asnosida bilimlari, ko'nikma va o'zlashmalarini, fan asoslarini egallash jarayonida ziyraklik layoqatini doimiy ravishda takomillashtirib borilishiga erishishdir. Lekin har bir fan o'qituvchisi bolaning umumiy rivojlanishidan tashqari, uning maxsus xususiyatlari sayqallanishiga ham e'tibor qaratishi lozim.

Psixologiya va metodika sohasida tadqiqot olib borgan uslubiyatshunoslar musiqiy xususiyatlar umumiyligiga alohida to'xtalishadi. Ayni vaqtda barcha xususiyatlardan nutqiy va musiqiy ovozni ajratib olish mumkin. Ana shu xususiyatlar negizida til va kuyning tovush a'zolarini muvaffaqiyatli o'zlashtirish mumkin. Shunday qilib, ona tili va musiqa o'qituvchilari ko'plab umumiy vazifaga ega. Bu vazifalar birgalikda hal qilinsa, ancha samarali bo'ladi. Ona tili va musiqa darslari mavzularining ko'pi turdosh. Ular orasidagi farqlardan ham metodik samarali vosita sifatida oqilona foydalanish mumkin. Ona tili darsi bilan musiqa integratsiyasi samarali natija beradi. Masalan, qiyin urg'uga ega so'z va kelishik shakllarini o'rganishda she'r yoki qo'shiq yordamida ushbu mavzu yaxshiroq o'zlashtirilishiga erishish mumkin.

Ona tili darsida tashkiliy boshlanish yoki chigal yozdi mashqi sifatida ayrim qo'shiq naqorati yoki biror parchasidan foydalaniladi. Bu bilan bolalar kerakli so'zlarni, fikrni eslab qolishadi, talaffuzlarini takomillashtirishadi. Ona tili darslarida musiqadan foydalanish o'quvchilarga tabiat va maishiy hayot muhitiga chuqurroq kirib borishiga ko'maklashuvchi vaziyat hosil qiladi. Bunday integrallashgan darslarda musiqaning tarbiyaviy ahamiyatidan zarracha ham kam emas. Muayyan asarni tinglash asnosida, o'qituvchi ko'pincha muallif haqida, asar yaratilishi tarixiga oid qisqacha ma'lumotlar keltiradi. Bu o'quvchilar dunyoqarashi kengayishiga imkon beradi.

O'z navbatida, o'qituvchidan bunday integratsiya uchun maxsus tayyorgarlik talab qilinadi. Dars o'z-o'zidan musiqa va bastakor bilan hayajonli uchrashuvga aylanishi uchun o'qituvchi uzluksiz yangi qo'shiqlardan xabardor bo'lishi, qo'shiqlar yig'ib borishi, bastakorlar hayotiga oid ma'lumot va musiqa haqida qiziqarli hikoyalar to'plab borishi kerak.

Ona tili mashg'ulotini o'lkashunoslik negizida olib borish

Ona tili darslarini o'lkashunoslik asosida olib borilishi juda katta ta'limiy-tarbiyaviy ahamiyatga ega. O'lkashunoslik materiallaridan, odatda, o'qish darsida yozuvchi biografiyasini o'rganishda, uning ijod manbalari, ayrim asarlari yaratilish tarixini bolalarga yetkazishda foydalaniladi. Lekin ona tili darsida ham tez-tez o'lkashunoslik manbalaridan foydalanish mumkin. Bunday darsda o'lkaning taniqli joylariga bag'ishlangan surat va kitoblar, sayohat va materiallar qo'llash lozim. Maqsadga yo'naltirilgan tizimli faoliyat bolalarda ongli faollikni oshirib, o'rganilayotgan fanga qiziqishi kengayadi. O'qituvchi isbot sifatida o'lkashunoslik negizida o'tkazilgan ona tili darsidan parcha keltiradi.

Tabiat — bu Vatan

Mazmuniy mavzu: «*Tabiat — bu Vatan*».

Dars boshida o'quvchilar tabiat va yurtga oid she'rlarni yoddan o'qiydilar. Keyin esa bolalar bilan shoir G'afur G'ulom she'ri o'qiydilar (she'r doskaga yozilgan):

Muncha ham chiroylisan, aziz Vatanim!
Bodomday ming ko'z bilan sevar badanim.
Sensan avval-oxir, sensan sevganim,
Jonim, yurak-qonim, hatto shu tanim,
Bir butun holicha bari seniki.

Oldindan tayyorlangan o'quvchi G'afur G'ulomning hayoti va ijodini qisqacha so'zlab beradi. Keyin hayoti va ijodi haqidagi matn ustida ish olib boriladi. Raqamlarni so'zda ifodalab yozishga oid mashq beriladi. Shoir va adib G'afur G'ulom hozirgi zamon o'zbek bolalar adabiyotining yuksalishida muhim o'rin egallaydi. Shoir 1903-yilda tug'ilib, 1966-yilgacha ijod qilgan. 1923-yildan adabiyot maydoniga qadam qo'ygan G'afur G'ulom o'z ijodini bolalarga atab she'r yozishdan boshladi. U butun ijodi davomida yosh ayloqni unutmadi va unga munosib adabiy meros qoldirdi.

Bu darsda o'quvchilar sonlarning yozilishini mustahkamlab, G'afur G'ulom hayoti va ijodini bilib olishadi. Uni o'lkamiz haqida, go'zallik haqida qanday nafis tasvirlar keltirganini anglashadi. Darslarda o'lkashunoslik materiallaridan foydalanish, ona-tabiatga mehri, vatanparvarlik tuyg'usini tarbiyalashda ajoyib vositadir.

Ona tilining tasviriy san'at va mehnat ta'limi bilan integratsiya elementlari

Bu muammo ko'plab metodist, pedagog va psixologlarni doimo o'ziga jalb etib keladi. Bu fanlarning integratsiyasi bolada aqliy qobiliyat, fikrlash salohiyati, tasavvur kengligi rivojlanishida, shuningdek, nutqi va hissiyotini ifodalash takomillashishida muhim o'rin egallaydi. Ona tili va tasviriy san'at asarini o'rganish predmetiga aylanadi.

Materialni namoyish qilish paytida o'qituvchi bolalarni rassom biografiyasi va suratini yaratilish tarixi bilan tanishtiradi. Asarni tahlil va muhokama qilish bilan bir paytda bolalarning e'tibori suratda bo'lishi ta'minlanadi. Natijada surat bilan tanishgan bolalar, unda tasvirlangan mavzuni hayotda kuzatgan haqiqiy manzara bilan solishtirishadi. Bu esa o'z navbatida mantiqiy fikrlash rivojlanishiga imkon beradi. «Yorqin taassurot manbalari hisoblanuvchi tasviriy san'at asarlari bola hissiyotiga ta'sir qilib, maktab o'quvchilarining uyg'un fikrlar bayon qilishida asosiy omil bo'la oladi». Bu bolaning tafakkuri va nutqining rivojlanishida xizmat qiladi.

Surat bilan ishlash maktab o'quvchilarining nutqiy faoliyatini rag'batlantiradi. Lug'at boyligini kengaytiradi. Ona tili va tasviriy san'at fanlari integratsiyasi amalga oshirilishida bolalarning dars jarayonida mustaqil ijodkorlik faoliyati olib borilishini ham ko'zda tutadi. Masalan, o'qituvchi darsda yozma mashq bajarishni topshirishdan avval, o'quvchilarga quyidagi vazifa beradi. Daftarga bolaning ertalab uydan maktabgacha bosib o'tgan yo'lini tasvirlash topshiriladi. Bunda bolalarga har bir burilish, yo'l o'nqircho'nqiri, aylanib o'tish kabi ikir-chikirlargacha bayon qilish maslahat beriladi. Bu bola xotirasini faollashtiradi, qiziqish uyg'otadi. Asosiysi, bola qo'l mushaklari yozishga tayyorlanadi. Bunday vazifalarni ko'plab topish mumkin. Bu o'qituvchi tasavvuriga bog'liq.

Xayolga keltirilgan narsani daftarga tasvirlagan paytda bolalar so'z, harf yoki gapni husnixat bilan yozishni mashq qilishadi. Har bir yozuv darsida shunday dam olish daqiqasi mashqidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bola o'zi ishlagan mashq matniga ko'ra, rasm chizish vazifasi ham katta ta'limiy ahamiyatga ega. Bu bilan o'qituvchi bola diqqatini o'ziga tortishga ortiqcha urinmay, matnni batafsil tushunilishiga erishadi. Bolalar uning mohiyatiga yetishadi. Oddiy o'qishga bola xotirasida taassurot qoldirmaydigan kichik elementlarga ham e'tibor qaratiladi. O'zining matnli suratini tuzish jarayonida bolalar o'ziga xos badiiy nutqqa ega bo'ladi.

Kuchlari yetguncha, matn ichiga kirib borishadi, soʻzlarning koʻchma maʼnolari haqida tasavvurlari kengayib soʻz maʼnolari silma-xilligini kuzatishadi. Ona tilini mehnat taʼlimi fani bilan integrallashtirish ham juda qiziqarli hisoblanadi. Shuningdek, boshqa fanlar kabi bu predmet integratsiyalashuvi ham darsning maʼlum qismiga, asosan, dars boshlanishiga tatbiq qilinadi. Oʻqituvchilar plastilindan shakl yasash, qogʻozdan tekis shakllar qirqish kabilardan foydalanadi.

Ona tili bilan tasviriy sanʼat, mehnat integratsiyalashgan darsdan parcha keltiramiz

Dars mavzusi: «Jonli va jonsiz buyumlar».

Qogʻoz bilan ishlash usullari. Rasmni rangga boʻyash. Dars boshida oʻqituvchi dars mavzusi bilan bolalarni tanishtiradi. Bu darsda qaysi otlar jonli, qaysilari jonsiz predmet, deb atalishini aniqlashga harakat qilamiz deydi. Yana qogʻozdan u-bu narsalar yasab, jonli, jonsiz ekanligi aniqlanishini ham eslatadi. Yangi mavzuni oʻrganish kuchuk va stul haqida topishmoq javobini topishdan boshlanadi.

Oʻqituvchi: Toʻgʻri, barakalla, bolalar. Bugun sizlar bilan applikatsiya yasaymiz (namuna koʻrsatiladi — kuchukcha, chizma, stul oddiy qalam bilan chizilgan kuchukcha, qaychisiz kerakli shaklga keltiriladi. Keyin jigarrang qogʻozdan qaychi bilan stul rasmi qirqib olinadi. Oxirida soʻnggi manzara namoyish qilinadi: kuchukcha stulda oʻtiribdi).

— Yoqdimi? Unda qahramonlarimizni tasvirlaymiz kuchuk — unga ism beramiz, stulni tasvirlaymiz (bolalar ushbu narsalarni oʻzlari bilgan xususiyatlarini batafsil aytadi). Stul: yogʻoch, qattiq, jigarrang, toʻrtta oyogʻi bor, yuguradi, quradi, u bilan oʻynash mumkin. Jun bilan qoplangan, qulogʻi, koʻzi chiroyli.

— Yaxshi, bolalar, hammangizni uyingizda stul bormi?

— Ha.

— Kuchukchani hamma koʻrganmi?

— Ha.

— Unda hozir albom varagʻiga kuchukcha va stulcha chizinglar. Bolalar chizishadi.

— Endi, ularni qirqib olamiz. Stulning oyogʻini toʻgʻri qirqib olish uchun qaychini toʻgʻri ushlang. Bolalar stul rasmini qirqib olishadi.

— Endi, kuchukchaga qarang. Uni qaychi bilan kesib olsa boʻladimi? Nima uchun? (Bolalar uni jundorligi, paxmoqligini aytishadi.)

— To'g'ri, unga shakl berish uchun boshqacha usuldan foydalanamiz (kuchukni rasmini bostirib qirqib oladi). Kelinglar, kuchukchamizni chiroyli qilamiz (bolalar ishlaydi).

— Endi, nimalar qilganligimizni ko'ramiz. Stul bilan kuchukchani farqini aytinglarchi?

Bolalar ehtimoliy barcha variantlarni aytadi. O'qituvchi javoblarda stol jonsiz, kuchukcha jonli degan javob bo'lishiga erishishi lozim. Shundan so'ng ushbu tushunchalar tushuntiriladi. Bolalar o'z misollarini keltiradi. Keyin mustahkamlash uchun mashq bajariladi. O'qituvchi so'zlar aytadi, bolalar bu so'zlarni ikki ustunga: jonli va jonsizga ajratib yozishadi.

— Yaxshi, endi sizlar nima jonli, nima jonsiz ekanini bilib oldingiz. Kelinglar, applikasiyani yakunlaymiz. Unga nima yetishmayapti?

— Bo'yash kerak.

— Qanday ranglar kerak bo'ladi (bolalar o'zlari tanlagan ranglar bilan bo'yashadi).

— Ana endi yopishtirish kerak (applikasiya tuziladi. Fonga detallar yopishtiriladi).

— Barakalla, bolalar. Ajoyib ish qildinglar, endi o'z applikasiyangizga qarab hikoya tuzing. Eng qiziq hikoyani sinf burchagiga ilib qo'yamiz.

Bolalar hikoya tuzishadi va ularni o'qishadi. Shu bilan amaliy ishga va darsga yakun yasaladi. O'qituvchi barcha o'tilganlarni umumlashtiradi. Baho qo'yiladi. Shu bilan dars tugaydi.

Dars tinch va shovqinsiz, lekin jonli o'tadi. Bolalar berilib ishlashadi. Qaychi bilan va bostirib olish usulida qo'l mushaklari rivojlanadi. Eng asosiysi, bolalar jonli va jonsiz predmetlarning farqini bilib oladi.

Shunday qilib, yuqorida ona tili bilan boshqa o'quv predmetlarining ehtimoliy integratsiya variantlari ko'rib chiqildi. Ularning barchasida o'zbek tilini integratsiyalashtirishda asosiy o'quv predmeti hisoblandi. Endi esa o'qish asosiy o'quv predmeti bo'lgan hollarda integratsiyalashtirish mohiyatini ketma-ketlikda bayon qilamiz.

Integratsiya ta'limida predmetlararo (fanlararo) aloqani amalga oshirishning eng oliy bosqichi ekanligi bosqich bir necha bor ta'kidlanadi. Fanlararo aloqada fanlar o'rtasidagi umumiylik mazmun jihatdan ham, ta'lim-tarbiyaviy jihatdan ham hisobga olinadi. Ularning tuzilishi va maqsadini amalga oshirishida butun o'quv jarayoni qayta shakllantiriladi, ya'ni ular zamonaviy didaktik tamoyil sifatida integratsiyaga olib boriladi. Ta'lim jarayoninig shu

taxlit qayta shakllantirilishini amalga oshirilayotgan integratsiya-ning maqsadga yo'naltirilishiga ko'ra, samarali natijalarga olib keladi. Bilim tizimli ko'rinish oladi. O'zlashtirish qobiliyati majmuaviy tarzda umumlashadi. O'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishlari ongli ravishda o'sib boradi.

Agar o'qish kursi bo'yicha o'quv materiallari musiqa, tasviriy san'at bilan oqilona guruhlansa va mos ravishda o'rganilsa, bu o'qish darsi bo'yicha topshiriqlar turli vaqtda o'zlashtirilgan bo'lsa ham, tizimlashtirilishiga imkon yaratiladi. Maktab o'quvchilari o'quv materiali mazmunini yaxshi o'zlashtiradi.

Yuqorida nomlari keltirilgan fanlar o'quv dasturlarining tahlil i ularning o'qish darsini integratsiya tamoyilida o'tkazishida samarali va keng joriy qilinishiga imkon yaratilishini ta'minlashdan mavohlik beradi.

Boshlang'ich sinflarda o'qish va tabiatshunoslik darslari integratsiyasi

O'qish va tabiatshunoslik integratsiyasi imkoniyati keng. Chunki ularning ikkisi oldida ham umumiy ta'lim va tarbiyaviy maqsadlar turadi. Bu darslarda o'quvchilar o'z yurti tabiati, tabiatdagi mavsumiy o'zgarishlar bilan tanishadi. Yovvoyi uy hayvonlari, hasharotlar olami haqida bilib olishadi. O'qish va tabiatshunoslik darsining umumiy tarbiyaviy maqsadi ham bor: o'quvchilarda tabiatga mehr uyg'otish, uni asrab-avaylashga o'rgatish. Ayni vaqtda, umumiy ta'lim va tarbiyaviy vazifalar mavjudligi har bir o'quv fanining xususiy, o'ziga xos pedagogik vazifalari bo'lishiga xalaqit bermaydi. Shuningdek, bunday vazifalar o'ziga yarashta turli metodlar bilan ishlashni talab etadi.

Tabiatshunoslik va o'qish darslarida o'rganish obyektlari bir xil tabiat hodisalari hisoblanadi. O'rganish jihatdan ularda yondashuv farq qiladi, xolos. O'qish darslarida tabiatshunoslikka nisbatan, bolalarda estetik, hissiy jihatdan tabiatni anglash shakllanish vazifasini yechishda mas'uliyatliroq hisoblanadi. Bundan tashqari, o'qish darsida o'quvchining tabiatga nisbatan xususiy estetik munosabatini ifodalash uchun til vositasini bera olish kerak. Umumiy mavzu va o'rganish obyektlari mavjudligi, o'qish va tabiatshunoslik darslarida ularning turli jihat va metodga ko'ra yoritilishi material ustida integratsiyalashgan yondashuv asosida ishlash maqsadga muvofiqligi haqidagi savolni ko'ndalang qo'yadi.

Darsni shunday rejalashtirish kerakki, turli fanlardan olingan ma'lumotlar bir-birini to'ldirsin, mukammallashtirsin. Shunday qilib, bolalarni tabiat bilan tanishtirish, ularda insoniy tuyg'ularni tarbiyalash vazifasi hal etiladi. Tabiatshunoslikni o'rganish jarayonida ongda hisga qarab borsak, o'qishni o'rganish jarayonida his-tuyg'ularimizni shakllantiramiz. Misol uchun, tabiatshunoslik bo'yicha darsda bolalar qishlamaydigan qushlar bilan tanishmoqda. Qaldirg'och, turna, yovvoyi o'rdak kabilarning tashqi ko'rinishi, nega qishda qolmay uchib ketishi, janubga uchishga tayyorgarchiligi, qanday uchishi, qay tarzda bola ochishini o'rganadilar. Shu qushlar haqida she'rlar o'qiydilar.

Tabiatshunoslik darsi integratsiyalashgan bo'lsa, o'quvchilar bilimini barcha uchun mumkin va qiziqarli tarzda ochadilar. Ular zararli hasharotlarni yo'q qiluvchi qushlar do'stlarimiz ekanligini biladilar. Shuning uchun qushlarni o'ldirish, inini buzish, qush bolalarini uyga olib kelish mumkin emas. Bolalarning hissiyotlariga ulkan ta'sir ko'rsata oluvchi badiiy asar tabiatga nisbatan mehr uyg'otishga o'z hissasini qo'shadi. Yuqorida keltirilgan fikrlarga ko'ra, uslubiyatchi-o'qituvchilar integratsiyali darslar tashkil qiladi. Unda birdaniga ikki fan o'rganiladi. O'qish va tabiatshunoslik. Ba'zida ularga badiiy estetik turkumga mansub fan, masalan, tasviriy san'at ham qo'shimcha qilinadi.

O'qish, tasviriy san'at va musiqa fanlari integratsiyasi imkoniyatlari

Chet ellik bir qancha o'qituvchilar ko'p yillik faoliyatini integratsiya muammolariga baxshida qilishgan. Bu muammo bilan shug'ullanuvchi o'qituvchilardan biri V.I. Lyamin hisoblanadi. Uning integratsiya darslari va ularga sharhlar, metodik tadqiqotlari «Boshlang'ich maktab» jurnalida chop etilgan. U integratsiyalashgan darslar o'quv fanlariga qiziqish uyg'otuvchi vositalardan biri maqolasida shunday yozadi: «O'qish darslari musiqa va tasviriy san'at bilan uyg'un holda o'tilsa, samarali fanga aylanishini amaliyot tasdiqlagan». Aynan shunday darslarda bolalarda badiiy tafakkur va tasavvur rivojlanadi, estetik hissiyotlari tarbiyalanadi.

Tabiat, adabiyot, ona tiliga mehri ortib, dunyoqarashi kengayadi. Shuning uchun men o'qish, ona tili va musiqa o'quv dasturlari bo'lim va mavzularini qayta tahlil qilib chiqqach, «Sehrli

qish» mavzusida dars o'tishga qaror qildim. Dars ikki soat davom etib, o'qish rus tili, musiqa fanlarini birlashtiradi. Dars muvaffaqiyatli o'tdi. Bolalarga juda yoqdi. Bunday darslarning asosiy xususiyati shundan iboratki, bahor, kuz, qish fasllarining ikki davri (yil fasllarini boshlanishi va oxirgi vaqtda qiyoslangan holda) har bir o'quvchi uchun alohida varaqlarda tarqatiladi. Bu matn avval o'rganilmagan bo'ladi. Keyin esa V.I. Lyamin boshqa darsning «Bahor kelyapti» mavzusi konspektini keltiradi (ona tili, o'qish, musiqa).

Bu darsda bolalar notanish matn orqali tabiatda sodir bo'luvchi o'zgarishlarni ko'rishadi. Har bir yil fasllarini o'ziga xos xususiyatlarini qayd qilishadi. O'tilgan matnni takrorlab, yangi dars o'tishadi. Bundan tashqari, o'quvchilar matn nomsiz bo'lgani uchun o'zlari sarlavha qo'yadilar. Bu ifodali o'qish ustida ishlashga ham imkon yaratib, bolalarda katta qiziqish uyg'otdi. Dars so'nggida M. Mirzayevning «Bahor vals», «Bahor keldi» o'zbek xalq qo'shig'i musiqiy asarini tinglab, nimani tasavvur qilganini og'zaki tasvirlaydilar. Keyin esa bayon yozadilar. Dars bolalarga juda yoqdi».

O'qish va musiqaning integratsiyasi ham kam ahamiyatga ega emas. Shu masalaga oid bir necha takliflar mavjud. Bu haqda RFda xizmat ko'rsatgan o'qituvchi-metodist shunday yozadi: «Olimlarning boshlang'ich maktablarda integratsiya g'oyalarini amalga oshirishda hushyorlik talab qilinadi, degan fikrlarga ko'ra, Yulnalarda K. Paustovskiyning «Archa g'o'ddalari solingan savat» mavzusida o'qish darsi, musiqada E. Grig mavzusida integratsiya darsini o'tkazishga harakat qildik. Bizni keyingi vaqtlarda adabiyot maktabda estetik fan bo'lmay qo'ygani tashvishga soldi. Shuning uchun fanlarni integratsiyalashtirgan holda ushbu jarayonni tiklashga intildik. Agar badiiy matn ichki qalb bilan o'qilmasa, u o'z ifori va ma'nosini yo'qotadi. «Ona tilini dastlabki o'qitish» maqolasida A. Ushinskiy quyidagilarni qayd qiladi: «Bola asarni tushunishi yetarli emas, u asarni his qilishi kerak. Nazmiy asarda ko'p narsa his bilan tushuniladi, uni aql bilan tushunish shart emas».

K. Paustovskiy asarining nafosati, go'zalligi ayon. Uning hissiy qabul qilinishini E. Grig musiqasi kuchaytiradi. Bu darsning asosiy maqsadi edi. Bizning nazarimizda, tajriba muvaffaqiyatli chiqdi.

O'qish va tasviriy san'atni integratsiyasi haqida so'z yuritishdan avval Sh.I. Gonelik so'zlarini keltirish maqsadga muvofiq:

«Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobga qiziqish, avvalo, rangli suratlar evaziga uyg'onadi, ayniqsa, birinchi sinfda. Ular yosh o'quvchi-kitobxonlar uchun badiiy adabiyotning jonli va rang-barang olami eshigini ochuvchi «sehrli kalit»dir. Xuddi shu davrda rasmlar bola tasavvurini uyg'otadi. Maktabda bolalar rasmga zehni va baholash munosabatida bo'ladi. O'quvchi nafaqat tasviriy san'at haqida maxsus bilim oladi, balki o'zi ham rasm va tasvirlar chizishga harakat qiladi».

Aynan shu omillar o'qish va tasviriy san'at fanlari integratsiyasi asosiga qo'yiladi.

3-sinf ona tili darsligida nutq o'stirishga oid mashqlar berilgan. 22—23-mashqlarga e'tibor bersak, bunda so'zlarni o'qing, ularning talaffuziga e'tibor bering. So'zlardan maqollar tuzib yozing, ularning mazmunini tushuntiring, degan shartlar berilgan.

Tovushlar yozuvda harflar bilan belgilanadi. Tutuq belgisi (‘) tovush bildirmaydi, kabi qoidalar berilgan.

O'qish darsida esa nutq o'stirish jarayonini hikoyalar, ertaklar, she'rlar, matnlar orqali ko'rishimiz mumkin. 3-sinf o'qish darsligida:

Tursunboy Adashboyev

Ona tilim

Buyuk Temur jahon bo'ylab,
O'z dovrug'in solgan tilim.
Mir Alisher bobomlardan,
Meros bo'lib qolgan tilim.
Bobur Mirzo she'rlaridan
Rang va qiyos olgan tilim.
Shunday tildan tonar bo'lsam,
Qiyma-qiyma bo'lsin tilim.
Alla bo'lib jaranglagan
Ona tilim — jon-u dilim.

Shu jumladan, Erkin Vohidovning «O'zbekim» she'rlari joy olgan. Shuningdek, kitob, ilm-fan, ota-ona va farzandlar haqida maqollar mavjud. Bundan tashqari masallar, iboralar, latifalar, «Alpomish», «Rustamxon» dostonlari, kuz manzarasi va mehnat mavzulari bayon etilgan.

«Ulug'lardan o'rganmoq — oqillik» mavzusida Imom al-Buxoriy, al-Farg'oniy, at-Termiziy, al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Ogahiy, Abdulla Avloniy, Abdulla Qodiriy, Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek, Habib Abdullayevlar haqida bilimlarga ega bo'linadi. Nutqi va so'z boyligi oshadi.

3-sinfning matematika darsligida o'lchov birliklari, masalalar, amalni og'zaki bajarish orqali nutq o'stirish jarayoni ro'y beradi. «1000 ichida qo'shish va ayirish» mavzusidagi 270-misolda yozuvni ko'rib chiqing va hisoblash usulini tushuntiring.

$$\begin{array}{r} 300+500=800 \\ \hline 3 \text{ yuzl.}+5 \text{ yuzl.}=8 \text{ yuzl.} \end{array}$$

277-masalada: 1) Agar to'rtburchakning bir burchagi qirqib olinsa, hosil bo'lgan shaklda nechta burchak qoladi? 2) Qaysi biri og'ir: 1 kilogramm shakarmi yoki 1 kilogramm temirmi? kabilar o'quvchilarni fikrlashga va to'g'ri javobni topishga yordam beradi.

«Tabiatshunoslik» darsligida tabiat va odam, tabiat jismlari, foydali qazilmalarni muhofaza qilish, o'simlik va hayvonot olami, uning xilma-xilligi; sog'lig'imizni saqlaymiz mavzularida:

«Odam kim?», «Yurak va qon, ovqat hazm qilish organlari, nerv tizimi kabilar va ekologiya nima?» mavzulari o'rin olgan. Ularda matnlar berilgan bo'lib, bolalar bu matnlarni o'qib, gapirib berish davomida nutq o'stirish jarayoni ro'y beradi.

Suv

Suv — tabiatda ko'p tarqalgan modda. Yer yuzida katta-kichik daryolar, yirik va mayda ko'llar, jilg'alar juda ko'p. Ko'l, daryo va jilg'alar faqat yer yuzida bo'lmaydi.

Yerning chuqur qo'rida ham katta ko'llar hosil bo'ladi. U yerdan yer osti daryolari va jilg'alar oqadi.

Havoda ham suv bor. Unda suv ko'p to'planib, havo issiq vaqtda yomg'ir, sovuq vaqtda esa qor yog'adi.

Amaliy ishlar, savol va topshiriqlar berilgan.

«Odobnoma» darsida ham bir qancha odob-axloqqa oid matnlar, she'rlar, hikoyalar, hikmatli so'zlar berilgan. Ularni o'quvchi o'qib, gapirish jarayonida nutqi o'sadi. Bularning barchasi integratsiyadir. 3-sinf «Tilni ehtiyot qilish» haqidagi she'rdan:

Til arslon misli yotar qafasda,
Bexabar boshini u yer nafasda.
Tildan tutilgan ne deyar, eshit,
Amal qil bu so'zga, o'zingga esh et.
Balo keltiradi boshga bu tilim,
Boshimni u kesmay, qilayin bilim.
So'zingni tiyib yur, boshing yormasin,
Tilingni tiyib yur, tishing sinmasin.

Axloqiy tarbiyaning vazifalaridan biri — ongli intizom bo'lishidir. Abdulla Avloniy: «Intizom deb qilodurg'on ibodatlarimizni, ishlarimizni har birini o'z vaqtida tartibi ila qilmoqni aytilur. Agar yer yuzida intizom bo'lmasa edi, insonlar bir daqiqa yasholmas edilar», deb ta'kidlaydi. Demak, asosan, odobnoma darslarida axloqiy tarbiya berib, bilim, ko'nikma, malaka hosil qilinsa, boshqa fanlarda uni mustahkamlab, to'ldirib boriladi.

Mehnat darslarida ham bolalarga ovqatlanish, mehmon kutish, kiyinish, dasturxon tuzatish odobi kabi axloqiy tarbiya me'yorlari o'rgatib boriladi. Bu darsiga ham bola estetik tarbiya orqali yondashadi.

Estetik tarbiya o'quvchilarda estetik bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish, qiziqish, ehtiyoj, baho berish kabi xislatlarni tarbiyalash masalasini o'z ichiga oladi. Estetik tarbiya bo'yicha asosiy fan musiqa bo'lib, rasm, jismoniy tarbiya, mehnat, o'qish, ona tili fanlari uni to'ldirib boradi. Masalan, tasviriy san'at darslarida did, ya'ni estetik did bilan rasm chizadi va estetik mulohaza bilan yondashadi.

Estetik tarbiyaga misol qilib jismoniy tarbiya darsini olsak, asosiy mashqlardan biri: tik turgan holda yurish va bayroqchalarni bilan mashq qilish darsning maqsadi bo'lsa, bu holatni bajarayotganda estetik mulohaza bilan, oyoq uchida asta-sekin ko'tarilib, bayroqchalarni yon tomonlarga va keyin yuqori tomonga ko'tarib estetik qiziqish bilan bajarishadi.

Bu misollardan shuni bilish mumkinki, demak, integratsiya, ya'ni fanlararo uzviylik, bog'liqlik mavjud. Chunki biron fanning maqsadi, ya'ni bolalardagi nutq o'stirish, axloqiy, ekologik, estetik tarbiya barcha fanlarda o'z aksini topgan.

Tabiatga muhabbat tuyg'usini tarbiyalash

(«Odobnoma» fanidan 2—3-sinflar uchun)

Mavzu: «Ona tabiat — go'zallik manbai».

Uni asrash bizning burchimizdir.


Darsning maqsadi: o'quvchilarni tabiatga muhabbat ruhida tarbiyalash. Ularni o'simlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilishga, yashil boyliklarimizni avaylab-asrashga, jonivorlarga g'amxo'r bo'lishga o'rgatish.

Darsning jihozi: turli rasmlar, tarqatma materiallar.

Darsning turi: Noan'anaviy dars.

Darsning borishi:

— Aziz o'quvchilar, bugun biz sizlar bilan ona tabiatimiz haqida suhbatlashamiz. Qani, qani kim aytadi, ona tabiat deganda kim nimanı tushunadi?



— To'g'ri, bolajonlar. Ona tabiat bir mo'jizadir. Uning beqiyos go'zalliklarini tog'-u toshlar, qir-adirlar, dala-dashtlar, qushlar, hayvonlar, hasharotlar, moviy osmon, Quyosh, Oy, muallo havo, umuman, butun borliq nafosatini his etish insonga zavq-shavq bag'ishlaydi. Tevarak-atrofimizdagi tabiat Vatanimizning bir bo'lagidir. Shu zamin, shu tuproq, shu borliqni o'zlashimiz, unga mehr-muhabbat bilan munosabatda bo'lishimiz kerak. Biz chor-atrofni qancha ozoda saqlasak, hayotbaxsh ne'mat — suvni isrof qilmasak, o'simlik-u hayvonlarga g'amxo'r bo'lib, ularni mehr bilan parvarish qilsak, ona tabiat ham bizdan o'z muruvvatini ayamaydi.

O'quvchilarni 3 guruhga ajratamiz. 2-guruhga topshiriq, 1-guruhga savollar beramiz. 2-guruh topshiriqni bajargunlariga qadar, 3-guruh berilgan savollarga tayyorlanadi.

Savollar: 1. Ona tabiatimizni yanada gullab-yashnashi uchun biz nimalar qilishimiz kerak?

2. Daraxtlarni zararkunanda, hasharotlardan qanday himoya qilish lozim?

3. Tabiat boyliklarini qanday qilib asrab, kelgusi avlodlarga yetkazishimiz mumkin?

4. Qanotli do'stlarimizga qanday yordam ko'rsatishimiz mumkin (ayniqsa, qishda)?

Topshiriqlar bajarilganidan so'ng sinfga bog'bon bobo kirib keladi. U bolalar bilan salomlashgach, ona tabiatning yanada chiroy ochishi, gullab-yashnashi yo'lida qilinayotgan sa'y-harakatlari haqida so'zlab beradi. Har bir inson o'z turar joyi ozoda, ko'rkam bo'lishi uchun munosib hissasini qo'shmog'i zarurligini aytib o'tadi.

Shundan keyin otaxon tabiatni asrash haqida bolalarning bilimlarini sinab ko'radi (maqollar, she'rlar so'raladi).

Faol qatnashgan o'quvchilar bog'bon tomonidan rag'batlantiriladi. So'zning yakunida bog'bon bobo o'quvchilarga nasihat qiladi.

— Bolalarim, tabiat boyliklarini asrang va avaylang! Toki, bu boyliklar kelgusi avlodlarga ham nasib etsin. Maktab hovlisi, ko'chalarga daraxt ko'chatlari ekib, parvarish qiling. Yilda to'rt marta daraxtlarni oqlashni unutmang, ana shunda zararkunanda hasharotlar ularga kamroq zarar yetkazadi. Uyda, sinf xonalarida gullar o'stiring va ko'paytiring. Ariq va zovurlarga axlat tashlamang. Oqar suvlarni toza saqlash lozimligini unutmang.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 50-moddasida «Fuqarolar atrof, tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga majburdirlar», deb belgilab qo'yilgan. Bu hozirgi hamda kelajak avlodlarga nihoyatda katta mas'uliyat yuklanganligidan dalolatdir. Demak, sizlar ham, bolalarim, shuni unutmangki, biz ona tabiatni qancha avaylab-asrasak, hayotimiz shuncha ko'rkam bo'ladi. Undan tashqari, Konstitutsiyamizning 55-moddasida ham tabiat, uning boyliklaridan oqilona foydalanish zarurligi, bu boyliklar umumxalq mulki hisoblanib, ular davlat muhofazasida ekanligi yozib qo'yilgan. Demak, Ona tabiat barchamizniki, uni avaylab-asrash ham barchamizning burchimizdir.

(Bog'bon bobo o'quvchilar bilan xayrlashib, chiqib ketadi).

O'quvchilarning yangi o'zlashtirgan quyidagi so'zlarga izoh beriladi: musaffo havo, chor-atrof, ko'rkam, mulk, muhofaza.

O'qituvchi darsni ona tabiatga muhabbat, Vatani va o'z millati bilan faxrlanish tuyg'usining ulug'ligi haqidagi so'zlari bilan yakunlaydi.

O'qituvchi dars yakunida o'quvchilarning olgan baholarini e'lon qiladi. Uyg'a vazifa qilib, «Ona yurtim tabiati va ekologiyasi» mavzusida insho yozib kelish topshiriladi.

Ta'lim-tarbiya jarayonida integratsiya

Hozirgi kunda axborot oqimi jadallashgan, texnika taraqqiyotining yuqori darajada rivojlanganligi inson aqlini shoshirib qo'ymay iloji yo'q. Bu olamda o'z o'rnini topish muhim va shu bilan birga juda qiyin masaladir. O'quvchida o'qish faoliyati davrida juda ko'p ma'lumotlar olishi, atrofdan kelayotgan axborotlarning bosimi yuqorililigi uning ongiga, ta'lim-tarbiyasiga ta'sir ko'rsatmay qolmaydi. Bu ma'lumotlar va axborotlarning qay biri birlamchi, qay biri ikkilamchi ekanligini ba'zida o'quvchi anglamaydi ham. Shu sababdan o'quvchi mukammal bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi mexanizmlarini ishlab chiqish zarur. Bunday sharoitda integratsion darslarning ahamiyatli ekanligini ta'kidlamogchiman. Aynan integratsion darslarda olam haqida uzuq-yuluq, parchalangan bilimlardan farqli o'laroq bilimlar bir butun, yaxlit tizimda beriladi.

O'qituvchining oldida muhim vazifa turibdiki, uning o'quvchisi shiddatli zamonda olam haqida to'la tasavvurga ega bo'lishi uchun, o'z yo'lini topishida nimalarga tayanishi, nimalarni bilishi, qanday ko'nikma va malakalarni egallashi lozim, degan savolga javob qidirishi tabiiydir.

Dunyoni bir butun ko'rish, yaxlit anglash muhim o'rin tutmoqda va bu yerda o'qituvchi bilimlarni bir-biriga bog'lab, tizim asosida bermog'ini taqozo etmoqda. Bu vazifani integratsion darslarda amalga oshirish mumkin.

Integratsion darslar qanday tuziladi? Buning uchun avval an'ana-viy dars tuzilmasini eslab o'tish joiz:

- tashkiliy qism;
- uy vazifasini tekshirish;
- yangi mavzuni tushuntirish;
- mustahkamlash;
- dars yakuni.

An'anaviy darslarda o'qituvchi faqat maxsus fan chegarasidan chiqmagan holda bilimlar beradi. Bu esa bilimlarning bir yoqlamaligiga va parchalanishiga olib keladi.

Integratsion darslarda tushuncha haqida bir yoqlama emas, atroflicha fikr yuritiladi. Masalan, an'anaviy ona tili darsida biz «Ot» mavzusini tushuntirmoqchimiz: ot nimani bildirishi, qaysi so'roqlarga javob berishini misollarda ko'rsatib o'tamiz.

Endi shu darsni rasm bilan integratsiyalasak. O'quvchilar yuqoridagi savollarga javob berib, so'ng otlarning rasmini daftariga chizishadi. Rasmdagi otlar bilan gaplar, ulardan esa kichik hikoya tuzish va uni qayta tahlil etish mumkin.

Ta'limda integratsiyaning xilma-xil turlari mavjud:

— ko'p predmetlilik (bunda fundamental fanlarni qiyoslash) asosida;

— chegara fanlar asosida;

— asosiy fanlar asosida.

Bunday darslarda «olam-tabiati-inson» tizimida bilimlar berilib, turli faoliyatlar asosida ko'nikma va malakalar uzviy shakllanib boradi.

Ko'rinib turibdiki, integratsion dars yuqori samara beradi. Bunda o'quvchida olam bir butunlikda namoyon bo'ladi. Bu esa o'z navbatida mantiqiy, izchil, atrof-olam haqida to'raligicha fikrlashga o'rgatadi.

Rasm va ona tili darslarining integratsiyasi.

Mavzu: «Ot».

Maqsad: 1) ot haqida tushuncha berish, ular haqida tasavvurlarni kengaytirish; 2) nafasatni tarbiyalash; 3) sinchkovlik, chaqqonlik, mustaqil va teran fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish.

Tashkiliy qism.

Dars maqsadi aytilib, tayyorgarlik ko'riladi.

Uy vazifasi tekshirilmaydi. Uning natijasi «Aqliy hujum» o'ynidan foydalanish orqali aniqlanadi.

Yangi mavzu.

1. «Aqliy hujum» o'yini.

— Atrofingizga qarang. Nimalar bor?

Bolalar sanab o'tadilar, o'quvchi xattaxtaga yozib boradi.

— Yozilgan so'zlar nimalarni bildirmoqda?

— Narsalarni.

O'qituvchi narsani ko'rsatadi: — Bu nima?

— Kitob.

2. «Juftlikda ishlash».

Biz narsaning nomini aytdik. Yozgan so'zlarimizni rasm daftariga chizing (5—6 ta). Chizilgan rasmlardan ko'rgazma tashkil etiladi. Ko'rgazmali rasmlar asosida otlar guruhlarga ajratiladi, bolalar juftlikda ishlab, biri-kim, ikkinchisi nima? Javob beruvchi bolarni misollar bilan keltiradi. O'qituvchi yordamida otga ta'rif beriladi, xulosa qilinadi.

3. Rasmlaringizga qarab, har bir ot ishtirokida gap tuzing. 2—3 gap aytib, ular asosida hikoya tuzing, masalan:

«Men kitob sotib oldim. Kitobda qiziqarli ertaklar juda ko'p ekan. Men ularni ukamga o'qib berdim».

O'qituvchi savol tashlaydi:

— Qanday ertaklarni bilasiz? Siz ham uka-singillaringizga ertaklar so'zlab berasizmi? Uka-singillaringiz xursand bo'lishadimi?

Bolalar sanab o'tadi. So'ng biron bir ertakning qisqacha mazmunini so'zlab berish taklif etiladi.

4. Bu bosqichda dars ikki yo'nalishda ketishi mumkin:

— ertakning qisqacha mazmuni daftarga yoziladi, muhokama qilinadi;

— ertak rasm albomida tasvirlanadi, muhokama qilinadi, tasvirlangan rasmlar asosida galereya hosil qilinadi. «Galereya» so'ziga izoh beriladi, buyuk musavvirlarning nomlari keltiriladi. Galereya buyuk rassomlarning ijodini namoyon etadigan maxsus bino, joy. Kamoliddin Behzod, O'rol Tansiqboyev, Chingiz Ahmarov kabi buyuk rassomlarimiz bor.

Mustahkamlash.

Ertak mazmunida (tasvirida) otlarni aniqlang. Avval nima, so'ng kim so'rog'iga javob bo'luvchi otlarni ayting.

Bu bosqichda darslik bilan ish olib boriladi, mashqlar bajariladi.

Dars yakuni.

Darsda nimalar qildingiz? Nimalarni oldingiz? O'z fikrlaringizni ayting. Uyga vazifa beriladi.

Albatta, bunday darslarni o'tish o'qituvchidan yuksak mahoratni, boshqaruvchanlikni talab etadi. Integratsion darslarda o'qituvchi jimgina, tomoshabin bo'lib o'tirmaydi. U dars jarayonida faol va izchil qatnashadi. Shu jarayonlarning unumdor va samarali kechishida o'qituvchi shaxsi ahamiyati beqiyosdir.

1-sinf uchun mo'ljallangan integratsiyalangan darsning yoyiq rejasi (tabiatshunoslik, o'qish, rasm, matematika)

Dars mavzusi : «Svetofor signallari — bizning do'stlarimiz».

Maqsad: Ko'cha harakati qoidalari haqidagi bolalarning bilimlarini kengaytirish, svetoforga qarab, ish tutish ko'nikmasini mustahkamlash.

Vazifalar:

1. Svetofor va piyodalar. Svetofor ranglari va ular piyodalar uchun nimalarni bildiradi?

2. Ko'cha harakatining tartibi, yo'lni DAN xodimi tomonidan boshqarilayotganda, ko'chadan o'tish qoidalari.

3. «O'qish kitobi» yoki «Ko'cha harakati qoidalari» kitobidan o'qilgan parcha bo'yicha rasm tuzish.

Jihoz. Svetofor maketi. Ko'cha harakati qoidalari aks etgan rasmlar: to'g'ri va noto'g'rlarini tanlash uchun.

Darsning borishi.

1. *Tashkiliy qism*. O'quvchilarning darsga tayyorgarligini tekshirish. Intizomni to'g'rilash va ishlash kayfiyatini vujudga keltirish.

2. *Uy vazifasini tekshirish*. Yangi materialni qabul qilishga tayyorlash.

3. *O'tgan mavzuni takrorlash*:

— Bugun biz yana do'stimiz svetofor bilan uchrashamiz. Uning signallari bo'yicha ko'chadan o'tishni eslab qolganingizni tekshirib ko'ramiz.

— Kimni piyoda deb ataymiz?

— Piyoda qanday ko'cha harakati qoidalarini bilishi kerak?

— Piyoda yo'lning qaysi qismidan yurishi kerak?

— Yo'lni qayeridan kesib o'tish mumkin?

— Bolalar, endi she'rni eshitib ko'ring va uning mazmunini aytib bering.

Ko'chani qayeridan o'tishni,

Qoidani eslab bil,

Avval e'tibor bilan qaragin chapga

Keyin esa o'ngga qaragin.

Qanday qilib chap yoki o'ngni ajratamiz?

4. *Svetofor maketi bilan ishlash*.

— Svetoforning nechta tomoni bor?

— Har tomonida nima ifodalangan?

— Nechta rang bor va qanday?

5. *Kitob bilan ishlash.*

6. *Svetofor o'rnatilgan chorrahaga bolalarni olib chiqish.*

Qaranglar, hozir svetoforning piyodalar o'tishi uchun mo'ljalangan tomonida qizil chiroq. Piyodalar yo'ldan o'tishdi, mashinalar to'xtashdi. Endi sariq chiroq yondi. U yaqinda signal o'zgarishi haqida ogohlantiryapti. Endi esa, aksincha, mashinalar uchun yashil chiroq yondi. Endi piyodalar to'xtashdi. Svetofor aniq ishlaydi. Bir chiroq boshqasi bilan almashinib turadi. Yo'lda hamma unga bo'ysunadi, shuning uchun tartib bo'ladi.

Bolalar, endi she'r eshiting:

Xavfli yo'ldan o'tishda
Senga yordam berish uchun
Kecha-yu kunduz yonamiz
Yashil, sariq, qizilmiz.

Bizning uyimiz svetofor,
Biz uch aka-ukamiz
Ko'pdan beri yonamiz,
Yo'lda hamma bolalarga.

Eng kattamiz — qizil rang
Agar u yonsa,
To'xta! Yo'l yo'q.
Yo'l bekildi.

Yo'ldan tinch o'tish uchun,
Bizga quloq sol.
To'xta! Sariq chiroqni ko'rasan,
U o'rtada yonadi,
Undan keyin yashil yonadi
To'siq yo'q bermalol o'taver.

7. *Regulirovkachi bilan tanishish.*

Ba'zida harakatni militsioner — DAN xodimi boshqaradi. U regulirovkachi deyiladi. U tayoqchasi yordamida harakatni tartibga solib turadi. Qorong'ida tayoqcha yonib turadi: shunda kechqurun ham regulirovkachining harakatlari haydovchilarga ham, piyodalarga ham yaxshi ko'rinib turadi.

Regulirovkachi harakatni boshqarayotganda yo'ldan o'tish qoidalari: agar regulirovkachi senga yoni bilan turib, tayoqchali

qo'lini oldinga ko'tarib tursa, demak, u mashinalar uchun chapga va o'ngga yo'l ochdi, u qo'lini tushirmaguncha yo'ldan o'tish mumkin emas.

8. *Didaktik o'yin.*

Bolalarning qo'llarida qizil, sariq, yashil rangli doirali svetofor. O'qituvchi she'r o'qiydi, bolalar esa svetoforning kerakli rangini ko'rsatishadi.

Svetoforning chiroqlari bor,
Ularga bo'ysuning har doim.
Ko'chada harakat avjida,
Mashinalar yugurar, shoshar tramvaylar,
To'g'ri javobni ayting,
Qanday chiroq yonyapti? (Qizil)
Maxsus chiroq — ogohlantirish,
Harakat uchun signalni kuting.
To'g'ri javobni ayting,
Qanday chiroq yonyapti? (Sariq)
Olg'a yur! Tartibni bilasan,
Ko'chada jabrlanmaysan
To'g'ri javobni ayting,
Qanday chiroq yonyapti? (Yashil)

9. *Mustahkamlash.* O'quvchilar svetofor maketi va doskadagi didaktik rasmlar bilan mashq qilishadi. O'qituvchi yana bir marta bolalarga ko'chadan o'tganda, ehtiyot bo'lishlari kerakligi, ko'chadan noto'g'ri o'tish yomon oqibatlariga olib kelishini eslatadi.

10. *Ijodiy ish.* Bolalar, mana bu parchani eshitinglar.

«Bolalar aylanishga chiqishdi. Burchakka yetishdi, u yerda svetofor bor edi. Svetoforda qizil chiroq yonishni kutib turishibdi. Mashinalar esa ketma-ket o'tib ketyapti, ularning oxiri ko'rinmaydi. Ko'chaning o'rtasida militsioner turibdi. Bolalarga qarab qo'y-dida, tayoqchasini ko'tardi. Mashinalar to'xtashdi. Qizil chiroq o'chdi, sariq, keyin esa yashil chiroq yondi. Ko'chadan o'tsa bo'ladi.

Bolalar ko'chadan o'tib, xiyobonda o'ynay boshlashdi. Sobir tayoqcha oldi va «Men militsionerman», dedi. Mashinalar, bolalar guvullab ko'chadan yurib ketishdi. Chorrahada esa Sobir militsioner turibdi. Haydovchilar unga buysunishadi. Tayoqchani ko'tarsa — mashinalar to'xtaydi, tayoqchani silkitsa — mashinalar yuradi. Hech kim bir-biriga qarab, yurib ketmaydi, hech kim bir-biriga xalaqit bermaydi. Chunki militsioner harakatni kuzatib turibdi».

Endi har biringiz shu hikoyadan eslab qolganlaringizning rasmini chizing.

Chizganlarini tahlil qilish.

11. Darsga xulosa qilish.

Shunday qilib, yo'lni kesib o'tayotganda, juda ehtiyot bo'lish kerak! Svetoforga qarab, yashil chiroqni kutish kerak, avval chapga, keyin o'ngga qarab, keyin yo'ldan o'tish kerak.

— Qani aytingchi, yo'lning mashinalar yuradigan bo'lagida nima qilish mumkin emas?

12. Baholash va baholarni izohlash.

13. Uyga vazifa. Vazifani kuzatish kundaligi bo'yicha bajarish.

O'qish fanida integratsiya

Boshlang'ich sinflarda integratsiyalangan ta'limni amalga oshirish metodikasi (uslub)

Integratsiya, integratsiyalash jarayonlari zamonaviy maktabga kirib kelib, faqat uning mazmunini emas, balki kichik maktab o'quvchilarini ekologik ta'limining tashkiliy shakl va uslublariga ham faol kirib boryapti.

O'qituvchi bilim olish jarayonini shunday tashkil etishi kerakki, unda o'quvchilar ko'proq mustaqil izlanishlari, o'z harakat va faoliyatlarining oqibatlarini oldindan bilishga o'rganishlari, bahs-munozaralarda ishtirok etishlari, tabiiy va ijtimoiy muhitni obodonlashtirishning amaliy ko'nikmalarini egallashlari kerak. Shuning uchun o'qish vaqtining yarmini o'quvchilar tabiat va ijtimoiy muhitda o'tkazishlari, amaliy ijodiy va tekshirish ishlari olib borishlari kerak. Bu vazifani ta'limning turli shakllarida bajarish mumkin: kuzatishlar, tajriba va sinovlar o'tkazish, san'at asarlarini qayta tiklash, modellashtirish, ijtimoiy muhitdagi o'z harakat va faoliyatlarini natijasini ko'ra bilish, kitob bilan ishlash.

O'qituvchi dars samaradorligini oshiruvchi, matematika, rus tili, o'qish, tabiatshunoslik fanlarini o'qitishning turli-tuman usul va shakllariga ega. Har bir dars o'quvchiga ilmiy bilim, ta'sir va tushunchalarning ma'lum bir yig'indisini berishi hamda tarbiyalash va rivojlantirishi kerak. Dasturdagi materialni ular dars davomida o'zlashtirishlari lozim. Bu o'quvchilarning o'quv mashg'ulotlari bilan ortiqcha yuklanmasligining muhim shartidir, chunki yaxshi o'zlashtirilgan dars uy vazifasini bajarish uchun

ketadigan vaqtni ancha qisqartiradi. Bu holatdagi asosiy prinsip: kichik maktab o'quvchilarining eng muhim vazifasi — o'qish, mustahkam bilim olish, darsdagi vazifa esa o'qituvchi boshchiligidagi mehnat. Bundan tashqari dars tashkil qilishda, uni o'tkazish metodlarini tanlashda bir xil qolipdan foydalanish.

Darsga tayyorlanar ekan, o'qituvchi birinchi navbatda uning maqsadini anglaydi va shu asosida darsning mazmuni tanlanadi, asosiy savollar belgilanadi. Bunda o'qituvchi faqat darslik matnini gapirib berish bilan cheklanmasligi kerak. O'quvchilarni qo'shimcha material bilan ko'mib tashlamagan holda ularga kitobda yo'q misollarni ham berib borishi kerak: turli she'rlar, badiiy asarlardan parchalar, maqollar, topishmoqlar va boshqa materiallar o'quvchilarda jonli qiziqish uyg'otadi va ta'sirlantiradi.

Har bir dars mazmuni belgilanayotganda predmet ichidagi va predmetlararo aloqalar hisobga olinadi. Darsning mazmuni belgilangach, o'qituvchi qanday tasavvur va tushunchalar unda o'z rivojini topishini, o'quvchi qanday bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishini aniqlaydi. Darsning maqsadi va mazmuniga mos ravishda o'qituvchi ta'lim metodlarini tanlaydi. Darsda o'qituvchi va o'quvchining faoliyatlari bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lganligi sababli, bu faoliyatlarning aniq bosqichlarini belgilab olish kerak. Butun dars davomida sinfnings faol ishlashi uchun, usul va vositalarning to'g'ri almashinuvini aniqlab olish zarur.

1-sinf integratsiyalangan o'qish darsining yoyiq konspekt rejasi

(O'qish, yozuv, tabiatshunoslik, matematika)

Mavzu: «O tovushi va O harfi».

Maqsad:

1. *Ta'limiy* — yangi O tovushi bilan tanishtirish va daftarda bosma O harfini yozish;
2. *Rivojlantiruvchi* — gapni so'zlarga, so'zlarni esa bo'g'inlarga ajratish ko'nikmasini rivojlantirish;
3. *Tarbiyaviy* — tabiatni asrash hissini tarbiyalash.

Jihoz: qiziqarli va didaktik material, rasm-javoblar.

Darsning borishi.

Tashkiliy qism. O'quvchilarning darsga tayyorligini tekshirish. Ularni o'quv jarayoniga jalb qilish.

Oldingi darsda o‘tilgan «A» harfini takrorlash.

– Bolalar, **O**‘tgan darsda biz qaysi qaror bilan tanishdik?

– «A» harfi nechta elementdan iborat? (3 ta chapga engashgan tayoqcha, **O**‘ngga engashgan tayoqcha va gorizontal to‘g‘ri tayoqcha).

– «A» harfli so‘z topish (anor).

– Anor so‘zini bo‘g‘inlarga ajratish va urg‘u qo‘yish (a-nor).

Yangi mavzuga tayyorlanish.

– Bolalar, topishmoqni toping-chi (doskada «O» harfli qiziqarli rasm osilgan).

Bu harfda burchak yo‘q,
Shundan u dumaloqdir.
Shunchalik dumaloqki,
Dumalab ketishi mumkin.

– O harfi nimaga o‘xshaydi? (G‘ildirak.)

– Yana nimaga? (Aylana.) Aylana o‘zi nima?

– Dumaloq narsalarni aytib bering-chi?

– Bolalar, kelinglar «O» tovushini kuylab ko‘ramiz. O-O-O.

Tovushni kuylab bo‘lar ekan, demak, u unli tovush.

4. *Yangi mavzuni o‘rganish.* Bugun biz siz bilan «O» harfini o‘rganamiz.

5. *Kitob bilan ishlash.*

– 1-rasmda nima tasvirlangan? (Guldasta.)

– Guldasta nima?

– Yana nimalardan guldasta yig‘ish mumkin? (Barglar.)

– Oysha, u yerda yozilgan so‘zni o‘qi. (Listopad — xazon-rezgilik.)

– U so‘z nimani bildiradi?

– U qachon bo‘ladi?

6. *Daftar bilan ishlash.* Bolalarga o‘qish daftarida harflarni ergashtirmasdan yozishni eslatish kerak. Katta harf 2 katakda, kichik harf 1 katakda yoziladi. «A» harfidan keyin 2 katak qoldiramiz. Oval chizamiz, har bir harf orasida 1 katakdan qoldiramiz.

Musiqali tanaffus

Buratino tortildi,
Bir engashdi,
Ikki engashdi,
Uch engashdi.

Qo'llarini yoniga yoydi,
Kalitni topolmadi.
Kalitni olish uchun
Oyoq uchiga turish kerak.

7. *Kitob bilan ishlash.*

2-rasmni tahlil qilish. O'qituvchi o'quvchilarga rasm bo'yicha savol beradi.

- Rasmda nimani ko'ryapsiz?
- Ob-havo qanday?
- Daraxtlar qanday?
- Bola qayerga qarayapti?
- Qushlar nimaga uchib ketishyapti?

Topishmoq.

Kulrang, lekin bo'ri emas,
Qulog'i uzun, lekin quyon emas,
Tuyog'i bor ot emas. (*Eshak.*)

Xo'tikcha so'zini fonetik tahlil qilish, O harfiga so'zlar topish. Ekologik xarakterga ega bo'lgan tarbiyaviy ish.

— Bolalar, baliqlar faqat toza suvda yashaydi. Suvga chiqindilarni tashlash mumkin emas. Baliqlar zaharlanib o'ladi. Axlatlarni ham suvga tashlash kerak emas, bo'lmasa, biz baliq o'rniga eski tufllilarni tutamiz.

— Yana odamlar uchun barglarni yoqish ham zararli, ularni ko'mib tashlash kerak. Bu o'simliklar uchun o'g'it bo'ladi.

8. *Musobaqa—o'yin.* Sinf ikki guruhga bo'linadi — o'g'il bolalar va qiz bolalar. Doskaga rasmlar osishadi, har bir rasimga topishmoq aytiladi. O'g'il bolalar va qiz bolalar galma-galdan topishadi. «O» harfi bor so'zli rasmlarni ko'rsatishlari va u nechanchi bo'lib turishini aytishlari kerak.

- Odamlar yashaydigan joy (uy).
- Pianinoni chalayotganda musiqachi nimani o'qiydi (nota).
- Yomg'irda odamlar boshlariga nimani yopinishadi (soyabon).
- Qishki kiyim (palto).
- Asalariga o'xshaydi, lekin asal bermaydi (ari).
- Oziq-ovqatlar nima bilan kesiladi (pichoq).

9. *Xulosa qilish.*

— Biz bugun qaysi harf va tovush bilan tanishdik? U unlimi yoki undoshmi? Nima uchun?

10. *Baholash va ularni sharhlash.*

11. *Uyga vazifa. «O» harfini yozish.*

**I-sinfda integratsiyalangan matematika darsi uchun
yoyiq konspekt rejasi (matematika, o'qish,
atrofimizdagi olam)**

Mavzu: «1 dan 5 gacha bo'lgan sonlar. 1 soni».

Maqsad:

1. *Ta'limiy*—o'quvchilarni 1 soni bilan tanishtirish. «Raqam» va «son» tushunchalarini berish.

2. *Rivojlantiruvchi*—raqamlar elementlarini yozish ko'nikmalarini rivojlantirish.

3. *Tarbiyaviy*—hayvonlarga nisbatan g'amxo'rlik hissini tarbiyalash.

Jihozlar: rasmlar, qiziqarli material, kartochkalar.

Darsning borishi.

Tashkiliy qism. O'quvchilarning darsga tayyorligini tekshirish. Ularni dars jarayoniga jalb qilish.

Uy vazifasini tekshirish.

— Bolalar, daftarlaringizni oching. Men uy vazifasini tekshirib chiqaman.

O'qituvchi sinfni aylanib, daftarlarni ko'rib chiqadi, eng yaxshi daftarni sinfga namuna qilib ko'rsatadi.

— Endi daftarlarni yopib, parta burchagiga qo'yinglar, navbatchilar daftarlarni yig'ib chiqishadi.

O'tgan darsni takrorlash. Og'zaki sanoq:

— Bolalar, hammangiz pannoga qaranglar, tepadagi qatorda nima bor?

— Kvadratni tasvirlab bering (4 burchak, 4 tomon).

— Uchburchakni tasvirlab bering (3 burchak, 3 tomon).

— Aylana, doira to'g'risida nima deyish mumkin?

— Oxirgi shakl qanaqa? (Ko'pburchak).

— Kvadrat va uchburchak o'rtasida nima bor?

— Aylananing o'ng tomonida nima bor?

— Ikkinchi qatorda nima bor? Ular to'g'risida nima deyish mumkin?

— Hammasi nechta? Keyingi qatorda nima bor?

— Ularning soni haqida nima deyish mumkin? (3 ta yashil, qolganlari sariq.)

— Bitta barg tushib ketdi, nechta qoldi?

— 4-qatorda nima bor?

Boshlang'ich maktabda estetik mashg'ulotlarning interaktiv sikli

Jamiyatimizning barcha faoliyat sohalarida tub qayta o'zgarishlar bo'layotgan bir sharoitda o'sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash va rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etyapti. Jamiyatni rivojlantirishning o'tish bosqichidagi vaziyat insonni mavjudligini, mazmunini anglash jarayonlarini, ta'lim tizimini insonparvarlashtirish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda. Bu bosqichda respublikamizdagi maktab o'quvchilarini estetik ta'lim tarbiyasining qadr-qimmati o'sib borayotir. Aynan sanoat vositasida insoniyatning ma'naviy tajribasini avloddan avlodga o'tkazish asosan amalga oshiriladi. Bu esa avlodlararo aloqani qayta tiklashga yordam beradi. Shu narsa ham muhimki, san'at «himoya qiluvchi, kamar» rovida ham namoyon bo'ladiki, bu rol esa bolani zo'ravonlik va shafqatsizlik g'oyalar ta'siridan asraydi. San'at o'quvchilarga chor atrofimizdagi dunyoni to'la-to'kis qiyofasini tasavvur etishga yordam beradi, turli xil hayotiy vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilishni osonlashtiradi.

Keyingi vaqtda o'quvchilar orasida san'at bo'yicha madaniyatning bir qismi sifatida, musiqani o'rganish, musiqali folklor, xalq amaliy san'atini o'rganish bo'yicha integrallashgan mashg'ulotlar keng bo'lishi qonuniy tus oldi. Integrallashgan estetik shakl boshlang'ich ta'limda, san'at fanlarini integratsiyalashi, o'quvchilarni san'at predmetlarni o'qitishning muqobil tizimi, ekanligini ta'kidlash imkonini beradi.

Integrallashgan kurs quyidagi predmetlarni adabiy o'quv, tasviriy san'at va musiqani qamrab olib, ular uchun umumiy maqsadlarga ega didaktikaning tamoyillariga to'sqinlik qilmaydi, san'atning turli shakllarining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olib saqlab qoladi, o'quvchilarni o'ziga xos yosh va individual xususiyatlarini e'tiborga oladi, atrofda olam go'zalliklarini to'laqonli qabul qilishda, bolalar tomonidan borliqni anglashda o'z izini qoldiradi.

A. Ushinskiyning so'zlariga qaraganda, bolalar ranglar, shakllar va timsollar bilan tafakkur qilishadi. Ularni boshqacha fikrlashga majbur qiluvchi tarbiyachi behuda harakat qiladi, deya ta'kidlaydi.

Integrallashgan estetik kurs Toshkent shahridagi 24-maktabning laboratoriya bazasida sinovdan o'tkazilgan. Mazkur integ-

talashgan kursni umumta'lim maktablardagi 1—4-sinf o'quvchilari uchun tematik rejalashtirish haftasiga 1 soatdan iborat qilib, o'quv yiliga tuziladi. Jadval estetik kursni rejalashtirishning aniq tasavvurini beradi (adabiy o'qish, tasviriy san'at, musiqa). 1-sinfda (1,4-tizim bo'yicha) va 3-sinfda (1—3-tizim bo'yicha).

Bu kursda o'zak predmet bo'lib, badiiy o'qish, musiqa bilan tasviriy san'at o'zaro bir-birini to'ldiradigan darsning o'quv materialini hisoblanadi. Uch yagona didaktik maqsadni — ta'limiy, rivojlantiruvchi va tarbiyalovchi maqsadlarni amalga oshirishni kuchaytirishda badiiy o'qishning tasviriy san'at va musiqa bilan uyg'unlashgan o'quv materialini ekanligi katta ahamiyatga ega.

Estetik kursga shoirlarning rassom, bastakorlarning o'z mazmuniga ko'ra, bir-biriga yaqin va mantiqiy o'zaro bog'langan taniqli xrestomatik asarlari kiritilgan. Lekin bunga boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlarini hisobga oluvchi dasturdan tashqari asarlari kiritilganki, bular bolalarni bilish faoliyatini kuzatishga va bilimlarini kengaytirishga imkon beradi. Bundan tashqari badiiy asarlar, matnlarni tabiatga bog'liq holda mavsumni o'zgarishlarini hisobga olib tanlanadi.

Bu o'quvchilarga atrofni o'rab turuvchi borliq to'g'risidagi kuzatish va tasavvurlarni, o'rganilayotgan adabiyotlarni, borliq to'g'risidagi tasavvurlar bilan jonli va samarali taqsimlashga yordam beradi. Shuningdek, ular qo'shimcha illustrativ material sifatida xizmat qiladi.

A. Barto. «O'yinchoqlar»

A. Bartoning «O'yinchoqlar» deb nomlangan she'riga illustratsiyalar chizish.

«O'yinchoqlar» she'ri matnlariga qo'shiq va kuylar o'ylab topish yoki ilgari eshitilgan tanish kuylardan foydalanish.

Maqsad: ifodali o'qish malakasini shakllantirish. O'quvchilarni og'zaki savodxonlik nutqini ko'nikmalarini hosil qilish, uni lug'at bilan ishlash hisobiga boyitish, chiroyli estetik didini rivojlantirish musiqa mavzusini hissiy qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirish, she'rlariga kuylar tanlashni o'rganish.

Jihozlash: albom tayyorlash uchun katta bo'lmagan qog'oz varaqлари yoki rasm chizish albomi tituli varag'i (muqova) oldindan tayyorlab qo'yiladi.

Darsning borishi

Tashkiliy qism.

Maqsad yo'l-yo'riqlari.

Topishmoqlar bilan ishlash.

O'quvchilar tomonidan topishmoq o'qish va topish.

Savollarga javob berish:

— Siz topib olgan buyumni bir so'z bilan nima deb atash mumkin?

— Biz nima haqida gapiramiz, kuylaymiz, nimani chizamiz? She'r, matnlar bilan ishlash.

Rassom-bezakchi

1. O'quvchilarga tayyorlangan «Koptokcha» she'rini o'qish.

2. Savollarga javoblar.

— Koptokcha qayerga tushib qoldi?

— Diyora o'z o'yinchog'iga qanday munosabatda bo'ldi?

— She'rning oxirgi satrlarini qanday o'qish kerak?

3. She'rni qaytadan o'qish (3—4 o'quvchi).

4. Koptokni haqiqiy koptokka qarab turib, albomning birinchi varag'iga chizish.

5. «Koptokcha» she'riga kuy tanlash, alohida o'quvchilar tomonidan ijro qilish. O'qituvchi o'quvchilarning «Koptok» she'riga tanlagan kuylarini fortopianoda chalib berishi mumkin. O'qituvchi she'rning oxirgi misralarini qanday uzilishlar bilan kuyga solishga e'tiborini qaratadi.

Musiqali tanaffus.

«Buzoqcha» she'ridagi so'z ijrosi harakatlarini kuzatish. «Quyuncha» asarining matni bo'yicha ishlash.

1). O'quvchi tomonidan tayyorlangan she'r o'qish.

2). Savollarga javoblar:

— Quyunchaning egasi yaxshimi? Nima uchun?

— She'r satrini qanday o'qish kerak?

3). O'qituvchilar tomonidan she'rni qayta o'qish (3—4 o'quvchi).

4). O'yinchoqni o'ziga qarab, albomning ikkinchi varag'iga tasvirlab chizish.

5). She'rni yoddan o'qish.

«Quyuncha» she'ri matniga tanish kuyni tanlash, bir qator talabalar tomonidan kuy topish (o'qituvchi kuyni fortopianoda ijro etib berishi mumkin).

«Samolyot» she'ri matni ustida ishlash.

6). Tayyorlangan o'quvchi tomonidan she'rni dastlabki o'qib berish.

7). Savolga javob:

— She'r satrini qanday ifoda bilan o'qish kerak?

8). 3—4 o'quvchi tomonidan she'r o'qish.

9). Savolga javob:

— O'z o'yinchoqlaringizga va o'yinchoqlar yasovchilarga qanday munosabatda bo'lish kerak?

Musiqali tanaffus («Samolyot» she'rini o'quvchilar tomonidan so'z bo'lib, musiqa jo'rligida ijro etish).

10). O'quvchilar tomonidan samolyot rasmini chizish.

11). Lug'at bilan ishlash. Fyuzelej, stabilizator, kopot (lug'at bilan ishlash samolyot rasmini chizish jarayonida o'tiladi).

12). O'tilganlarning rasmi chizilgan varaqlar titul varag'i — muqovani birlashtirib, albom tayyorlash.

13). «Xo'tikcha», «Kemacha» she'rlari bilan «Jonli» kitob.

14). Dars yakuni.

Eslatma: integratsiyalashgan darsni musiqa va tasviriy san'at o'qituvchilari bilan hamkorlikda o'tkazishlari mumkin.

Shunday qilib, estetik kursda uch predmetni integratsiyalashishi katta ahamiyat kasb etadi. Bunday darslar o'quvchilar ting va tovushlar dunyosiga kirishiga yordam berib, ularni yozma va og'zaki nutqlarining rivojlanishi va boyishiga yordam beradi, san'at asarlarini qadrlash, qadrdon tabiiy muhitni go'zalliklari va boyliklarini qadrlash malakalarini hosil qiladi.

15. MATEMATIKA DARSIDA INTEGRATSIYA

Boshlang'ich maktablarda matematika darsi elementidan har bir o'quv predmeti orqali foydalanish mumkin. Matematika darsida integratsiya elementidan foydalanishdan maqsad — darsda ularni faolligini rivojlantirish va darslarni qiziqarli o'tkazish. Bittinchi sinfda savod o'rgatish va alifbedan keyingi davrda so'z-tovushlar sonini tushuntirishi hamda bo'g'inlarni tartibli ravishda so'z, qiyin so'zlar va gaplarni tushuntirish. Integratsiya usuli o'quvchilarga matematika darsida to'g'ri hisoblash qoidasini o'rgatadi. Shuningdek, matematika darsi kutilmaganda kitobning betlari va mashqlarining raqamlarini tushuntiradi. Matematika darsida o'qituvchi o'quvchilarga lug'aviy so'zlarni tushuntirishdan foydalanishi mumkin.

Masalan, lug'aviy so'zlarni tushuntirishda o'qituvchi antiqa—rebus usulidan foydalanishi mumkin.

3 terak	100 lash	100 ma	1005 ariq
6 bola	7 so'z	40 qiz	3 quduq

Bu usullar faqat faollashtirmasdan, o'quvchilarning o'ylash qobiliyatlari va katta o'zlashtirishlaridan o'qituvchi yaxshi foydalanadi.

Integratsiya usulidagi o'qish darsida yozuvchining so'nggi hayotiy faoliyati o'rganiladi. Shuningdek, o'qish darslarida o'quvchilar tez-tez topshiriqlar olib turishadi. Matnning to'rtinchi bo'limini o'qish va uch qator she'rni yod olish va h.k. Integratsiya usuli tabiatshunoslik darslarida katta sharoit uyg'otadi. Shuningdek, o'quvchi sanalarni qo'yadi, kundalik kuzatish daftariga obhavoni belgilaydi va h.k. Tabiatshunoslik darslarida integratsiyadan alohida foydalanish, bu biron narsaning «hajmini», masalan, 4-sinfning «Tabiatshunoslik» darsligida o'quvchilarga topshiriq beriladi. O'quvchi partaning bo'yi va enini o'lchab, qog'ozga uning rejasini chizadi: 1 sm, 10 sm. Necha marta qog'ozdagi qisqargan?

O'zingiz yashaydigan xonaning planini chizing (masshtab — 1 sm: 2 m). O'ziga nisbatan qog'ozda necha marta qisqartirganingizni ko'rsating.

Mavzu: «Ikki usulli bo'lish».

I. Maqsad: 1. Ko'p usulli, ikki usulli guruhdagi masalalarni yechish.

2. Matematik rivojlantirish va og'zaki o'ylash orqali yechish.
3. Tabiatga qiziqishlarini rivojlantirish.

II. Ko'rgazma: 1. Og'zaki hisob uchun «Tirnoqgul».

2. Topshiriqqa mos kartochna.
3. Javobli kartochna.
4. Noyob o'simlik va hayvonlarning rasmi.

Darsning borishi:

1. Tashkiliy qism.

2. Og'zaki topshiriqlar.

Doskada nimalar berilgan?

$$\begin{array}{r} 623 \\ \underline{7} \end{array} \quad \begin{array}{r} 103 \\ \underline{7} \end{array} \quad \begin{array}{r} 220 \\ \underline{4} \end{array} \quad \begin{array}{r} 473 \\ \underline{4} \end{array}$$

$$\begin{array}{r} 771 \\ \underline{2} \end{array} \quad \begin{array}{r} 316 \\ \underline{3} \end{array} \quad \begin{array}{r} 508 \\ \underline{7} \end{array} \quad \begin{array}{r} 826 \\ \underline{4} \end{array}$$

Tabiat. Bu so'zning ma'nosini qanday tushunasiz?

Og'zaki masalani yech.

1984-yilda yurtimizda 143 ta qo'riqxonalar bor edi. Oxirgi 10 yil ichida yana 50 ta yangi qo'riqxonalar ko'paydi. Yurtimizda qancha qo'riqxonalar bo'ldi?

— Siz qanday qo'riqxonalarni bilasiz?

— Doskaga qarang va misollarni yeching.

$$\begin{array}{r} - 3234 \\ \underline{2484} \end{array} \quad \begin{array}{r} - 613 \\ \underline{263} \end{array} \quad \begin{array}{r} + 438 \\ \underline{562} \end{array}$$

Bolalar misollarni yechishadi. O'qituvchi varaqdagi javobni orqa tomoniga ko'chirib qo'yadi.

750 — qancha qo'ng'iz 1 kunda ildizni yeydi?

350 — daraxt qancha yil yashaydi?

1000 — boyo'g'li bir yilda qancha sichqon yeydi?

III. Mustahkamlash.

1-tarqatma

Qayin daraxti 500 yil, chinor esa 2000 yil yashaydi. Qayin daraxti chinor daraxtidan qancha kam yashaydi?

2-tarqatma

Oq quyonlar 400 ta, qora quyonlar esa 700 ta. Oq quyon qora quyondan qancha kam?

IV. Masalalarni tahlil qilish va yechish.

Toshkent qo'riqxonasida minglab qushlar bolalaydi. Bir juft qarq'a o'z bolalariga bir kunda 335 ta qurt olib keladi. Bir juft qizilshon qarq'aga qaraganda 3 baravar ko'p olib keladi. Bir juft

chumchuq esa qarg'aga qaraganda 5 baravar ko'p olib keladi. Bir juft chumchuqqa qaraganda, bir juft qarg'a qancha qurt olib keladi?

Qarg'a — 335 ta.

Qizilishton — 3 baravar ko'p.

Chumchuq — 5 baravar ko'p.

Biz tezda savolga javob bera olamizmi? Nimaga? Bir juft qizilishton bilan bir juft chumchuq qancha qurt olib kelishini bilamaymiz. Qanday bilib olamiz? $3 \cdot 335 = 1005$.

Son orqali bir juft qizilishton qancha qurt olib kelishini bilib oldik: $5 \cdot 335 = 1675$. Shuncha qurti bir juft chumchuq olib keladi. Masala savolini qaytaring? Qaysi yo'l bilan bir juft qizilishton bir juft chumchuqqa qaraganda o'z bolasiga qancha ko'p qurt olib keladi? Ayiramiz: $1675 - 1005 = 670$ (qurt).

Javobni o'qiymiz. Masala savolini shunday o'zgartirish usuli qo'shuv bo'lishi kerak. Bir juft chumchuq va bir juft qizilishton birgalikda qancha qurt olib kelishgan?

V. Darsning yakuni.

— Darsda nima o'rgandingiz?

— Nima yangilik bildingiz?

— Matematikaga doir bilimlardan tashqari biz o'z uyimiz, yer sayyorasi haqida gapirdik.

Inson tabiat bilan bog'liq. U tabiatdan o'rganadi. Tabiat qonunlarini hurmat qiling. Faqat tabiat bilan uyg'unlikda biz baxtli bo'lishimiz kerak.

1-sinf

Matematika	Mehnat
Eniga va bo'yiga taqqoslash.	Maktab atrofi bilan tanishtirish.
Predmetning shaklini taqqoslash. Doira, uchburchak, kvadrat.	Qog'ozdan shablon tayyorlash.
Ko'paytirish va ayirish shu ko'rinishda $\cdot 1, -1$.	Har xil shaklda olma yasash.
Masalaning sharti va savoli.	Meva, sabzavot va qo'ziqorin yasash. Tabiiy materiallardan ko'rgazma yasash.
O'tilgan materiallarni mustahkamlash.	Konstruktorning jihozlari bilan yasash.
Predmet uzunligini uzunlik o'lchovi birligi yordamida o'lchash.	Konvert yasash.
Kvadrat.	«Tangram» o'yinidan keyin applikasiya yig'ish.
Predmet uzunligi bo'yicha taqqoslash. Santimetr.	Svetoforni modellash.

16. 1-SINF UCHUN INTEGRATSIYALASHGAN USULDA DCHI Q DARS ISHLANMASI (O'QISH, MATEMATIKA, RASM)

Darsning mavzusi. «Bizning sodiq do'stlarimiz — svetofor signalari».

Darsning maqsadi. Bolalarni yo'l harakati qoidalari haqidagi tushunchalarini kengaytirish, svetofor chiroqlari bo'yicha ko'chani kesib o'tish.

Topshiriqlar:

1. Svetofor va piyodalar. Svetofor chiroqlari piyodalar uchun nimani anglatadi.

2. Nazorat qilish. Harakatni nazorat qilayotganda ko'chadan o'tish qoidasi.

3. O'qib chiqilgan asardan olingan taassurot bo'yicha rasm chizish.

Darsning jihozlanishi. Svetofor maketi yo'l qoidalari harakati haqida suratlar: biri to'g'ri, biri noto'g'ri, noto'g'risini tanlash.

Darsning borishi.

1. *Tashkiliy qism.* Bolalarning darsga tayyorgarligini tekshirish va ularni darsga hozirlash.

2. *Uy vazifani tekshirish.* Yangi mavzuga hozirlik ko'rish.

3. *O'tilgan mavzuni takrorlash.*

— Bugun biz siz bilan sodiq do'stlarimiz, ya'ni svetofor bilan uchrashamiz. Siz svetoforning chiroqlar rangiga qarab, ko'chani kesib o'tish qonun-qoidalarini eslab qoldingizmi? Hozir sizni sinib ko'ramiz:

— Kimlarni piyoda, deb ataymiz?

— Piyodalar qanday yo'l harakati qoidalarini bilishlari shart?

— Ko'chani qaysi qismidan kesib o'tish mumkin?

Bolalar bu she'ni eshiting va mazmunini aytib bering:

Yur yo'lchiroq bor joydan,

Kesib o'tma har joydan.

Yo'l berk bo'lsa, biroz kut,

Shu o'gitga quloq tut.

4. *Svetofor maketi bilan ishlash.*

— Svetoforning necha tomoni bor?

— Har bir tomonida nima tasvirlanadi?

— Nechta rangi bor va ular qanday?

5. *Kitob bilan ishlash.*

6. *O'quvchilarni svetofor qo'yilgan chorrahaga olib chiqish.* Hozir piyodalar uchun svetoforning bir tomonida transport uchun qizil chiroq yonadi. Piyodalar ko'chani kesib o'tadilar. Mashinalar to'xtaydi. Endi svetoforning hamma tarafidan sariq rang yonadi. Sariq rang hozir signal almashinishidan dalolat beradi. Endi esa aksincha, yashil chiroq mashinalar uchun, qizil chiroq piyodalar uchun yonadi. Endi piyodalar to'xtaydi. Svetofor aniq ishlaydi. Hamma svetoforga bo'ysunadi, shuning uchun ko'chada intizom bo'ladi.

Bolalar, bu she'rni eshiting:

Ko'zi yonib yo'lchiroq,
Chiroqlari porlaydi.
Uning yashil ko'zlari,
Bizni yo'lga chorlaydi.
Yashil-yashil, yam-yashil —
Yo'ldan o'tmoqqa shoshil.
Yashil-yashil, yam-yashil —
Tezroq o'tmoqqa shoshil.
Qizil chiroq yonganda
To'xta, deydi, bolajon,
Yurish uchun hozirlan
Qizil ko'zim o'chgan on.
Qizil, qizil, qizil rang,
Bizni to'xtatdi, qarang
Qizil, qizil, qizilrang,
Birdan to'xtaydi qarang.
Porlagach sariq chiroq,
Sariq ko'zga aylanib
Turgin, deydi, bolakay,
Yurish uchun shaylanib.
Sariq, sariq, sariq ko'z,
«Tayyor turgin» degan so'z.
Sariq, sap-sariq chiroq
Tayyor tur, deydi o'rtoq.

7. *Yo'l nazoratchisi bilan tanishish.*

Ba'zan yo'l harakatini DAN xodimi boshqaradi. Uni yo'l nazoratchisi, deb atashadi. O'zining tayoqchasi bilan yo'l harakatini boshqaradi. Nazoratchining harakati piyodalar va haydovchilarga

yaxshi ko'rinishi uchun kechqurun qo'lidagi tayoqchasi yonadi. Nazoratchi sizga yuzi yoki orqasi bilan tursa, svetoforming qizil chirog'i yonganday bo'ladi. Bunday ko'chani kesib o'tish mumkin emas. Agar nazoratchi sizga yonboshi bilan tursa, yashil chiroq yonadi, qo'rqmasdan o'tavering. Agar nazoratchi yoni bilan tursa, tayoqchasini to'g'riga qilsa, mashinaning yo'li ochiq. Nazoratchi tayoqchasini tushurmaguncha, yo'ldan o'tish man etiladi.

8. *Didaktik o'yin.* O'quvchilar qo'lida doira shaklida svetoforming uch chiroqlari, o'qituvchi she'rini o'qiydi va unga tomon rangni ko'rsatadilar.

Ko'zi yonib yo'l chiroq,
Chiroqlari porlaydi.
Uning qaysi ko'zlari,
Bizni yo'lga chorlaydi (yashil).

Qaysi chiroq yonganda
To'xta, deydi, bolajon (qizil).

Birdan to'xtaydi qarang,
Porlagach qaysi chiroq
Turgin deydi bolakay,
Yurish uchun shaylanib (sariq).

(K. Turdiyeva she'ri)

9. *Mustahkamlash.* O'qituvchi yana bir bor yo'ldan o'tayotganda e'tiborli bo'lishni, e'tiborsiz yo'ldan o'tish yomon oqibatlarga olib kelishi haqida uqtirib o'tadi.

10. *Kesib o'tma har joydan.*

«Yur yo'l chiroq bor joydan» matnini o'qib berish.

— Endi bolalar, esingizda nima qolgan bo'lsa, chizib bering.

11. *Tekshirish ishlari.*

12. *Darsni yakunlash.* Demak, yo'ldan o'tayotganda svetoform chiroqlariga ahamiyat bergan holda o'tish, yashil chiroqni kutish, chap va o'ng tomonga qarash, keyingina o'tish kerak.

— Qani kim aytadi? Yo'lning qatnov qismida nima qilish mumkin emas?

13. *Baholash va muhokama qilish.*

14. *Uyga vazifa.* Kundalik kuzatish. Daftarga belgilab kelish.

17. IQTISODIYOTNING BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'RGANILADIGAN BOSHQA FANLAR BILAN ALOQASI

Kichik yoshdagi o'quvchilarning iqtisodiy tushunchalarni o'zlashtirishida fanlararo aloqalar katta yordam beradi. Boshlang'ich sinflardagi «Tevarak atrofimizdagi olam», «Mehnat ta'limi», «Tasviriy san'at» darslari insoniyat tomonidan foydalaniladigan mehnat vositalarini turli tomondan tabiiy material sifatida, uning xossalari, amaliy ahamiyati jihatidan ochib beradi. Bu bilan fanlararo aloqa iqtisodiy tafakkurni har tomonlama rivojlantirishga, uning dasturiy yo'nalganligini shakllantirishga imkon beradi.

Kichik maktab yoshidagi bolaning aql-idroki tabiat va jamiyatini o'rab turgan olamdagi ko'p qirrali munosabatlarning, iqtisodiy va egologik munosabatlarning qaror topishi va rivojlantirish uchun yaxshi zamindir. Shuni ham e'tiborga olish kerakki, bolaning ongida tevarak atrofdagi olam haqidagi kishilar, hayvonlar, o'simliklar, jonsiz tabiat to'g'risidagi tasavvur va bilimlar, faqat mexanik ravishda to'planib bormaydi, ular bolaning olamni tushunishini va unga munosabatini shakllantiradi, axloqiy sifatlariga va o'zining tabiatga aralashuvi uchun mas'uliyatini sezishga ta'sir etadi.

Boshlang'ich maktab shaxsning qaror topishi, unda ekologik madaniyatning tabiiy va ijtimoiy muhitga bo'lgan ko'p qirrali munosabatlarning shakllanishida muhim bosqichdir. 6 yoshdan 10 yoshgacha bo'lgan davrda bola o'zining shaxsiy rivojlanishida axborotlarni o'zlashtirib olish hajmi bo'yicha, muhim yo'lni bosib o'tadiki, bundan keyingi hech bir yoshni bu davr bilan taqqoslab bo'lmaydi. Bunga bolaning rivojlanishidagi tabiiy shart-sharoitlar va pedagogning o'quv tarbiya jarayonida ulardan foydalanish malakasi yordam beradi.

Axborot nazariyasi mutaxassisleri boshlang'ich ta'limning tugallash davriga kelib inson 95 % axborot oladi, bular dastlabki va takrorlanmas bilimlardir. O'rta maktab va oliy o'quv yurtida egalangan bilimlar, asosan, avval hosil qilingan bilimlardir. Masalan, integral hisob — bu cheksiz kichik miqdorlarni qo'shishdir, differensial hisob integral hisobga teskari amaldan iborat va hokazo. O'quvchi maktabda bazaviy fanlarni o'rganar ekan, turlicha, lekin ma'lum darajada bir-biri bilan bog'langan o'quv fanlarini qamrab oladigan yagona va bo'linmas olamni idrok qilishga tayyorlanadi.

O'quvchilarni iqtisodiy tarbiyalashning asosiy mexanizmi — ular bevosita uddalay oladigan iqtisodiy faoliyatdir. Ijtimoiy foydali ishlab chiqarish mehnati o'quvchilarda biron ishni samarali tashkil etish malakalarini, mahsulot chiqarishning planlashtirishi, uni tayyorlash uchun sarflanadigan mehnat va moddiy xarajatlarni mo'tadillashtirish, yuqori sifatli mahsulot chiqarishga erishish uchun zamonaviy ilg'or texnologiyalardan foydalanish kerakligi haqidagi tushunchalarni hosil qiladi.

O'quvchilarni iqtisodiy faoliyatga jalb qilish jarayonida ularda iqtisodiy muammolarni tushunish tajribasi to'planib boradi, yangi formatsiyadagi tadbirkorning axloqiy sifatleri, dunyoqarash va iqtisodiy e'tiqod shakllanadi. Natijada bolalar o'z ota-onalarini, ularning muammolarini yaxshiroq tushunishadi, oilaviy o'zaro munosabat yaxshilanadi, o'quvchida oila budjetiga jonli qiziqish uyg'onadi, shaxsiy iste'molidagi buyumlarga, elektr energiyasi, oziq-ovqat mahsulotlari iste'moliga nisbatan tejamkorlik paydo bo'ladi.

Iqtisodiy ta'lim va tarbiya o'quvchidan turli xildagi ilmiy fanlarga (tabiiyki, bular iqtisodiyot bilan chambarchas bog'liq bo'lishi kerak) doir chuqur va har tomonlama bilimlarni talab etadi, zero, aralash fanlarni bilmasdan turib, iqtisodiyotning o'qitilishi, hayotdan olingan qiziqarli misollar bilan to'ldirish hamda ularning kattalar va bolalarning kundalik hayoti bilan bog'liqligini ko'rsatish qiyin. Shuning uchun pedagog doimo o'z bilimini turli jurnallardan, o'quv-metodik adabiyotlaridan olingan yangi bilimlar bilan to'ldirib borishi lozim.

*Umumiy ta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida
iqtisodiyotni matematika bilan integratsiyalash va matematika
bo'yicha amaliy mashg'ulotlarni iqtisodiyot bilan
bog'liq holda tashkil etish*

Hozirgi kunda maktab matematika kursidagi misollar iqtisodiyotdan ajralgan holda beriladi. O'quvchi ularni hech narsa bilan «bog'lay» olmaydi, hayotiy tajribadan olingan yaqqol misollar yo'q. Shuning uchun matematikani g'aliz she'r kabi «yod olish»ga to'g'ri keladi va u yomon esda qoladi. O'quvchilar uni o'z hayotlaridagi bo'lg'usi tayanch, deb bilishmaydi va uni «bilish va olingan bilimlardan amaliy hayotda foydalanish emas, balki yaxshi va qoniqarli baholar uchun, «bir balo qilib topshira olam» prinsipiga ko'ra o'rganishadi.

Boshlang'ich sinflardan boshlab matematika darslarida iqtisodiy tarbiya elementlarini ko'paytirib borish lozim. Bolalarning turli xil oila xarajatlari, oila budjeti qanday daromad manbalari (ish haqi, nafaqa puli, stipendiya, yordam puli va h.k.)dan qoplanishini bilishlari uchun ularni oila budjeti asoslariga o'rgatish kerak. Budgetning raqamlardagi ifodasiga misol keltirish lozim. Bunda oilaning ovqatlanish, kiyim-bosh, poyabzal, kommunal xizmatlar, o'yin-kulgu va hokazolarga sarflanadigan xarajatlarini raqamlarda ifodalangan misollar bilan ko'rsatib berish zarur. Shu bilan birga daromadlar va xarajatlarni taqqoslash ham kerak. So'ngra o'quvchining shaxsiy budjetini misol qilib ko'rsatish lozim: ota-onalari unga maktabda ovqatlanishiga, o'yin-kulgulariga necha so'm berishi va bu pullarni qanday sarflashi va h.k.

Shundan keyin o'quvchilarga ishlab chiqarish xarajatlari va ularning turlari haqida oddiy tushuncha berish kerak. Ularga qo'shimcha ishlab chiqarish yoki uy xo'jaligini yuritishda har qanday faoliyat xarajatlar bilan bog'liqligini eng oddiy misollarda tushuntirish lozim. Biror bir ishni bajarish, tovar ishlab chiqarish yoki xizmatlar ko'rsatish uchun boshqa resurslarni sarflash zarur. Ular esa narxi va sifatiga ko'ra, turlicha bo'ladi. Shuning uchun matematik hisoblash va taqqoslashlarga asoslanib, ulardan birini tanlashga to'g'ri keladi.

Tarkib topgan tizim mahsulot ishlab chiqarishga sarflangan xarajatlarni iqtisodiy elementlar bo'yicha hisob-kitob qiladi:

1). Xomashyo va asosiy materiallar, shu jumladan, sotib olinadigan komplektlovchi buyumlar va yarim tayyor mahsulotlar. Bularning hammasi qayta ishlash vaqtida ishlab chiqarilayotgan mahsulot tarkibiga to'liq kiradi va o'z tannarxini mahsulotga o'tkazadi. Ya'ni tayyor mahsulotda ular ko'rinmaydi;

2). Yordamchi materiallar. Ularga asbob-uskunalar, moslamalar va hokazolar kiradi. Ular ishlab chiqarishga xizmat ko'rsatish uchun, masalan, saqlash, kundalik ta'mirlash ishlari va jihozlarni, binolarni ekspluatatsiya qilish va boshqa asosiy vositalar uchun kerak;

3). Yonilg'i. Ishlab chiqarish jarayonida xomashyo materiallarga issiqlik ishlov berishda foydalaniladigan gaz, mazut, ko'mir, koks va shunga o'xshash energiya;

4). Energiya. Bunga issiqlik stansiyalari tomonidan ishlab chiqariladigan issiqlik va elektr energiyalari kiradi. Elektr energiyasidan stanoklar, mashinalar va jihozlarni ta'minlash uchun foy-

dalalaniladi, issiqlik energiyasi esa ishlab chiqarish korxonalarining ishlab chiqarish va ma'muriy binolaridagi issiqlik haroratini ta'minlaydi;

5). Asosiy va qo'shimcha ish haqi. Lavozim maoshi, tarif razryadi shaklida ishchi va xizmatchilarga to'lanadigan to'lovlar asosiy ish haqiga kiradi. Mukofotlar, yuqori sifatli ishlar uchun beriladigan ustamalar qo'shimcha ish haqiga kiradi. Bunga ota-onalarimiz o'z mehnatlari uchun shunday yo'llar bilan pul olishlarini tushuntirish lozim;

6). Ijtimoiy sug'urtaga, nafaqa fondiga bandlik fondiga ajratmalar. Bu mablag'lar pensionerlarga pensiya va yordam puli to'lovlari manbai hisoblanadi, ya'ni ish o'rinlari yaratish uchun foydalaniladi. Ularni ota-onalarimiz ishlab topishadi, ular «havodan» olinmaydi, keyin davlat uni nafaqaxo'rlarga qaytarib beradi. Davlat hech narsa ishlab chiqarmaydi va ishlab topmaydi, ishlab chiqarilgan va biz iste'mol qilinadigan har narsa odamlar mehnati bilan yaratilgan;

7). Asosiy fondlar amortizatsiyasi. Xomashyo va materiallar to'raligicha yaratilgan tovar tarkibiga kirgan vaqtda asosiy fondlar: stanoklar, mashinalar, jihozlar va hokazolar tobora yangi va yangi tovarlar yaratishda yana uzoq vaqtga qadar ishtirok etishga qodir bo'ladi. Shuning uchun tovarlar ishlab chiqarishda band bo'lgan asosiy fondlarning qiymati yangi tovarning har bir birligi qiymatiga butunlay emas, balki, qisman kiradi.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan xarajatlar tarkibiga kirmagan boshqa ishlab chiqarish xarajatlari. Bularga ishlab chiqarishni xomashyo materiallar, yoqilg'i, energiya, asboblar, moslamalar va boshqa mehnat vositalari va buyumlari bilan ta'minlashga oid xarajatlar, ishlab chiqarishdagi asosiy vositalarni ishchi holatida saqlash xarajatlari (texnik ko'rik va qarashga, o'rtaliqdagi joriy va kapital ta'mirlash o'tkazishga sarflangan xarajatlar) kiradi.

Xarajatlar ikki marta: dastlab rejali, ya'ni bo'lg'usi sarf-xarajatlar, keyin esa tovar ishlab chiqarishga sarflangan haqiqiy xarajatlar hisoblanadi. Bunda iqtisod qilingan narsa (mablag') korxonaning daromadiga aylanadi, bu esa uning ishchilarini boyitadi, ortiqcha xarajatlar esa zararga olib keladi. Ortiqcha xarajatlarni sinchkovlik bilan tahlil qilish, uning hosil bo'lish sabablarini aniqlash kerak. Chunki u korxonaning yopilishi va xodimlarning ishdan bo'shatilishi xavfini tug'diradi.

■ Misol tariqasida mazkur tartib bo'yicha uy-ro'zg'orda ishlatiladigan to'quv va tikuv mashinasidan sotish uchun buyumlar tayyorlashda foydalanish, o'g'itlar, yadrokimyoviy vositalar, changlatgich mahsulotlarni saqlash omboridan foydalangan holda poliz mahsulotlari yetishtirish, bu mahsulotlarni sotishga tayyorlash uchun qilingan sarf-xarajatlar va ulardan olingan daromadlarni hisoblab chiqish mumkin.

■ Yuqorida bayon etilgan misollarni keltirganda, ularning umumiy xarakterda ekanligi bois, ularni yaxshilab tushunib olish zarurligini, zero, har qanday tadbirkorlik faoliyati ularni bilish asosiga qurilishini qayd etish lozim.

■ Matematikani o'qitishda eng oddiy kundalik iqtisodga oid masalalardan foydalanish yo'li bilan uni (matematikani) «jonlantirish» kerak. Buning uchun matematik misol-masalalarni imkoni boricha haqiqiy va tez-tez uchrab turadigan hayotiy vaziyatlardan olish zarur.

■ Agar gap hajmlar haqida borayotgan bo'lsa, shunday misolni keltirish mumkin. Aytaylik, sotib olish uchun bir xil tovarlardan birini olmoqchisiz. Tabiiyki, bunda hajmi kattarog'i, masalan, tarvuz sotib olishda tanlanadi (tarvuzni tortish uchun tarozi bo'lmagan holatda). Agar gap elektr iste'mol qiladigan tovar, masalan, elektr isitish asbobi sotib olish haqida borsa, ancha arzon asbobni sotib olishdan ko'riladigan foydani taqqoslash mumkin (bunda elektr asbobining qancha elektr iste'mol qilishi va unda tejaladigan to'lov haqi hisoblanadi).

■ Iqtisodni matematika bilan yaxshi qo'sha oladigan o'quvchini imkoniyati teng bo'lmagan qimor o'yiniga qiziqtirish mumkin emas. Masalan, o'yin olib borayotgan kishi bir sharchani 3 ta stakandan birining ostiga yashiradi va sharchaning qayerdaligini topishni taklif etadi. O'yinga kirishgan o'yinchining imkoniyati bilan o'yinni olib borayotgan kishining imkoniyatlarini baholash shuni ko'rsatadiki, ehtimollar nazariyasiga muvofiq, sizning yutib olish imkoniyatingiz (sharchaning qayerdaligini topishingiz) $1/3$ ga, topa olmasligingiz (ya'ni yutqazishingiz) $2/3$ ga teng. Bundan ko'rinadiki halol, obyektiv o'yinda ham o'yinni olib borayotgan o'yinchining yutish imkoniyati siznikidan ikki marta yuqori. Shunday ekan, bunday o'yin o'ynash o'rinlimi? Xuddi shuningdek, lotereyada ham yutish ehtimolini hisoblab chiqish qiyin emas. Bunda yutish imkoni sharchali o'yindagidan ham kam.

■ Bundan ko'rinib turibdiki, matematika darsi mavzularini o'tishda har doim uning hayot bilan bog'liqligiga doir misollarni qidirish va topish zarur ekan.

3-sinfda integratsiyalashgan dars (matematika+tabiatshunoslik)

Darsning mavzusi. «Harakatga doir masala».

O'qituvchi: — Keling, ko'phadli sonlarni eslaylik. Daftarin-gizga quyidagi sonlarni yozing: 40204506, 326925, 150000000, 32482. Sonlarni ortib borish tartibida o'qing. Eng katta sonni ay-ting. Bunday katta son nimani bildirishi mumkin? (Bolalar o'z taxminlarini aytadilar.)

O'qituvchi: — Bu son yerdan quyoshgacha bo'lgan maso-fani bildiradi. Bu juda katta kilometrlar soni, uni tasavvur qilish qiyin. Agar biz quyoshga aravada boradigan bo'lsak, bizga 500 yil kerak bo'lar edi. Bu necha asrga teng?

Bolalar: — 5 asrga.

O'qituvchi: — Odamlar avtomobilni ixtiro qilishdi. Endi bu yo'lni bosib o'tish uchun 5 marta kam vaqt kerak bo'ladi. Bu qancha?

Bolalar: — 100 yil.

O'qituvchi: — Samolyotda esa 10 yil uchish kerak. Bu necha oy?

Bolalar: — 120 oy.

O'qituvchi: — Raketa esa bu yo'lni 1 yilda bosib o'tadi. Agar yilni kun hisobida o'lchasak, bu necha kun?

Bolalar: — 366 kun.

O'qituvchi: — Quyosh nuri bu masofani 8 minutda bosib o'tadi. Agar birinchi quyosh qizchani ertalab soat 7 da uyg'otib yuborgan bo'lsa, quyosh soat nechada chiqqanligini hisoblang.

Bolalar: — Soat 6-yu 52 minutda.

O'qituvchi: — Quyoshgacha uchib borish mumkinmi?

Bolalar: — Yo'q, chunki bu juda ham uzoq, amalda mumkin ham emas. Negaki, quyoshning harorati juda yuqori.

O'qituvchi: — Quyosh planetami?

Bolalar: — Yo'q. Bu sayyora.

O'qituvchi: — Yerga eng yaqin bo'lgan Mirrix va Zuhro.

O'qituvchi: — Yerga hammadan qaysi sayyora yaqin? Sayyo-ralardagi hayot sharoitlarini taqqoslasak, qaysi sayyoradagi hayot sharoiti Yerdagi hayot sharoitlariga yaqinroq bo'ladi.

Og'zaki ish. Yer yaqinidagi orbitaga chiqish uchun bizning kemamiz kosmik tezlikda harakat qilish kerak. U 8 km/s.ga teng. Hisoblab ko'ringchi, bu bir minutdan keyin bizning kemamiz Yerdan qanday masofada uzoqda bo'ladi?

Bolalar: — $60 \cdot 8 = 480$ km.

O'qituvchi: — Biz hayot sharoitlari bo'yicha Mars yerdagi hayot sharoitlariga yaqinligi haqida gapirgan edik. Kemamiz Marsga yetishi uchun kema ikkinchi tezlikda harakat qilishi lozim. Ikkinchi kosmik tezlik birinchisiga qaraganda 3 km/s.ga ko'p. Raketa 3 minut ichida qanday masofani bosib o'tadi?

Bolalar: — 3 minut 180 sekund. Demak, masofa 1980 km.ga teng.

O'qituvchi: — Biz Yerdan Marsgacha bo'lgan masofaning qanchaligini, kema qanday tezlik bilan harakat qilishini bilamiz. Marsga yetib borish uchun qancha vaqt talab etilishini uyda mustaqil ravishda hisoblab chiqishga urinib ko'ring.

18. 3-SINFDA MATEMATIKA, TABIATSHUNOSLIK BO'YICHA INTEGRATSIYALASHGAN DARS

Mavzu: «Nol bilan tugallanadigan sonlarni ko'paytirish va bo'lish» mavzusi bo'yicha o'tilgan materialni takrorlash.

O'qituvchi: — Men sizlarga xushxabar yetkazmoqchiman. Maktabimizga Fransiyadan xat keldi. U port shahri Marseldan kelgan. Uni kim yubordi ekan? O'qib ko'raylikchi. Uni J.I. Kusto jamoasi yo'llabdi. Bolalar, Jak Iv Kusto kim? Uning jamoasi nima bilan shug'ullanadi? (Jak Iv Kusto fransuz okeanografi. Uning suv ostida olgan suratlari butun dunyoga mashhur. 1952-yildan boshlab, «Kalipso», keyinroq turbo korpusli «Alkiona» kemasida olib borilgan tadqiqotlarga rahbarlik qilgan. O'z akvalangi va «Sho'ng'uvchi likopcha» apparatini ixtiro qilgan. Uning jamoasi — uning yordamchilari). O'qib ko'ramiz, bu qanday xat ekan? Yo'llanma-taklifnoma. Toshkent shahridagi 175-maktabning 3-sinfida eng yaxshi o'quvchilar dengiz osti chuqurliklarini tadqiq qilishda yordam ko'rsatish uchun J. Kusto jamoasining matematik odisseyasiga taklif qilinadi.

Sayohatning boshlanishi (sanasi ko'rsatilgan).

O'qituvchi: — Bolalar, J.I. Kusto jamoasining matematik odisseyasiga borishni xohlaysizmi?

Bolalar: — Ha, albatta.

O'qituvchi: — «Odisseya» so'zini qanday tushunasiz? Odisseya kim bo'lgan?

Bolalar: — Odissey yunon mifologiyasi qahramoni. Uning boshdan kechirgan sarguzashtlari va sayohatlari «Odisseya sayohatlari haqida»gi poemada bayon qilingan. Demak, odisseya sayohatdir.

O'qituvchi: — Hozir Kusto jamoasining kemasi ochiq okeanda turibdi. U bizning vertolyotimizni istalgan paytda o'z bortiga qabul qilishi mumkin. Zudlik bilan vertolyot quramiz. Konstruktorlar ishga kirishinglar. Bosh konstruktor Karim, u menga yordam beradi. Siz javobni tez va to'g'ri aytishingiz kerak, vertolyotning bir detali (har bir misol — bu vertolyotning detali).

35 m =	sm	2150 kg =	t	Kg
28 sm =	mm	20 kg =		G
45 km =	m	5 min =	s	
2 s 30 min =	min			

Vertolyotni qurdik. Yaxshilab o'tirib oling. Yo'lga!

Oldinda bulutlar ko'rinmoqda, hozir tezlik 300 km/soat, yo'l yurish vaqti 4 soat. Masofani hisoblab topish kerak, tezroq hisobla, vaqt ketyapti. Vertolyot oldinga qarab borishi kerak.

Bolalar: — Masofa — 1200 km.

O'qituvchi: — Endi nonushta qilish vaqti keldi.

1. *Ajoyib (g'alati) masalalar.*

Ikki o'g'il va ikki ota 3 ta tuxum yeyishdi. Har biri nechta tuxum egan? (Bittadan, chunki ular: bobo, ota, o'g'il edi).

5 dona olmani 5 qiz o'rtasida shunday taqsimlash kerakki, savatchada 1 dona olma qolsin (1 qizga olmani savatcha bilan birga berish kerak).

Doskaga shunday yozuvlar yoziladi: $80 \cdot 40 = 32000$ (O)

$60 : 3 = 180$ (P)

$40 \cdot 50 = 2000$ (S)

$140 : 20 = 7$ (K)

$300 : 10 = 30$ (A)

$2400 : 30 = 80$ (L)

$100000 : 1000 = 100$ (I)

Bolalar javobni aytdanlaridan keyin o'qituvchi javob va harf yozilgan kartochkalarni doskaga olib qo'yadi.

Ikkinchi topshiriq: Javoblarni sonlarning ortib borish tartibida joylashtir, shunda sen dengiz kemasining nomini topasan:

7-K, 30-A, 80-L, 100-I, 180-P, 2000-S, 32000-O.

O'qituvchi: — Bizning vertolyotimiz kemaga qo'ndi, Kusto jamoasi bizni kutib olmoqda. Ular bilan tanishamiz.

O'qituvchi: — Yakor ko'tarilsin! To'la tezlik bilan yurilsin! Biz ochiq dengizga chiqmoqdamiz.

2. Masala (harakatga doir) yechish.

O'qituvchi: — Kema jurnali. Darsliklarni oching. Birinchi topshiriqni siz Kusto jamoasidan olasiz. Sizing matematik qobiliyatingizni tekshiramiz. O'quvchi masala shartini o'qiydi.

Masala. Oralaridagi masofa 120 km bo'lgan ikki bandargohdan bir vaqtning o'zida bir-biriga qarshi ikki kema yo'lga chiqdi. Bir kemaning tezligi 18 km/s, ikkinchisidiki 22 km/s. Kemalar necha soatdan keyin bir-birlari bilan uchrashadi? (Bolalarning e'tibori sayohat xaritasiga qaratiladi. U yerda ikki kema va uning harakati strelkalar bilan ko'rsatilgan).

V	t	S
(tezlik)	(vaqt)	(masofa)
1-k.—18 km/s	?	120 km
2-k.—22 km/s	?	120 km

$18+22=40$ km/s (umumiy tezlik)

$120:40=3$ soat — kemalar uchrashadi.

Musiqiy tanaffus.

O'qituvchi: — Dam oldik, endi akvalanglarni kiyib dengizga! Suv osti olami qanday go'zal! Bu yerda kimlarni (nimalarni) uchratish mumkin?

Bolalar: — Juda ham rang-barang baliqlarni. 400 baliq turlari mavjud. Meduza, toshbaqa, skat va boshqalar.

O'qituvchi: — Endi esa matematik tadqiqotlarga o'tamiz. Akula haqida nimalarni bilasiz?

Bolalar: — Akula yirtqich baliq. Ularning 300 ga yaqin turi bor. Ulardan eng xavflisi va tajovuzkori odamxo'r oq akuladir. Akulalar yo'llarida uchragan hamma narsani yeyishlari mumkin. Shu tufayli ularni dengiz sanitarlari deyishadi.

O'qituvchi: — Demak, akulalar, o'zlari bilmagan holda katta foyda keltiradi (oq akula tasvirlangan videotasma ko'rsatiladi).

O'qituvchi: — Qilich baliq haqida nimalarni bilasiz?

Bolalar: — Qilich baliq — yirtqich. Burnida bir metrohalik qilichi bor. Baliqlar to' dasiga yorib kiradi-da, baliq, kalmar va hatto akulalarni qilichi bilan shikastlaydi. O'z qilichi bilan, hatto baliqchilar qayig'ini ham yorib yuborishi mumkin.

1-masala (doskaga qisqacha yozib qo'yiladi). Skumbriya so-atiga 20 km tezlikda suzishi mumkin. Akulaning tezligi skumbriya tezligidan 6 km/s ko'p. Qilich baliq esa akula tezligidan 5 marta ortiq tezlikda suzishi mumkin. Qilich baliq qanday tezlikda suzishi mumkin? (Bolalar mustaqil yechishadi.)

Skumbriya — 20 km/s.

Akula — ? ga qaraganda 6 km/ko'p.

Qilich baliq — ? ga araganda 5 marta ko'p.

$20+6=26$ km/s — akula tezligi.

$26+5=130$ km/s — qilich baliq tezligi.

Javob: qilich baliqning tezligi 130 km/s.

2-masala (o'quvchi kartochkadagi masalani o'qiydi). To'rt qanotli uchar baliq juda katta masofalarni uchib o'tishga qodir. Bunday rekord masofaning uzunligi 1080 metr, davomiyligi esa 60 sekund. Uning uzunligi qandayligini topasiz:

$1080:90=12$ m/sek.

Bolalar mustaqil yechadilar. Xabar beruvchi kartochkalar yordamida tekshiriladi.

3-masala (o'quvchi kartochkadagini o'qiydi). Terisi qalin dengiz toshbaqasi «Qizil kitob»ga kiritilgan. U yiliga 200 ta tuxum qo'yadi, quruqlikdagi toshbaqa esa 20 ga yaqin. Dengiz toshbaqasi necha marta ko'p tuxum qo'yadi?

Bolalar og'zaki yechishadi: $200:20=10$ marta ko'p.

O'qituvchi: — Aytingchi, bolalar shunday bo'lsa-da, nima uchun dengiz toshbaqasining soni kam? Biz hisoblab chiqqan ma'lumotlarni e'tiborga oladigan bo'lsak, buning aksi bo'lishi kerak edi-ku?

Bolalar: — Tuxumini yorib chiqqan toshbaqalarning hammasi ham dengizga yetib bormaydi. Ularni hayvonlar nobud qiladi. Shuningdek, odamlar ham mazali go'shti uchun katta toshbaqalarni ov qilishadi.

O'qituvchi: — Endi esa dengiz tubidan kemaga ko'tarilamiz va korall riflari bo'ylab harakat qilamiz. Korall riflari nima?

Bolalar: — Korallar — o'simlik emas. Ular juda ham mayda hayvonlar — poliplardan tashkil topgan. Har bir polip kichkinagina joychaga o'xshaydi. Mana shu uychalardan korall riflari hosil bo'ladi.

O'qituvchi: — Hozirgi vaqtda korall riflari uchun katta xavf tug'ilgan, inson ularni termoyadro qurilmalari bilan yakson qilmoqda. Ular ifloslanish va dengiz yulduzlari hujumidan halok bo'lyapti. Korall poliplarining skleti qurilishda qo'llaniladi. Ular-dan ohak olinib, turli bezaklar tayyorlanayotir.

4-masala (o'quvchi kartochkadagi masalani o'qiydi). Korall riflarning maydoni $120\,000\text{ km}^2$, kengligi esa 60 km . Korall riflari qancha uzunlikka cho'zilib ketgan? Tenglama tuzib, masalani yeching. Doskadagi qisqacha yozuv.

$$s = 120\,000\text{ km}^2$$

$$b = 60\text{ km}$$

$$a = ?$$

$$60a = 120\,000\text{ km}$$

$$a = 2000\text{ km} \text{ — riflarning uzunligi.}$$

Korall riflari-dan o'tib ketdik. «SOS» xabari dengizchilar tilida — «Jonimizni qutqaring» ma'nosini anglatadi. Kitlar halok bo'layotgani xususida yordam so'ralmoqda.

5-masala. Har yili okeanga yoriqlardan sizib chiqishi yoki kemalar halokati tufayli 8 mln tonna neft tushadi. Bu bir tonna neft 12 km^2 dengiz sathini ifloslantiradi. Bir yil ichida suv yuzasining necha km^2 ifloslanadi?

$$1\text{ yil} \text{ — } 8\text{ mln tonna}$$

$$1\text{ tonna} \text{ — } \text{km}^2$$

$$1\text{ yil} \text{ — } ?\text{ km}^2$$

$$3\text{ yilda esa } ?\ 96\ ?\ 3=288\text{ mln km}^2.$$

O'qituvchi: — Kema jurnali, kundaliklarni oching. Uy vazifasini yozib oling (uch variantda tavsiya etiladi: kuchli o'quvchilarga, o'rtacha va bo'sh o'quvchilarga).

Darsning yakuni. Bizning sayohatimiz oxiriga yetdi. Bugun bizga sayohatda nimalar yordam berdi? Qanday qiziqarli va yangi narsalarni bilib oldingiz? Kusto jamoasi yordam uchun sizlarga minnatdorchilik bildiradi va esdalik sifatida «Dengiz tubi tadqiqotchilari» nishonini sovg'a qiladi.

19. TABIIY-ILMIY TA'LIMDA INTEGRATIV YONDASHUV

Ta'lim sohasidagi hujjatlarda dunyoning yaxlit yoki umumiy idrok etish bo'yicha pedagogik yo'llanma ko'zga tashlanadi. Maktabning mezon vazifalaridan biri — o'quvchilarda olamga o'zaro bog'langan bir butun, deb ko'rinish va tushuna olib, uni bilishdan iborat.

Inson muammolari va uni dunyoga munosabati, ya'ni «inson va tabiat», «inson va jamiyat», «inson va inson» kabilar ta'lim mazmunining markaziga aylanmoqda.

Tabiiy ta'lim mazmuni inson va tabiatning o'zaro muloqoti atrofida o'quv fanlarning birlashuvidan iborat bo'lishi kerak. Bu o'z navbatida tabiiy-ilmiy bilimlarining sifat jihatidan yangi tavsiflarga olib keladi.

Aynan fanlar birlashuvi asosida biosferani ilmiy idrok etishda, tabiiy fanlarning o'rnini samarali ko'rsatish mumkin. Jumladan, inson faoliyatining tinchlik uchun kurashdagi ahamiyatini o'rganish.

Oxir-oqibatda barcha maktab fanlarini maxsus va umumdaniy bilimlar nisbatining o'zgarishiga olib keladi. Shunday qilib, umumlashtirish tabiiy-ilmiy ta'lim mazmunini gumanitarlashtirishning asosiy omiliga aylanadi.

Bizning tadqiqotlar ko'rsatishicha, tabiiy-ilmiy ta'lim mazmunini yagona metodologik gumanitarlashtirish tabiiy idrok etish quyidagi tizimlardan iborat:

«Tabiat — fan — texnika — jamiyat — inson».

Tabiat — inson tizimida olamni yalpi idrok etish, tizim miqyosida fikrlash va aksiologik baholash — yangi dialektik tizimni ishlab chiqarishda boshlang'ich mezon sifatida shakllanadi. Bunday yondashishda ta'limda ilmiy mezon yangi sifat kasb etadi. Tabiiy-ilmiy ta'lim mazmunini gumanitarlash konsepsiyasi asosida integrativ yondashuvdagi tajribamiz 3-sinflar uchun ta'biatshunoslik kursi konsepsiyasini ishlab chiqishdan iborat.

«Tabiatshunoslik» integrativ kursi o'quvchilarda dunyoning zamonaviy tabiiy-ilmiy ko'rinishiga mos keluvchi idrok etish uslubini shakllantirishga (yalpi fikrlash), qaysiki, o'z yechimining gumanitar yo'llarini talab qiluvchi, hozirgi dunyo dolzarb muammolarini tushunishga imkon beradi.

3—4-sinf kurslari shakllanish tarkibi

T/r	Mavzu	Yetaklovchi g'oya	O'quv material mazmuni
Tayyorlov qismi: tabiatning tizim tashkillanish g'oyasi idrok etishga tayyorlaydi			
1.	Tabiiy bilimlar nimani o'rganadi?	Tabiiy bilim tabiat va inson yagonaligi sifatida. Hozirgi dunyo global muammolarining tizimiy tavsifi.	Tabiat bilimlari qanday paydo bo'ldi? Inson hayotida tabiatning o'rni. Tabiatning hayotida insonning o'rni. Hozirgi zamon dunyosi global muammolari. Bu nima? Zamonaviy tabiiy bilimlar — bu tabiat va inson to'g'risidagi ko'plab fanlar.
2.	Tabiiy bilimlar — tabiatni ilmiy idrok etish uslublari.	Tabiiy bilim rivojlaniishi: tabiatning tizim mohiyatini kuzatishdan idrok etishgacha.	Tabiat to'g'risidagi ilmiy bilimlar qanday paydo bo'ldi? Tadqiqot tabiatni o'rganishga yordam beradi. O'quv tadqiqotini qanday tashkil etiladi va o'tkaziladi? Laboratoriya jihozlari.
3.	Tabiatdagi kimyoviy va fizikaviy jarayonlar.	Tabiiy hodisalar va ularning yagonaligini differensiya va integratsiya yo'li bilan o'rganish	Fizik jismlar va ularni o'rganish. Moddalar va ularni o'rganish. Fizik hodisalar. Modda ko'rinishi. Modda va mayda kimyoviy reaksiyalar.
Tizim tashkil etuvchi bo'lim			
4.	Tabiat: umumiy tabiiy	Tizim idrok etishning mo'ljall asosi.	Tizim deb nimaga aytiladi? Tabiat — bu tizim. Tabiatning umumiy tavsifi. Ekotizim.
Asosiy blok: tabiatning tizim mohiyatini turli o'rganish jarayonlarida ochadi			
5.	Yer yuzidagi yashil o'simliklarning koinotdagi o'rni	Fotosintez — yer kurasida hayotni ta'minlovchi Quyosh — Yer aloqalarining namoyon bo'lishi.	Tabiat savollarini beramiz: Quyosh nuri nimalar to'g'risida so'zlab beradi? Tabiatda yorug'lik va rang. O'simlik qanday qilib, quyosh nuri energiyasini oladi? O'simlik qanday qilib Quyosh nuri quvvatidan foydalanadi.

6.	Tog' jinslari, minerallar va Yer yuzasining biokimyoviy o'zni.	Tabiatning birligi va yaxlitligi. Tirik mavjudotlarning biokimyoviy o'rnidaligi.	Tog' jinslari va minerallar. Minerallar. Tog' jinslari va minerallarning yemirilishi. Yer — yer ustki qatlami. Kimyoviy elementlar. Kimyoviy formula va tenglamalar. Tabiatdagi biokimyoviy o'zgarishlar.
7.	Yer — Quyosh tizimi.	Inson Yer — koinot tizimida	Galaktika to'g'risidagi tasavvurlarimiz. Quyosh tizimi. Yer — bizning uy.
8.	Biosfera	Hayot atmosfera, gidrosfera, metosferalarning koinot aloqasi natijasidir. Tabiat turli-tumanligida tizimlik va iyerarxiya. Hayot biosfera planetar koinot hodisalarining bosh omillari.	Biosferaning umumiy tavsifi. Hayot va uni ta'minlovchi shartlar. Hayot shakllarining xilma-xilligi va ilmiy tizim. Tiriklikning tizim guruhlari to'g'risida umumiy tasavvurlar. Biosfera — global ekotizim va biosferadagi energetik o'rganishlar to'g'risida umumiy tushunchalar. Tabiatning fundamental qonunlari to'g'risida umumiy tushunchalar. Biosfera-planetar kosmik hodisa. Zamonaviy global muammolar mohiyati to'g'risida umumiy tushuncha. Inson va biosferaning o'zaro aloqasi tabiatdan foydalanish ilmiy asoslaridagi muammo sifatida.

Shuni alohida ta'kidlaymizki, aytib o'tilgan yondashuv tabiiy-ilmiy ta'lim tizimida yaxlitlik mezonini amalga oshirishga yo'naltirilgan. Bu ma'noda integrativ o'quv kurslarini predmet mutaxassisligi, ya'ni fizika, kimyo, biologiya bilan almashtirish masalasining to'g'riligiga shubha tug'iladi. Bunday masalani qo'yish asosiy maktab davridagi o'qitish ma'nosini buzadi.

Dasturni o'quv uslubiy majmuasida qo'llash mazkur kursni ta'minlashni, yillik tadqiqotlar bu tizimning samaradorligini isbotladi va asosiy maktabda tabiiy bilim kursining joyi hamda o'rnini belgilaydi.

Ta'limga integrativ yondashuvning ijobiy va salbiy tomonlari to'g'risidagi o'qituvchilar fikrini umumlashtirib, quyidagi ijobiy natijalarni aytish mumkin:

- hozirgi dunyo to'g'risidagi tasavvurlar darajasiga mosligi;
- o'quvchiga dunyoning ko'p qirrali harakati va o'zaro aloqalarini yanada kengroq ochib berish;
- o'z fanini o'qitish ufqlarini ko'rish, faoliyatning yangi maralarini ochish va «dunyoni yangidan» o'zi uchun kashf etish imkoniyati;
- o'quvchilarga ta'sir ko'rsatishning yangi metodik shakllarini, integrativ yondashishning mos mezonlari asosida izlash ehtiyoji;
- turli mutaxassislarning umummuammolarini yechishda kuchlarni birlashtirish. O'quvchilarning qadriyat o'ylarini inobatga olish imkoniyati;
- o'quv jarayonida ortiqcha harakatlar va fanlar sonini kamaytirish;
- sifat jihatdan yangi pedagogik natijaga erishish, ya'ni alohida fanni rivojlantirish emas balki, ta'limda yangi falsafani joriy etish, qaysiki hayot yaxshiligi va o'zaro bog'liqligi, pedagogik jarayonning integrativ mazmuniga erishish;
- intergatsiyani ta'lim mazmunini gumanitarlash mexanizmi sifatida idrok etish. Ushbu holda ilmiy misolda zamonaviy ta'lim rivojlanishi asosiy yo'nalishlarining qiymati — mazmun, ahamiyatini aniqlashga imkon beradi.

20. IQTISODIYOTNING EKOLOGIYA BILAN INTEGRATSIYALASHUVI

Kishilarning ongida, bolalik yoshida, iqtisodiy va ekologik bilim asoslari shakllangan emas, chunki ular odamlarning texnokratik faoliyati oqibatlarini, sayyoramizning o'simlik va hayvonot olamining kamayib ketishiga, o'simlik va hayvonlarning ayrim turlari butunlay yo'q bo'lib ketishida uning halokatli rolini ko'ra bilishmaydi. O'simlik-hayvonot olami va ekologik tizimlar o'zaro aloqalarini yaxshi bilishgina iqtisodiyotni industrializatsiyalashtirishning barqarorligiga ta'sirini oldindan aytib berish uchun asos bo'lishi mumkin. Ana shu aloqalarni aniq bilishgina qayta tiklanmaydigan tabiiy resurslardan, daryolar va boshqa suv havzalari suvlaridan, yer boyliklaridan kelgusida foydalanish masalasini hal etishi mumkin.

Insoniyatning o‘z xatti-harakatlariga mas’uliyatsiz, ko‘p hollarda ongsiz munosabatda bo‘lishiga ko‘plab misol keltirish mumkin. Jahon geografik kashfiyotlari davrida kema qatnovining rivojlanishi butun yer yuzi bo‘ylab kalamushlarning tarqalishiga olib kelgan. Natijada ular o‘rta asrlarda Yevropaning ko‘pgina mamlakatlari aholisining anchagina qismini yo‘q qilib yuborgan. Vabo kasalligining tarqatuvchisiga aylangan. Bundan butundunyo iqtisodiyoti katta zarar ko‘rgan. Agar odamlar buni oldindan bilganlarida edi, kemalardan tushirilayotgan mahsulotlar ustidan qattiq sanitariya nazorati o‘rnatar, kalamushlarni yo‘q qilgan bo‘lishardi.

Bundan uch asrcha oldin Angliyaga Avstraliya quyonlarini olib kelishdi. Ular yigirma-o‘ttiz yil ichida yangi kelgan joylarida yirtqichlarning yo‘qligi tufayli shunchalik ko‘payib ketdiki, natijada ularni ommaviy ravishda ovlashni tashkil etishga to‘g‘ri keldi. Bunda normal holatdagi qishloq xo‘jaligi faoliyati buzilgan edi. O‘n to‘qqizinchi asrda G‘arbiy Yevropada bo‘rilarni va yirtqich hayvonlarni ommaviy ravishda qirib tashladilar. Chunki ular qari va kasal hayvonlar bilan ovqatlanib, o‘rmon sanitariya vazifasini bajarar edilar. Yirtqichlarning yo‘qligi tufayli quyon, bug‘u, mayda kemiruvchilar va boshqa hayvonlarning genofondi keskin yomonlashdi. Ular ommaviy, oldinlari uchramagan kasalliklardan halok bo‘la boshladilar. Bundan o‘rmon xo‘jaligi jiddiy zarar ko‘rdi. Xuddi shu vaqtda Shimoliy Amerikada bizonlarni butunlay qirib yuborishdi. Bu hol aborigenlar (tub joy aholisi)ning oziq-ovqat zaxiralari kamayib ketishiga sabab bo‘ldi. Yarim asr oldin Xitoyda dalalarda donlarni yeb qo‘yayotgan chumchuqlar butunlay qirib tashlandi. Qishloq xo‘jaligi ko‘payib ketgan zararkunandalardan chumchuqlar bosqiniga qaraganda, ko‘proq zarar ko‘rdi. Zudlik bilan Pokistondan chumchuqlarni olib kelishga to‘g‘ri keldi.

Yarim asr oldin O‘rta Osiy mamlakatlarida paxtadan rekord hosil olish ketidan quvib, hududining asosiy daryolari Amudaryo va Sirdaryo suvlarining bir qismi dalalarni sug‘orishga yo‘naltirildi. Buning oqibatida hududning eng katta ichki suv havzasi — Orol dengizi quriy boshladi. Natijada iqlim yomon tomonga o‘zgardi, baliq ovlash va baliq mahsulotlarini qayta ishlash sohasi yo‘qoldi. Orolga yondosh bo‘lgan katta hududni qurigan dengiz tubidan ko‘tarilgan tuz, qum qatlami qoplay boshladi. Bu esa o‘simliklar va hosilga salbiy ta‘sir ko‘rsatib, ichimlik suvining sifati buzila boshladi. BMT hududni ekologik halokatli joy, deb e‘lon qildi.

Yer yuzidagi barcha jonzoatlarni quyoshning halokatli ultrabinafsha nurlaridan himoya qiluvchi ozon qatlaminin g kama-yish dalilining kashf qilinishi va uni keltirib chiqargan sabablarni o'rganish, bu jarayonning aybdori freon ekan, degan xulosaga olib keldi. Unda sanoat va uy sharoitida, temiryo'l vagonlari va avtomobillarning konditsionerlarida, avtomobillar, poyabzal, mebellarning yuzalarini bo'yash, laklash hamda kosmetik maqsadlarda ishlatiladigan aerezol solingan tyubiklarda havoni va oziq-ovqat mahsulotlarini sovitish qurilmalarida juda ko'plab foydalanilar ekan. Shuning uchun sanoat va maishiy xizmatlar uchun freondan foydalanishni cheklash hamda uning texnik sharoitlariga doir xalqaro standartlar qabul qilishga to'g'ri keldi.

Ekologik madaniyat manbalari — tabiatni, ona diyorning tabiiy boyliklarini avaylab saqlash, ehtiyot qilish an'analari dan boshlanadi. Uning asosida ekologiyaning iqtisod bilan bog'liqligi haqidagi instinktiv tushuncha yotadi. Uzoq o'tmishda otobobolarimiz tabiatni, jonli organizmlarni tevarak-atrofdagi muhit bilan o'zaro aloqasini yaxshi bilishgan. Inson butunlay tabiat resurslariga, ob-havo sharoitlariga, ofatlarga tobe bo'lgan. Bu narsa uning mavjudligining iqtisodiy tomonlariga ham bog'liqdir. Odamlar tabiat bilan munosabati jarayonida, uning qonuniyatlarini o'rgana borib, asta-sekin tabiatda yurish-turish normalari va qoidalarini anglab yetishdi. Ular tabiatni vayron qilish bilan inson o'zini uning resurslaridan mahrum qilishni va bu bilan o'zining kelajagini ham yo'qotayotganligini tushunishdi. Yashash muhiti va Yer yuzidagi jonli narsalarni saqlashga yo'naltirilgan xalq an'analari qaror topdi, xalq pedagogikasi yaratildi.

Xalq pedagogikasi avval boshdanoq mehnat, tabiatga ehtiyotlik bilan munosabatda bo'lish, yuksak axloqiy prinsiplar kabi mustahkam asoslarga qurilgan edi. Noqulay tabiat sharoitlarida tirik qolishga yordam beruvchi xalq donoligini ertak, qahramonlik dostonlarida, maqol, matal, topishmoqlarda, shuningdek, shimol, janub, Avstraliya va Okeaniya cho'llari va orollarida yashaydigan xalqlarning bayramlari, urf-odatlar va o'yinlarida o'z aksini topgan. Afsuski, insonlarning tabiat bilan o'zaro munosabatiga bog'liq holdagi madaniyati odamlar ob-havo injiqliklariga ko'proq bog'liq bo'lgan mo'tadil iqlim mintaqalarida ko'p jihatdan yo'qolgan. U sababli bugungi kunda tabiatga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga, darhol milliy an'analarning tiklanishiga pedagogik muhim va olijanob vazifa, deb qaralgan.

Biroq Yerning tabiiy resurslaridan noto'g'ri foydalanish biosferaning kattagina qismi o'zgarishiga olib keladi. Ko'pchilik daryolarda baliqlarning ko'payish rejasini buzgan to'g'onlar, daryolarga yaqin hududlarda yer osti suvlari sathini keskin ko'targan va bu bilan turar joy binolari, ishlab chiqarish inshootlari cho'kib, buzilishiga sabab bo'lgan suv omborlari qurildi.

Ko'pgina rivojlangan mamlakatlarning maktab ekologiyasi ta'limida «Yer — fazoviy kema» konseptual modeli aks ettirilgan. Butunjahon tabiatni qo'riqlash strategiyasi materiallarida Yer bizda yagona ekanligi ta'kidlanadi. Bu ajoyib kemada insonlarning uzoq vaqt yashashlari uchun hamma narsa mavjud. Kichik yoshdagi o'quvchilarni shunday xulosaga olib kelish kerakki, ular insonning salomatligi tevarak-atrofdagi muhitning holatiga bog'liqligini, shu bois insonning hayot muhitini himoya qilish va dam olish, kelgusi avlodlar uchun tabiiy boyliklarni qoldirish haqida g'amxo'rlik qilish muhim ekanligini bilib olishsin.

Ekologik va iqtisodiy ta'limning eng muhim prinsiplaridan biri ularning uzluksizligidir. Uzluksiz deganda, insonning butun hayoti davomida unga ekologik mas'uliyat ruhida ta'lim berish va shu ruhda kamol toptirishning o'zaro bog'langan jarayoni tushuniladi. Bu jarayonda kichik maktab yoshi alohida rol o'ynaydi. Kichik yoshdagi o'quvchilarning axloqiy jihatlari qaror topishi va rivojlanishida 6—10 yoshli bolaning ruhiy rivojlanishi xususiyatlari, o'z xatti-harakati va ishlari uchun javob berish qobiliyati sifatida mas'uliyat hissi paydo bo'ladi.

Tabiatga ekologik jihatdan savodli munosabat hissining rivojlanishida iqtisodiy tarbiyaning roli juda katta. Uning ijtimoiy turmush tarzining turli tomonlariga ijodiy ta'siriga doir kutilmagan misollar keltirish mumkin. Singapur shahrida tozalikni buzgani uchun jarima joriy qilinib (bugungi kunda u 2000 dollar), sayyoramizning eng toza shaharlaridan biriga aylandi. Malayziyada yo'lda ketaturib, kimki ovqat esa, jarimaga tortiladi, chunki birinchidan, bu ovqatni hazm qilish va binobarin, salomatlik uchun zararli, ikkinchidan, buterbrod, muzqaymoq, gamburger tanovul qilgan kishi ulardan bo'shagan idishni qayoqqa tashlash muammosiga duch keladi. Shuning uchun faqat qahvaxona va oshxonalarda tanovul qilish mumkin. AQSHda yaqindan boshlab jamoat joylarida sigaret chekkani uchun jarima solinadigan bo'ldi.

Hozirgi kunda O'zbekistonda ham boshqa mamlakatlar kabi ekologiyani saqlash tadbirlari ko'rilgan, uni buzuvchilar jarima to'lashadi.

NAMUNAVIY TADBIR VA DARS ISHLANMALARI

1-sinf uchun integratsiyalashgan usulda ochiq darsi ishlanmasi (o'qish, yozuv, tabiat, matematika)

1. *Darsning mavzusi.* «O harf tovushi».

Darsning maqsadi. O harf tovushini o'rganish.

Ta'limiy maqsadi.

O'quvchilarni O harfi bilan tanishtirish.

O tovushini talaffuz qilishni o'rganish.

Tarbiyaviy maqsad.

O'zbekistonda yetishtirilgan mevalar bilan tanishtirish asosida o'quvchilarni tabiatga muhabbat ruhida tarbiyalash.

Ona tabiatni asrab-avaylashga o'rgatish; ekologik tarbiya.

Rivojlantiruvchi maqsad.

O'quvchilarning so'z boyligini o'stirish, bo'g'in ajratishga o'rgatish.

Darsning jihazlanishi: kema harflar, ot mingan ovchi rasmi, oynacha.

2. *Darsning borishi.*

Tashkiliy qism: o'quvchilarni darsga tayyorgarligini tekshirish.

Uy vazifasini so'rash.

— Matn deb nimaga aytiladi?

— Matn nimalardan tashkil topgan?

— Gap qanday tuziladi?

— Gap tuzish andozasini ko'rsating.

Javoblarni umumlashtirish.

3. *Yangi mavzuga tayyorgarlik.*

O'qituvchi: — O'quvchilar, topishmoqni topinglarchi (doskaga quvnoq rasmi «O» harfi osilgan).

Bu harf burchagi yo'q
Shuning uchun u yumaloq.
U shunday dumaloqki,
Yumalab ketishi mumkin.

«O» harfi nimaga o'xshaydi? (G'ildirakka.) Yana nimaga o'xshaydi? (Doiraga.) Doiraga o'xshash narsalardan misol keltiring. Non, qozonning og'zi.

4. *Yangi mavzuni o'tish.* «Alifbe» darsligida tavsiya qilingan rasmlarni kattalashtirilgan nusxasi ko'rsatiladi. O tovushining talaffuzi tushuntiriladi. O tovushi unli tovushlar sirasiga kirib, talaffuzda o'pkadan chiqayotgan havo og'iz bo'shlig'ida hech qanday to'siqqa uchramaydi. Bunda O tovushining nisbatan cho'ziqroq aytilishiga o'quvchilar e'tibori qaratiladi.

5. *Kitob bilan ishlash.* Jonli suhbat asosida o'quvchilarga har bir so'zning ma'nosi haqida tushuntiriladi hamda har bir rasmda tasvirlangan narsa yoki buyumga oid tarbiyaviy jihatlar ham singdiriladi. Masalan, «Ovchi» rasmi asosida bolalarga quyidagilar tushuntiriladi: ovchilik juda kerakli kasb. Dasturxonimizni turli taomlar bilan to'ldirishda ovchilarning hissasi bor. Lekin ov ongli ravishda amalga oshirilishi kerak. U tabiatga ziyon yetkazmasligi kerak. Oy, osh, olov, olcha, ovchi, olmaxon rasmlariga oid tushunchalarga, bu so'zlar tarkibidagi O tovushi talaffuziga to'xtalinadi.

6. *Daftarlar bilan ishlash.* Bolalarga eslatamiz, o'qish daftarlariga harflarni bosmasdan yozamiz. Katta harfni ikki katakda, kichkina harfni bitta katakda yozamiz.

7. *Quvnoq daqiqa.*

Oqib keladi jildirab,
Oyna kabi yaltirab.
Oqib kelgan oynani,
Olish mumkin hovuchlab.
Topinglar-chi nima bu?
Ariq to'la oyna-suv.

8. *Ekologik tarbiya bo'yicha ishlash.* Ovchi rasmi asosida bolalarga quyidagilar uqtiriladi: Ovchilik juda kerakli kasb. Baliq go'shti ko'pchilik yaxshi ko'rib tanovul qiladigan taomlar jumlasiga kiradi. U turli vitaminlarga boy. Kasal odamlarni tuzatishda baliq yog'idan foydalaniladi. Lekin tabiatdagi juda ko'p jonivorlarni asrab-avaylash har birimizning burchimizdir. Olmaxon tabiatda kam uchraydigan jonivor. Uni ov qilish taqiqlangan. Bolalar, baliqlar toza suvda yashaydi. Suvga ishlab chiqarish chiqindilarini tashlash mumkin emas. Baliqlar zaharlanib o'ladi. Tabiat va odamlar uchun barglarni yoqish zararli, ularni ko'mish kerak. Bu yer uchun o'g'it bo'ladi.

9. *O'yin-musobaqa.* Sinf ikki guruhga bo'linadi: qizlar va o'g'il bolalar. Doskaga rasmlar osiladi. Har bir rasm uchun topishmoqlar osiladi. Bolalar navbat bilan jumboqni topadilar. So'zlarni topib, «O» harfi joyini aytadilar.

Yomg'irdan nima saqlaydi? (Soyabon.)

Oziq-ovqat mahsulotlarini nima bilan kesadilar? (Pichoq.)

Ovqatga ishlatiladigan sabzavot turi. (Kartoshka.)

Ikki yog'i tog', o'rtasi saryog'. (Yong'oq.)

O'zi bitta, bolasi mingta. (Oy va yulduz.)

10. *Natijalarni yakunlash.* O'quvchilarning O tovushi va harfiga oid bilimlarini savollar yordamida tekshirish.

11. *Baholar qo'yish va muhokama qilish.*

12. *Uy vazifasi.* Uyda darslikni o'qish va tahlil qilish. «O» harfi bilan boshlanadigan so'z topish.

1-sinf uchun integratsiyalashgan usulda ochiq darsi ishlanmasi (matematika, o'qish, atrofimizdagi olam)

1. *Darsning mavzusi:* «1 dan 2 gacha bo'lgan sonlar. 1 soni».

2. Darsning maqsadi.

O'rgatuvchi maqsad.

— O'quvchilarga 1 sonini yozishni o'rgatish.

— O'quvchilarga raqam va son nimaligini o'rgatish.

Tarbiyaviy maqsad.

Hayvonlarga yaxshi munosabatda bo'lish.

Rivojlantiruvchi maqsad.

O'quvchilarga sonlarning elementlarini yozishni o'rgatish.

3. *Darsning jihozlanishi:* rasm, tarqatma materiallar.

Darsning borishi

Darsni tashkil etish. Bolalarning darsga tayyorligini tekshirish. Uy vazifasini tekshirish.

O'qituvchi: — Bolalar, uy ishi daftarini oching (o'qituvchi har bir daftarga qarab chiqadi, eng yaxshi daftarni bolalar diqqatiga ko'rsatadi). Endi daftarni partaning burchagiga qo'ying.

O'tgan darsni mustahkamlash. Og'zaki hisob. Bolalar panonoga qarang, yuqori qismida qanday shakllar joylashgan?



Marhamat qilib, to'rtburchakni ta'riflab bering (4 ta burchagi, 4 ta tomoni bor).

Uchburchakni ta'riflab bering (3 ta burchagi, 3 ta tomoni bor).

Aylana to'g'risida nima deyish mumkin? (Burchak va tomoni yo'q).

Oxirgisi qanday shakl, nomini ayting (ko'pburchak).

Uchburchak va to'rtburchakning nima farqi bor?

Aylananing o'ng tomonida qanday shakl? Chap tomonidachi?

Ikkinchi qatorda nima joylashgan?

Ular haqida nima deyish mumkin?

Jami qancha?

Keyingi qatorda nima bor?

Ularning soni to'g'risida nima deyish mumkin (3 ta yashil, qolgan sariq)

To'rtinchi qatorda nimalar bor?

Nechta tovuq, nechta g'oz? (Necha juft)

Buvida 3 ta jo'ja bor edi, bittasi ketdi, nechitasi qoldi?

Oxirgi qatorda nimalar joylashgan? Nechta jo'ja? Nechta olma?

Ularning soni to'g'risida nima aytilish mumkin? (Bir xil).

4. *Rasmlar ustida ishlash.* «Ko'cha» rasmi.

O'qituvchi: — Bolalar, bu rasmda nimalar bor ekan? (Uylar, mashinalar, odamlar).

— Qaysi uy balandroq? Pastroq? Sariqning chap tomonida-chi? Yashilning o'ng tomonida-chi?

— Mening qo'limda nima? (Daftar, kitob) Nima qalinroq? (Kitob).

— Diqqat bilan atrofingizga qarang, nima sinfda bittadan? (Doska).

5. *Kitob bilan ishlash.* Yangi mavzuni tushuntirish.

— Bolalar, rasimga qarab ayting, 1 raqami nimaga o'xshaydi? (Ninaga). Endi bir raqami haqida she'r eshiting:

Ona-Vatan yagona,
Kuramiz ham yagona,
Bittadandir har odam.
Yozishga ham o'ng'ayman,
Chizg'ichga o'xshayman.

O'qituvchi bir necha marta bolalar bilan qaytaradi. Tepadagi qatordan boshlaymiz.

— Birinchi rasmda nima yozilgan? Ikkinchisida-chi? Uchinchisida-chi? Oxirgisida-chi? Bir so'z bilan shu rasmlarni aytingiz (transport).

— Avtobusning chap tomonida nima bor? Vertolyotdachi? Vertolyot bilan samolyot o'rtasida nima bor?

— Nechtadan samolyot? Vertolyotchi? Mototsiklchi? (Bittadan).

— Ikkinchi rasimga qarang. Transportlarning tagida nima tasvirlangan? Kim qo'g'irchoqning chap tomonida? O'ngida-chi? (Quyong'aylar).

— Nechta avtobus? Nechta quyong'aylar?

— Pastdagi rasmda nima chizilgan?

— Ular nimalar? Bir so'z bilan ta'riflang (9 yovvoyi hayvon).

— Yovvoyi hayvonlarga qaysi hayvonlar kiradi?

— Ularni qayerda ko'rishimiz mumkin?

6. *Daftar bilan ishlash.* Bugun bizning darsimizga Bilmasvoy tashrif buyurdi. U bizdan rasmdagi hayvonlarni sanab berishni so'radi. Qaysi raqamni bu rasmning tagiga yozish mumkin?

Men oldinda turaman,

Chizg'ichingga qarab boq.

Tartib sonlar ichida,

Birinchiman, hoy o'rtoq.

Daftaringizni ochib, qizil siyoh bilan yozilgan 1 raqamini bir katak tashlab yozing. Yozishni boshlaymiz:

1 1 1 1 1 1 1

Katakning o'rtasidan boshlab, o'ng tomonidagi burchakka yozib, to'g'ri tayoqchasini pastki chiziqning o'rtasiga tushiramiz.

Bolalarga raqam bilan son farqi nimaligini tushuntirib berish.

— Raqamlarni yozamiz, sonlarni sanaymiz. Bolalar, Bilmasvoy bizdan yordam so'rab kelibdi:

Qomatini ko'rganlar,

Qiyos yetar oqqushga.

Mendan dir-dir titraydi,

Ixlosi yo'q o'qishga.

Doskada ikki raqamining yozilishini o'qituvchi o'rgatadi:

2 2 2 2 2 2 2

Ikki raqami o'rtadan sal balandroq boshlanadi. Qo'l uzmay yoziladi.

Yozish tushuntiriladi. O'quvchilar katak tashlab yozishadi.

7. *Darsni yakunlash.* Bugungi darsda nima o'tilganini eslatib o'tish.

8. *Bolalarni baholash.*

9. *Uy vazifasini berish.*

«Odobnoma» fanidan integratsiyalashgan dars ishlanmasi

Darsda berilgan ijodiy ish yuzasidan suhbat o'tkazib, yolg'onchi va chaqimchilik sifatleri odamlarni bir-biri bilan urishtirish, ko'rolmaslik, hasad qilish ekanligini uqtiriladi. Yolg'on gapirish va chaqimchilik haqida bolalar bilib kelgan hadis, she'r va hikmatlardan so'raydi. Bu yomon odat ekanligi takrorlanadi.

Mavzu: «O'simliklarni parvarish qilish odobi».

Dars Malika Azimovaning «Mehmonga kelgan lola» she'ri bilan boshlanadi.

Hovlimizdagi lola
Sog'inganim bildingmi?
Meni izlab keldingmi?
Bo'lg'in keldimi bola?
Qiyningmi tog'larda?
Mehribon opang yo'qmi?
Qilging keldimi sho'xlik?
Zerikdingmi bog'larda?
Hovlimizda qolaqol,
Gilos posboning bo'lsin,
Kosangga mehr to'lsin
Mehr o'rtoq bo'laqol.

Suhbat.

Biz qayerda yashaymiz? Vatanimiz O'zbekiston deb ataladi. Dunyoda har bir davlatni tanituvchi davlat ramzlarini ko'rib chiqsak:

1. O'zbekiston bayrog'ini har bir rangining ramziy ma'nosi bor. Yashil rang ham bayrog'imizda mavjud. Chunki bu rang asosiy hayot manbayi bo'lgani, ular mavjud bo'lsa, hayot davom etayotganligi ma'nosini bildiradi.

II. O'zbekistonning gerbiga nazar tashlasak. Gerbimizda tog'lar bor, ikki daryo va bog'lar rasmi bor. Bog' bu yerda ham aks etgan.

III. Endi madhiyamizning so'zlariga e'tibor bersak. «Oltin bu vodiylar — jon O'zbekiston» iborasi mavjud. Vodiy bu o'simliklar gullab yashnovchi joydir.

Milliy istiqlol g'oyalari haqida tushuncha berib o'tish. Istiqlol mafkurasi O'zbekiston xalqining ezgu g'oyasi — ozod va obod vatan, erkin va faravon hayot tuzish niyatlarini o'zida aks ettiradi.

— Kim qanday o'simliklarni biladi?

— Hovli o'simliklaridan qaysi birini bilasiz?

— Tabiatdagi o'simliklarning inson uchun foydasi nimada?

— Siz ko'cha, maktab hovlisi va xonadoningizdagi o'simliklarni parvarish qilganmisiz?

So'ngra tabiatni asrash har bir insonning burchi ekanligi borasida mahalliy sharoitdan kelib chiqib, «Yaxshidan bog' qoladi, yomondan dog'» maqolini tahlil qilish.

Daraxtlarni parvarish qilish. Danak tuproq ostida yotgan vaqtda hech kim unga g'amxo'rlik qilmaydi. U o'z niqobini ochgandan keyin mevali daraxt ekanligi ma'lum bo'ladi. Tabiatdagi o'simliklarga befarq bo'lsak, ular so'lib, qurib ketadi.

Yangi mavzuni mustahkamlash

I. Bolalar ijrosida «U bog'chada olicha-yu, bu bog'chada olicha» qo'shig'i ijro etiladi. Bolalarga savol beriladi. Olicha qayerda o'sadi? Mevali daraxtlar qayerda bo'ladi? Xat taxtasida savolning javobi «Bog'» so'zi yoziladi.

II. Qizlar ijrosida «Gulim» raqsi namoyish etiladi.

— Gul qayerda o'sadi? Xattaxtasida javob «Gulzor» so'zi yoziladi.

III. Bir o'quvchi «Lavlagi» she'rini aytib beradi.


— Lavlagi nima? (Sabzavot.) U qayerda o'sadi? (Dalada.)

Doskaning uch qismida «dala» so'zi yoziladi.

Har bir qatorida navbatma-navbat o'quvchi chiqib gul, sabzavot, mevani rasmlar orasidan terib kelish vazifasi beriladi. Ishni birinchi bajargan o'quvchi g'olib hisoblanadi.

So'ng «Jim» o'yini o'ynaladi. Doskada har bir qator o'z qatorida berilgan bog', dala, gulzor o'simliklarning nomini xattaxtasida tagma-tag aytib yozishadi. Eng ko'p so'z topgan qator g'olib hisoblanadi.

*Gul ekish (tuvakka). Xona o'simligini ekishni o'rgatish.
Dars yakunida o'tilganlarini takrorlash uchun
boshqotirma yechish*



1. Chips tayyorlanadigan sabzavot.
2. Yer ostida oltin qoziq, u hammaga bo'lar oziq.
3. Pak-pakana bo'yi bor, yetti qavat to'ni bor.
4. Meva turi.
5. Nordon meva.
6. Gul turi.
7. Tabiatni himoya qiluvchi nodavlat jamg'arma nomi.

Darsga yakun yasash, faol o'quvchilarni baholash. Bolalarga o'simliklarni parvarish qilishni har on yodda tutish, ko'kalamzorlashtirish ishlarida kattalarga yordamlashish zarurligi uqtiliradi.

1-sinf «O'qish» fanidan integratsiyalashgan 1 soatli dars ishlanmasi

1-sinfda quyidagi fanlarni integratsiyalashgan dars sifatida o'qish mumkin.

O'qish	Atrofimizdagi olam	Tasviriy san'at	Matematika
«Bog'da»	Tabiatda kuz	Barg rasmi	Bir xil, har xil. Uzun, qisqa
«Pomuda»	Maktab tajriba dalasida	Qovun rasmi	Narsalar sanog'i
«Vatan bu»	Toshkent — O'zbekistonning poytaxti	O'zbekistonning davlat bayrog'i	

«Sehrli olma» o'yinini o'tkazamiz. Savatdagi olmalar orqasiga uy va yovvoyi hayvonlar rasmi yopishtirilgan. Bolalar hayvon turlarini, nomini aytishadi. So'zni bo'g'inga ajratib berishadi. Javoblariga qarab, o'quvchilarni baholanadi.

IV. Darslik bilan ishlash. Darslikdagi bo'g'in va so'zlarni avval o'qituvchi o'qib beradi, keyin o'quvchilarga o'qittiriladi. Rasm asosida gaplar tuzilib, gaplar ichidan O' tovushi bor so'zlar ajratiladi. To'tiqushning boshqa qushlardan ajratib turadigan xususiyatlari so'raladi. Alifbedagi rasmga qarab, to'tiqushning rasmini chizishadi. Patlaridagi ranglarga o'quvchilar e'tiborini qaratiladi. Kimning uyida yoki qarindoshinikida to'ti borligi, uni ko'rgan bo'lsa, tasvirlab berishi so'raladi.

V. Darsga yakun yasash. Uyga vazifa berish.

Darsda faol qatnashgan o'quvchilarni baholab, olgan ballarini izohlayman. Uyga vazifa, darslikdagi 26-betni o'qish, O' tovushi ishtirok etgan so'zlarni topish, O' tovushi bo'lgan hayvon rasmini chizish.

3-sinf uchun «Tabiatshunoslik» fanidan «Ekologiya» mavzusida 1 soatli dars ishlanmasi (o'qish, ona tili, matematika)

Darsning mavzusi: «Ekologiya nima?».

Darsning maqsadi: A) ekologiya nima va u nimalardan tashkil topganligi haqida yangi bilimlarga ega bo'lish; B) jonli va jonsiz tabiatning o'zaro bog'liqligi; C) ekologiyani qanday asrash lozim?

Dars turi: aralashgan.

Dars usuli: tushuntirish, suhbat, ko'rgazmalilik va bahs.

Dars jihozi: tabiat tasvirlangan turli xil rasmi plakatlari.

Darsning borishi

I. Tashkiliy qism:

- salomlashish;
- davomatni aniqlash;
- ob-havo, fasl haqida suhbat o'tkazish.

II. O'tgan darsni takrorlash.

— O'tgan darsda biz sizlar bilan sog'lig'imizni saqlash haqida suhbatlashgan edik. Qani kim aytadi, shamollatilmagan xonada nafas olish qiyinmi?

— ...

1. Nima hosil beradi?
2. Noyob hayvon turi.
3. Tunni nima yoritadi?
4. Isinish manbayi.
5. Nima bilan nafas olamiz?
6. Bulbul nimaga oshiq?
7. Dunyoda eng oliy zot kim?
8. Ikki urkachli sahro zahmatkashi.

Jonli tabiat bilan jonsiz tabiatning o'zaro bog'liqligi (o'quvchilar doskada bajaradilar).

— Kitobingizdagi 68-rasmda tasvirlangan manzaralarni diqqat bilan ko'rib chiqing. Jonli va jonsiz tabiat o'rtasidagi qanday bog'lanishni tushundingiz? Nima uchun kungaboqar quyosh harakatiga mos ravishda o'z holatini o'zgartirishini o'ylab ko'ring. So'zlab bering.

— ...

— 69-rasmda tasvirlangan manzarani diqqat bilan ko'zdan kechiring. Nimalarni ko'ryapsiz?

— ...

— To'g'ri, hayvonlar o'zaro qanday bog'langan?

— ...

Ekologik halokat.

— Olimlar tabiatni kuzatib, okeanlar, dengizlar, ko'llar va suv havzalarining eng yuza qatlamida xilma-xil hayot qaynashini aniqlashgan. Bu yerda hamma narsa bor. Bakteriyalar, baliqlar, lichinkalar va boshqalar. Ularning hammasiga joy yetarli. Hayotimizga nima xavf soladi? Neft! Neft hozirgi zamon sanoatining muhim xomashyosi. Neft suvdan yengil bo'lishini bilasiz. Shuning uchun neft dengizga tushganda, suv yuziga yupqa parda shaklida yoyiladi. Masalan, kemalar halokati tufayli dengizga to'kilgan neft xavf tug'diradi.

Bunda hech qanday bakteriya ham yordam bermaydi. Suvda suzib yuruvchi qushlar ko'plab nobud bo'ladi. Chunki neft qushlar patidagi moyini eritib yuboradi va bevosita ular terisiga salbiy ta'sir qiladi.

Darsning yakuni.

«Kim bo'lsam ekan?» mavzusidagi 1 soatli dars ishlanmasi

Maqsad: a) ta'limiy — o'quvchilarga kasb-hunar haqida tushuncha berish;

b) tarbiyaviy — o'quvchilarni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash;

d) rivojlantiruvchi — kasb-hunarga bo'lgan qiziqishlarini shakllantirish.

Dars turi: yangi bilim beruvchi.

Dasr tipi: interfaol.

Dars jihozi: tarqatma materiallar, boshqotirmalar, turli rasmlar, texnik vosita (DVD).

Darsning borishi

Tashkiliy qism:

a) salomlashish;

b) davomatni aniqlash.

O'quvchilarga interfaol usul bilan dars o'tganda, quyidagi qoidalarga rioya qilish kerakligi tushuntiriladi:

1. Intizom.

2. O'zaro hurmat.

3. Hamkorlikda ishlash.

4. Bir-birining fikrini tinglash.

5. Chaqqonlik.

6. Bilimdonlik.

7. Vaqtdan unumli foydalanish.

O'quvchilar besh guruhga bo'linishadi:

1-«Uchuvchi»;

2-«Tikuvchi»;

3-«Haydovchi»;

4-«Shifokor»;

5-«O'qituvchi».

1-shart. «Tanishuv».

Guruh sardorlari o'z guruhlarini tanishtiradi.

1-bizning guruh: «UCHUVCHI».

Bizning shior:

Uchuvchimiz — uchuvchi,

Samolarni quchuvchi.

2-bizning guruh: «TIKUVCHI».

Bizning shior: turli matolardan libos tikuvchi.

3-bizning guruh: «HAYDOVCHI».

Bizning shior:

Haydovchimiz — haydovchi,

Manzillarga eltuvchi.

4-bizning guruh: «SHIFOKOR».

Bizning shior:

Shifokormiz — shifokor,

Bemor bizga intizor.

5-bizning guruh: «O'QITUVCHI».

Bizning shior:

O'qituvchi — bu bilim beruvchi.

2-shart. «Kasb-hunar haqida klaster tuzish».

O'quvchilar kasb-hunar haqida she'rlar yod olishgan, hozir shu she'rlarni namoyish qilishadi, marhamat!

O'sib-o'sib yildan-yil,
Men yettiga to'laman.
Kasblar juda xilma-xil
Men, menchi kim bo'laman?

Duradgor:

Juda ko'p hunarlar bor,
Eng keragi duradgor.
Mebel yasagan joyda yog'och,
Olamiz shundoq.

Shifokor:

Men shifokor bo'lar edim,
Kasbni o'rgatsalar bas.
Davolayman bemorni,
Bundan yaxshi ish bormi?

Haydovchi:

Mashina pishqiradi,
G'izillab tez yuradi.
Chaqqon haydovchi kuttirmas,
Manzilni aytsangiz bas.

Rassom:

Rassom bo'laman deyman,
O'zbekiston madhini chizayin.
O'z qalamim bilan.

Oshpaz:

Oshpazlik ham yomon emas,
Qorin ochsa, bu ham kasb.

O'qituvchi:

Kasblar ichida eng ulug'i,
O'qituvchidir.
Har bir kasbga o'rgatuvchi,
Bu o'qituvchidir.

Tikuvchi:

Men tikuvchi bo'laman,
Onam kasbin olaman.
Xalqimizga yoqadigan,
Kiyim-kechak tikaman.

Sportchi:

Sog'lom bo'laman desang,
Sport bilan shug'ullan.

Novvoy:

Pishiraman shirmoy non,
Mehnat qilib tinmayman.
Mehrimga qo'shib har nonga,
Tutsam deyman insonga.

Bo'lay desang bog'bon,
Yo Vatanga posbon,
Yo osmonda uchuvchi,
Yo dengizda suzuvchi,
Nimaki qilsang tilak,
Bariga o'qish kerak.

3-shart. Har bir guruh o'z ishini ko'rsatadi.

1. Uchuvchilar samolyot maketini yasashadi.
2. Tikuvchilar «Do'ppi tikdim» raqsini ijro etishadi.
3. Haydovchilar yo'l qoidalarini tushuntirishadi.

4-bizning guruh: «SHIFOKOR».

Bizning shior:

Shifokormiz — shifokor,

Bemor bizga intizor.

5-bizning guruh: «O‘QITUVCHI».

Bizning shior:

O‘qituvchi — bu bilim beruvchi.

2-shart. «Kasb-hunar haqida klaster tuzish».

O‘quvchilar kasb-hunar haqida she‘rlar yod olishgan, hozir shu she‘rlarni namoyish qilishadi, marhamat!

O‘sib-o‘sib yildan-yil,
Men yettiga to‘laman.
Kasblar juda xilma-xil
Men, menchi kim bo‘laman?

Duradgor:

Juda ko‘p hunarlar bor,
Eng keragi duradgor.
Mebel yasagan joyda yog‘och,
Olamiz shundoq.

Shifokor:

Men shifokor bo‘lar edim,
Kasbni o‘rgatsalar bas.
Davolayman bemorni,
Bundan yaxshi ish bormi?

Haydovchi:

Mashina pishqiradi,
G‘izillab tez yuradi.
Chaqqon haydovchi kuttirmas,
Manzilni aytsangiz bas.

Rassom:

Rassom bo‘laman deyman,
O‘zbekiston madhini chizayin.
O‘z qalamim bilan.

Oshpaz:

Oshpazlik ham yomon emas,
Qorin ochsa, bu ham kasb.

O'qituvchi:

Kasblar ichida eng ulug'i,
O'qituvchidir.
Har bir kasbga o'rgatuvchi,
Bu o'qituvchidir.

Tikuvchi:

Men tikuvchi bo'laman,
Onam kasbin olaman.
Xalqimizga yoqadigan,
Kiyim-kechak tikaman.

Sportchi:

Sog'lom bo'laman desang,
Sport bilan shug'ullan.

Novvoy:

Pishiraman shirmoy non,
Mehnat qilib tinmayman.
Mehrimga qo'shib har nonga,
Tutsam deymen insonga.

Bo'lay desang bog'bon,
Yo Vatanga posbon,
Yo osmonda uchuvchi,
Yo dengizda suzuvchi,
Nimaki qilsang tilak,
Bariga o'qish kerak.

3-shart. Har bir guruh o'z ishini ko'rsatadi.

1. Uchuvchilar samolyot maketini yasashadi.
2. Tikuvchilar «Do'ppi tikdim» raqsini ijro etishadi.
3. Haydovchilar yo'l qoidalarini tushuntirishadi.

4. Shifokorlar — sariq kasalligining oldini olish choralarini ko'rsatishadi.

5. O'qituvchilar — dars o'qitish jarayonini ko'rsatishadi. Guruhlar kartochkalar bilan rag'batlantiriladi.

4-shart. Duskada sharlar osilgan, ular ichida vazifalar berkitilgan. O'quvchilar sharlarni yorib, vazifalarga javob beradilar.

Boshqotirmani yeching

			1	K				
2				A				
		3		S				
			4	B				

1. Sopol buyumlar yasovchi.

2. Duradgor asbobi.

3. Rasm chizuvchi.

4. Bog'bon yaratadi.

			1			CH		
				2	E			
				3	V			
4					A			
			5		R			

1. Tig'li asbob.

2. Ko'ylak qismi.

3. Tug'ilib o'sgan joy.

4. Tikuvchi asbobi.

5. Istak.

		1	H				
2			U				
3			N				
		4	A				
5			R				

1. Kuzda yig'iladi.
2. Samolyot boshqaruvchisi.
3. Un mahsuloti.
4. O'z ishining ustasi.
5. Cholg'u asbobi.

1			R			
	2		A			
3			S			
	4		S			
5			O			
	6		M			

1. Kuzda to'kiladi.
2. Mevali daraxt.
3. Ayiqning sevimli taomi.
4. Bo'y o'stiruvchi sabzavot.
5. Manzarali daraxt.
6. Tikuvchi ashyosi.

		1	O				
	2		SH				
	3		P				
4			A				
5			Z				

1. Mevali daraxt.
2. Poliz ekini.
3. Yig'latadigan sabzavot.
4. Ziravorlardan biri.
5. Quyon ovqati.

**Oltin topmagin-u, o'rgangin hunar,
Hunarning oldida xasdir oltin-zar.**

**Hunarli kishilar gapirmaydilar,
Qarab tur hunarning o'zi gapirar.**

**Hunarli kishi xor bo'lmas,
Do'st-dushmanga zor bo'lmas.**

**Hunar — zar,
Hunarli — zargar.**

Vazifalar:

1. She'r yod olish.
2. Qo'shiq kuylash.
3. Maqollardan namunalar.
4. Topishmoqlar.
5. Raqs tushish.

O'quvchilar shartni bajaradilar.

5-shart. Boshqotirma.

Guruhlarga boshqotirma tarqatiladi. Guruh bilan birgalikda yechiladi va bitta vakil taqdimotga chiqadi.

Shart bajarilishiga qarab, guruhlar kartochkalar bilan rag'batlantiriladi.

6-shart. Donishmandlar fikrini va maqollarni tahlil qilish. Guruhlarga qalamchalar tarqatiladi.

Kasb-hunar haqidagi fikrlar va maqollar yozilgan. Guruhlar o'qib, tahlil qilishadi. Guruhlar kartochkalar bilan rag'batlantiriladi. Shartlar tugadi. Endi qaysi guruh g'olib bo'lganini bilish uchun rag'bat kartochkalar hisoblanadi va g'olib guruh aniqlanadi.

O'qituvchi: — Aziz o'quvchilar, doskada bir tup olma daraxti bor. Lekin bu daraxtning mevalari yo'q. Siz shu daraxtga olma mevalarini ilib chiqasiz. Olma mevasiga kelajakda kim bo'lishingizni bayon qilasiz. Mana, endi bir tup olma daraxtimiz mevasi bilan go'zallashdi. Men o'ylaymanki, shu bugungi darsda o'zingizga juda kerakli ma'lumotlarga ega bo'ldingiz. Kelajakda kasb tanlashda adashmaysiz, degan umiddaman.

Qaysi kasb egasi bo'lmang, odamiylikni, mehr-oqibatni unut-mang. Prezidentimiz aytganidek, «O'zbekiston kelajagi — yoshlar qo'lida».

«Qadimiy va navqiron Toshkentim!» tadbiri ishlanmasi

O'zbekiston Respublikasi madhiyasi kuylanadi.

1-o'quvchi: Assalomu alaykum, aziz ustozlar, mehribon otanalar!

2-o'quvchi: Assalomu alaykum, bugungi fayzli ertaligimiz qatnashchilari. Qalbi faxrga to'liq aziz hamshaharlar!

3-o'quvchi: Toshkent... . Ona diyorum, nurli maskanim, buyuklikda tengsizim, suyaklikda tengsizim. Qadim-qadimlardan «Choch», «Shosh», «Shoshkent», «Madinat ash-shosh», «Binkat», «Tarxon» kabi nomlar bilan ulug'langan qadimiy shahar. 2200 yillik tarixga ega BOSHKENT!

Bugungi tadbirimiz O'rta Osiyoning eng go'zal shaharlaridan hisoblanmish ana shu azim va navqiron Toshkentga bag'ishlanadi. She'r aytiladi:

«Ona shahrim»

Shahrim, kezdin ko'chalarini,
So'lim-so'lim go'shalarini.
Sevdin oydin kechalarini,
Yuragimda g'azalsan Toshkent,
Qadimiysan, go'zalsan Toshkent

Ming bor shukur o'zbekligimga,
O'z-o'zimga men bekligimga,
Ona shahrim — Toshkentligimga
Yuragimda g'azalsan Toshkent,
Qadimiysan, go'zalsan Toshkent.

Yuragimga payvandsan shahrim,
Men go'dakman — sen qandsan shahrim.
Jannatlarga monandasan shahrim,
Yuragimda g'azalsan Toshkent,
Qadimiysan, go'zalsan Toshkent.

Billur sochar favvoralarini,
Ko'kni o'par minoralarini.
Naqshinkordir koshonalarini,
Yuragimda g'azalsan Toshkent,
Qadimiysan, go'zalsan Toshkent.

Mahallamning ajib fayzi bor,
Bir-biriga hamma madadkor,
Yurtboshimiz so'zi ustuvor
Yuragimda g'azalsan Toshkent,
Qadimiysan, go'zalsan Toshkent.

Kundan kunga ochaver jamol,
Hatto ko'kda lol qolsin hilol.
Shahrim, zinhor topmagin zavol,
Yuragimda g'azalsan Toshkent,
Qadimiysan, go'zalsan Toshkent.

Shahrim, kezdin ko'chalarini,
So'lim-so'lim go'shalarini
Sevdin oydin kechalarini,
Yuragimda g'azalsan Toshkent,
Qadimiysan, go'zalsan Toshkent.

«Toshkentim — onam» qoʻshigʻiga oʻyin.

1-oʻquvchi: Xalqning oʻzligi, qudrati uning tarixida namoyondir. Juda qadimda Toshkent boshqacha atalardi. Oʻshanda ham hozirgidek sharq darvozasi vazifasini bajarardi.

2-oʻquvchi: Toshkent oʻzining olis va boy tarixi davomida boshidan qancha-qancha sinov mashaqqatlarini oʻtkazgan, ne-ne buyuk voqealarning guvohi boʻlgan.

Sheʼr aytiladi:

«Toshkentim»

Shahri azim saodatli Toshkentim,
Odamlari sahovatli Toshkentim.
Dunyolarni oʻz husniga qaratgan,
Sharofatli, shafokatli Toshkentim.

Senda ilk bor tilga tushdi Istiqlol,
Yurtboshimiz niyati topdi kamol.
Ezguliklar qanoatlangan koʻksingda,
Humo qoʻnib ramzimiz ochdi jamol.

Bagʻring toʻla mezbon, mehmon, doʻsti-yor,
Deydilarki, bu shahar shon iftixor.
Goʻyo quyosh ketolmasdan qolgaymish,
Tunlaring ham kunday yorugʻ shuʼlador.

Mahallalar — yuragingdir, joningdir,
Koʻchalaring — tomir, bizlar qoningdir.
Ellararo noming doston aylagan,
Mehmonnavoz xalqing, shirin noningdir.

Zavol koʻrma kamolga yet kunma-kun,
Ucholmasin osmoningda zogʻ-quzgʻun
Ahli zamin orzu qilgan kentdirsan,
Koʻz tegmasin umring boʻlsin beyakun.

Oʻyin «Lazgi».

1-oʻquvchi: Poytaxtimizning 12 darvozasi boʻlgan. Bular Lab-zuk, Beshyogʻoch, Koʻkcha, Taxtapul, Qorasaroy, Sagʻbon, Chigʻatoy, Samarqand, Komolon, Qoʻymas, Qoʻqon, Qashqardir.

2-o'quvchi: Azim Toshkentimizning «Tinchlik shahri», «Do'stlik shahri», «Jasorat shahri», «Non shahri», «Bog'-rog'lar shahri», «Sharq darvozasi» sifatidagi shuhrati Mashriq-u Mag'ribga yoyilgan.

She'r:

«Jonim Toshkentim»

Quyoshga ko'kraging kergan shaharsan,
Fozil-u, valiylar kezgan shaharsan.
Ko'plarga baxt-iqbol bergan shaharsan,
Sen mehr shahrisan jonim Toshkentim,
Yurtimning chiroyi, o'zing boshkentim.

Toshkentlik mehmondo'st bag'ri keng erur,
Barchaga barobar, kamtar va mag'rur.
Oxirgi nonini do'stlarga berur,
Baraka shahrisan, jonim Toshkentim,
Yurtimning chiroyi o'zing boshkentim.

Mehnatkash, ajoyib insonlaring bor,
Soflikka intilgan imonlaring bor.
Sendagi baraka shundan ehtimol,
Otamsan, onamsan jonim Toshkentim.
Yurtimning chiroyi, o'zing boshkentim.

O'lkamning ko'rkisan, sayqalsan shahrim,
Tinchlikka, do'stlikka haykalsan shahrim.
Yurtboshim maqtagan g'azalsan shahrim,
Yulduzlar maftundir senga Toshkentim,
O'lkamning chiroyi, o'zing boshkentim.

Quyoshga ko'kraging kergan shaharsan,
Fozil-u, valiylar kezgan shaharsan.
Ko'plarga baxt-iqbol bergan shaharsan,
Sen mehr shahrisan jonim Toshkentim,
Yurtimning chiroyi, o'zing boshkentim.

O'yin «Do'ppi tikdim».

1-o'quvchi: Oq harir ro'molin o'rab, oppoq tong otdi. Bu tong Toshkent tonggi.

Yurtini sevgan aslo kam bo'lmas,
Tarixin o'rgangan yuzi xam bo'lmas.
Mehri bo'lsin quyosh taftiday o'tli,
Tuproq'in surtgan ko'zi nam bo'lmas.

O'quvchilar birgalikda «O'zbekistonim» qo'shig'ini kuylashadi. Sahna ko'rinishi.

Toshkentga chet ellik mehmonlar kelishadi. Tarixiy obidalar, go'zal maskanlar bilan tanishtiriladi. O'quvchilar ingliz, rus tillarida suhbatlashadilar. Toshkentning tarixiy joylarini, istirohat bog'lari, metropoliteni bekatlari haqida gaplashadilar.

2-o'quvchi: Shahrimizning bugungi jamoli, go'zal kunlarini aziz va muhtaram Prezidentimiz Islom Karimov nomi bilan cham-barchas bog'lamoq joiz. Doimo ogohlikka da'vat etuvchi so'zlari bilan biz yoshlarni hushyorlikka chorlayotgan yurtboshimizga qo'shqanot bo'laylik.

O'yin «Andijoncha».

Hozir sinfimizning iqtidorli sportchilari bilan tanishasiz. Turli sport seksiyalariga qatnashadigan o'g'il bolalar va qizlar ishtirokida sport mashqlarini namoyish qilishadi.

1-o'quvchi: Shuning bilan 3-A sinf o'quvchilari tomonidan tayyorlangan tadbirimiz nihoyasiga yetdi.

2-o'quvchi: Aziz mehmonlar! Sizlarni yana bir bor Toshkentning 2200 yillik to'yi bilan tabriklaymiz. Shahrimiz gullab, yashnasin va ming yillar davomida umr ko'rsin. Salomat bo'linglar! Hozir so'zni maktabimiz rahbariga beramiz. Marhamat!

4-sinf uchun «Ona tili» fanidan «Mustaqillik maydonida» va «Temuriylar tarixi muzeyida» mavzusidagi integratsion sayohat dars ishlanmasi

Fan: «Ona tili».

Mavzu: «Mustaqillik maydonida» va «Temuriylar tarixi muzeyida» integratsion dars.

Darsning maqsadi: a) nazariy bilimlarni o'quvchilar ongiga yetkazish;

b) o'quvchilarda Vatanga bo'lgan muhabbati, O'zbekiston tarixiga bo'lgan qiziqishini oshirish;

d) ota-bobolardan qolgan tarixiy obidalarga hurmat ko'zi bilan qarashni shakllantirish.

Dars turi: Sayohat darsi.

Dars tipi: Yangi mavzuni o'zlashtirish.

Darsning borishi

I. Tashkiliy qism.

Ertalab o'quvchilar to'planishib, soat 9⁰⁰ da maxsus buyurtma avtobus bilan Toshkent shahrining Mustaqillik maydoniga yo'l olishadi.

II. O'qituvchining kirish so'zi:

— Mana, aziz o'quvchilar! Biz siz bilan mamlakatimizning yuragi hisoblanmish azim Toshkentning Mustaqillik maydonidamiz.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda olib borilgan bunyodkorlik ishlari haqida so'z ketganda, albatta, erishilgan yutuqlar ko'z oldimizga keladi.

Mustaqilligimizning dastlabki yillaridanoq Toshkentning ko'pgina elchixonalari ochildi, jumladan, AQSH, Turkiya, Koreya, Angliya va h.k. Ko'pgina davlatlar o'rtasida o'zaro aloqalar to'g'risida shartnomalar imzolandi. Shundan so'ng mamlakatimiz ulkan qurilish maydoniga aylandi.

1995-yili «Zarafshon — Nyumont» qo'shma korxonasi ishga tushdi, 1996-yil 19-iyulda «UZDAEWOO» qo'shma korxonasi ishga tushdi, 2001-yil 24-aprelda Navoiy — Nukus yo'nalishi bo'ylab yangi temiryo'l qurildi.

2001-yil avgustda Toshkent metrosining Yunusobod yo'nalishida 6 bekatdan iborat bo'lgan birinchi qismi qurilib, foydalalanishga topshirildi.

Qarshingizda Motamsaro ona haykali. Bu majmui Prezidentimiz tashabbusi bilan 1999-yili 9-may — «Xotira va qadrlash kuni» ochildi. Ko'rib turganingizdek, motamsaro ona o'z jigarbandining g'amida o'ksik nigoh bilan boqib turibdi. Bu haykal Ikkinchi Jahon urushi yillarida jonini fido etgan vatandoshlarimiz xotirasiga bag'ishlangan. Ayvon tokchalarida har bir viloyatdan jangga ketib, qaytib kelmagan yurtdoshlarimiz familiyalari yozib qo'yilgan kitoblar saqlanmoqda. Keling, ularning xotirasini yod aylab sukut saqlaylik!

Endi esa bog' bo'ylab yo'laklardan o'tib, Tinchlik ramzi bo'lgan Laylaklar tomon yo'l olamiz.

Bilamizki, tinchlik va osoyishtalik hukmron o'lkalarga laylaklar uchib keladi. Demak, bizning orzuyimiz insoniyat uchun buyuk ne'mat — tinchlikni asrab-avaylashdir.

Qarshingizda «Baxtiyor ona» ramzi bo'lgan haykalni ko'ryapmiz. Onalarning baxti — bolalarning sog'ligi va porloq kelajagidir. Kelajakka umid va ishonch bilan boqayotgan ona siymosi ko'z oldimizda namoyon bo'lmoqda.

Bundan tashqari, ushbu maydonda bir necha ma'muriy binolar savlat to'kib turibdi.

Ekskursiyaning davomini Temuriylar tarixi Davlat muzeyida davom ettiramiz.

Temuriylar tarixi Davlat muzeyi poytaxtimizning markaziy ko'chalaridan birida joylashgan. Muzey 1996-yil 18-oktabrda 8 oy muhlat ichida qurib bitkazildi. Bizda azaldan o'z o'tmishimizga hurmat kuchli bo'lgan. Shuning uchun ham ajdodlarimiz hayotida so'zlovchi bunday muzeylar ko'plab qurilmog'i lozim. Bu muzeyda Temuriylar davriga oid katta-katta binolar mavjud. Muzeyda yana Temuriylar davriga oid qurollarni, jang maydonlari tasvirlangan manzaralarni tomosha qilishimiz mumkin.

O'sha davrni aks ettiruvchi ashyolar ham mavjud. Hozir biz Amir Temurning jang kiyimini ko'rishimiz mumkin. Bu kiyimni «Amir Temur» filmi uchun tikishgan.

Muzeyning birinchi qavatida muqaddas Qur'oni Karim kitobi avaylab saqlanib kelinmoqda. Muzeyning ikkinchi qavatida Temuriylar qurdirgan maqbara, madrasa va boshqa binolarning maketlari ham joy olgan. Muzey juda hashamatli va ulug'vor qurilgan, negaki, bizning ajdodlarimiz ham buyuk insonlar bo'lishgan. Shunday buyuk tarixga ega xalqimiz uchun bunday muzeylar juda ham munosibdir.

Muzeyga ekskursiyadan so'ng o'quvchilar Amir Temur haykali va xiyobonida bo'lishdi. Ekskursiya tugagach, o'quvchilardan bu sayohat qanday taassurot qoldirganligi haqida o'z fikrlarini bayon qilish so'raldi. O'quvchilar bu sayohat ularda unutilmas taassurot qoldirganligi, o'z ko'zlari bilan qadimiy va hamisha navqiron go'zal Toshkent manzaralarini ko'rib, qalblarida shu buyuk yurt farzandi ekanliklaridan mag'rurlik hissini yana bir bor his etganliklarini namoyon etishdi.

Shu yurt — shu ulug' Vatanga sadoqatli, komil insonlar bo'lib yetishishga harakat qilishlarini bildirishdi.

4-sinf uchun «Ona tili» fanidan «Soʻz turkumlari» mavzusidagi 1 soatli dars ishlanmasi

Mavzu: «Soʻz turkumlari (takrorlash)».

Taʼlimiy maqsad: soʻz turkumlari haqidagi bilimlarni mustahkamlash, ogʻzaki nutqni oʻstirish, chiroyli va toʻgʻri yozuvga oʻrgatish, matn tuzish, fikrlash qobiliyatini oʻstirish, fikrni mustaqil va erkin bayon etishga oʻrgatish.

Tarbiyaviy maqsad: oʻquvchilarni oʻzbek tiliga boʻlgan eʼtiborini kuchaytirish, Amir Temur bobomiz oʻgʻitlari haqida suhbat, oʻquvchilarni milliy gʻoyalar ruhida tarbiyalash, milliy anʼanalarimizni davom ettirishga oʻrgatish, tabiatga boʻlgan mehr-muhabbatini oshirish, axloqiy va estetik tarbiya berish.

Dars turi: mustahkamlovchi, sayohat dars (aralash dars).

Dars jihozi: dars mazmuniga oid koʻrgazmalar, tarqatma kartochkalar, test savollari.

Darsning borishi

I. Tashkiliy qism.

- a) salomlashish;
- b) navbatchi ishini tekshirish va baholash;
- d) davomatni aniqlash va oʻquvchilarni darsga tayyorlash.

Dars til haqidagi sheʼrni aytishdan boshlanadi.

Oʻqituvchi til haqida qisqacha maʼlumot beradi. Soʻngra til haqida oʻquvchilar oʻz fikrlarini bayon qiladilar:

1. Tili boyning — oʻzi boy.
2. Tilni bilish dilni bilish.
3. Tilingda boʻlsa boling,
Kulib turar iqboling.
4. Bulbul gulzorni bezaydi,
Til insonni.
5. Tilga eʼtibor — elga eʼtibor.
6. Til dilning tarjimoni.

Oʻquvchilar sheʼrlar ham aytishadi. Alisher Navoiy hikmatlaridan namunalar oʻqishadi.

Doʻstga doʻst-u dugona tilim,
Begonaga begona tilim,
Beshigimda yagona tilim,
Ona tilim.

Bir o'quvchi bobomizning tavalludi haqida qisqacha ma'lumot beradi. So'ngra Amir Temur o'gitlaridan namunalar aytishadi.

1). Bir ishni qilishga qaror bergan bo'lsang, qilmaguncha qo'yma.

2). Kuch adolatdadir.

3). Adl-u insof bilan jahon gulshani obod bo'ladi.

4). Adivat emas adolat kerak.

5). Bir kunlik adolat yuz kunlik toat-ibodatdan afzalroq.

6). Raiyat ahvolidan ogoh bo'l. Ulug'larni ota o'rnida, kichiklarni farzand o'rnida ko'r.

7). Millatlarning dardiga darmon bo'lmoq vazifangizdir.

8). Qachonki bir millat tilini yo'qotsa, u muqaddas dinini va millatini yo'qotur.

II. Anglash bosqichi.

— O'quvchilar, bugun bog'ga sayohat qilamiz.

— Bog'da qanday daraxtlar o'sadi?

— Bog'da mevali daraxtlar o'sadi.

Sayohat darsning tartib-qoidalari o'quvchilarga tushuntiriladi. Daraxtlarga so'z turkumlarining nomi yozilgan bo'ladi. O'quvchilarga she'riy tarzda so'z turkumlarini topish uchun topishmoq beriladi. Ma'nosidan o'quvchilar qaysi daraxt ekanini topadilar. «Kubik» usulida «olma»ga ta'rif.

Har bir so'z turkumining qoidasi aytiladi. So'ngra daraxt mevalaridagi savollarga javob topiladi (o'yin tarzida).

Oxirida bog'lovchi so'z turkumiga «Klaster» usulida «Bahor» mavzusida matn yoziladi. Navro'z haqida suhbat.

Dam olish daqiqasi:

«Bahru-bayt» aytishuvi.

Matn o'qitiladi.

Matndagi gaplardan so'z turkumlari bo'yicha tahlil qilinadi.

ot fe'l bog'. ot qo'shma fe'l

Tabiat uyg'onadi va kunlar isiy boshlaydi,

sifat ot fe'l

Ko'rkam bahor keldi.

III. Kitob bilan ishlash.

Kitob bo'yicha 352-mashq og'zaki bajariladi.

1) Har qaysi xalq o'z kelajagi **va** taqdirini o'zi belgilab olishi kerak.

2) Hamma bolalar «Bahor» she'rini yod aytib berishdi, **biroq** Ismat yodlamagan edi.

3) Gulnora akasini poyladi, **lekin** Furqat tezda kelavermadi.

4) Tanaffusda Ilhom do'stini qidirdi, **ammo** uni topa olmadi.

IV. Muctahkamlash.

Test savollariga javob yozish. O'quvchilarni rag'batlantirish.

Darsni yakunlash.

V. Uyga vazifa. 353-mashq.

Chiziqchalar o'rniga *va, ammo, lekin, biroq* bog'lovchilaridan mosini qo'yib, gaplarni ko'chirib kelish. Qoidalarni yod olish.

2-sinf uchun «Ona tili» fanidan «Ot haqida tushuncha» mavzusidagi 1 soatli dars ishlanmasi

Darsning maqsadi: o'quvchilarga ot so'z turkumi haqida tushuncha berish, shaxslarni bildirgan otlarga «kim?», narsalarni bildirgan otlarga «nima?» so'roqlarini berishga o'rgatish, o'simlik va hayvonlarga, tabiat hodisalari, qushlar, o'quv qurollariga to'g'ri so'roq berish va ularni guruhlab yozish malakalarini rivojlantirish.

Darsning turi: yangi bilim beruvchi.

Darsning metodi: tahlil va tarkib.

Darsning jihozi: o'quv qurollari, hayvonlar, qushlarning rasmlari.

Darsning borishi

1. *Darsni tashkil etish.* O'quvchilarning darsga hozirliklarini kuzatish.

2. *Yangi mavzuni bayon etish.* Mavzu 190-mashqni bajarish orqali tushuntiriladi. Mashqda berilgan so'zlar o'qitiladi. Ularning har biriga so'roq berib, nimani anglatishi aniqlanadi.

— Birinchi so'zni o'qing. (Televizor.)

— Televizor so'ziga so'roq bering. (Nima?)

— Nima? so'rog'iga javob bo'lgan so'zlar nimani bildiradi? (Narsalarni bildiradi.)

- Televizor soʻzi nimani bildiriyapti? (Narsani.)
- Ikkinchi soʻzni oʻqing. (Bola.)
- Bola soʻziga qanday soʻroq beriladi? (Kim?)
- Kim? soʻrogʻiga javob boʻlgan soʻz nimani bildiradi?

(Shaxsni.)

Soʻzlar doskaga namunada koʻrsatilganidek, shaxs va narsalarga ajratib yozib boriladi. Mashqda berilgan boshqa soʻzlar bilan ham shunday savol-javob oʻtkaziladi. Javoblar umumlashtiriladi.

Narsa va shaxsni bildirib, k i m ? yoki n i m a ? soʻrogʻiga javob boʻlgan soʻzlar ot deyiladi. Oʻquvchilar bu qoidani darslikdan oʻqiydilar, doskaga yozilganlarni koʻchiradilar.

Namuna: shaxslar, kim? bola,...

Narsalar: nima? kitob,...

3. *Didaktik oʻyin.* Oʻquvchilar oʻrinlaridan turadilar. Koptokcha bilan zanjirli soʻz oʻyini oʻtkaziladi: oʻquvchi «kim?» yoki «nima?» soʻrogʻiga javob boʻlgan biron soʻzni aytib, koptokni oʻrtogʻiga irgʻitadi, oʻrtogʻi koptokni ilib oladi va aytilgan soʻzning oxirgi harfi bilan boshlanuvchi soʻz aytib, koptokni boshqa oʻrtogʻiga irgʻitadi. (Masalan, oʻqituvchi—ilon—nok—kosib—bola—anor...),

Oʻyin shunday davom etadi.

4. *Darslik bilan ishlash.* 191-mashqdagi soʻzlar oʻqiladi. Ular qaysi soʻz turkumiga kirishi aniqlanadi. Har bir guruhdagi soʻzlarga oʻquvchilar yana ikkitadan soʻz qoʻshadilar.

Mashq ogʻzaki bajariladi. Har bir guruhdagi soʻzlar tahlil qilinadi.

— Birinchi qatordagi soʻzlarni oʻqing: choʻpon, boʻyoqchi.

— Bu soʻzlar qanday soʻroqqa javob boʻladi? (Kim? soʻrogʻiga javob boʻladi.)

— Yana ikkita kim? soʻrogʻiga javob boʻlgan soʻzlardan ayting. (Duradgor, surnaychi.)

— Bu soʻzlar qaysi soʻroqqa javob boʻladi? (Bular ham kim? soʻrogʻiga javob boʻlyapti.)

— Kim? soʻrogʻiga javob boʻlgan soʻzlar nimani bildiradi? (Shaxsni bildiradi.)

— Shaxsni bildirgan soʻzlar qaysi soʻz turkumiga kiradi? (Otga.)

— Ikkinchi qatordagi soʻzlarni oʻqing. (Paxta, bugʻdoy.)

— Bu soʻzlar qanday soʻroqqa javob boʻladi? (Nima? soʻrogʻiga javob boʻladi.)

— Paxta, bugʻdoy nimani anglatyapti? (Oʻsimliklarni.)

— Nima? so‘rog‘iga javob bo‘lgan o‘simlik nomlaridan ikkita ayting. (No‘xat, lavlagi.)

— Bu so‘zlar qanday so‘roqqa javob bo‘ladi? (Nima? so‘rog‘iga.)

— Bular nimani bildiriyapti? (Narsani.)

— Narsani bildirgan so‘zlar qaysi so‘z turkumiga kiradi? (Ot so‘z turkumiga kiradi.)

— 3, 4, 5-qatordagi so‘zlar ham xuddi shunday tahlil qilinib, uchinchi qatorda hayvonlar, to‘rtinchi qatorda qushlar, beshinchi qatorda ish qurollariga tegishli so‘zlar berilgani, ular ham nima? so‘rog‘iga javob bo‘lishini o‘quvchilar bilib oladilar. O‘qituvchi javoblarni umumlashtiradi. Shaxslarni bildirgan otlar kim?, o‘simlik, hayvonlar, qushlar, ish qurollarini bildirgan otlar nima? so‘rog‘iga javob bo‘ladi.

5. *Husnixat mashqlari.*

Doskaga 8 ta narsaning rasmi qo‘yiladi. Rasmlar o‘quvchilar bilan birgalikda kuzatib chiqiladi. O‘quvchilarga ularning nomlari aytiriladi. Bular kundalik hayotda, ro‘zg‘orda ishlatilishi aniqlanadi. So‘ngra rasmlar doskadan olib qo‘yilib, o‘quvchilar navbat bilan doskaga chiqib, rasmdagi narsalarning nomini yozadilar: qalam, tulki, daftar, kosa, ayiq, piyola, chizg‘ich, qoshiq. Bu so‘zlar guruhlariga ajratiladi.

— Qaysi so‘zlar o‘quv qurollariga kiradi? (Qalam, daftar, chizg‘ich.)

— Qaysi so‘zlar idishlarga kiradi? (Kosa, piyola, qoshiq.)

— Qolgan so‘zlarni ayting. (Tulki, ayiq.)

— Bular nimalarga kiradi? (Yovvoyi hayvonlarga kiradi.)

— Bu so‘zlarga qanday so‘roq beriladi? (Nima?)

O‘qituvchi so‘zlarni guruhlariga ajratib yozib boradi.

2-sinf uchun o‘qish fanidan «Qishda» mavzusidagi 1 soatli dars ishlanmasi

Fan: «O‘qish».

Darsning maqsadi

Ta’limiy — o‘quvchilarda matnni ifodali o‘qish matnini tahlil qilish, hikoya qilish ko‘nikmasini shakllantirish.

Tarbiyaviy— o‘quvchilarning tabiatga bo‘lgan mehrini o‘stirish. O‘zaro hamkorlikda ishlash malakasini shakllantirish.

Rivojlantiruvchi — mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish. Og‘zaki nutqini o‘stirish.

Darsning turi: yangi bilim beruvchi dars.

Dars shakli: noan'anaviy dars.

Dars metodi: Suhbat, blis savollar.

Dars jihozi: darsliklar, mavzuga oid ko'rgazmali qurollar.

Darsning borishi

I. Tashkiliy qism:

- a) davomatni aniqlash;
- b) darsga tayyorgarlikni tekshirish.

II. Darsga kirish suhbat.

Fasllar yuzasidan suhbatlashiladi:

1. Hozir o'lkamizda qaysi fasl?
2. Qish oylarini sanang.
3. Qish fasliga oid topishmoqlar ayting.

Oppoqqina dasturxon
Yer yuzini qoplagan. (*Qor*)

Sudrasang yuradi,
Sudramasang turadi. (*Chana*)

Qo'lsiz, qalamsiz, bo'yoqsiz
Rasm chizar. (*Ayoz*)

Qish fasli haqida o'quvchilar yozgan she'rlari o'qitiladi.

III. Uyga vazifani so'rash.

«Musavvir Qorbobo» matni o'quvchilarga oralatib o'qitiladi. Ushbu mavzu yuzasidan sahna ko'rinishi namoyish etiladi.

IV. O'tilgan mavzuni mustahkamlash.

O'quvchilardan nima uchun qishda deraza muzlashi so'ralib javob olinadi.

Xulosa. Har bir ishni sidqidildan, toza, ozoda va oxirigacha bajarishga o'rganish.

V. Dam olish daqiqasi.

VI. Yangi mavzuga kirish.

- 1). Yil fasllarini ketma-ket nomlang.
- 2). Har bir fasllarga ta'rif bering.
- 3). Qaysi hasharotlarni bilasiz?

O'qituvchi hikoyani og'zaki hikoya qiladi. O'quvchilar esa harakatlarni bajaradilar.

Qishda

Jazirama yoz o'tib, salqin kuz kelibdi. Undan so'ng qilichini yalang'ochlab, qish kirib keladi.

Olam tinchlanibdi. Daraxt barglarining shitirlashi ham, bo'ri va bo'rsiqlarning uvillashi ham eshitilmabdi.

Qurt-qumursqalar inlariga yashirinib olibdilar. Eng avval, chumolilar yiqqan donlarini yashirib, issiqqina inlariga joylashib olibdilar.

So'ng xonqizi qo'ng'izi nozik barglar orasidan o'tib, ini tomon ketibdi.

Chigirtkalar kuy, so'zlarini to'xtatib, qish uyqusiga shoshilibdi. Ninachilar qanotlarini yig'shtirib, uxlash uchun qulay joy izlashibdi.

Kuzgi yomg'irdan so'ng yer yuziga chiqib qolgan chuvalchanglar tezda yana yer ostiga yashirinibdi: ular muzlab qolishdan juda qo'rqishadi. Shunday qilib, hasharotlar qish uyqusiga ketishdi. Yer yuzi qalin qor bilan qoplandi. Inlarida «pish-pish» uxlashibdi. Ular Qorbobo, Qorqiz o'tib ketganini ham sezishmabdi.

Bahor kelibdi. Kunlar ancha ilib, qorlar eribdi. Daraxtlar birlarini bahor bilan tabriklab, shamolda u yoq-bu yoqqa tebranishibdi.

VIII. Mavzu yuzasidan savol javob.

Mustahkamlash uchun savollardan foydalaniladi:

1. Jazirama yozdan so'ng qaysi fasl keladi?
2. Eng harakatchan hasharot?
3. Atrof jim-jit, barcha hayvonlar uyquda. Bu hodisa qaysi faslda ro'y beradi?
4. Yomg'irdan so'ng yer yuziga chiquvchi hasharotni bilasizmi?
5. Ninachining foydali jihatini bayon eting.

O'quvchi javobi	To'g'ri javob	Xato	Javoblar
			Kuz
			Chumoli
			Qish
			Chuvalchang
			Zararli hasharotni yeydi

Blis savollar 3 guruhga alohida-alohida beriladi. Natijasi e'lon qilinadi.

IX. Darsni yakunlash.

Bugungi dars sizga yoqdimi?

Darsda yana ko'proq nimalar qilishimizni xohlaysiz? Topishmoqlar ijod qila olasizmi?

X. Uyga vazifa.

Matnni ifodali o'qib, og'zaki hikoya qilishga tayyorlanish.

Faol o'quvchilar rag'batlantiriladi.

3-sinf uchun «O'qish» fanidan «Yer sevarni — el sevar» mavzusidagi 1 soatli dars ishlanmasi

Fan: «O'qish».

Mavzu: «Yer sevarni — el sevar».

Vaqt: 40 daqiqa.

Maqsad: Ta'limiy — o'quvchilar tabiatga oqilona munosabatda bo'lish haqida bilib oladilar.

Tarbiyaviy — matnni ifodali o'qish va qayta himoyalash ko'nikmalarini rivojlantirish.

Rivojlantiruvchi — hamkorlikda ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish.

Dars jihozlari: tabiat manzaralari tasvirlangan rasmlar (guruh soniga qarab, A-1 hajmidagi qog'oz).

Darsning borishi

O'qituvchi o'tgan darsni so'rab, yakunlab, o'quvchilarni yangi mavzu bilan tanishtiradi. Darslikdan matnni o'qiydi, o'quvchilarga o'qitadi, tabiat manzaralari tasvirlangan rasmlar asosida Vatanimiz tabiati to'g'risida, ya'ni tabiat go'zalligi, in'omi, tabiat bilan insonning chambarchas bog'liqligi, «Qizil kitob»ga kiritilgan hayvon va o'simliklar to'g'risida ma'lumot beradi.

Yangi mavzu bayoni:

— Aziz o'quvchilar, biz siz bilan tabiatshunoslik darslarida yer haqida umumiy tushunchaga ega bo'lganmiz, shuning uchun ona zaminimiz bizlar uchun qanchalik ahamiyatli ekanini yaxshi bilamiz. Bugun sizlar bilan o'tadigan mavzumiz «Yer sevarni — el sevar» deb nomlanadi. Keling, o'zimiz shu mavzudan kelib chiqqan holda yana bir chiroyli nom beramiz. Qani bolajonlar, qanday takliflar bor?

O'quvchilar birma-bir nom aytishadi va tanlab olinadi. Masalan, «Ona zamin — boyligimiz».

— Mana, nomni ham tanlab oldik. Endi sizlar bilan birgalikda kitobimizda berilgan matnni o'qib kuzatamiz. O'qituvchi matnni ifodali o'qib beradi va har bir o'quvchiga birma-bir o'qitib chiqadi:

«Tabiatning ajoyib tuhfasini ona-Yerimizdir. Yer jamiki boyluklarning, ne'matlarning onasi hisoblanadi. Tabiatni sevish, uni asrashi, yon-atrofni ko'kalamzorlashtirish, bog'-rog'larga aylantirish ham ona-Yerni sevish demakdir.

Nima uchun ona-Yer deymiz? Shuning uchunki, dunyoga kelib oq, uning nafasi bilan nafas olasiz. Birinchi qadamni uning bag'rida qo'yasiz. U sizni kiyintiradi, to'ydiradi, ardoqlaydi... Ona qo'ynida qanday yayrab-yashnasangiz, zamin taftida ham o'shanday unib-o'sasiz, voyaga yetasiz. Onangiz sut, otangiz tuz bersa, ona-Yer non beradi, obi-hayot beradi... Shuning uchun ham u eng mo'tabar inson — Ona nomi bilan bog'lab aytiladi».

Keyin o'quvchilarga matn yuzasidan savollar berib faollashtiriladi:

1. Qani, menga kim aytadi, tabiatni sevish deganda nimani tushunasiz?

2. Yerimiz biz uchun qanday ahamiyatga ega?

3. Nima uchun biz yerni onaga qiyosladik?

4. Bugungi dars sizga yoqdimi? Nima uchun?

5. O'qigan matningiz nima haqida ekan?

6. Nima uchun ona-Yer deymiz?

7. Ona-Yer haqida nimalarni bilib oldingiz?

8. Biz nima uchun tabiatni sevimiz kerak?

9. Tabiatga oqilona munosabatda bo'lmasak, qanday oqibat-larga olib keladi?

10. Darsdan qanday xulosa yasash mumkin?

Izoh: o'quvchilar savolga javob berish paytida qiynalishsa, o'qituvchi yo'nalishni savol yoki maslahat, qo'shimcha ma'lumotlar (qushlarga g'amxo'rlik, hasharotlarni nobud qilmaslik, o'simliklarni asrash, atrof-muhitning ozodaligini saqlash) berish orqali amalga oshirishi mumkin.

Savollarga o'quvchilar qo'l ko'tarib, birma-bir javob berishadi. Har bir o'quvchi javobi inobatga olinishi shart. Dars yakunida o'qituvchi barcha javoblarni umumlashtirib xulosa qiladi.

— Mana ko‘rdingizmi, biz barchamiz Ona tabiatni sevishimiz, uni asrab-avaylashimiz lozim ekan. Chunki yerimiz bizni boqadi, turli boyliklar, yer osti va yer usti boyliklari bilan ta‘minlaydi. Biz esa ana shu boyliklardan oqilona foydalanib, hayot kechirishimiz lozim. Yerni ifloslantirmasligimiz, supurib, ekin ekishimiz lozim.

Barchangizga ma‘lumki, ona so‘zi juda muqaddasdir, shuning uchun barcha muqaddas narsalar onaga qiyoslanadi. Masalan, ona-Vatan, ona tilimiz, ona zamin va h.k.

Ona zaminimiz ham ona tilimiz, ona-Vatanimiz kabi muqaddasdir.

Yerimiz bizga berayotgan noz-ne‘matlari, boyliklari behisob emas, biz ularni hisoblab, o‘lchab, tejab foydalanishimiz kerak. Bunda bizlarga matematikadan olgan bilimlarimiz yordam beradi.

O‘qituvchi o‘quvchilarning faolligiga qarab, reyting tizimi asosida baholaydi.

2-sinf uchun «Matematika» fanidan «Misol va masalalar yechish» mavzusidagi 1 soatli dars ishlanmasi

Sinf: 2-sinf.

Dars: «Matematika».

Mavzu: «Misol va masalalar yechish».

Ko‘paytirish va bo‘lish amallarini o‘rganishga tayyorgarlik.

Maqsad: a) ko‘paytirish va bo‘lish orasidagi bog‘lanishni o‘rgatish;

b) qavsli amallarni bajarish tartibini tushuntirish;

d) ikki amalli masalalar ishlashga o‘rgatish.

Tarbiyaviy maqsad: o‘quvchilarni ma‘naviy-ma‘rifiy o‘stirish.

Mehnatga muhabbat ruhini, tejamkorlikni shakllantirish.

Dars turi: aralash.

Usuli: noan‘anaviy.

Dars jihozi: sonli kartochkalar, geometrik shakllar, masalaga oid rasmlar.

Darsning borishi

I. Guruhlarga bo‘lish (5 minut). Stolda 4 ta shakl: aylana, kvadrat, uchburchak, oval. O‘quvchilarga guruhga bo‘lish tartibi tushuntiriladi. Partaga shakllar tayyor qilib qo‘yiladi. Har bir o‘quvchi shakllarni olib, guruhlarga yig‘iladi.

Qo'llaridagi shakllarni ko'rsatishadi. Guruhning nomi so'raladi va qisqa ta'rif beriladi.

Aylana — hech qanday burchaklari yo'q, dum-dumaloq.

Uchburchak — uchta burchak bor.

Perimetrini topsa bo'ladi.

Kvadrat — to'rt tomoni teng to'g'ri to'rtburchak.

II. Aqliy hujum (2 minut).

Qo'shish so'zi doskada yoziladi. Savol-javob o'tkaziladi:

1). Qo'shish hadlarining nomini ayting.

2). Necha xonali sonlarni qo'shdik?

3). Necha amalli masalalar ishladik?

O'quvchilar javoblari tinglanadi, to'ldiriladi.

4 xil rangdagi doiralar tayyorlab qo'yiladi (10 tadan: qizil — 5 ball, ko'k — 4 ball, sariq — 3 ball, qora — 2 ball).

Doskada ifodalar yoziladi:

$$30 - 12 + 4 =$$

$$30 - (12 + 4) =$$

Savol-javob o'tkaziladi:


Ifodalarning o'xshashligi va farqi nimada?

III. Kitob bilan ishlash.

433-misol. 4 tadan lola necha marta ishlangan?

Hamma lolalar qancha?

Bu misol yordamida o'quvchilarga ko'paytirish amali tushuntiriladi.



$$4 + 4 + 4 + 4 = 16$$

$$4 \cdot 4 = 16$$

(\cdot) — bu ko'paytirish belgisi.

434-masala daftarga yoziladi (8 minut).

Masalani har bir guruh o'qib, sharti va javobini oq qog'ozga yozishadi. Tayyor bo'lgan guruh vakillari chapak chalishadi.

Javoblar tinglanib, shakllar beriladi.

Bor edi — 12 ta va 18 ta to‘p.

Yirtildi — 5 ta to‘p.

Qoldi — ?

Y: 1) $12+18=30$ ta.

2) $30-5=25$ ta.

J: 25 ta to‘p qolgan.

IV. «Domino» o‘yini.

4 guruhga katakchalar tarqatiladi. Bu o‘yin (+) va (-) ni esdan chiqarmaslik uchun kerak.

Guruhlar taqdirlanadi.

Har bir guruhga misollar tarqatiladi (5 minut).

№ 1

4 ta kamaytiring				
4	80	6	91	12

№ 2

3 ta orttiring				
4	80	6	91	12

№ 3

3 ta kamaytiring				
7	9	4	5	12

№ 4

5 ta orttiring				
32	74	20	12	28

Tayyor guruhlar chapak chalishadi. Guruhdan bitta a‘zo chiqib, misollarni yechish tartibini tushuntiradi. Javoblarga qarab, shakllar beriladi.

Sardorlar musobaqasi o‘tkaziladi. Bu musobaqada har bir sardor berilgan 5 ta savolga tezkor javob beradi. G‘oliblarga doiralari beriladi.

V. Uyga vazifani tekshirish (3 minut).

436-misol.

$$56-25 = \quad 42+18 = \quad 61-3+30 = \quad 54+6-27 =$$

VI. Xulosa (7 minut).

1. Bugungi dars yoqdimi?
2. Darsda nimalarni bilib oldingiz?
3. O‘zingizni qanday his qildingiz?

Guruhlarning doiralari sanaladi va kundaliklarga baho qo‘yiladi.

Uyga vazifa topshiriladi va tushuntiriladi (437,438-misol va masala).

I guruh

1. Kvadratning hamma tomonlari uzunliklari yig'indisi nima deyiladi?
2. Maqolni davom ettiring:
«Yetti o'lchab bir kes»...
3. Onajonlar bayrami qachon nishonlanadi?
4. Eng katta 2 xonali son.
5. Qish oylarini ayting.

II guruh

1. Hamma tomonlari teng bo'lgan to'g'ri to'rtburchak nima?
2. Ko'kda supra ochildi,
Ichidan zar sochildi.
3. Haftaning uchinchi kuni?
4. Eng kichik 3 xonali son.
5. Navro'z bayrami qachon nishonlanadi?

III guruh

1. 1 soat necha minut?
2. 25 va 20 ning yig'indisi necha?
3. Gap nimalardan tuziladi?
4. Ona yurtimiz poytaxti.
5. Bir yilda necha oy bor?

IV guruh

1. 1 metr necha santimetr?
2. Og'irlik nimada o'lchanadi?
3. Harflarning tartib bilan joylashuvi nima?
4. Paxta qaysi faslda yig'ib olinadi?
5. Qat-qat qatlama,
Aqling bo'lsa, tashlama.

2-sinf uchun «Matematika» fanidan «Ertak-dars» mavzusidagi 1 soatli dars ishlanmasi

Fan: «Matematika».

Mavzu: «Ertak-dars».

Maqsad: a) 2 va 3 ga ko'paytirish jadvalini mustahkamlash;
b) o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini o'stirish;
d) matematika faniga qiziqishni oshirish.

Dars turi: amaliy-nazariy.

Dars metodi: aqliy hujum.

Dars jihozi: sonli kartochkalar, plakatlar, ko'chma doska, magnetofon, bo'g'irsoq rasmi.

Darsning borishi

— Bolalar, bugungi matematika darsimizda siz bilan ertaklar olamiga sayohat qilamiz. Sizlarning eng sevimli ertak qahramonlaringizdan biri Bo'g'irsoq bugun mehmonga keldi. Agar darsda faol qatnashib, berilgan topshiriqlarni xatosiz bajara olsak, Bo'g'irsoqqa katta yordam bergan bo'lamiz. Lekin biz xato qilsak, Bo'g'irsoqqa nima bo'ladi bolalar?

Bo'g'irsoqqa yordam berish uchun misollar yech.

I. Ikki o'quvchi misol ishlaydi:

$$\begin{array}{r} + 27 \\ \hline + 16 \end{array} \quad \begin{array}{r} + 36 \\ \hline + 45 \end{array} \quad \begin{array}{r} + 18 \\ \hline + 66 \end{array} \quad \begin{array}{r} + 51 \\ \hline + 32 \end{array} \quad \begin{array}{r} + 72 \\ \hline + 27 \end{array} \quad \begin{array}{r} + 90 \\ \hline + 48 \end{array}$$

Qolgan o'quvchilar matematik diktant bajarishadi:

- 9 bilan 3 ning ko'paytmasini yozing;
- 30 bilan 3 ning bo'linmasini yozing;
- 8 bilan 3 ning ko'paytmasini yozing;
- 15 ni 3 marta kamaytiring;
- 9 va 2 ning ko'paytmasini yozing;
- 8 ni 2 marta kamaytiring.

— Mana birinchi topshiriqni ham bajardik. Qani javoblarni tekshiramiz. Javoblar: 27, 10, 24, 5, 18, 4.

Ikki-uch o'quvchi javoblarini aytib solishtiradi.

— Endi Bo'g'irsoq yo'lida qo'rqmay davom etadi.

II. 2-topshiriq murakkabroq.

Nok va olma daraxtining rasmi chizilgan plakat ko'rsatiladi.

Olmaning balandligi — 4 m, nokniki — 3 m. Olma daraxti necha metr baland?

Masalaning qisqa berilishi:

O — 4 m

N — 3 m

$4 - 3 = 1$ (m).

Javob: Olma daraxti 1 metrga baland.

Bu masala o'qituvchi rahbarligida og'zaki bajariladi va tahlil qilinadi.

— Bo'g'irsoq ikkinchi to'siqdan ham o'tdi.

III. 3-topshiriq.

Magnitofonda masalaning sharti o'qiladi.

Do'konga 15 kg rediska, undan 3 marta kam pomidor keltirildi.

Do'konga necha kg sabzavot keltirildi?

Qisqacha berilishi plakatga yozilgan.

$$\left. \begin{array}{l} R - 15 \text{ kg} \\ P - ?, 3 \text{ marta kam} \end{array} \right\} ? \text{ kg}$$

Yechish sxemasi:

1) $\square : \square = \square$ (kg)

2) $\square + \square = \square$ (kg)

Javob: \square kg sabzavot keltirildi.

Masala o'qituvchi rahbarligida tahlil qilinadi va yechilishi sxema asosida mustaqil bajariladi.

— Mana, 3-topshiriqni ham bajardik. Bo'g'irsoqning yo'li yana davom etadi.

IV. Dam olish daqiqasi.

Sotib oldim — 5 ta ayiq.

Suvga soldim — 5 ta qayiq.

Birgalikda nechta bo'ldi?

Beshta ayiq, beshta qayiq.

V. 4-topshiriq juda qiziqarli. Bolalar, biz juda ko'p topishmoq bilamiz, to'g'rimi? Lekin kim tez va ko'p matematik topishmoq aytadi?

a). Pak-pakana bo'yi bor,

Yetti qavat to'ni bor.

b). Ikki aka-uka,

Bir-birini ko'rmaydi.

— Maqollarchi?

a). Qing'ir ishning qiyig'i,

Qirq yilda ham bilinar.

b). Yetti o'lchab, bir kes.

— Qiziqarli masala ham o'ylab topinglar.

a). Uchburchakdan uchta ol,

Qutichaga sanab sol.

To'rtburchakdan to'rtta ol,

Qo'sha bergin bemalol.

— Bolalar, bo'g'irsoq sizlardan juda xursand, chunki uni hech qaysi hayvon yeb qo'ymadi. Siz darsda faol qatnashib, unga katta yordam berayapsiz.

VI. 5-topshiriq. Endi bolalar, mana bu kartochkalarga yozilgan misollarni birgalikda bajaramiz. Faqat o'rtoqlaringizdan biri izohlab beradi.

$$4 : 2 + 68 =$$

$$27 : 3 =$$

$$1921 : 3 + 73 =$$

VII. 6-topshiriq. «Kim ko‘p uzum yeydi?» o‘yini.

Doskaga uzum rasmi chizilib, orasiga 2, 3 ga ko‘paytirish va bo‘lishga doir misollar yozilgan plakat qo‘yiladi. Musobaqa tarzida ikki o‘quvchi bajaradi.

— Bolalar, mana biz bo‘g‘irsoqqa yordam berdik. Misol, masalalarni to‘g‘ri bajardik. Lekin ayyor tulki shunda ham bo‘g‘irsoqni aldaydi va uni nima qiladi?

— Bugun darsda hamma o‘quvchi yaxshi qatnashdi.

Darsga yakun yasaladi.

3-sinf uchun «Matematika» fanidan «Qoldiqli bo‘lish» mavzusidagi 1 soatli dars ishlanmasi

Fan: «Matematika».

Mavzu: «Qoldiqli bo‘lish».

Maqsad:

Ta‘limiy a) o‘quvchilarga ustunli ko‘paytirish yo‘llarini o‘rgatish; *b)* ularni ijodiy va mantiqiy fikrlash qobiliyatini oshirish.

Rivojlantiruvchi: o‘quvchilarning og‘zaki va yozma hisoblash malakalarini oshirish.

Tarbiyaviy: bolalarni ona-Vatanni sevish, tabiatni asrash ruhida tarbiyalash. Ularni tejamkorlikka o‘quv qurollarini, maktab jihozlarini asrab-avaylashga, mehnat bilan topilgan narsaning qadriga yetishga o‘rgatish.

Dars metodi: sayohat.

Dars turi: yangi bilim beruvchi.

Dars jihozi: mavzuga oid turli rasmlar, tarqatmalar, ko‘rgazmali qurollar.

Darsning borishi

Sayohat darsi qatnashchilari «Navbatchi bekati»da to‘xtashadi. Bu yerda quyidagi axborot ko‘rsatuvchi belgi mavjud bo‘lib, u to‘xtab turish joyini bildiradi.



O'qituvchi navbatchi axborotini tinglaydi. Bolalar bilan turli mavzularda qisqacha savol-javob o'tkaziladi.

- O'zbekiston qachon mustaqil bo'lgan?
- Vatanimiz ramzlarini sanab o'ting.
- 2008-yilimiz qanday nom bilan atalgan edi?
- «Yoshlar yili» deganda siz nimani tushunasiz?
- Matematika faniga izoh bering.

O'quvchilar savollarga birma-bir javob beradilar va sevimli fanini quyidagicha izohlaydilar:

— «Matematika» fanlar ichra shoh, uning sirlaridan bo'layin o'goh.

— Matematika har yerda kerak, uni bilish uchun aql ham kerak.

— Matematika — aql gimnastikasi, uni puxta o'rgansang, sen hisobga ustasan.

Sayohatchilar yo'l-yo'lakay «O'tilgan mavzular» bekatida ham bir zunga to'xtashadi. Ular bekatdagi belgiga ta'rif berishadi.



Bu buyuruvchi belgi bo'lib, aylanma harakatni bildiradi.

Belgi o'quvchilarni o'tilgan mavzularni mustahkamlashga buyuradi:

$$40 : 6 = 6 \text{ (4 q)}$$

$$23 : 7 = 3 \text{ (2 q)}$$

$$25 : 4 = 6 \text{ (1 q)}$$

$$30 : 4 = 7 \text{ (2 q)}$$

Kichik sayohatchilar navbatdagi «Boshqotirmalar bekatiga» yetib kelishadi. Ular bekatdagi maxsus belgi asosida ish yuritishadi.



Bu belgi imtiyoz belgisi bo‘lib, «Yo‘l bering» ma’nosini anglatadi. Belgi bilag‘onlarga yo‘l berishni so‘raydi. Tengdoshlari ichida eng birinchi bo‘lib, misol va masalalarni yechgan o‘quvchilar rag‘batlantiriladi:

$$\begin{array}{r} 123 \\ \cdot 2 \\ \hline 246 \end{array} \quad \begin{array}{r} 234 \\ \cdot 4 \\ \hline 936 \end{array} \quad \begin{array}{r} 231 \\ \cdot 4 \\ \hline 924 \end{array} \quad \begin{array}{r} 312 \\ \cdot 2 \\ \hline 624 \end{array}$$

— Va nihoyat, «Yangi mavzu» bekatiga ham yetib keldik.



Bu belgi ogohlantiruvchi belgi bo‘lib, o‘quvchilarni yangi mavzuni diqqat bilan tinglash lozimligi to‘g‘risida ogohlantiradi. 2 va 3 xonali sonlarni bir xonali songa ko‘paytirish yuzasidan dastlabki ma’lumot beriladi:

$$1) 26 \cdot 3 = (20 + 6) \cdot 3 = 20 \cdot 3 + 6 \cdot 3 = 60 + 18 = 78.$$

$$\begin{array}{r} 26 \\ \cdot 3 \\ \hline 78 \end{array}$$

$$2) 347 \cdot 2 = (300 + 40 + 7) \cdot 2 = 300 \cdot 2 + 40 \cdot 2 + 7 \cdot 2 = 600 + 80 + 14 = 694.$$

$$\begin{array}{r} 347 \\ \cdot 2 \\ \hline 694 \end{array}$$

Rasmlarning qanday qismi bo‘yalgan? O‘quvchilar chizmaga qarab, javoblarni aytadilar.

Shundan so‘ng bolalar «Dam olish bekatida» qisqa muddatga to‘xtab o‘tadilar.



Bu servis belgisi bo'lib, yo'lovchilar uchun maxsus dam olish joyi mavjudligini ko'rsatadi.

Sayohatchilar tez aytish va topishmoqlar aytib, aqlni charh-lashadi.

Ular «Mashqlar bekati»da quyidagi shartga amal qiladilar. Bu taqiqlovchi belgi bo'lib, ko'rsatilgan joyda o'quvchilarga ayrim harakatlar, ya'ni misol va masalalarni noto'g'ri ishlash. Shuningdek, xatoga yo'l qo'yilgan holda xunuk yozish taqiqlanishi buyuriladi.



Bolalar 2-misolni yuqoridagi talablarga rioya etganlari holda yechadilar.

$$\begin{array}{r} 137 \\ \cdot 2 \\ \hline 274 \end{array}$$

$$\begin{array}{r} 223 \\ \cdot 4 \\ \hline 892 \end{array}$$

$$\begin{array}{r} 344 \\ \cdot 2 \\ \hline 688 \end{array}$$

$$\begin{array}{r} 29 \\ \cdot 3 \\ \hline 87 \end{array}$$

$$\begin{array}{r} 19 \\ \cdot 5 \\ \hline 95 \end{array}$$

Sayohatchilar «Ijodiy ishlar bekati»da o'z faoliyatini yana davom etadilar.



Bu imtiyoz belgisi bo'lib, u asosiy yo'lni bildiradi.

O'quvchilarning mustaqil fikrlash va hisoblash malakasini oshirish bosh maqsad qilib qo'yilgan holda ularga misol va masalalar yechish topshirig'i beriladi.

4, 3, 5 — sonlaridan ixtiyoriy son tuzish va uni 3 ga ko'paytirish.

$$\begin{array}{r} 435 \\ \cdot 3 \\ \hline \end{array}$$

$$\begin{array}{r} 453 \\ \cdot 3 \\ \hline \end{array}$$

$$\begin{array}{r} 354 \\ \cdot 3 \\ \hline \end{array}$$

$$\begin{array}{r} 345 \\ \cdot 3 \\ \hline \end{array}$$

$$\begin{array}{r} 534 \\ \cdot 3 \\ \hline \end{array}$$

$$\begin{array}{r} 543 \\ \cdot 3 \\ \hline \end{array}$$

Va nihoyat, o'quvchilar eng so'nggi «Uyga vazifa bekati»ga ham yetib kelishdi.



Bu imtiyoz belgisi bo'lib, mazkur joyda to'xtamasdan harakatlanish taqiqlanadi. O'quvchilar belgiga qarab, sayohatlari tugaganligini, ya'ni dars o'z yakuniga yetganligini bilib olishadi.

Uyga vazifa qilib, 1182—1183-misol va masalalarni yechib kelish topshiriladi. Dars davomida faol qatnashgan o'quvchilarning baholari e'lon qilinadi.

Matematika va tabiatshunoslik bo'yicha integrallashgan dars ishlanmasi. «Zumrad shaharcha»ga sayohat

Mavzu: «O'tilgan darslarni takrorlash va mustahkamlash».

Darsning maqsadi: matematik bilimlarni mustahkamlash.

Dars jihozi: og'zaki hisob uchun kartochkalar. Ertak qahramonlari.

I. Tashkiliy qism.

— Aziz bolajonlar! Bugun bizning darsimiz odatdagidan boshqacha bo'ladi. Biz bugun «Zumrad shaharcha»ga sayohat qilamiz.

— Qani, kim aytadi, Nurxon bilan Burhon sehrli mamlakatga qanday kelib qolishdi? (Ularni bo'ron uchirib olib keldi.)

— Afsuski, bizda uchar uycha ham, bo‘ron ham yo‘q bo‘lgani uchun bu mamlakatga boshqa yo‘l bilan boramiz.

Mana, dono qari qarg‘a sehrli mamlakatga yashirin kodni ayta olgan odamlargina bora oladi, deb aytayapti:

a) kartochkalar bo‘yicha og‘zaki hisob;

b) endi uch marta chapak chalamiz: bir, ikki, uch... biz «Pushti» shaharchadamiz. Bu mamlakat aholisi qizni uyiga qaytarish uchun yordam bermoqchilar. Nurxon avval 3 ta jonzotni qutqarishi va «Zumrad shaharcha»ga kelishi kerak.

To‘g‘ri yo‘lni topish uchun Nurxon va Burxon quyidagi misollarni yechishi kerak. Ularga yordam beraylik:

$$\begin{array}{r}
 648 \\
 \underline{9} \\
 5832
 \end{array}
 \quad
 \begin{array}{r}
 1294 \\
 \underline{6} \\
 7764
 \end{array}
 \quad
 \begin{array}{r}
 + 528 \\
 \underline{647} \\
 1175
 \end{array}
 \quad
 \begin{array}{r}
 - 2865 \\
 \underline{1473} \\
 1392
 \end{array}
 \quad
 \begin{array}{r}
 54 \overline{)3} \\
 \underline{18}
 \end{array}
 \quad
 \begin{array}{r}
 78 \overline{)6} \\
 \underline{13}
 \end{array}$$

d) Nurxon Burhon bilan yo‘lda davom etishdi. Yo‘llari uzun va xatarli. 1 soat o‘tdi. Qani, vaqt o‘lchov birliklarini eslab olaylikchi:

1 soat = ... min.

1 asr = ... yil.

1 yil = ... oy = ... hafta = ... kun.

1 min = ... sek; 6 soat = ... sekund.

Barakalla! Shunday davom etamiz.

II. Esingizda bo‘lsa, sariq g‘ishtli yo‘l katta dala yoqalab ketardi. Bu dalada poxol qo‘riqchi turibdi. Uning eng katta orzusi aqlga ega bo‘lish. Lekin siz bilasizki, uning aqli bor va kam emas edi.

Poxol qo‘riqchi sizga quyidagi «g‘alati» misollarni taklif etyapti:

$$x \cdot 90 = 720 \qquad 560 : x = 7 \qquad 180 \cdot 6 - x = 1000$$

$$x = 8$$

$$x = 80$$

$$x = 80$$

— Juda yaxshi.

— Endi Nurxon, Burhon va qo‘riqchi birga yo‘lda davom etishdi. Ular o‘rmondan o‘tayotganda g‘ichirlagan ovozni eshitib qolishdi. Bu temir o‘tinchi ekan.

U zanglab ketgani uchun qimirlamay qolgan. Do‘stlar temirchini moylashadi. Temir o‘tinchi boltasini olib, daraxt kesib, o‘tin taxlashga tushib ketdi.

Qani quyidagi mantiqiy savolga javob bering:

— Quyidagi qatorda qaysi soʻz ortiqcha?

Qayin, qaragʻay, qirgʻiy, archa, qayrogʻoch, eman.

Togʻterak oʻz umrining $\frac{1}{5}$ qismini, yaʼni 32 yil yashadi.
U necha yil yashaydi?

$$32 \cdot 5 = 160 \text{ (yil)}$$

III. Endi doʻstlar toʻrtovlon yoʻlga tushdi. Oʻrmonda yana bir ovoz eshitilib, ular qoʻrqib ketishdi.

Bu qoʻrqoq sher edi. U ham doʻstlarga qoʻshilib, «Zumrad shahar»ga bormoqchi boʻldi. Unga qizgʻaldoqli maydondan oʻtib olish uchun yordam berish kerak. Bu maydonda sher uxlab qolishi mumkin. Yordam berish uchun quyidagi masalani yechish kerak:

Sichqonlar qirolichasi va uch guruh xizmatchilar bor. 1-sida 65 ta sichqon, 2-sida 1-sidan 5 marta kam, 3-sida 2-sidan 8 marta koʻp. Xizmatkor sichqonlar nechta?

1-guruh — 65 ta	←	} Javob: 182 ta
2-guruh — ? 5 marta kam	←	
3-guruh — ? 8 marta koʻp	←	

IV. Oxiri «Zumrad shahar»cha koʻrindi. Saroyga kirgach, doʻstlar xafa boʻlib qolishdi. Chunki, Bilmasvoy ularning talablarini bajarmadi. U Nurxondan misolni yechishni soʻradi. Buning uchun quyidagi topshiriqni bajarish kerak.


Kvadratning perimetriga koʻra, tomonini toping.

$$P = 24$$

$$a = P:4$$

$$a = 24:4$$

$$a = 6 \text{ sm}$$



Saroydagilar topshiriqning juda tez bajarilganini koʻrib, yigʻlab yuborishdi va koʻz yoshlari erib ketdi.

Doʻstlar Bilmasvoyning sehrli qalpogʻidan foydalanib, uchar maymunlarni chaqirishdi. Maymunlar Nurxonni «Zumrad shahar»ga olib borib qoʻyish uchun haq talab qilishdi.

Masala: 1000 ta banan bor edi.

Berildi — 520 ta.


Qolgani 8 ta qutiga joylandi. Har bir qutida nechta banan bor? (60 ta).

Maymunlar hammani «Zumrad shaharcha»ga, Nurxon va Burhonni esa, Sariq mamlakatiga olib borib qo'yishdi.

Yana mantiqiy masalani hal qilamiz.

Sehrli mamlakat besh qismdan iborat: Pushti, Sariq, Havorang, Binafsha va Zumrad shahar.

Havorang, Binafsha va Pushti mamlakatlar boshqa hamma mamlakatlar bilan umumiy chegaraga ega. Sariq mamlakat va Zumrad shaharning umumiy chegarasi yo'q. Sariq mamlakat katta sahro bilan o'ralgan. Sehrli mamlakatdagi qismlarning joylashish rasmini chizing.



Qo'shiq yangraydi.

Qo'shiq sadolari ostida sayohat tugaydi.

V. Dars yakunlanadi.

Matematika va tabiatshunoslik bo'yicha integrallashgan dars ishlanmasi

Mavzu: «Antarktidaga sayohat».

Maqsad: hisoblash malakalarni mustahkamlash.

Dars turi: sayohat.

Motiv: hisoblash ko'nikmalari orqali materikning geografik xususiyatlari bilan tanishtirish.

Dars metodi: tadqiqot.

Darsning maqsadi: a) hisoblash, tenglama va masala yechish malakalarni mustahkamlash; b) dunyoqarashni va mantiqiy fikrlashni rivojlantirish; d) qiziquvchanlik va o'z-o'zini nazoratni tarbiyalash.

Darsning jihozi: materik xarita, jadval, rasmlar.

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism.

1) Aqliy hujum:

- Noyabr oyi kuzning nechanchi oyi hisoblanadi?
- Bir marta kesishdan oldin necha marta o'lash kerak?
- Nimasiz ovqatning mazasi bo'lmaydi?
- Nimasiz o'choqqa olov yoqib bo'lmaydi?

Kelar edi izlab buloq,
Bir echki-yu, bir uloq.
Ularda bor necha tuyoq,
Nechta oyoq, nechta quloq?

2) Daftarni ochib, sana va sinf ishi yoziladi.

II. Dars mavzusi va maqsadi aytiladi.

— Bolalar, bugun biz ekskursiyaga o'tlanamiz. Qayergaligini bilish uchun quyidagi topshiriqni bajarish kerak.

Misollarni yechib, yashirilgan so'zni toping.

$25 \cdot 20$ I $108 \cdot 9$ T $14 \cdot 11$ N $700 : 35$ D

$525 : 5$ R $900 : 6$ A $1827 \cdot 9$ K

Buning uchun harflarni mos kataklarga joylashtiring.

150	154	972	150	155	203	972	500	20	150
A	N	T	A	R	K	T	I	D	A

O'quvchilar ANTARKTIDA so'zini topadi.

— ANTARKTIDA nima? (Qit'a.)

— Bu qit'a haqida nima bilasiz. (U Janubiy qutbda joylashgan.)

— Bugun biz shu qit'aga sayohatga boramiz. Yo'l-yo'lakay ko'p xonali sonlar ustida amallar bajarish va masala yechish ko'nikmalarini mustahkamlaymiz.

— Antarktida — eng sovuq materik. Uni rus dengizchilari F.F. Belinsgauzen va M.P. Lazarev 1920-yil 28-yanvarda kashf etgan.

III. Bu materikdagi haroratni quyidagi dastur orqali bilib olamiz:

120	14	96
39	21	46
9	62	18

- 1-qatordagi eng kichik sonni yozing.
- 2-qatordagi eng katta sonni yozing.
- 3-qatordagi o'rta sonni yozing
- Tanlangan 3 ta son yig'indisini toping.

$$14+46+18=78$$

Demak, havo harorati 78°C ekan.

IV. Endi Antarktida maydonining yuzini topamiz. Ma'lumki, u Afrika qit'asi yuzining $\frac{7}{15}$ qismini tashkil qiladi. Afrikaning yer maydoni $30\ 000\ 000\ \text{km}^2$.

$$30\ 000\ 000 : 15 \cdot 7 = 14\ 000\ 000\ (\text{km}^2)$$

V. Antarktida shamollari ham juda qattiq. Shamol tezligini tenglamani yechish orqali topasiz:

$$1) 1260:7=180\ (\text{m})$$

$$2) 180:9=20\ (\text{m})$$

Javob: 20 m.


V. Antarktidada deyarli o'simlik va hayvonot dunyosi yo'q. Faqat chegaraviy qismlardagina ba'zi jonivorlar yashaydi. Ularni misollarni yechib, javoblarini o'sib borish tartibida mos harflar bilan yozib olsangiz topasiz:

$\begin{array}{r} . 809 \\ 6 \\ \hline 4854 \end{array}$	$\begin{array}{r} . 4205 \\ 7 \\ \hline 29435 \end{array}$	$\begin{array}{r} . 1214 \\ 2 \\ \hline 2428 \end{array}$	$\begin{array}{r} + 3716 \\ 5831 \\ \hline 9547 \end{array}$			
	$\begin{array}{r} 25805 \\ - 6321 \\ \hline 19484 \end{array}$	$\begin{array}{r} 12106 \\ + 8190 \\ \hline 20296 \end{array}$	$\begin{array}{r} 10534 \\ - 6287 \\ \hline 4247 \end{array}$			
29435	20296	19484	9544	4854	4247	2428
P	I	N	G	V	I	N

VI. Pingvinlar haqida nimalarni bilasiz?

Pingvinlarning Antarktidada 17 turi yashaydi. Eng kattasi imperator pingvini bo'lsa, eng kichigi — adeli deb ataladi. Ular o'ta suzuvchan bo'lib, baliq, molluska va toshbaqalar bilan ov-qatlanadi.

Endi quyidagi ketma-ketlik bo'yicha imperator pingvinining bo'yi va og'irligini bilib oling:



VII. Darsning yakuni.

- Bugun darsda nimalarni bilib oldingiz?
 - Sizga nimalar yordam berdi?
- (Klaster bo'yicha hikoya qilinadi.)

«Sayohat dars» integratsiyalashgan dars ishlanmasi

Maqsad: ko'paytirish jadvali, qo'shish va ayirish, bilimni mustahkamlash.

I. Bugungi darsda ko'p xonali sonlarni qo'shish, ayirish va ko'paytirish jadvalini takrorlaymiz, masalalar yechamiz.

Darsimizda matematik qutbga Vinni Pux bilan birgalikda sayohat qilamiz. (Musiqa yoki bolalar qo'shig'i yangraydi.)

II. Matematik diktant. Misollar bilan yozing. 7 va 6 ning ko'paytmasi, 400 va 300 ning ayirmasi, 8 ni 4 marta orttir, 500 ni 20 marta orttir, 9 dan 3 marta kam son, 63 dan 9 marta kichik son, 0 va 5 ning ko'paytmasi, 1 km.ni 100 marta ko'paytir.

III. Vinni Pux bilan «Noto'g'ri arilar» dalasiga keldik. Tushurib qoldirilgan raqamlarni o'rniga qo'yib, misolni tiklang:

$$\begin{array}{r} 7 \dots 59 \dots 14 \\ - 3 \dots 2 \dots 5 \dots 0 \dots \\ \hline \dots 5 \dots 3 \dots 4 \dots 2 \end{array}$$

$$\begin{array}{r} 6 \dots 7 \dots 2 \dots 8 \dots 3 \\ + \dots 6 \dots 4 \dots 1 \dots 2 \dots \\ \hline 8 \dots 9 \dots 9 \dots 6 \dots 7 \end{array}$$

IV. Endi «O‘ychan dalaga» yetib keldik. Vinni Pux bir son o‘yladi.

Uni 2 ga ko‘paytirdi, 5 ni qo‘shdi, natijani 7 ga bo‘ldi, va 49 ni qo‘shdi. 52 soni hosil bo‘ldi. Vinni Pux qanday sonni o‘ylagan?

— O‘ylangan sonni topish uchun nima qilish kerak?

— Teskari amallarni bajarish kerak.

V. Endi chuqur o‘ra qazilgan maydonga keldik. Uning yuzini topaylik.

Maydon chuqur va tekis qismdan iborat. Chuqurning bo‘yi 5 metr, eni 3 metr. Maydonning bo‘yi — 14 m, eni 7 m, tekis qismining yuzi nimaga teng?

$$S \text{ chuqur} = 5 \cdot 3 = 15 \text{ (m}^2\text{)};$$

$$S \text{ maydon} = 14 \cdot 7 = 98 \text{ (m}^2\text{)};$$

$$S \text{ tekis} = 98 - 15 = 83 \text{ (m}^2\text{)}.$$

Javob: maydondagi tekis qismning yuzi 83 (m²).

V. Yo‘lda davom etamiz. Dono Boyqush tenglamalarni yechishimizni so‘rayapti:

$$\frac{(30 \cdot x) : 30 = 6}{x = 6}$$

$$\frac{40 - x : 4 = 9}{x = 4}$$

VI. Endi biroz dam olamiz va quyidagi tenglamani yechamiz.

Quyong 7 piyola asal yedi, Pyatachok undan 6 piyola ko‘p asal yedi, Vinni pux Pyatachokdan 4 marta ko‘p asal yedi. Hammasi bo‘lib ular necha piyola asal egan?

$$7 + 6 = 13 \text{ (piyola)} \text{ — Pyatachok.}$$

$$13 \cdot 4 = 52 \text{ (piyola)} \text{ — Vinni-Pux.}$$

$$7 + 13 + 52 = 72 \text{ (piyola)} \text{ — hammasi.}$$

VII. Matematik qutbga yetishimizga uzoq yuramizmi yoki yo‘qmi, quyidagi algoritim bo‘yicha topib olamiz.

39	27	18	15	14	10	3	0
u	r	a	p	o	l	yu	s

A	0	5	7	9	10	12	14	16
x	0	10	14	18	3	15	27	39

	$A \cdot 6$	
ha	< 60	yo'q
$: 3$	X	$- 57$

VIII. Dars yakuni.

Mana, qutbga qilgan sayohatimiz tugadi. Sizga dars davomida turli rangdagi jitonlar berib borgan edim:

qizil — «5»;

yashil — «4»;

sariq — «3» baho bilan almashtiriladi.

«Matematika» fanidan «O'tilganlarni takrorlash» mavzusidagi integrallashgan dars ishlanmasi

Mavzu: «O'tilganlarni mustahkamlash».

Darsning maqsadi: hisoblash malakalarini mustahkamlash, tabiatni asrashni o'rgatish, mantiqiy fikrlashni o'stirish.

Dars jihozi: dengiz jonzoqlari rasmlari.

I. Tashkiliy qism.

Bugun darsimizga usta dengizchi Jek tashrif buyurgan. U oltin baliqcha tutib olibdi. Oltin baliqcha unga dengiz osti dunyosini ko'rsatishni va'da beribdi. Bugun hammamiz Jek bilan birga dengiz ostiga sayohat qilamiz.

Oltin baliqlar haqida nimalarni bilasiz?


1-o'quvchi: Oltin baliqlar Yaponiya va Xitoy daryolarida bo'ladi. Ularning galasi suv ostida oltinday tovlanib turadi.

2-o'quvchi: Oltin baliqlar 200 yil oldin Yevropaga ham keltirilgan. Odamlar ularni akvariumda boqishadi.

II. O'qituvchi: Oltin baliq sizlarni suv osti sayohatiga tayyorgarligingizni tekshirish uchun mantiqiy masala taklif qilyapti:

1) suv ostida 12 ta baliqcha bekinmashoq o'ynayotgan edi. Katta baliqlardan biri 1 ta baliqchani yutib yubordi. Qancha baliqcha o'ynashda davom etadi. (1 ta ham qolmadi.)

2) 2-baliqning uzunligini top:



Noma'lum so'zni aniqla:

1	2	3	4	5
s	a	r	a	y

1	2	5	3	4
		?		

(sayra)

III. Og'zaki hisob:

— Bilasizmi, hayot avval suvda paydo bo'lgan, Yer kurasida baliqlarning nechta turi mavjudligini bilasizmi? (Dengiz yulduzlariga yozilgan misollarni yechamiz.)

$$27:9= \quad 16:8= \quad 20:5= \quad 30:6= \quad 42:7=$$

(Javoblarni ketma-ket yozamiz: 32456 ta baliq turi bor.)

IV. *O'qituvchi*: — Mana bu baliq nomini bilasizmi? (Kambala.)

3-o'quvchi: — Kambala balig'i juda qiziq baliq. Uning tanasi yapaloq, dengiz tubida yota oladi va bir tomoni bilan suza oladi. Ko'zlari ham bir tomonda.

4-o'quvchi: — Avval ko'zlari ikki tomonda bo'lgan, lekin boshqa baliqlarga yem bo'lmaslik uchun u bir tomonlama suzishni va dengiz tubiga berkinishni o'rgandi.


O'qituvchi: — Baliqli yomg'ir haqida eshitganmisiz? Bo'ron qattiq bo'lganda u suvni baliqlar bilan ko'tarib ketadi va biror joyga yomg'ir qilib tashlaydi. Masalan, oxirgi vaqtda Angliyada 9 marta, Hindistonda undan 4 bor ko'p baliq yomg'iri yog'gan. Hammasi bo'lib, nechta shunday yomg'ir yoqqan?

$$9+(9+4)=22$$

V. O'qituvchi: — Siz eng katta baliq nomini bilasizmi? U kit akulasi. Misollarni yechsangiz, uning uzunligini bilib olasiz:

$$67-52 = 15; \quad 93-77 = 16; \quad 82-65 = 17; \quad 100-82 = 18.$$

Demak, akula uzunligi 15 dan 18 metrgacha bo'ladi. Endi shifrlangan sonlarni toping:



Bu sonlarni yuqoridagi sonlarga qo'shing va misollarni yozing:

$$15+126= \quad 16+230= \quad 17+134= \quad 18+308=$$

5-o'quvchi: — Odamlar akulalardan qo'rqishadi, chunki ular odamlarni yutib yuborishi mumkin, deb o'ylashadi. Masalan, kit akulasining tishlari 3 mm bo'lib, u dengizning eng mayda jon-zotlari bilan ovqatlanadi.

6-o'quvchi: — Lekin oq akuladan ehtiyot bo'lish kerak. Oq akula bor joylarda cho'milish mumkin emas.

O'qituvchi: — Mana bu rasmda nima tasvirlangan? (Sakkizoyoq.)

7-o'quvchi: — Sakkizoyoq kalta oyoqli molluskalardan bo'lib, oyoqlari yordamida harakatlanadi va ovqat tutadi.

8-o'quvchi: — Sakkizoyoqlar xavf yaqinlashganini sezsa, o'zidan siyohrang bo'yoq chiqarib, qochib qoladi. U o'z tanasi rangini ham o'zgartirishi mumkin. Sakkizoyoqlar sariq, kulrang, qizil, jigarrang va yashil-ko'k bo'lishi mumkin.

O'qituvchi: — Bizning sakkizoyoq — kulrang. Lekin juda o'ychan. Chunki, u masalani yecha olmayapti.

Sakkizoyoqlar uylarini toshdan qurishadi. Uyumda 83 ta tosh bor. Sakkizoyoq 22 ta katta va 49 ta mayda toshni olib keldi. Yana nechta toshni olib kelishi kerak?

$$83 - (22 + 49) = 12 \text{ (ta) tosh qolgan.}$$

VI. *O'qituvchi:* — Mana bu dengiz oti. Boshi otga o'xshagan bu jonzot aslida baliqcha, dengiz ajdarchasi. U suv o'tlari orasida yashaydi va orqa suzgichi yordamida harakatlanadi. Dumi bilan suv o'tlariga ilinib, dam oladi. U iliq suvli dengizda yashaydi va chuqurlikni yomon ko'radi. U siz uchun ajoyib topshiriq tayyorlagan. Ular qanday ataladi? (Tenglama.)

$$x \cdot 7 = 21 \quad x : 8 = 4 \quad x : 8 = 4 \quad x - 26 + 31 - 45 + 9 = 44$$

3-tenglamani jadval bo'yicha yechamiz:


x	75
- 26	+ 26
+ 31	- 31
- 45	+ 45
+ 9	- 9
44	

Demak, $x = 75$.

VII. *O'qituvchi:* — Rasmga qarang. Bu — qilichbaliq. U juda xavfli, uning tumshug'i qilichsimon cho'ziq, baliq uni qurolday ishlatadi.

10-o'quvchi: Qilichbaliq esa yirik baliqlardan bo'lib, uzunligi 5 metr, og'irligi 500 kg, qilichining uzunligi 1 m.

O'qituvchi: — Qilichbaliq sizga geometrik topshiriq tavsiya qil-yapti. Shaklga qarang va savollarga javob bering: Uy qanday shakl-lardan iborat? Unda nechta uchburchak? (4), Nechta kvadrat? (2), Nechta to'rtburchak? (5), Nechta to'g'ri to'rtburchak? (3), Nechta doira? (2), Nechta beshburchak bor? (2). Ularni ko'rsating.



VIII. Og'zaki hisob.

O'qituvchi: — Eng katta dengiz jonivorini bilasizmi?

11-o'quvchi: — Ko'k kit. Kit baliq emas, sut emizuvchi. Kitning jabrasi yo'q, o'pkasi bilan nafas oladi. Planktonlar bilan oziqlanadi. Ularning ajdodlari quruqlikda yashagan.

Kitning uzunligi va og'irligini bilish uchun meduzalarga yozilgan misollarni yechib, bilib olasiz:

$$18 : 6 = \quad 40 : 8 = \quad 10 : 10 = \quad 18 : 9 = \quad 45 : 9 =$$

Javoblarni ketma-ket yozamiz: 35 m; 125 tonna.

IX. Umumlashtirish:

— Darsda nimalarni bilib oldingiz?

— Sizga nimalar ko'proq yoqdi?

X. Dengiz haqida she'r yoki qo'shiq.

Matematik bilimlar integratsiyasi

Boshlang'ich maktabda matematik bilimlar hamma o'quv predmetlarida qo'llanishi mumkin. Matematik bilimlarni integratsiyalash darsni qiziqarli va jonli bo'lishga yordam beradi. Masalan, 1-sinfda savod o'rgatish davrida o'quvchilar so'zdagi tovushlar, harflar, bo'g'inlar sonini sanaydilar, urg'u berilayotgan bo'g'inning tartib raqamini, gapdagi so'zlar sonini aniqlashadi. Bu esa, yozuv va o'qish darslarida natural sonlar qatori va tartib sonlar haqidagi bilimlarni qo'llash imkonini beradi.

Shu kabi kitoblarning sahifasi, sana, mashq nomlarini bilish, uni aytish uchun ham matematik bilim zarur bo'ladi. Tarkibida sonlar qatnashgan misollarni topish ham o'quvchilar uchun qiziq bo'ladi.

«Yetti o'lchab, bir kes», «Sanamay, sakkiz dema», «Birniki mingga, mingniki tumanga» va h.k.

Turli sanalar va miqdorlarga oid sonli ma'lumotlar uchraydi. Yozuvchi shoirlarning hayotiga oid sana va bosqichlar matematik bilimlarni talab qiladi.

Ayniqsa, sonli ma'lumot tabiatshunoslik darslarida ko'p uchraydi. Masalan, kuzatuvlar kundaligining to'ldirilishi, kunlar, kunlik harorat kabi sonli ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Shunga o'xshash «Matematika» fani mehnat, rasm, jismoniy tarbiya darslaridan ham o'ylanishi mumkin.

«Matematika» fanidan «Ikki xonali songa bo'lish» mavzusidagi 1 soatli dars ishlanmasi

Mavzu: «Ikki xonali songa bo'lish».

Darsning maqsadi: 1) ikki xonali songa yozma bo'lish ko'nikmasini mustahkamlash, masalalar yechish; 2) Matematik qobiliyatlar, ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish; 3) Tejamkorlikni tarbiyalash.

Jihoz: Og'zaki hisob uchun «Romashka».

Darsning borishi

I. Tashkiliy qism.

II. Og'zaki hisob.

$\begin{array}{r} 623 \\ \cdot 7 \\ \hline \end{array}$	$\begin{array}{r} 103 \\ \cdot 7 \\ \hline \end{array}$	$\begin{array}{r} 220 \\ \cdot 4 \\ \hline \end{array}$	$\begin{array}{r} 473 \\ \cdot 4 \\ \hline \end{array}$
$\begin{array}{r} 771 \\ \cdot 2 \\ \hline \end{array}$	$\begin{array}{r} 316 \\ \cdot 3 \\ \hline \end{array}$	$\begin{array}{r} 508 \\ \cdot 7 \\ \hline \end{array}$	$\begin{array}{r} 826 \\ \cdot 4 \\ \hline \end{array}$

Masala. Bir ishlab chiqarish korxonasi yiliga 200 t qurumni havoga chiqaradi. Tozalash qurilmasi o'rnatilgandan keyin qurum miqdori 20 barobar kamaydi. Endi korxonadan qancha qurum havoga chiqyapti? (10 t.)

Doskadagi misollarni tiklang. Avval noma'lum nokomponent nomini ayting:

$\begin{array}{r} 3234 \\ - \\ \hline 2484 \end{array}$	$\begin{array}{r} 263 \\ + \\ \hline 613 \end{array}$	$\begin{array}{r} 438 \\ - \\ \hline 562 \end{array}$
---	---	---

Noma'lum ayriluvchi, noma'lum qo'shiluvchi, noma'lum kamayuvchi qanday topiladi?

Har bir topilgan son haqida o'qituvchi qiziqarli ma'lumot beradi:

750 — qizilishton bir kunda shuncha qo'ng'iz yeydi.

350 — qarag'ay shuncha yil yashaydi.

1000 — boyo'g'li bir yilda shuncha sichqon tutib yeydi.

III. Mustahkamlash. Kitob bilan ishlash.

Qo'shimcha masala. Lipa (arg'uvon) daraxti 500 yil, eman 200 yil yashaydi. Lipa emandan necha yil kam yashaydi.

2-masala. Tuproqning 1 sm.li qatlami 100 yilda tiklanadi. Jarliklarga yomg'ir tufayli 10 sm.li qatlam yuvilib ketdi. Uning tabiiy tiklanishi uchun necha yil kerak bo'ladi?

IV. Masal yechish. Toshkent qo'riqxonasi hududida yuzlab qushlar in qurgan. Maynalar jufti o'z polaponlariga 335 ta qurt-qumursqa, qizilishtonlar jufti ulardan 3 marta ko'p, chug'urchuqlar jufti esa, qizilishtonlardan nechta ko'p qurt olib keladi?

Masala savoliga birdaniga javob berib bo'ladimi? Nima uchun?

(Chug'urchiq va qizilishton jufti nechta qurt olib kelishini bilmaymiz.) Qanday bilish mumkin? (335 ni 3 ga va 5 ga ko'paytirib: $335 \cdot 3 = 1005$, $335 \cdot 5 = 1675$.) Qancha ko'pligini bilish uchun nima qilamiz?

(Ayiramiz: $1675 - 1005 = 670$.) Javobni ayting. (Chug'urchiqlar jufti, qizilishtonlar juftidan 670 ta ko'p qurt terib keladi.)

Masala oxirgi amali qo'shuv bo'ladigan qilib, savolni o'zgartiring. (Chug'urchiqlar va qizilishtonlar jufti birga qancha qurt olib keladi?)

V. Darsning yakuni.

Nimalarni bilib oldingiz?

Tabiat va ekologiyaga oid bilimlarni eslab qoling.

Boshlang'ich sinflarda o'qitishning interaktiv usullaridan foydalanish

Binar dars.

Maqsad: a) narsa va hodisalarni tizimlilikning to'rtinchi darajasida o'rganish; b) o'qituvchilarning o'zaro hamkorligini rivojlantirish; d) o'quvchilarda predmetlarning o'zaro bog'liqligi, dunyoning bir butunligiga ishonch hosil qildirish.

Binar darsni o'tkazishda bir nechta o'qituvchi ishtirok etishi mumkin yoki boshlang'ich sinf o'qituvchisining bir o'zi bir necha predmetdan dars berganligi uchun o'zi o'tkazishi ham mumkin.

Masalan, matematika bilan jismoniy tarbiya darsini birgalikda olib borish. Mashg'ulot kichik maydonchada olib boriladi yoki maxsus sinf tayyorlanadi.

Matematik topshiriqlar bilan estafeta tayyorlanadi. Buning uchun o'quvchilar 2,3 yoki 4 guruhga ajratiladi. Har bir guruhda bittadan a'zo o'qituvchining buyrug'i bilan oldinga sakrab chiqadi, qator orasidan yugurib borib, doska oldida terib qo'yilgan kartochkalardan birini oladi. Unda yozilgan misolni doskaga yozib yechadi va orqaga o'girilib, bir oyoqda sakrab o'rniga keladi.

Keyin guruhning navbatdagi a'zosi davom ettiradi. O'quvchilarning yugurish va sakrashdagi qoidalar jismoniy tarbiya o'qituvchisi tomonidan tushuntiriladi va kuzatib boriladi. Misollarni yechish tartibi esa, sinf o'qituvchisi tomonidan tushuntiriladi va kuzatib boriladi. Mashg'ulotning bu turi shunisi bilan qiziqi, bunda jismoniy mashqlar orqali aqliy faoliyat faollashtiriladi.

Mashg'ulotga musiqa o'qituvchisini ham taklif etish mumkin. O'quvchilar estafeta o'yinini matematika yoki jismoniy tarbiyaga oid biror qo'shiqni kuylab turib yoki shunchaki bir sho'x kuy ohangida bajarishlari mumkin.

Binar dars fanlararo aloqani ko'rsatib beradi va ta'limning yaxlitligi, tizimlilikini ta'minlaydi.

«O'zaro diktant»

Maqsad: a) o'quvchilarning turli o'quv fanlari (ona tili, matematika, o'qish) bo'yicha savodxonligini oshirish; b) mashqni bajarish jarayonida musobaqa ko'nikmalarini shakllantirish; d) fanga qiziqishni oshirish, o'qituvchini daftar tekshirish ishidan ozod qilish.

1. Tayyorgarlik bosqichi. Diktant uchun turli matnlar tayyorlanadi. Bu matnlar eski yoki yangi kitoblardan, jurnallardan olingan bo'lishi mumkin. Agar rasmlar bilan berilgan bo'lsa, yanada yaxshiroq bo'ladi. Matn hajmi 4—12 qator bo'lishi mumkin. Uning mazmuni o'quvchilar uchun qiziqarli bo'lishi kerak. Matnning hajmi va murakkabligi sinf o'quvchilarining tayyorgarlik darajasiga qarab tanlanadi. Bu ishni o'qituvchi ham o'quvchilar ham bajarishi mumkin.

2. Darsda o'quvchilarning ishlash tartibi:

2.1. Har bir o'quvchi bittadan matn olib, ichida o'qiydi. Bu vaqtda sinf ham tinch bo'lishi kerak.

1-o'quvchi o'qiydi 2-o'quvchi o'qiydi 3-o'quvchi o'qiydi



2.2. O'quvchilar matnni yozib bo'lganlaridan so'ng, o'qituvchi matn bo'yicha savollarga javob beradi.

2.3. Hamma o'quvchilar juftliklarga ajraladi. Har bir juftlikdagi bir o'quvchi o'z kartochkasidagi birinchi gapni o'qiydi.



Ikkinchi o'quvchi gapni oxirigacha tinglaydi.

2.4. Keyin tinglagan o'quvchi birinchi o'quvchi aytib turish ostida yoza boshlaydi. Yozayotgan o'quvchi matnga qarashi mumkin emas.




Shu tarzda 2—3 gap matn oxirigacha o'qiladi va yoziladi.

2.5 Keyingi bosqichda rollar almashinadi. Yozgan o'quvchi endi o'z matnini o'qiydi, sherigi esa yozadi.

1-o'quvchi yozadi


2-o'quvchi o'qiydi



2.6. Diktant yozib bo'linganidan so'ng o'quvchilar o'zaro daftarlarini almashtiradi va yozilganlarni kartochkalarsiz tekshiradi. Xatolarni yashil qalam yoki ruchka bilan tuzatishadi.

1-o'quvchi tekshiradi

2-o'quvchi tekshiradi




2.7. Keyingi bosqichda o'quvchilar yozgan diktantlarini kartochkaga qarab, tekshirib chiqishadi, xatolarini qizil qalam yoki ruchka bilan tuzatishadi.

1-o'quvchi tekshiradi**2-o'quvchi tekshiradi**

Kartochka-1 Daftar-2

Daftar-1 Kartochka-2

2.8. Har ikki o'quvchi birgalikda avval birinchi diktantni keyin ikkinchisini tekshirib chiqadi. Xatoga yo'l qo'ygan o'quvchi ikkinchi o'quvchi nazoratida og'zaki tahlil qiladi, ikkinchi o'quvchi unga yordam beradi.



2.9. Har bir o'quvchi o'z daftariga xatolar tahlilini yozadi.

1-o'quvchi yozma tahlil**2-o'quvchi yozma tahlil**→ **Daftar-1**→ **Daftar-2**

2.10. O'quvchilar bir-birlarining daftarlarini olib, tekshirganlariga yana bir bor ko'z yugurtirishadi va o'z ism-shariflarini yozishadi: «Tekshirdi A. Saidov».

O'quvchilarga ham baho qo'yishni taklif qilish mumkin. Lekin buning o'ziga xos salbiy va ijobiy tomonlari bor. Ijobiy tomoni shundaki, bolalarda javobgarlik hissi ortadi. Salbiy tomoni — agar past baho qo'yilsa, o'quvchilar orasidagi o'zaro munosabatga putur yetishi mumkin.

2.11. Shunday qilib, juftliklar yakunlaydilar va o'zaro matnlarini almashtirib tarqalishadi. Har bir o'quvchi o'zi uchun yangi o'quvchini tanlaydi.

Matn-2	Matn-2
1-o'quvchi	2-o'quvchi
Daftar-1	Daftar-3

O'qituvchi qator oralab yurib, o'quvchilarning qanday ishlayotganini kuzatadi. Tekshirish bo'yicha maslahatlar beradi, orqada qolayotganlarga yordam beradi.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, o'qitishning interaktiv usullari o'quvchilarni boshlang'ich sinflardan boshlab erkin va mustaqil fikrlashga, o'quv-biluv faoliyatini maqsadli shakllantirishga yordam beradi.

O'YINLAR

«Bozorda» o'yini

Sabzavot va mevalarning rasmlari ishlangan kartonlar yozuv taxtasiga osib qo'yiladi. Bu yerda karam, kartoshka, uzum, nok, olxo'ri, piyoz va hokazolarning rasmlari bor.

O'qituvchi: — 1 kg piyoz 4 so'm tursa, 2 kg qancha turadi, 3 kg-chi?

— 3 kg olxo'ri 9 so'm tursa, 1 kg olxo'ri qancha turadi?

Shunga o'xshash boshqa savollar beriladi. O'yindan keyin bolalardan so'rash kerak:

O'qituvchi: — Siz hovlida o'ynayapsiz. BIRDAN OYINGIZ BOZORDAN TO'RXALTA TO'LA MEVA VA SABZAVOTLAR OLIB KELAYOTGANINI KO'RIB QOLDINGIZ. Shunda siz nima qilasiz?

Bolalar: «To'rxaltani ko'tarishda oyimizga yordam beramiz», deb javob qilishadi. Ularning fikrlari ma'qullanadi.

O'qituvchi: — Sizlar meva va sabzavotlarni yetishtirishda ishtirok etasizlarmi?



«Sirkda» o'yini

Maqsad. O'quvchilarning nutq, gap, so'z to'g'risidagi bilimlarini mustahkamlash.

Jihozlar. Sirkdagi artistlarning kartondan yasalgan rasmlari. Ular dars davomida osib qo'yiladi. Yozuv taxtasiga vazifalar yozilgan.

O'yinning borishi

O'qituvchi: Bolalar, bugun bizlar sirkka taklif qilinganmiz. Artistimiz bilan birgalikda eng aqlli, madaniy muomala qilish qoidalariga rioya etadigan va ona tilini yaxshi biladigan o'quvchilarni olamiz. Oralaringizda shunday bolalar bormi? Buni biz uch vazifani bajariganingizdan so'ng aniqlaymiz.

1. Diqqat bilan eshitinglar:

«Yomon otda yurguncha, yayov yurgan yaxshiroq».

«Yaxshini maqtasa yarashar» maqollarning mazmunini tushuntiring.

2. Yulduz, soya, yong'och, yurt, tuya, yuz, arpa, tish, tuz, patir, pishloq. Shu so'zlarning ichidan bo'g'inlarga ajratilmaydigan so'zlarni ayting.

3. Mebel, piyoz, sabzi, yulduz, zavod, daftar, harf, vazifa, gulzor. Bu so'zlarni alifbo tartibida ayting.



O'qituvchi: — Barakalla! Siz, hammalaringiz vazifalarni yaxshi bajardingizlar, endi bemalol sirkka borishimiz mumkin.

Bolalar madaniy muomala qoidalariga rioya etib, sirkdagi artistlar bilan tanishadilar. Ularni birinchi bo'lib zebra kutib oladi.

O'qituvchi: — Bolalar, bunaqa belgini qayerda uchratgansizlar? (Yo'lovchilar yo'lakchasida.) Nega o'sha yo'lakchani zebra deyishadi? (Yo'lakcha zebra o'xshagani uchun.) Yo'lning qayeridan o'tish kerak? (Yo'lovchilar yo'lakchasidan.)

O'qituvchi: — Siz bo'g'inlardan so'zlar tuzishni o'rganib oldingizmi yoki yo'qmi, bu savol zebrani qiziqtirmoqda: poq, nav, op, zi, chi, tab, tob, bat, va h.k.

Bolalar vazifani tezda bajarishadi. Sabzi, op-poq, maktab, vazifa, kitob, nav-bat-chi degan so'zlar tuzishadi, so'ngra masxaraboz bilan uchrashadilar.

Masxaraboz: — Urug' to'kib, ter, sochsang, quruq, seni, yer, qo'ymas. Bolalar, bular nima? (So'zlar.)

O'qituvchi: — Masxaraboz qanchalik urinmasin shu so'zlardan maqol tuza olmagan ekan. Bolajonlar, sizlar, masxarabozga yordam beringlar-chi. (Ter to'kib sochsang urug', yer seni qo'ymas quruq.) Ma'nosini so'rayman (agar hammamiz ter to'kib mehnat qilsak, ya'ni ko'p o'qisak, kelajagimiz sermazzmun va porloq bo'ladi).

Shundan keyin bolalarni ayiqcha kutib oladi. U so'zlarni oldingi qatordan keyingi qatorga ko'chirishda qaysi qatordagi javob to'g'ri ekanligini bilmochi:

Az-iz, o-na, ik-ki.

Ki-tob, va-zi-fa, nutq.

Mashq, da-raxt, re-ja.

O'qituvchi: — Bolalar, ayiqchaga yordam beringlar. (Uchinchi qatordagi so'zlar to'g'ri ko'chirilgan.) So'ngra bolalarning qarshisiga tulen chiqadi. U ham bolalar uchun vazifa tayyorlagan:

a) Bolalar qushlarni seving! b) Qushlarning yoqimli ovozi eshitildi. d) Qushlar kuzda qayerga uchib ketadi?

Qaysi qatordagi gap undov gap? (a qatordagi gap).

O'qituvchi: — Barakalla, siz eng aqlli, eng ahil, ona tilini yaxshi biladigan bolalar ekansizlar. Sirkdagi artistlar bolalar bilan xayrlashadi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. *И.А. Каримов*. Гармонично развитое поколение — основы прогресса Узбекистана. Т., 1997.
2. *И.А. Каримов*. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. Т., «O'zbekiston», 1999.
3. *Ш.К. Амоношвили*. Каждому ребенку — индивидуальный подход. Воспитание основы. («Начальная школа», 1991).
4. *Л.Н. Бухарева*. Интеграция учебных занятий в начальной школе на краеведческой основе. («Начальная школа», 1991, № 8).
5. *В.В. Давидов*. Обобщающие обучение. М., «Просвещение», 1980.
6. *Л.В. Занков*. Усвоение и развитие младших школьников. М., «Просвещение», 1965.
7. *Р.А. Mavlonova va boshq.* «Boshlang'ich ta'limning integratsiyalashgan pedagogikasi». Т., TDPU, 2007.
8. *Р.А. Мавлянова*. Обучение в 1-ом классе. Пособие для учителей в начальных школах. Т., «Ўқитувчи», 1984.
9. *Р. Карплал*. Естественно научные дисциплины в начальной школе. («Перспективы», 1982, № 1—2).
10. *Л. Л. Калягин, О. Л. Алексинка*. Интеграция школьного обучения. («Начальная школа», 1990, № 9.)
11. *Л.Л. Кузмин, С.В. Зырина, О.В. Малгорова*. Проверочные задания по темам «Растения весной», «Насекомые и птицы весной». М., «Просвещение», 1991.

MUNDARIJA

So'zboshi	3
-----------------	---

Integratsiya kursi va vazifasi

1. Integrativ ta'limning sinflarga bo'linishi	5
2. Fanni o'qitishdagi integratsiya asosidagi ta'lim falsafasi	9
3. Ta'lim jarayonini integratsiyalashning nazariy asoslari	13
4. Integratsiyaning hozirgi zamon muammolari	18
5. Boshlang'ich maktabni integratsiya qilish	24
6. Integratsiyalangan darslarning samaradorligini oshirishi omillari	25
7. Pedagogika tizimini muvofiqlashtirish	28
8. Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti tahlili	34
9. Umumta'lim maktablarida integratsiyaning mavjudligi	41
10. Psixologiya va ta'lim samarasi	44
11. Integratsiya — ta'lim jarayonini qulaylashtirishning muhim prinsipi	47
12. Bo'lajak o'qituvchilarning psixologik-pedagogik bilimlarini integratsiyalash jarayoni	51
13. «Pedagogika» va «Umumiy psixologiya» fanlarini integrallash	57
14. Boshlang'ich maktabda integratsiyalashgan ta'limdan foydalanishning metodik xususiyatlari	64
15. Matematika darsida integratsiya	99
16. 1-sinf uchun integratsiyalashgan usulda ochiq dars ishlanmasi (o'qish, matematika, rasm)	103
17. Iqtisodiyotning boshlang'ich sinflarda o'rganiladigan boshqa fanlar bilan aloqasi	106
18. 3-sinfda matematika, tabiatshunoslik bo'yicha integratsiyalashgan dars	112
19. Tabiiy-ilmiy ta'limda integrativ yondashuv	117
20. Iqtisodiyotning ekologiya bilan integratsiyalashuvi	120

Namunaviy tadbir va dars ishlanmalari

1-sinf uchun integratsiyalashgan usulda ochiq darsi ishlanmasi (o'qish, yozuv, tabiat, matematika)	124
1-sinf uchun integratsiyalashgan usulda ochiq darsi ishlanmasi (matematika, o'qish, atrofimizdagi olam)	126
«Odobnoma» fanidan integratsiyalashgan dars ishlanmasi	129
1-sinf «O'qish» fanidan integratsiyalashgan 1 soatli dars ishlanmasi	131
3-sinf uchun «Tabiatshunoslik» fanidan «Ekologiya» mavzusida 1 soatli dars ishlanmasi (o'qish, ona tili, matematika)	134
«Kim bo'lsam ekan?» mavzusidagi 1 soatli dars ishlanmasi	136

«Qadimiy va navqiron Toshkentim!» tadbiri ishlanmasi	143
4-sinf uchun «Ona tili» fanidan «Mustaqillik maydonida» va «Temuriylar tarixi muzeyida» mavzusidagi integratsion sayohat dars ishlanmasi	147
4-sinf uchun «Ona tili» fanidan «Soʻz turkumlari» mavzusidagi 1 soatli dars ishlanmasi	150
2-sinf uchun «Ona tili» fanidan «Ot haqida tushuncha» mavzusidagi 1 soatli dars ishlanmasi	152
2-sinf uchun «Oʻqish» fanidan «Qishda» mavzusidagi 1 soatli dars ishlanmasi	154
3-sinf uchun «Oʻqish» fanidan «Yer sevarni — el sevar» mavzusidagi 1 soatli dars ishlanmasi	157
2-sinf uchun «Matematika» fanidan «Misol va masalalar yechish» mavzusidagi 1 soatli dars ishlanmasi	159
2-sinf uchun «Matematika» fanidan «Ertak-dars» mavzusidagi 1 soatli dars ishlanmasi	162
3-sinf uchun «Matematika» fanidan «Qoldiqli boʻlish» mavzusidagi 1 soatli dars ishlanmasi	165
Matematika va tabiatshunoslik boʻyicha integrallashgan dars ishlanmasi. «Zumrad shaharcha»ga sayohat	169
Matematika va tabiatshunoslik boʻyicha integrallashgan dars ishlanmasi	172
«Sayohat dars» integratsiyalashgan dars ishlanmasi	175
«Matematika» fanidan «Oʻtilganlarni takrorlash» mavzusidagi integrallashgan dars ishlanmasi	177
Matematik bilimlar integratsiyasi	181
Matematika fanidan «Ikki xonali songa boʻlish» mavzusidagi 1 soatli dars ishlanmasi	182
Boshlangʻich sinflarda oʻqitishning interaktiv usullaridan foydalanish	183
«Oʻzaro diktant»	184

Oʻyinlar

«Bozorda» oʻyini	187
«Sirkda» oʻyini	187
Foydalanilgan adabiyotlar	189